# IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**





**2024-yil, 4-5-aprel**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

# “IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI”

**MAVZUSIDAGI**
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**
**TO‘PLAMI**

**2024-yil, 4-5-aprel**

**SAMARQAND-2024**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-187-son qarorning 4-ilovasi 19-bandining ijrosini taʼminlash maqsadida 2024-yil 4-5-aprel kunlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport”, “Oʻzbek, rus tili va adabiyoti” hamda “Xorijiy tillar” kafedralari tomonidan **“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari oʻrni”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi oʻtkazildi. Mazkur toʻplamga ushbu konferensiyada ishtirok etgan professor-oʻqituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar hamda talabalar tomonidan taqdim etilgan materiallar kiritilgan. Samarqand, 2024-yil.

**Tahrir hayʼati aʼzolari:**

SamDVMChBU rektori, b.f.d., professor X.B.Yunusov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor v.v.b., PhD O.Achilov, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent N.Narziyeva, “Oʻzbek, rus tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri S.Ulliyeva, “Xorijiy tillar” kafedrasi mudiri Gʻ.Nizamov.

**Toʻplamni nashrga tayyorlovchi:** “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi oʻqituvchisi, f.f.b.f.d. (Phd) M.Sattorov

Toʻplamga kiritilgan materialdagi maʼlumotlar toʻgʻriligi uchun mualliflar masʼul hisoblanadi.

**Tahrir hayʼati.**

# 1 - SHO‘BA. YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O‘RNI

# VETERINARIYA FANLARINI O‘QITISHDA O‘QITISH METODLARINI MUTAXASSISLIK FANLARIDAN DARS O‘TISHGA MOSLASHTIRISH

**Narziyeva N.N.**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)
**Email:** nargizanarziyeva09@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada veterinariya sohasida veterinariya fanlarini o‘qitishda o‘qitish metodlarini mutaxassislik fanlaridan dars o‘tishga moslashtirishda interfaol usullarni qo‘llash amaliyoti, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o‘rni, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” dars mashg‘ulotlarini o‘tkazishda bir necha usullardan unumli foydalanishning mazmun-mohiyati, “Hamkorlikda o‘qitish”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Munozara” kabi metodlarning qo‘llash amaliyoti, o‘qitish metodlarining umumiy tavsifi va uning didaktik imkoniyatlari atroflicha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar (Keywords):** mutaxassis, o‘qitish metodlari, mutaxassislik fanlari, interfaol usullar, ta’lim sifati, ichki yuqumsiz kasalliklar, hamkorlikda o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash, munozarani qo‘llash amaliyoti, didaktik imkoniyatlar.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korruptsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilganmutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yichaaniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqarostandartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qarorqabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarininamoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarurshart-sharoit yaratish belgilangan.

**Materiallar va usullar.** Turli tuman omillarning dars o‘tish metodini tanlashdagi o‘rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo‘lsak, ko‘pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o‘rinda ta’limning maqsadi turadi. Aynan dars o‘tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo‘lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o‘rinda ta’limning motivatsiya darajasi turadi.

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to‘plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan, undaydigan tuyg‘u. Insonni o‘qishga o‘rganishga ham ana shu tuyg‘u undaydi. O‘qituvchi dars o‘tish metodini tanlar ekan, albatta, o‘quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e’tibor berish kerak.

Talabalarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin turnir, musobaqa shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. O‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e’tibor o‘zaro munosabatning rivojlanishini o‘rganishga qaratiladi, o‘qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o‘rganib, ta’lim jarayonidagi o‘qituvchining talabalar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o‘quv materialini o‘zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta’kidlagan edi. O‘zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o‘zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o‘qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir.

Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati o‘qituvchi va talaba munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o‘zlashtirish ob’ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta’minlaydi.

Talabalarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi;

o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi munosbatda esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. faoliyatga kirish;
2. mustaqil harakatlar o‘qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradilar;
3. o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi;
4. taqlid harakatlari o‘qituvchidan ibrat olgan talaba ana shu namuna asosida harakat qiladi);
5. madad harakatlari o‘qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6. o‘zini-o‘zi boshqarish harakatlari o‘qituvchi umumiy maqsadni ko‘rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7. o‘zini -o‘zi ko‘rsatuvchi harakatlar;
8. o‘zini-o‘zi uyushtiruvchi harakatlar. Interaktivlik – o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri.

Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o‘tish jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish harakatini baholashdan o‘z-o‘zini baholash darajasiga ko‘tarilishi sodir bo‘ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o‘taydi.

Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi 1987-yili Minnesota universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Guruh

talabalari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim boʻlgan topshiriqni maʼlum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning toʻliq bajarilish natijasida oʻquv materialining yaxlit oʻzlashtirilishiga erishiladi.

Mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, talabalarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bagʻishlanadi. Erkin fikrlash darslaridan koʻzda tutilgan maqsad:

1. Talabalarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.

2. Talabalarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga boʻlgan qiziqishlarini orttirish.

3. Talabalarning avval oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qoʻllash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati quyidagi masalalarni toʻgʻri hal etishga bogʻliq: talabalarning darsga qizgʻin tayyorgarlik koʻrishiga; ular oʻrtasida oʻzaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga; talabalarning oʻz fikr-mulohazalarini toʻliq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga; talabalarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash koʻnikmalarining hosil qilinganligiga; oʻqituvchining iqtidori, eʼtiqodi, talabalarning bilim faoliyatini faollashtira olish koʻnikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bogʻliq boʻladi.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi aynan mutaxassislik fanlarini oʻrganishda juda qulay usuldir. Ushbu metod 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda koʻproq talabalarning mustaqil va ijobiy ishiga eʼtibor qaratiladi. Talabalar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda oʻrganish lozim boʻlgan oʻquv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir talabaga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir talaba umumiy topshiriqning bajarilishiga oʻz hissasini qoʻshadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan muzokara oʻtkaziladi. Guruh aʼzolari birgalikda maʼruza tayyorlaydi va guruh talabalari oʻrtasida oʻz ijodiy izlanishlari natijasini eʼlon qiladi. Kichik guruhlar oʻrtasida oʻtkazilgan oʻquv bahsi, munozara talabalar jamoasining hamkorlikda bajarilgan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni hisoblanadi. Hamkorlikda ishash natijasida qoʻlga kiritilgan muvaffaqiyatlar guruh jamoasidagi har bir talabaning muntazam va faol aqliy mehnat qilishga, kichik guruhlarni, umuman guruh jamoasini jipslashtirishga, avval oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda qoʻllanib, yangi bilimlarning oʻzlashtirilishiga bogʻliq boʻladi.

**Natijalar boʻlimi.** “Ichki yuqumsiz kasalliklar” fanini “Qishloq xoʻjalik hayvonlari nafas tizim kasalliklari”mavzusini“Kichik guruhlarda ishlash” metodi orqali oʻrganamiz. Bu metod - taʼlim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda oʻquv materialini oʻrganish yoki berilgan topshiriqni

bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi. Kichik guruhlar shakllantiriladi mavzu yoritiladi

- 1-guruhga topshiriq
- 2-guruhga topshiriq
- 3-guruhga topshiriq
- 4-guruhga topshiriq
- ko‘rsatma berish va yo‘naltirish
- muhokama va tahlil qilish

1-guruhga taqdimoti - Nafas a’zolariga burun, burun yo‘llari, yuqori jag‘ va peshona bo‘shliqlari, otlarda havo xaltachasi, hiqildoq, kekirdak, bronxlar, o‘pka va plevra kiradi. Bu tizimning asosiy vazifasi to‘qimalarni kislorod bilan ta’minlash hamda ularda hosil bo‘lgan karbonat angidridni tashqariga chiqarib yuborishdan iborat.

2-guruhga taqdimoti- Nafas tizimining kasalliklari oqibatida asab, Yurak va qon tomirlar, ovqat hazm qilish va ayirish tizimlarining funksiyalari ham izdan chiqadi.

3-guruhga taqdimoti- Nafas tizimi kasalliklari yuqumsiz kasalliklar orasida katta salmoqqa ega bo‘lib, qo‘ylarning o‘rtacha 27 %, cho‘chqalarning 17 % va qoramollarning 11% kasalliklari ushbu tizim kasalliklariga to‘g‘ri keladi va katta iqtisodiy zararga sabab bo‘ladi.

4-guruhga taqdimoti - Nafas tizimining kasalliklari yuqori nafas yo‘llari (burundan qon ketishi,rinit, gaymorit, frontit, laringit, traxeit, bronxit) hamda o‘pka va plevra (bronxopnevmoniya, krupoz pnevmoniya, plevrit, pnevmotoraks, gidrotoraks, emfizema) kasalliklariga bo‘linadi.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi: o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi; muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi; vaqtni tejash imkoniyati mavjud; barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi; o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari: ba’zi kichik

guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor; barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi; guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin; guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**Xulosa**. Yuqorida qayd etilgan metodlarning o‘ziga xosxususiyati, maqsad va vazifalarining umumiyligi, talabalarning tahsil olish va muloqotdagi shaxsiy mas’ulyatini taqozo etishi, shuningdek, muvaffaqiyat qozonishga bir xil imkoniyatlarning mavjudligidir. Hamkorlikda o‘qitish negizida musobaqa emas, balki hamkorlikda aqliy mehnat qilib, tahsil olish jarayoni yotadi. O‘qituvchi ta’lim jarayonida hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradi: qaysi mavzularni hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘rganishni aniqlaydi va mazkur dasrlarni taqvim-rejada belgilaydi; ushbu mavzu bo‘yicha talabalarga tavsiya etiladigan o‘quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar tayyorlaydi; hamkorlikda o‘qitish metodidan foydalanib o‘tiladigan darsturi, dars strukturasi va borishni loyihalashtiradi; yangi mavzu yuzasidan talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savol-topshiriqlarini tuzadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2008
2. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya.2007
3. Туракулов О.Х., Турматов Ж.Р. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик компетенциясини шакллантириш методикаси //ЎзМУ хабарлари. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университет илмий журнали. -Тошкент, 2018 йил. №3. 14-18 б.
4. Нарзиева, Н. Н. (2019). Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш: пед. фан...(PhD) дисс.
5. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
6. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022). Formation of Students' Research Skills in the Process of English Lessons. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *8*, 141-143.
7. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022, March). DEVELOPING RESEARCH SKILLS ON THE BASIS OF COMPETENT APPROACH TO STUDENTS IN AN INTEGRATED LEARNING CONDITION. In *E Conference Zone* (pp. 151-154).
8. Norkuzievna, N. N. (2022). Development Of Research Competences Of Future Veterinary Specialists In The Process Of Lessons. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *15*, 41-43.

# «НУЛЕВОЙ» ПЕРЕВОД РЕАЛИЙ (ПО РОМАНАМ С. ШЕЛДОНА)

**Вековищева С.Н.**
Московский государственный областной университет, Москва, Россия

Понятие нулевого перевода в теоретических источниках получает различное толкование и различные оценки переводоведов и переводчиков-практиков [2, с. 65–70]. Отсутствие однозначности в этом вопросе вызывает интерес к проблеме нулевого перевода у широкого круга лингвистов и побуждает к рассмотрению изъятия как приема перевода при межъязыковой и межкультурной передаче реалий (в рамках художественного перевода [11]), предпринятого в настоящей статье.

В результате сопоставительного анализа романов С. Шелдона и их переводов на русский язык выявлены примеры отказа от передачи реалий, составляющие 19 % от всех приемов передачи национально маркированной лексики [4, с. 28–36]. Границы адекватности [7, с. 24; 3, с. 158] в настоящий момент не получили количественного выражения, а качественные показатели избыточности и недостаточности [7, с. 9, 12–17, 20–24] (как полярных явлений при передаче реалий), несмотря на продолжительную историю исследования, в силу относительности и субъективности не могут быть точным отражением успешности перевода и формируют условия для множественности переводческих решений [9].

Мы считаем, что изъятие реалий из контекста представляется недопустимым в силу их особой коммуникативной роли в художественном произведении. Изъятие реалии не только обедняет текст, лишая его национально-культурной специфики (хранимой в денотате и коннотате реалии), но и нарушает авторский замысел по созданию специального колорита: этнографического, временного, географического и др. В связи с этим отказ от передачи реалии в ПТ рассматривается здесь как ситуация коммуникативной неудачи.

Следует отметить, что коммуникативные неудачи, выявленные в ходе анализа фактического материала, бывают двух видов. Мы различаем явные и неявные неудачи в зависимости от воздействия, производимого на читателя ПТ и степени недостаточности в полученном ПТ [10; 8, с. 20–40].

В большинстве случаев, демонстрирующих отказ от передачи реалии, получатель ПТ не осознает неточности и неэффективности переводческого решения. Такое искажение первоначального содержания и авторского замысла может быть выявлено только в результате сопоставительного анализа. Этот вид считаем неявной неудачей.

Самые серьезные последствия вызвал отказ от передачи реалии в следующем контексте: That lived alone in a small three-bedroom Georgian house on Kimbark Avenue in Hyde Park. The area was surrounded by beautiful old homes, because **the great fire of 1871** that razed Chicago had whimsically spared the Hyde

Pare district [14, с. 30]. – ‘Теперь он жил один в маленьком домике с тремя спальнями на Кимбарк-авеню в Гайд-парке. Дома там сохранились с прошлого века’ [12, с. 34].

Здесь изъятие реалии повлекло за собой существенное преобразование контекста, изъятие целого предложения из сложносочиненного комплекса. Примечательно, что в самом авторском тексте представлена фоновая информация. Это служит дополнительным основанием для обязательной передачи этой реалии в ПТ. Уточнить значение помог бы дополнительный комментарий в виде сноски. Теперь он жил один в маленьком домике с тремя спальнями на Кимбарк-авеню в Гайд-парке. Район Гайд-парка каким-то чудом пощадил **великий пожар 1871** года, так что дома там сохранились с прошлого века. Во время Великого Чикагского пожара 1871 г было уничтожено 18000 домов, выгорело почти 2/3 Чикаго. Эта информация изложена в лингвострановедческом словаре [5, с. 177]. При таком подходе авторский замысел по созданию особого коммуникативного эффекта был бы успешно осуществлен в ПТ.

Этнографические особенности жизни в США и особенности специфического культурного фона США исчезают из контекста вместе с изъятием реалии. Так, например, в результате удаления реалии из следующего контекста исчезает национальное своеобразие: To work, to hunt, to watch television, to attend school socials, choirpractice, meetings of **the 4-h Club** [15, с. 15]. – ‘С них хватало работы, охоты, телевизора, школьных праздников, хора’ [13, с. 19]. Перечисленные досуговые мероприятия не несут на себе печать принадлежности к определенному социуму. Это в равной степени могло бы описывать времяпрепровождение во Франции, Испании, России, Канаде, свойственное и другим национальным обществам. Именно присутствие реалии в ИТ маркирует информацию как американскую. Необходимость ее передачи очевидна.

Lester was in his late forties, a lanky, sallow-faced man with a Tom Selleck mustache and long sideburns [15, с. 77]. – ‘Лестеру было далеко за 40, долговязый, с нездоровым желтоватым цветом лица, он носил усы и длинные бакенбарды’ [13, с. 81]. В этом примере не передана ономастическая реалия, культурно-исторический антропоним. Имя популярного актера конкретизирует понятие, т.к. указывает на определенную форму усов. Кроме того, оно маркировано как элемент культурного опыта нации. Его перевод на русский язык необходим в связи с его прагматической функцией в контексте (созданием этнографического колорита). С точки зрения теории перевода, возможны два варианта передачи этой реалии: описательный перевод (Лестеру было далеко за 40, долговязый, с нездоровым желтоватым цветом лица, он носил пышные подкрученные усы и длинные бакенбарды) и комплексный метод с использованием транслитерации и комментария (Лестеру было далеко за 40, долговязый, с нездоровым желтоватым цветом лица, он носил усы пышные подкрученные как у **Тома Селлека** и длинные бакенбарды).

She returned from two weeks of treatment at **the Wesley Medical Center** in **Wichita** [14, с. 17]. – 'Она вернулась после двухнедельного курса лечения' [12, с. 20]. В этом контексте изъяты две реалии: этнографическая (название лечебного учреждения) и ономастическая (топоним), – не представляющие задачи повышенной переводческой сложности. При таком обращении с ИТ не только утрачен этнографический колорит, но потеряна конкретность содержания. Таким образом стирается национальная канва изображаемых событий и обедняется денотативное содержание.

They ordered two steaks medium rare, baked potatoes, French fries, fried onions, succotash, side dishes of macaroni and hominy, salad with **Thousand Islands dressing**, cinnamon rolls, apple pie and ice cream, and coffee [15, с. 67]. – 'Они заказали 2 бифштекса с печеной картошкой, жареную картошку и лук, кукурузу с бобами, макароны, мамалыгу, салат, сладкие булочки, яблочный пирог с мороженым и кофе' [13, с. 71]. В данном случае в ПТ отсутствует этнографическая бытовая реалия, именующая пищу. Не передано значение реалии Thousand Islands dressing – соус "Таузенд айленд", товарный знак салатного соуса фирмы "Крафт фуд" корпорации "Филипп Моррис" [1, с. 968].

The handsome white house, standing on an ample lawn of groomed **Bermuda grass** [15, с. 19]. – 'Красивый белый домик на ухоженной золотой лужайке' [13, с. 23]. Здесь не передана географическая реалия, изъятие которой обесценивает контекст. В ИТ местный колорит создается за счет заложенного в реалии топонима, в ПТ этот колорит утрачен, авторский замысел оказывается нереализованным. Для передачи местного колорита следует сохранить реалию в ПТ: Красивый белый домик на ухоженной золотой лужайке с бермудским газоном (или бермудской газонной травой).

Предшествующий анализ изолированного и комплексного подходов позволил выявить ряд случаев неэффективной передачи реалий, граничащих с их изъятием из ПТ. К таким случаям отнесены примеры, наиболее ярко иллюстрирующие уникальные (отличительные, не имеющие аналогов) традиции США. Читатель, сталкиваясь с такой ситуацией и не имея необходимой фоновой информации, испытывает некоторое сомнение или недоумение по поводу того, что имел ввиду автор романа. Ситуация коммуникативной неудачи здесь осознается получателем ПТ, испытывающим необходимость в пополнении информационного запаса. Такие примеры мы считаем явной коммуникативной неудачей, свидетельствующей о недостаточной переводческой компетенции языкового посредника [6, с. 17–22].

Например: They made her feel it was a stigma. Now I know what I should have worn, Tracy thought. **A scarlet letter** [Sheldon S. 1996, p.9]. – 'Они быстро сориентировались и поставили нужные акценты. Теперь-то я знаю, что должна носить, подумала Трейси. **Алое клеймо**'… [Шелдон. 2006, с.12]. Здесь реалия, переданная с помощью калькирования, не раскрывается в содержательном аспекте. Лишь при повторном прочтении контекста возникает некоторая догадка о значении реалии, однако при этом нарушается целостность

восприятия текста. Устранить этот недостаток могла бы дополнительная фоновая информация, которая сгладила бы межкультурные различия: специальный знак, нашивка в виде алой буквы, который должны были по решению суда носить женщины, уличенные в разврате [5, с. 445]. Как альтернатива может рассматриваться описательный прием, позволяющий передать коннотацию и сохранить национальный колорит: Они быстро сориентировались и поставили нужные акценты. Теперь-то я знаю, что должна носить, подумала Трейси. **Алую букву, как блудница**….

Аналогичный недостаток отмечен и в следующем примере: The dean had presented her with a **Phi Beta Kappa key** [15, с. 30]. – ‘Декан наградил ее **ключом Фи Бета Каппа**’ [13, с. 34]. Представляется необходимым не только раскрыть денотативное значение реалии в виде комментария общепризнанный знак отличной успеваемости и заслуг в области искусства; буквы фи бета и каппа обозначают дружба, нравственность, образование (греч.) [5, с. 362], но и передать часть коннотативного содержания в самом ПТ: За особые успехи в учебе декан наградил ее **ключом Фи Бета Каппа** или Декан наградил ее **ключом Фи Бета Каппа** как лучшую студентку.

Итак, изъятие реалий из ПТ приводит к искажению смысла или недостаточной передаче [9, с. 17–22] всей полноты информации, заложенной в значении реалии. Отказ от передачи реалий обедняет текст, лишая его признаков культурной и национальной соотнесенности, не позволяет осуществить в ПТ замысел автора в полном объеме.

**Список литературы:**

1. Американа: англо-русский страноведческий словарь. Под ред. Г.В. Чернова. Смоленск: Полиграмма. 1996. 1185 с.
2. Мазирка И.О., Хухуни Г.Т. К вопросу о так называемом «нулевом переводе» // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. 2015. № 1. С. 65-70.
3. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. М.: Флинта: Наука, 2003. 320 с.
4. Ощепкова В.В. Вариативная англоязычная картина мира в лексикографических источниках // Вестник Московского государственного областного университета. Серия Лингвистика, 2010. № 6. С. 28–36.
5. Томахин Г.Д. Реалии-американизмы. М.: Высшая школа, 1988. 239 с.
6. Филиппова И.Н. Вербальная недостаточность и переводческая компетенция // Научное мнение. 2012. № 4. С. 17–22.
7. Филиппова И.Н. Избыточность и недостаточность в одноязычной и двуязычной коммуникации (на материале немецкого и русского языков): автореф. дис. ... д-ра филол.наук. М., 2015. 45 с.
8. Филиппова И.Н. Опыт комплексной классификации вербальной недостаточности // Проблемы теории языка и переводоведения. 2013. Вып. 40.

С. 20–40.

9. Филиппова И.Н. Трансцендентальный характер перевода // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 2. [Электронный ресурс]. URL: http://www.science-education.ru/116-12025 (дата обращения: 11.02.2014).

10. Филиппова И.Н. Уникальное и универсальное в недостаточности (на материале русского и немецкого языков) // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 1. [Электронный ресурс]. URL: http://www.science-education.ru/115-11848 (дата обращения: 03.09.2014).

11. Хухуни Г.Т. Межкультурная адаптация художественного текста. М.: Прометей, 2003. 171 с.

12. Шелдон С. Если наступит завтра: [роман] / Сидни Шелдон; пер. с англ. А.А. Соколова. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2005. – 459 с.

13. Шелдон С. Утро, день, ночь: [роман] / Сидни Шелдон; пер. с англ. Ю.Г. Кирьяка. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2006. – 348 с.

14. Sheldon S. If tomorrow comes. New York: Harper Collins, 1995. 592 p.

15. Sheldon S. Morning, noon & night. New York, Boston: Warner books, 1996. 400 p.

+ добавлю :

1. Вековищева С.Н., Иванова Н.А., Улиткин И.А. Соотношение понятий «дух народа» и «язык» в работах В. Фон Гумбольдта // Вельгельм фон Гумбольдт и его наследие: классика и современность. 2017. С. 42-46

2. Вековищева С.Н., Хухуни Г.Т. автор и текст (к столетию со дня смерти Фердинанда де Соссюра) // Вестник Московского государственного областного университета. Сер.: Лингвистика. 2012. № 5. С. 10-15

3. Вековищева С.Н. Лингвокультурологические взаимоотношения в ситуации двуязычного общения // Перевод и когнитология в XXI веке. 2011. С. 82-85

4. Вековищева С.Н. Комплексное использование приемов перевода при передаче реалий (по переводам романов С.Шелдона) // Перевод и когнитология в XXI веке. 2016. С. 4-11

5. Вековищева С.Н., Синькова И.А., Коротаева И.Э. Различные подходы к изучению композиции художественного текста // Значимые личности в языке и культуре: к юбилею со дня рождения Ю.М. Лотмана. 2017 с. 34-38

**UDK: 371.044.4:378.4:297**

# TALABA YOSHLARNING TA’LIM VA TARBIYASIDA HADISLARNING AHAMIYATI.

**Ro‘ziqulov R.F.**
Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti - o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, professor v.b.

**Annotatsiya.**Talabayoshlarning ta’lim-tarbiyasida foydalanish uchun hadisshunos (muhaddis) olimlarning odob-axloq, insoniylik mavzusidagi ibratli fikrlari va hadis ilmining ilmiy-ma’naviy asoslari o‘rganildi.

**Kalit so‘zlar:**Islom dini, Qur’oni Karim, Hadis ilmi, hadisshunos (muhaddis) olimlar, ilm, ta’lim, tarbiya, odob, axloq.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchik va osoyishtalik, dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida hayotimizning turli jabhalarida tarixiy ahamiyatga molik ko‘plab o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldik.

Ayniqsa boy tariximiz, qimmatli ma’naviy qadriyatlarimiz, uzoq o‘tmishda yashab olamshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalarimizning nomlarini tiklashdek salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Kelajak - bugundan boshlanadi. Hozir ta’lim va tarbiya masalasiga etibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Ma’naviy va ahloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-muhabbat kabi chinakkam insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi.

Hammasining zaminida **ta’lim va tarbiya yotadi**.

Bugungi kunda Islom dini, Qur’oni Karim, Hadis ilmining ilmiy-ma’naviy asoslaridan, odob-axloq, insoniylik mavzusidagi ibratli fikrlaridan talaba yoshlarning ta’lim va tarbiyasida foydalanish katta ahamiyatga egadir.

**Mavzuning mazmun-mohiyati.** Har bir ota-ona o‘z farzandini kelajakda odobli, ahloqli, xalq uchun, jamiyat uchun halol, vijdonan mehnat qiladigan inson bo‘lib yetishishini orzu qiladi, olim bo‘lmasa ham, odam bo‘lsin deydi.

O‘zbek xalq maqollarida **“bolani yoshligidan o‘rgat, otni boshidan”** degan chiroyli bir ibora bor. Buning uchun ota-ona o‘z farzandining bugunini emas, uning ertasi, kelajagini o‘ylab, tarbiyasi va ta’lim olishini to‘g‘ri tashkil qilish lozim.

Qadimda ota-onalarimiz bola tarbiyasida “savob” va “gunoh” iborasidan keng foydalanib kelishgan. Bolalarni savob bilan gunoh ishni ajrata bilishga o‘rgatishgan. Odamzodning o‘ng yelkasida o‘tirgan farishta savob ishlarni, chap yelkasidagi farishta gunoh ishlarni taroziga solib turganini, qaysi pallasi og‘ir kelsa, shunga qarab qiyomatda jazo berishlarini qariyalarimiz ko‘p gapirishadi.

Balki, bu gaplar bola tarbiyasi uchun qoʻllanilgan bir usuldir. Yaxshi bilan yomonni, savob bilan gunohni ajrata bilishni, faqat savob ishlar qilishni oʻrgatadigan bundan ortiq biron bir usul topish qiyin boʻlsa kerak...

Bugungi kunda turli diniy ta’limotlarni oʻrganish, tadqiq etish, bu umri boqiy sarchashmalardan baxramand boʻlishga intilish ma’naviy zaruratga aylanib bormoqda.

Qur’on va hadislar islomning asosiy manbalari boʻlishi bilan birga, musulmonlar hayotini tashkil etish uchun muhim qoʻllanma hisoblanadi.

**Qur’oni karim** – Islom dininig birlamchi muqaddas manbasi, 23 yil mobaynida Muhammad (alayhissalom)ga Jabroil farishta orqali ba’zan oyat-oyat, ba’zan esa toʻliq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.

**Hadis – (arab. “yangi”, “soʻz”).** Islom dininig Qur’ondan soʻng muqaddas manbasi boʻlib,MuhammadPaygʻambar (alayhissalom)ning aytgan soʻzlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

Hadislar Qur’on suralarida belgilab berilgan kundalik turmush bilan bogʻliq huquqiy va axloqiy me’yorlar, marosimlar va urf-odatlarni nasihat, koʻrsatma, yoʻllanma tarzida xalq ongiga singdirishning ta’sirchan vositasidir.

Hadislar Sharq xalqlarining qimmatli ma’naviy qadriyati boʻlib, u VII asrda muhim ilmiy yoʻnalish sifatida paydo boʻldi. Ularni toʻplash, kitobatga keltirish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini xalqqa targʻib etuvchi hadisshunos (muhaddis) olimlar paydo boʻldi.

Paygʻambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassalomning ezgu gʻoyalari va niyatlarini ifoda etuvchi hadislar yoshlarni shubhasiz, mangu hayot falsafasiga oshno etadi, imonli va pokdomon boʻlishga, haqiqat va adolat tantanasi uchun kurashish, jaholat va qabihli yoʻlni toʻsishga undaydi.

**Tarbiyaning eng ogʻir, mashaqqatli vaqti** –dastlabki, ya’ni tarbiyaning ona qoʻliga topshirilgan vaqtidir. Odam bolasining turmush maydonida egallagan sifatlarining barchasini ona qoʻynida berilgan tarbiyaning ozigʻi deb bilmoq kerak.

Dunyoda ham, oxiratda ham tinchlik tilagan kishi butun ogʻirliklarini koʻtargan, yuragiga millat va turmush urugʻini sochgan onasining rizoligini olishi, uni qattiq xurmat qilmogʻi lozim.

Shuning uchun ham hadislarda bu mavzuga alohida toʻxtalib: “Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, soʻng otangga yaxshilik qil”, “Jannat onalaringiz oyoqlari ostidadir”, “Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri boʻlmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy boʻlib olmagan farzand xor boʻlsin, xor boʻlsin va yana xor boʻlsin” yoki “Agar ota-ona birdaniga chaqirib qolishsa avval onaga javob qil!” deyiladi.

Dasturxonimiz koʻrki, ne’matlar sultoni non haqida ham hadisda alohida toʻxtatilib oʻtiladi. Zero, birgina “Nonni hurmat qilingiz” hadisi orqali Rasululloh non inson uchun turmush dunyosida zarur boʻlgan narsalarning birinchisi boʻlganligidan koʻp oʻrinda bugʻdoy ekishga, uning barakasini saqlab, xurmat qilishni buyurgan.

Hadislarda “savob” mohiyatini ochib beruvchi yana bir qancha fazilatlar mujassamlashgan.

**Tinchlik va xotirjamlik haqida:**Hadisi sharifda“Tinchlik-xotirjamlik ikki eng aziz va ulug‘ ne’matdirki, bundan ko‘p odamlar mahrumdirlar hamda buning qadriga yetishmaydilar” deya insonlarni tinchlikning qadriga yetishga, o‘zaro ahil-inoq yashashga chaqirilgan.

**Do‘stlik va insonparvarlik xaqida:** “Birodaring biror og‘ir ahvolga tushib turganda sen uning ustidan kulma. Agar kulsang Ollohi Taolo unga marhamat qilib og‘irini yengil qilishi va uning kunini sening boshingga solib qo‘yishi mumkin.”

**Tozalik va pokizalik haqida:** “Tangri pokdir, pokizalikni yaxshi ko‘radi, tozadirki, tozalikni yaxshi ko‘radi, saxiydirki, saxiylarni yaxshi ko‘radi, hovli, sahn va turar joylaringizni toza tutinglar”, “Tishlarin-gizni (misvoq bilan) tozalab yuringlar va tozalikka odat qilinglar”.

**Ma’naviy aql-idrok haqida:** “Qaysi birlaringda jahlu g‘azab qo‘zisa, darhol sukut saqlashga o‘ting!”. “Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat bil:” o‘limingdan oldin tirikligingni, betobligingdan oldin salomatligingni, bandligingdan oldin bo‘sh vaqtingni, keksaligingdan oldin, yoshligingni, faqirligingdan oldin, boyligingni g‘animat bil”.

Holbuki, bolalik davri hayotga tayyorlanish, yoshlik davri esa o‘rganish va intilish davridir. Bola tili chiqib, so‘zlasha boshlagan yoshidan e’tiboran ta’lim-tarbiya olishi, yosh avlod esa zarur bo‘lgan ilm va kasb-hunarlarni o‘rganishi, milliy va jahon madaniyati durdonalaridan boxabar bo‘lishga intilishi zarurdir.

Ma’lumki, inson butun umri mobaynida ilmga tashna va uni o‘rganadi, hayotning sir-asrorlarini  faqat ilm orqali bilib oladi.

Ilm olishga rag‘bat musulmon dunyosida juda keng targ‘ib qilinadi.

Jumladan, Qur’oni karimda “Ilm” so‘zi turli ma’nolarda 811 joyda takrorlanishi uning o‘rni qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Buyuk bobokolonimiz **Imom Buxoriy  rivoyat qilgan hadislarida:** “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” hamda “Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir” deb ta’kidlaganlar.

Muborak hadislarda: “Ilm olish har bir musulmon er va musulmon ayol kishi uchun farzdir”, “Beshikdan to lahadgacha ilm oling”, “Ilmni hattoki Xitoyda bo‘lsa ham o‘rganing”, “Ilm o‘rganish ibodat qilishdan afzaldir” yoki “Bir soat ilm o‘rganmoq, bir tun uyg‘onib ibodat qilmoqdan hayrliroqdir” deb, ta’kidlangan.

**“Ilm egallang!** Ilm saxroda do‘st, hayot yo‘llarida - tayanch, yolg‘izlik damlarida - yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda - rahbar, qayg‘uli onlarda - madadkor, odamlar orasida - zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”.

Demak, hadislar orqali doimo ilm o‘rganishga, ilmga umrni baxshida etishga da’vat qiladi.

Shunday ekan, talaba yoshlar o‘z fursatini ilmu hunar hosil qilmay, behuda sarf etsa, demak, hayotning oltin kalitini topa olmabdi va unga kelajakda kamolot darvozasi ochilmaydi.

**Xulosalar.** Biz yuqorida talaba yoshlarning ta’lim va tarbiyasi, odob va axloqiga oid hadislarning ba’zi birlaridan namunalar keltirdik xolos.

Binobarin, hadislardan oilada ota-ona, bog‘chada tarbiyachi, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi foydalansa, albatta foydadan xoli bo‘lmaydi. Zero, Payg‘ambarimiz o‘z hadislaridan birida: “Bir odam ummatim uchun mening sunnatimdan qirq hadisni yod olsa, qiyomat kunida u kishini o‘zimning shafotimga olurman” deydilar.

Bugungi kunda Hadislardan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, tarbiyaviy soatlarda foydalanish orqali biz jamiyatimizda davom etayotgan salbiy hodisalarga bir oz bo‘lsada chek qo‘yib, talaba yoshlarimizga sharqona odob-axloq me’yorlarini singdirib, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalab, qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini yanada kuchaytirishimiz mumkin.

Ma’lumki talaba yoshlarning tarbiyasida kitobni o‘rni kattadir. Chunki kitob insonni ulug‘laydigan va komillikka yetaklaydigan beqiyos manbadir.

Shu bois eng avvalo talaba yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish o‘ta muhim vazifadir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Ал-Бухорий. “Ҳадис”. (Ал-жомиъ ас-саҳиҳ - ишонарли тўплам 1,2,3,4). Қомуслар бош таҳририяти. Тошкент -1994 йил.
2. Алимов У. “Суннат ва ҳадис”. Тошкент: Sharq – 2012.
3. Тешабой Зиёев. “Юз бир ҳадис”. Тошкент: “Меҳнат” -1991 йил.
4. А.Ҳасанов, О.Юсупов, К.Шермуҳамедов, У.Ғафуров,
5. Ж.Каримов. “Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари”.“Тошкент ислом университетинашриёт-матбаа бирлашмаси”. Тошкент– 2017.
6. http: www. buxoriy.uz – Тошкент ислом институти веб-сайти.

# YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASHDA OILA, BADIIY MADANIYATNING FALSAFIY JIHATLARI

**Aliqulov Quvvat Haqnazarovich**
SamISI dots.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda Yangi avlod kadrlarini shakllantirishda oila, badiy madaniyatning falsafiy ahamiyati muammolari hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

**Аннотация:** Целью данногаисследования являются раскрытие значения семеной и художественной культуры в формировании кадров нового поколения в Узбекистане в условиях проводимых реформ.

**Abstract**: The purpose of this study is to reveal the imprortance of seed and artistic culture in the formation of a new generation of personnel in Uzbekistan in the context of ongoing reforms.

**Kalit so‘zlar:**Yangi O‘zbekiston, milliy oila, milliy ta’lim, Vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, mehr-oqibat, huquqiy asoslar, baxt va baxtiyorlik, infrastruktura, ma’naviy-axloqiy asoslar, iqtiosdiy manfaat, shaxsiyatparast, xudbin.

**Ключевые слова:** Новые Узбекистан, национальная семья, национальное воспитание, патриотизм, нравственное воспитание, доброта, правовые основы, счастье и счастье, инфраструктура, духовно-нравственные основы, экономический интрест, индивидуалистический, корыстные.

**Keywords:** New Uzbekistan, national family, National education, Patriotism, moral education, kindness, legal foundations, happiness and happiness, infrastructure, spiritual and moral foundations, economic interest, individualistic, mercenary.

**KIRISH.** Bugun biz Yangi avlod kadrlarini tayyorlashda nafaqat zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma’naviy etuklik va axloqiy yuksaklikka tayanishni ko‘p jihatdan talab qiladi. Shu masalalar bilan mushtarak bo‘lgan Ona vatanga sadoqat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirish o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydigan jarayon. Bu jarayonlarning zamirida oila, ta’lim maskanlari va shu bilan birgalikda o‘z-o‘zini boshqarish organi bo‘lmish mahallada beriladigan ta’lim-tarbiya ishlariasosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Axloqning asosiy kategariyalari bo‘lmish Vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, mehr-oqibat hamda bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmatning yuzaga kelishi isbot talab qilmaydigan ayni haqiqatdir. Bugun biz mamlakatimizda uchinchi renesans poydevorini qurishga harakat qilayotgan ekanmiz oiladagi badiy estetik qarashlarni shakllantirishga ham katta e’tibor qaratmog‘imiz zaruriyatdir. “Biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi

ishlarimizni bir zum ham susaytirmasad, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"[1]. Chunki, insonparvarlik g'oyalari asosida yaratilgan san'at asarlarini va undan ruhiy zavq olish orqali shaxs ma'naviyati ortib boradi. Turli san'at asarlari badiiy his etish madaniyatining yuzaga kelishida o'ziga xos o'rin egallaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mamlakatimizda mustaqillk davrida oila manfaatlarini ta'minlash maqsadida maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilibular o'zining istiqbolli natijalarini ko'rsatmoqda. Jumladan, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlandi, oila manfaatlarini, onalik va bolalik huquqini qonuniy jihatdan yanada muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda, oilalar sog'ligini saqlash va uning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Oilaga xizmat qiluvchi infrastruktura ayniqsa, huquqiy joylarda sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, badiiy madaniyati va manfaatlarini ta'minlash borasida bir qancha ishlar qilindi.

Bularning hammasioilani ta'minlash, uning moddiy ahvolini yaxshilash, o'sib kelayotgan avlodni bilimli qilib tarbiyalash, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida oilaning o'rni va ta`sirini kuchaytirish imkonini beradi. Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch, oilaviy tartib, ya'ni oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabati, ota-ona va boshqa katta yoshli qarindoshlarining xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti kabi omillardir. "Bola tarbiyasida ham o'zbeklarning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan, o'zoq tarix tajribasi sinovdan o'tigan ajoyib an'analari bor. Ularning axloq va odobi o'zbekona tarbiyaning mahsulidir"[2]. Xalqimizning tarbiya borasidagi etuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Bola tarbiyasi, ona va bola o'rtasidagi guzal insoniy munosabat azaldan hammani qiziqtirib kelgan. Agar har bir ona o'z bolasini asrlar bo'yi shakllangan o'zbekona qadriyatlar asosida voyaga etkazsa, bu farzand vatanparvar, ilmparvar shaxs bo'lsa, mamlakat kelajak ta'minlanadi va aksi bo'lsa ona faqat bugunning tashvishlari bilan yashasa bola bilan muloqot bo'lmasa qo'lda faqat mobil telefon bo'lsa, har bir soniyadan faqat iqtiosdiy manfaat qidirsa, u tarbiyalagan inson kelajakda faqat vatani va xalqini emas, o'zining dunyoga keltirgan onasiga ham manqurtlarcha munosabatda bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ota-onasi va yaqin qarindoshlariga past nazar bilan qaraydigan, ularning har bir harakatini qoralaydigan yosh yigit-qizlarning qayrdan paydo bo'lib qolishlari haqida ajablanib mulohaza yuritamiz. Sababaini ko'chadan, atrof muhitdan qidirib, ularga pand nasihatlar qilishga o'tamiz. Aslida bunday salbiy axloqiy sifatlarning paydo bo'lishida o'zimizning aybimiz borligini tan olishga ojizlik qilamiz yoki tan olishni istamaymiz.

Oilada biron odamning g'iybati, qaysidir odamga pand berib, nimagadir ega bo'lganimizdan maqtanishlarimiz-bularning hammasi oxir-oqibat farzandlaimizning shaxsiyatparast, xudbin, iste'molchilik kayfiyatidagi inson bo'lib o'sishiga sabab

---

[1] ShavkatMirziyoyev. Buyukkelajagimiznimardvaolijanobxalqimizbilanbirga quramiz.pdf (ziyouz.com) (17-bet)

[2] Ma`naviy yangilanish jarayonlarida etika va estetikaning dolzarb muammolari ilmiy maqolalar tuplami 1-qism Toshkent.2011 yil 185-b.

boʻlmadimikin? Eng yomoni shundaki, biz oʻz oʻgʻil-qizlarimizdagi bu xususiyatlarni avvaliga payqamaymiz, toʻgʻrirogʻi, muammoni yashirishga, qoʻni-qushnilarga, qarindoshlarga bildirmaslikka urinamiz. Oilada farzandlariga toʻgʻri tarbiya berish, ularni ona-yurtiga Vatanga fidoyilik ruhida vtarbiyalash kabi muhim ahamiyatga ega boʻlgan tarbiyaviy ishlar onalarimizga, ayollarimizga koʻp jihatdan bogʻliq. Ayollarimiz oʻz farzandlariga oila a’zolarining barchasi toʻplanmaguncha taomga qoʻl chuzmaslik, oila boshligʻini odob yuzasidan oʻrnidan turib kutib olish, ularga doim iltifot koʻrsatish kabi oʻzbekona odatlarni singdira olishlari kerak.

Yangi avlod kadrlarini tayyorlashda ta’lim sifatini oshirish bugungi kunning asosiy masalasi boʻlib turgan paytda, oila, badiy madaniyatning falsafiy ahamiyatiyoshlarimizning gʻoyaviy tarbiyasida oʻz mehnatini ayamasligi darkor. Zero, buyuk faylasuf Suqrot aytganidek, “Oʻtkir aql va teran halol fikr egasi baxtiyor insondir”[3] inson qalbiga yoʻl, avvalo, ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda fikr yuritganda bizga buyuk ma’naviy ne`matni meros qilib qoldirgan ajdodlarimizni, ularni bizning ongimiz va shuurimizga payvand etgan ota-onalarimizni va ular qatori oʻqituvchilarimizni mehnatini qadrlashimiz zarur. Axloq ma’naviyatning negizini tashkil qiladi.axloq boʻlmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat etuk axloqgina kishilarda hayotning mazmuni va hayotida oʻz-oʻzini iroda qilish meyorlarini, boshqalar bilan munosabatda boʻlish madaniyatini halol toʻgʻri turmush kechirish mezonlarini belgilaydi. Shu tufayli, ta’lim-tarbiyaning asosiy mehnati har bir shaxsda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamdir. Uzoq tariximizda oʻzbek ayollari orasida buyuk insonlar etishib chiqdi. Ularning har biri oʻzlarinin yuksak kamoloti, salohiyati iste`dodi va erkin insoniy fazilatlari bilan xalqimiz obru e`tiborini yuksaltirdi. Bibixonim, Anbar otin, Gulandonbegim, Nodirabegim, Zebuniso va boshqa ayollarimiz siymolari porloq yulduzlardek abadiyatga nur sochiib turaveradi.

XIX asrning II yarmi, XX asr boshlarida yashagan mashhur shoira Anbar otin oʻzining “Qora falsafasi” asarida oʻzbek oilalarining keljagi haqida shuday dedi; “Bir zamona boʻlurki, kamina mushtiper kabi mazlumlar oliyjanob, orzu qilgʻondan ziyoda boʻlur, tamoma mazlumlar yaxshi kun korib, yaxshi libos kiyib, tinch roʻzgʻor oʻtkazgan sabab, alarni avlodi xatarsiz tavallud oʻlib, yaxshi tandoʻst, sergʻyratu mehmondoʻst boʻlib kamoliga etar, ul zamonda barcha xalq sohibjamol boʻlur”[4].

Ushbu asarda shoira ona-bolaning ma’naviy hamda jismoniy jihatdan barkamol boʻlishi zamon imkoniyatlari bilan uygʻun ekanligini aniq bayon etgan. Turmush darajasipast, iqtisodiy jihatdan oʻta qiyinchilikda oʻsgan va tarbiyalangan ayol oʻz farzandiga onalik mehrini toʻliq oʻtkaza olmaydi. Bolaning oʻz navbatida vatanparvar, mehmondoʻst, sergʻayrat boʻlib kamolga etishi ham murakkab ijtimoiy, siyosiy,iqtisodiy munosabatlarga bogʻliqdir. Qadimgi tarixiy-madaniy yodgorlik “Avesto kitobida inson guzalligi jismoniy va ma’naviy salohiyatlar uygʻunligida tashkiltopdi. “Farzand masalasi oʻzining oʻta qat`iy qonuniyatlari bilan kishini hayratga soladi. Farzand xohoʻgʻil, xoh qiz boʻlsin ikki shaxsning oʻzaro yaqinligi

[3]Ziyaev S, Haydarov K.. O`tkir aql va teran fikr ehtiyoji. G`oyaviy himoya. Risola.-T.:San`at, 2008.-78-bet.
[4]O`zbek adabiyoti.5 tomlik.T.5.Ikkinchi kitob.-T.:G`.G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.-23b.

bilan dunyoga keldimi, endi uning qismati (hali to‘g‘limagan bo‘lsa-da) butun jamiyat zimmasidadir. Xoh er bo‘lsin, xoh ayol uning hayotiga zomin bo‘lish, qasd qilish tuban jinoyatdir”[5]. Odam bolasining baxt va baxtiyorlik haqidagi tushunchalarga “Avesto” uch ming yil avval oydinlik kiritgan. Demak, qadimgi ajdodlarimiz e`tiqodiga ko‘ra baxt qop-qop tilla va turli-tuman zebu-ziynatlar emas, balki oddiy tilda aytganimizda, ota-ona uchun farzandlar baxti ekan.

Samarqand davlat veternariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi f.f.b.f.d. (Phd)

**Annotatsiya:** Yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon bo‘lishi, oldimizda turgan vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bog‘liq. Yerni qancha qadrlab, qancha e’zozlasak, u bizga shuncha ko‘p rizq-u nasiba beraveradi. Biz yerga qanchalik mehrli, saxovatli bo‘lsak, yer ham bizga shunchalik saxovatini ko‘rsatadi. Chunki Sharqda azaldan yaxshilikka-yaxshilik bilan javob berish, elimizning muhim e’tiqodiy amallaridan biri hosoblanib kelingan.

**Kalit so‘zlar:** Aholini turmush darajasi, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat, resuslardan oqilona foydalanish, jamoatchilik nazorati, ekologik holatni sog‘lomlashtirish, dialektika, sog‘lom muhit, inson salomatligi, atrof muhit muhofazasi, chiqindilardan tozalash, utilizatsiya, noosfera, fermerlar maktabi, yangi avlod vakillari, obod diyor.

Hozirgi kunga kelib har sohada davlat, jamiyat, inson birligi tamoyilining real voqeylikka nisbatan hayotiyligini ta’minlash maqsadida, O‘zbekistonning barcha hududlarida aholimizning, turmush darajasini oshirishga doir, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, joylarda o‘z natijasini ko‘rsatib, o‘zini oqlomoqda. Aslida, inson butun umri davomida, yaxshi yashashga intiladi. Inson-o‘zining o‘sib boruvchi ehtiyojiga, ketadigan barcha narsalarni, tabiatdan oladi. Shuning uchun Respublikamizda yil-sayin aholimizning sonini oshib borishi, natijasida tabbiy resurslardan oqilona foydalanishni kun tartibiga qo‘yish bizdan amaliy ishlarni kutmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoda tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat buzuldi, jumladan O‘zbekistonda ekologik inqiroz, odamlarning turmush tarziga tasir etib, hammani tashvishga solmoqda. Insonlarning o‘sib boruvchi ehtiyojini hisobga olib, davlatimiz tabiiy resurslarni davlat muhofazasiga olib, asosiy qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizga, asosiy normalar kiritilib belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyaga kiritilgan normalar ta’sirida, bugun O‘zbekiston sharoitida, tabiat va inson munosabatini tartibga solish va tabiiy resuslardan oqilona foydalanish uchun, bir qancha qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqarilgan.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 66-moddasida. “Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini

buzmasligi kerak”.[6] [1] Konstitutsiyamizning bu moddasida belgilangan normalar, bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida, tabiat va inson munosabatini tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir. Mulkdor har qanday, mulk shakllaridan foydalanishida qonunda belgilab qo‘yilgan, normalarga qattiq rioya etishi, davlatimizda fermerlik bilan shug‘ullanuvchi ishbilarmonlar, tabiat resuslaridan oqilona foydalanishi, aniq belgilangan normalar asosida tashkil etishni, ekologik muhitga ziyon yetkazmaslik uchun nafaqat fermerlar balki har bir fuqaroga ma’lum darajada ma’suliyat yuklaydi.

Konstitutsiyamizning 68-moddasida. “Yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”.[7] [2] Konstitutsiyamizning bu moddasida, tabiat resuslarining barchasi davlat muhofazasiga, olinib ulardan foydalanishda, davlat standarti belgilab qo‘yilgan. Bu modda, har bir fuqaro o‘z holicha, tabiiy resulardan foydalanishlarida ma’lum cheklovlarni qo‘yib, shu cheklovlarni amalda ishlashi, natijasida tabiat va inson munosabatini yaxshilashga olib keladi. Bundan tashqari 2013 yil 28-dekabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risidagi qonun”[8] [3] ishlab chiqilib, fuqarolarning tabiat resuslaridan foydalanishlarini ustidan davlat nazoratini o‘rnatilganligi ham, bugun O‘zbekiston sharoitida tabiat va inson munosabatini tartibga solishda, jamoatchilik nazoratini yaxshilanganligidan dalolat beradi. Inson salomatligini ko‘zlab, tabiatni muhofaza qiluvchi ekoharakatni faoliyat olib borishi. Inson tomonidan tabiat resuslariga nisbatan munosabatni tartibga solishda muhim o‘rin egallaydi. Oliy majlisning qonunchilik platasida 15 o‘rinlik deputatlardan iborat bo‘lib, ekoharakat 2008-yilning 2-avgustida tashkil topgan. Bu harakat-jamiyatning barcha erkin va faol kuchlarini hamkorlikda ishlashga chorlay oladigan, ijtimoiy tashkilot hisoblanadi. O‘zbekistonning fuqarolariga qulay, tabiiy atrof-muhitda yashash huquqiga ega bo‘lishlari, aholi salomatligini yaxshilashga, muhofaza qilishga, tabiiy resuslarning barcha manbalaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan say-harakatlarni safarbar qilishga intiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni **“O‘zbekiston-2030”** Strategiyasida quydagi vazifalar belgilanib, tabiat va inson munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha muhim mexanizm hisoblanadi.

Strategiyada keltirilishicha “Shaharlar bosh rejalarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda “yashil maydon”larni aholining soniga mutanosib bo‘lishini ta’minlash. Atrof muhitga ta’sir xavfi yuqori daraja I-toifa dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish. Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish. Barcha davlat idoralari,

---

[6] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston. 2023.39.b
[7] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston. 2023.40.b
[8] O‘zbekiston Respublikasi qonuni. “Ekologik nazorat to‘g‘risidagi”// lex.uz.

korxonalar, ta’lim muassasalari hududlarida “yashil bog‘lari”ni tashkil etish. O‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish, cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish. O‘rmon xo‘jaliklari va milliy tabiat bog‘lari, tog‘li va cho‘l hududlari hamda suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida ekoturizm, tog‘, ov va safari turizmini joriy qilish.” [9] [4] Maqsadida muhim hisoblangan vazifalar belgilab berilgan.

**Strategiyaning** uchinchi bo‘limi. **“Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish”** deb nomlanib, bugungi kunda hayotimizda tez-tez takrorlanib turivchi, ekologik xavf-xatarlarni oldini olishda, izchil islohatlarni amalga oshirish orqali, erkin xavfsiz hududni yaratishni o‘zida ifoda etadi. Uzoq muddatga, mo‘ljallangan respublikaning suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o‘rnatish tizimini joriy qilish. “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg‘armalarning bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida, yuqori qiymatidagi loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bundan besh yil avval tuzulgan, O‘zbekistoning ekologik partiyasi, hozirgi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan ko‘zga ko‘ringan partiyalardan biriga aylandi. Ekopartiya mamlakatimizning barcha fuqarolarini, ona vatanimizning bebaho tabiiy boyliklarini, kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylashdek, oliy vazifani bajarishda faol ishtirok etishga chaqiradi. Ekopartiya o‘zining dasturiy vazifalari bilan birga, fuqarolarning ekologik ongini, o‘stirib boruvchi yangidan-yangi ma’lumotlarni o‘zining haftalik gazeta va jurnalalarida berib boradi. Ekopartiyani bunday faoliyat olib borishi esa, yosh avlodni, Ona tabiat va uning ne’matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda, muhim ahamiyat ega hisoblanadi. Bularni bari kelajakda, obod turmishimizni yanada gullab yashnashida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston o‘zining hududidagi, barcha tabiiy resuslarni, davlat muhofazasiga olib, oqilona siyosat olib bormoqda. O‘zbekiston o‘zining bundan kiyingi taraqqiyotini yanada yuksalishi uchun, tabiiy resuslardan foydalanishda kam chiqitli nanotexnologiyalarni joriy qilib, amaliyotga o‘tkazsa, tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat barqarorlashadi. Bunga quydagi misollarni keltirib o‘tamiz.

Jamiyatda atrof-muhitga ekoestetik munosabatni shakllantirish orqali, ekologik barqarorlikka erishish mumkin ekan. Masalan, Shvetsariyada foydalanib bo‘lgan choy paketini qanday qilib axlatga tashlash haqida quyidagi misolni keltirish o‘rin bo‘ladi: Paketdagi etiketkani-kartonga, paketchani-eski qog‘ozlar xaltasiga, skrepkasi-foydalanib bo‘lingan metallar xaltasiga, ipchasini esa marka yopishtirilgan chiqindi xaltasiga tashlash lozim. Bu hazildir, dersiz... ammo u Shvetsariyada hazil emas. Chiqindi uchun soliq to‘lashdan bosh tortib, axlat xaltasiga soliq markeri yopishtirmaydigan Chaqqonlar ham uchrab turadi. Ammo ularni axlat politsiyasi darhol izlab topa oladi.

Mutaxassislar zamonaviy texnologiyalar vositasida, markersiz qoldirilgan axlatni tahlil qiladi va javobgarni topadi va uni kattaroq jarimaga tortadi. Jarimalar

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘ZBEKISTON -2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”// lex.uz.

ancha katta. Yangi "Syurix" gazetasi bir kishining ishga ketayotib, avtomobil oynasidan qogʻoz xaltadagi chiqindini chetga uloqtirganini yozadi. Politsiya uni izlab topadi. Javobgarni sud qilishadi va unga jarima solishadi: axlatni tozalash va trassani yuvib-tozalash uchun 6000 Frank, qonunni buzganligi uchun 3000 Frank, sud xarajatlari uchun 530 Frank jarima solishdi. Hammasi, 9530 Frank. Shvetsariya oʻlchovlari boʻyicha bunday shafqatsiz jazoni har bir rappen hurmat bilan qabul qiladi. Mentalitet shunaqa, nima deysiz.

Oʻzbekiston oʻzining 33 yillik mustaqillik davrida, tabiat resuslaridan foydalanishning moddiy texnik bazasi shakllantirilib, kuchli mexanizm yaratish yoʻlida istiqbolli loyihalarni hoyotimizga olib kirish maqsadida, islohatlarni izchillik bilan olib borishda dadil qadamlarni tashlamoqda. Bu mexanizm oʻz yoʻlida, Oʻzbekiston sharoitida tabiat va inson oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashga katta yordam bermoqda.

Globallashuv sharoitida, dunyoning barcha mintaqalarida, ekologik inqirozni oldini olish uchun, keng koʻlamda ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tabiat ekotizimlarini muhofaza qilish boʻyicha, xalqaro huquq normalarini qabul qilishda jonbozlik koʻrsatib, orol hududi mintaqasidagi muammolarni hal qilish uchun, dunyodagi rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan, teng huquqli homkorlik qilib, bu inqirozni oldini olish uchun, ularni hamkorlikka chaqirmoqda. Bu amaliy ishlar, oʻz oʻrnida Oʻzbekistonning tabiiy genafondini, asrab avaylash tabiat va inson munosabatini toʻgʻri tashkil etishda, xalqaro huquq normalariga asoslanib siyosat olib borishi, Oʻzbekistonning buguni va kelajagi uchun ham ayni mudaodir. Albatta tabiatni ezozlash insoniylikni bir koʻrinishi hisoblanib, insondan muayyan darajada, bilim va amaliy faollikni talab qiladi.

“Barchamizining ildizimiz, tomirimiz avvalombor qishloq zaminiga borib taqaladi. Ona Vatan degan ulugʻ va muqaddas tushuncha odomzod uchun goʻyoki qishloq timsolidan boshlanadi. Xalqimizning rizqi-roʻzi, nasibasi avvalo dalalarimizda zahmatkash dehqonlarimiz tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar, oziq-ovqat va nozu-ne’matlar bilan oʻlchanadi. Loʻnda qilib aytganda, har bir ongli inson qaysi joyda, yurtimizning qaysi chekkasida yashamasin, albatta oʻzining, oilasining hayoti qishloq zamini bilan chambarchas bogʻlanganini sezishi, tushunishi tabiiy deb oʻylayman. Vatanimiz taraqqiyotida tutgan oʻrni va ahamiyati beqiyos boʻlgan qishloq aholisining hayotini zamonaviy mezonlarga javob beradigan darajada koʻtarish va umuman, qishloq xoʻjaligi sohasi rivojiga rivoj qoʻshish, uning samaradorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb, hayotning oʻzi talab qilayotgan muhum bir vazifaga aylanmoqda.”[10][5]

Yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon boʻlishi, oldimizda turgan vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bogʻliq. Yerni qancha qadrlab, qancha e’zozlasak, u bizga shuncha koʻp rizq-u nasiba beraveradi. Biz yerga qanchalik mehrli, saxovatli boʻlsak, yer

[10] Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtiqboli va uning kelajagiga xizmat qilish eng oliy saodatdir.-T.: Oʻzbekiston.2015.173.b.

ham bizga shunchalik saxovatini ko‘rsatadi. Chunki Sharqda azaldan yaxshilikka-yaxshilik bilan javob berish, elimizning muhim e’tiqodiy amallaridan biri hosoblanib kelingan.

“Men o‘zbek dehqonining mehnati-bu haqiqiy qahramonlikdir, deb aytishdan hech qachon charchamayman. O‘zbek dehqoniga teng keladigan zahmatkash va mirishkor insonlarni dunyoda topishning o‘zi qiyin. Qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgartirish-butun hayotimizni o‘zgartirish demakdir. Oldimizda turgan muhum vazifalardan biri-bu yerimiz, tuprog‘imiz unimdorligini oshirish bilan bog‘liq ekani barchamizga yaxshi ayon. Bu maqsadga erishish uchun yerning meliorativ holatini yaxshilashdek o‘ta dolzarb masalalarga e’tiborni yanada kuchaytirish talab etiladi. Ya’ni yer dehqonni boqadi, dehqon esa elni boqadi, degan hikmat hamisha diqqatimiz markazida turishi, qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyatimiz mezoniga aylanishi darkor.”[11][6]

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, xulosa qilganda, insonning tabiatga munosabatini ekoestetiklashtirish orqali, fuqarolar ongida ekoestetik madaniyatni shakllantirish mumkin. Ekoestetiklashtirish bir vaqtning o‘zida, inson ma’naviyati, uning intelektual salohiyati, bilimi va huquqiy ongi hamda madaniyatidan tashkil topgan elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) Ona tabiatni, butun vujud bilib, atrof-muhitni ekoestetik idrok qilishda-tabiat bilan inson aloqadorligi garmonik xususiyatlarga egaligi bois, ularning yaxlitligini anglash zarur hisoblanadi;

b) ekoestetik tafakkur-muhim insoniy aloqa va munosabatlarni o‘zida aks ettirishi bilan, tabiat xodisalariga insonlarning faol aralashuvining oqibatlarini sezish,va ularni ijodiy qayta ishlash va ilmiy bashorat qilish;

s) ekoestetik tuyg‘u-inson va tabiatning hissiy to‘qnashuvida, inson tomonidan tabiat ne’matlarini tabiiy sevish, empatiya;

d) ekoestetik bilim-butun ekologik inqirozli holatlarning o‘tmishini inson ongida aks ettirishi bilan, inson va tabiatning garmoniyasini shakllantirgan ilk mifoestetik g‘oyalar, go‘zallik haqidagi tushunchalarni o‘zida ifodalaydi;

e) ekoestetik munosabat-tabiatga insonning qonuniyatlarga tayanib, har doim bir xil munosabat bildirishda, axloq va estetik me’yorlarga muvofiq amaliy, ekologik jihatdan o‘zini oqlangan xulq-atvor qoidalarini jamlaydi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston sharoitida, tabiat va inson munosabatini, tartibga solish, tabiiy resuslardan oqilona foydalanishning amaliy dastur va tavsiyalarni ishlab chiqish, Noosfera bosqichida insonlardan, jumladan yoshlardan, juda katta kuch va ma’suliyatni talab qiladi. “Aslida Noosfera biosferaning shunday bir holatiki, biosferani, aql yordamida, insoniyatning umumiy manfaatlariga muofiq rivojlantirish, uning istiqbolini jiddiy o‘ylab, yangi dunyoqarashni, shakllantirish jarayonini boshlanishini anglab yetishdir.”[12][7]

Hozirgi davrda fermerlik harakati, insonlarning manfaatlarini o‘ylab harakat qiladigan tadbirkor kishilar faoliyatini nazarda tutadi. Bugungi kunda, hayotning,

---

[11] Karimov I.A Ona yurtimiz baxtiqboli va uning kelajagiga xizmat qilish eng oliy saodatdir. -T.: O‘zbekiston.2015.174.b

[12] Karimov I. Noosfera.geosiyosat va mafkura -T.: Fan.2007.19.b

tez oʻzgarishi bilan, fermerlik harakati oldida yangidan-yangi vazifalar paydo boʻlayotganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ayni shu yoʻlda, oʻzlarining ishlarini, ongli tashkil eta olgan har bir kishi, fermer va dehqonlarimizga eng yaqin koʻmakchi va maslahatchi boʻlishi lozim.

Oʻzbekiston sharoitida, inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlar chegarasini belgilash bilan birga, maʼlum darajada tartibga solish imkoniyatlarini chuqurroq tahlil etish zarur. Bu esa noosfera bosqichida yashyotgan har bir fuqaro va yoshlardan bilim va amaliyot birligi asosida ish yuritishni hamda masʼuliyatni talab qiladi. “Ilgʻor texnika va texnologiyalar yirik ishlab chiqarish karxonalarining vujudga keltirmoqda. Kuchli raqobat maydonida faqat bilimdon ishbilarmon tadbirkor kishilargina Javlon urish imkoniyatiga ega boʻlmoqdalar”[13][8]

Hududlarimizning, tabiiy iqlim sharoitiga mos, serhosil, kasalliklarga chidamli, tezpishar navlarni yaratish, suvdan tejab foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish boʻyicha, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, koʻptarmoqli fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish, yangi avlod fermerlarini tayyorlash kabi dolzarb masalalarga alohida eʼtibor qaratish, bularning barchasi kundalik amaliyotimizning diqqat markazida boʻlishi kerak.

“Fermerlarning yangi avlodi toʻgʻrisida gapirganda mening fikrim shuki har qaysi viloyatning ertangi egalarini biz bugun tarbiyalashimiz kerak. Garchi barcha hudud va mintaqalarimiz oʻzaro yaqin masofada joylashgan boʻlsa ham ular iqlimi, ob-havosi tuproq va suv sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi. Shularning barchasini hisobga olib har qaysi viloyatning oʻziga xos xususiyatlarining sirlarini har tomonlama chuqur biladigan, yuragi, qalbi bilan shu zaminda mehnat qilishga bel bogʻlagan yoshlarni zamonaviy fermerlarni tayyorlaydigan boʻlsak, oʻylaymanki, hech qachon kam boʻlmaymiz. Nega deganda, oʻz yurti, oʻz yeriga koʻngil qoʻygan odam hech qachon hech qayerga ketmaydi,oʻzi tugʻulib oʻsgan makonni obod va farovon qilishga intilib yashaydi.”[14] **[9]**

Inson aql tafakkurga, ega boʻlganligi uchun, u bugungi kunda, oʻzining ehtiyojini qondirishni turli usullarini biladi. Usullar yordamida tabiatning tabiiy qonunlarini ilmiy oʻrganib unga taʼsir etib ularni oʻzgartirmoqda. Lekin davrning talabi shuki, insoniyatni baxtli kelajagini qurush, ilmiy isbotini topgan mexanizmlarni muomulaga kirgizishni talab etadi. Inson aql yordamida kelajakni ilmiy bashorat qilish uchun, unga maʼlum bir dasturiy xarita boʻlishi lozim.

Oʻzini oqlagan, mexanizmlar, orqali biosferaning tabiiy muozanatini saqlash oldimizdagi, eng asosiy muammo boʻlib turibdi. Inson oʻzining aql-zakovatining kuchi bilan, butun insoniyatga ahamiyatli boʻlgan, nazariya va konsepsiyalarni ishlab chiqish, insonlarning umumiy manfaatlarini qondirishga doir, amaliy dasturlarni yaratish, biosferaning normal rivojlanishiga katta yordam beradi. Zero inson tabiat resuslaridan oqilona foydalanishi oqibatida, tabiat va inson munosabati yaxshilanib, bir tizimga kelishiga sharoit yaratiladi. Chunki inson, toza havodan nafas olsa,

[13] Karimov I. Noosfera.geosiyosat va mafkura -T.: Fan.2007.14.b

[14] Karimov.I.A. Ona yurtimiz baxtiqboli va uning kelajagiga xizmat qilish eng oliy saodatdir. T:Oʻzbekiston.2015.B.180.

sog‘lom yer bag‘rida voyaga yetgan maxsulotlardan istemol qilsa, toza ichimlik suvidan foydalanib yaxshi-yashashi, har bir insonni turmushini obod bo‘lishi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni ham sog‘lom bo‘lishini kafolatlaydi.

O‘zbekistonda, barkamol avlodning, axloqiy-estetik madaniyatini uyg‘un va to‘g‘ri rivojlantirish, obod turmushimizning ma’naviy asosini tashkil etishini har doim yodda tutib hozirgi kunda, O‘zbekistonda tabiat va inson munosabatlarini yaxshilashning, asosiy usullari va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq qilish, esa O‘zbekistonning barcha hududlarida aholining turmush darajasini oshirishga qaratilganligi bois, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni kun tartibiga qo‘yib, bizdan amaliy ishlarni kutmoqda.

Bu jarayon o‘z navbatida, hozirgi zamonda, yashovchi har qaysi insondan tabiat oldidagi majburiyatlarini bajarishni talab etadi. Ana o‘sha majburiyatlarni fuqarolarimiz ongli tushunib ularni bajarish yo‘lida, bugun respublikamizda katta ishlar qilinmoqda. Mustaqil O‘zbekistonda yoshlarimizning ekologik madaniyatini shakllantirish orqali, tabiat va inson o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarni hosilasi hisoblangan ekologik inqirozni oldini olishda, yoshlarimizning ijtimoiy faolligi va ekologik savodxonligi, muhim ahamiyatga ega. Bugun respublikamizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid, davlat siyosatidan ko‘zlangan asosiy maqsad, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hisoblanadi. Bu tashabbuslar ortida, yoshlarni ekologik savodxonligi oshirish bo‘yicha, bugun davlatimizda bir qancha nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqmoqda.

Bugungi O‘zbekiston aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonni yoshlar davlati deb bilib, olib borayotgan islohatlarimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad, ularni ertangi kunda o‘z sohalarining ustasi qilib, tayyorlashni nazarda tutadi. Shu bois yoshlarni, ekologik, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash pirovardida, yoshlarni tabiatga bo‘lgan ratsional munosabatini, yanada qaror toptirishtirish bilan, yurtimizda amalga oshiralayotgan islohatlarning negizida turadi.

Prezidentimizning “O‘zbekistonning buyuk kelajagiga bo‘lgan ishonchni yoshlarning iymon-etiqodiga singdirish orqali oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak.”[15][10] degan qat’iy va betakror so‘zlarini asos qilib olishimiz lozim.

Yoshlarga ekologik bilimlarni, balki barcha ilm sohalaridagi erishilgan va o‘zlashtirilgan bilimlarini berish orqaligina, O‘zbekistonda tabiat va inson munosabatini normal izga solish mumkin. Yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal qilish, kishilarning ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liq, biri ikkinchisini taqozo qiladigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham O‘zbekistonda barkamol avlodni, axloqiy -estetik va ekologik madaniyatini uyg‘un rivojlantirish-obod turmushimizning ma’naviy asosini tashkil etishini har doim yodda tutishimiz kerak.

[15] Karimov I.A.«Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: «O‘zbekiston» 1998 .162.b

"Aql sohasi-Noosfera vujudga kelib, biosferaga u faol ta'sir ko'rsata boshladi. ITT va ITI natijasida jamiyat kooevolyusiyasi buzaladi va endilikda yer deb atalgan tabiatning yana xaos holatiga qaytish xavfi yuzaga kelmoqda. Aql tufayli sodir bo'lgan bu xavfning oldi faqat inson tafakkur tarzini o'zgartirish va Aqlni oqilona ishlar tomon burib yuborish orqaligana olib qolinishi mumkinligiga olimlar e'tiborini qaratmoqdalar.' [16] [11] Shaxsning tabiatga axloqiy-estetik munosabati va uning ekologik madaniyat bilan integratsiyasi, bevosita tarbiya masalalari bilan bog'liq jarayon. Ma'lumki, tarbiyaning bosh vazifasi inson borlig'ini kamol toptirishdan iborat. Zero, axloqiy, estetik, ma'rifiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy kabi barcha ta'lim-tarbiya shakllarida inson muammosi yotadi. Ularning har biri o'zining tadqiqot predmetidan kelib chiqib inson tarbiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Insonning ekologik madaniyati esa uning axloqiy va estetik tarbiyasi bilan bog'liq, jarayon hisoblanadi. Axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib, yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayon bo'lib, u insonni ijobiy fazilatlarini boyitishga va salbiy illatlardan halos etishga xizmat qiladi. Ma'lumki, fazilatlar, nafaqat insonning balki jamiyatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Jamiyatda axloq normalariga tayanib, faoliyat olib boruvchi fazilatli insonlarning sonining ortib borishi jamiyat hayotida ekologik madaniyatning rivojlanishi va tarqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonni davomli va mazmunli tashkil etilishi esa ekologiya sohasidagi bilimlarning rivojlanishini tezlashtiradi.

Ekologik madaniyat, inson axloqiy barkamolligining namoyishi sifatida axloqiy kamolotga intilmagan insonlarda, ekologik madaniyat ham shakllanmaydi. Ekologik madaniyat, ijtimoiy taroqqiyotning yuqori cho'qqisida vujudga keladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ekologik madaniyat ijtimoiy muhitda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanib, voyaga yetadi. Ekologik madaniyat, insonni xayrli ishlarga boshlovchi, bu ish esa tabiat uchun rag'bat hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy boshqaruvida, ekologik madaniyat muhim rol o'ynaydi. Ekologik madaniyat insonning estetik didi bilan ham chambarchas bog'langan bo'lib, ekologik madaniyati shakllanganva rivojlangan insonda, yuksak estetik did bo'ladi. Bunday insonlar, tabiat va jamiyat o'rtasidagi ekologik muvozanatning nozik o'zgarishlarni ham, yaxshi payqaydigan kishilar bo'lishadi.

Bugungi kunda ekologik muvozanatni saqlash va ekologik xavfsizlikka oid milliy va xalqaro huquq normalaridan yaxshi xabardor bo'ladi va ularni o'z o'rnida qo'llay oladi. "Bugungi kunda yurtimizda obod va ozod Vatanni, erkin va farovon hayotni bunyod qilish uchun ekologik madaniyatni shakllantirish muhum konstruktiv ahamiyatga egadir. Jamiyat boshqaruvini ekologik madaniyatga tayanib olib borish, inson va jamiyat, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlashga, ona tabiatning go'zalliklardan kelgusi avlodlar ham bahramand bo'lishiga zamin yaratadi. Bu jarayon o'z navbatida voyaga yetayotgan avlodlar tarbiyasiga, ekologik madaniyat nuqtai-nazaridan ham alohida e'tibor qaratishni, yoshlarimiz ongiga tabiat va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlashda yanada faol va yanada tashabbuskor bo'lishlariga dalda berish, har bir farzandimiz qalbida

[16] Karimov I. Noosfera Gosiyosat va Mafkura. -T.: Fan nashriyoti.2007.20.b

mustahkam ekologik madaniyat shakllanishiga e’tiborni kuchaytirishni taqoza qiladi.”[17] [12]Inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabat shakllarini namoyon qilishda yangidan-yangi usullarini ishlab chiqish, fuqarolarimiz ongida ekologik savodxonligini oshirish, ularni yangicha fikrlashga o‘rgatish bilan, tabiat resurslariga nisbatan bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, tabiat va inson munosabatining muvozanatini tiklanishiga imkon beradi. Shu jihatdan geomadaniyat muhitini shakllantirish maqsadga muvofiq faoliyat hisoblanadi. Geomadaniyat muhitida tabiatga, nisbatan alohida ehtirom munosabati ifodalanadi. Unda odam tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish barobarida, ularni tejab-tergashga, asrab-avaylashga, ishlatilganlarining o‘rnini o‘z vaqtida to‘ldirishga intilishi e’tirof etiladi. Geomadaniyat, odamzodning tabiatga nisbatan ijtimoiy-universal munosabatini namoyon etadi. Geomadaniy taraqqiyot, ekologik halokatlarni oldini oluvchi siyosat yuritishni avvaldan shakllantirishni talab qiladi. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda, jahon jamoatchiligi e’tiborini, mintaqaning ekologik muammolariga qaratish muhimdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish borasida, yuqorida tilga olingan ta`sirchan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, yaqin vaqt ichida ekologiya sohasidagi ko‘pgina illatlar, kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, keng ko‘lamdagi ekologik tanglik tahdidlarini barham toptirish, respublika aholisi uchun, ekologik toza, musaffo hayotiy muhit yaratish uchun, zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni vujudga keltirish tabiat bilan inson munosabatini dialektik birligini taminlash muammosini hal etish, insoniyatning baxtli va farovon hoyot kechirishini kafolatlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston. 2015.

2.To‘rayev B.O. Ijtimoiy falsafa satsiologiya milliy g‘oya va publistika. Tanlangan asarlar.II.T.-T: O‘zbekiston. Milliy kutubxonasi, 2015.

3.Karimov I. Noosfera.geosiyosat va mafkura -T.: Fan .2007.

4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik.-T.:“Tasvir” nashriyot uyi, 2021.

5.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-T.:“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.

6.Karimov I.A.Bizning yo‘limiz demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modirnizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir.T.:O‘zbekiston.180 bet

7.Karimov I.A. « Ma’naviy yuksalish yo‘lida -T.: «O‘zbekiston» 1998 .

8.Karimov.I.A. Ona yurtimiz baxtiqboli va uning kelajagiga xizmat qilish eng oliy saodatdir. -T.:O‘zbekiston.2015.

[17] To‘rayev B.O. Ijtimoiy falsafa satsiologiya milliy g‘oya va publistika. Tanlangan asarlar.II.T.-T.: O‘zbekiston. Milliy kutubxonasi.2015.291.b

# ЭКОЛОГИК ТУРИЗМ ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИМИДЖИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

**Хашимов Ш.Ж.**
Ф.ф.б.ф.д. (PhD), доцент, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
E–mail: sheraxon64@mail.ru

**Аннотация.** Мақолада экологик туризм Ўзбекистон халқаро имиджини юксалтиришнинг муҳим омили сифатида кўриб ўтилган. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви, маданиятлараро мулоқотнинг кучайиши, ахборот коммуникация тизимининг янада такомиллашуви ва унинг экологик туризм соҳаси ривожланишига таъсири масалалари кўриб ўтилган. Ўзбекистоннинг халқаро имиджи юксалишида халқаро ва миллий экологик туризм ташкилотлари интеграциясининг зарурлиги кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** Халқаро имидж, миллий туризм, экологик туризм, интеграция, маданиятлараро мулоқот, ахборот коммуникация тизими, экотуризм соҳасидаги интеграция жараёнлари.

**Аннотация.** В статье экологический туризм рассматривается как важный фактор улучшения международного имиджа Узбекистана. Рассмотрены вопросы интеграции Узбекистана в мировое сообщество, усиления межкультурных связей, дальнейшего совершенствования системы информационных коммуникаций и ее влияние на развитие экологического туризма. Необходимость интеграции международных и национальных организаций экологического туризма проявляется в повышении международного имиджа Узбекистана.

**Ключевые слова:** Международный имидж, национальный туризм, экологический туризм, интеграция, межкультурная коммуникация, информационно-коммуникационная система, интеграционные процессы в сфере экотуризма.

**Annotation:**The article considers ecological tourism as an important factor in improving the international image of Uzbekistan. Issues of integration of Uzbekistan into the world community, strengthening of intercultural communication, further improvement of the information communication system and its impact on the development of ecological tourism were considered. The need for integration of international and national ecological tourism organizations is shown in the rise of the international image of Uzbekistan.

**Key words:** International image, national tourism, ecological tourism, integration, intercultural communication, information communication system, integration processes in the field of ecotourism.

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашиб боришида унинг халқаро имиджини юксалтириш, ушбу жараёнда миллий туризмни ривожлантириш масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Миллий

туризмнинг ривожлантирилишида эса экологик туризм муҳим аҳамият касб этмоқда.

Жаҳонда ҳар бир халқ ва миллатнинг ўз имиджи ва образи мавжуд бўлиб, ўзбек халқини тасвирлаганда унинг табиатни севиши, меҳнаткашлиги, меҳмондўстлиги, донишмандлиги, болаларни яхши кўриши каби жиҳатларига эътибор қаратилади.

Мамлакат ва халқнинг халқаро майдондаги имиджи ва образини шакллантиришда мамлакатга келиб-кетувчилар, туристларнинг муносабати муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги имиджини шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг тутган ўрни ва аҳамияти ошиб бормоқда. Ўзбекистонда электрон нашрлар, янги-янги веб-сайтлар, блоглар, ижтимоий тармоқлардаги сайтлар кенгайиб, мамлакатнинг халқаро имиджини шакллантиришга ёрдам бермоқда. Ижтимоий тармоқлар, оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистоннинг экологик туризм соҳасидаги имкониятларини тарғиб-ташвиқ қилиш масаласига катта эътибор қаратилмоқда.

Экологик туризмнинг асосий объекти бўлган табиатни ҳимоя қилиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бугунги кунда энг долзарб масалалардан бирига айланди. Бугунги кунда экологик туризм Ўзбекистонда миллий туризмнинг бир қатор турлари билан ўзаро боғлиқ равишда ривожланиб, бундай туризм турларига рекреацион туризм, соғломлаштирувчи, дам олиш туризми, экскурсион туризм, саргузаштли туризм, экзотика туризми, экстремал туризм сафари туризми, агро туризм ва бошқалар тааллуқлидир. Бундай туризм турларига Ўзбекистондаги ички туризмдан ташқари ташқи, хорижий мамлакатлардан келадиган туристларнинг ҳам қизиқиши юқоридир.

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Ўзбекистон туризм соҳасида улкан салоҳиятга эга бўлган давлат ҳисобланади. Юртимизда 7 минг 300 дан ортиқ маданий мерос объектлари мавжуд ва уларнинг аксарияти ЮНЕСКО рўйхатига киритилган. Шу билан бирга, мамлакатимизнинг бетакрор табиати, гўзал дам олиш зоналари имкониятларидан фойдаланиб, янги туристик йўналишлар очиш мумкин. Бу соҳага жаҳон брендларини фаол жалб этган ҳолда, биз зиёрат туризми, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, туризм ва бу соҳанинг бошқа тармоқларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратишимиз зарур. Бу борада давлат-хусусий шериклик муносабатларини қўллаш соҳани тараққий эттиришда кенг имкониятлар очишини ҳисобга олишимиз лозим”[18].

Япониянинг “The Japan Times” газетасида чоп этилган “Миллий сиёсат ва савдо муносабатлари барқарор ривожланмоқда” деб номланган мақолада Ўзбекистонда туризм ривожланиши ва унинг экотуристик имкониятлари тўғрисида ҳам маълумот берилган бўлиб, “Ўзбекистон улкан туризм салоҳияти ва ғоят бой маданий-тарихий меросга эга, - дейилади ушбу мақолада, - Бу заминда пурвиқор тоғлар билан ўралган водийлар ва жазирама саҳролар,

[18] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил, 128-129 бетлар.

қадимий меъморий обидалари билан машҳур тарихий мажмуалар ва замонавий мегаполислар ажиб бир тарзда уйғунлашиб кетган. Ўзбекистонда 11 та миллий табиий боғлар ва давлат қўриқхоналари, 12 та махсус қўриқхона, 106 та музей, 37 та театр, 187 та маданият ва истироҳат боғи мавжуд. ...2018 йилда ўзбек миллий таомлари "National Geographic" журналининг "Гастрономик туризм" номинациясида биринчи ўринни эгаллади, Ўзбекистон кўплаб хорижий нашрлар, жумладан, "The New York Times", "The Guardian", "Lovely Planet" томонидан саёҳат учун энг жозибадор ва қизиқарли йўналиш сифатида эътироф этилмоқда"[19].

Ўзбекистон имиджининг ўлчов мезони сифатида туризмнинг тутган ўрни ва аҳамияти ошиб бормоқда. Британиялик профессор Ш.Акинернинг фикрига кўра, "туризм миллий имиджни ривожлантириш мумкин бўлган тармоқлардан бири ҳисобланади. Чунки у хорижликларни маҳаллий аҳоли билан тўғридан-тўғри алоқага киритади. Натижада ана шу сайёҳлар онгида улар ташриф буюрган жамиятлар ҳақида ўз шахсий таассуротларининг шаклланишига сабаб бўлади". Британиялик олим С.Анҳольт фикрига кўра, мамлакат имижини мустаҳкамлаш жараёнида оммавий ахборот воситалари билан бир қаторда-бошқарув, экспорт, туризм, маданият ва мерос, инвестиция ва имиграция, одамлар ҳам муҳим роль ўйнайди[20].

Халқаро майдонда Ўзбекистоннинг ижобий имиджини илгари сурадиган хорижий PR-агентликлари, халқаро ахборот майдонида нуфузли ва таъсирга эга бўлган хорижий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистоннинг экотуризм соҳасидаги имкониятлари ва ютуқларини кенг тарғиб-ташвиқ этиш мамлакатимизга келадиган туристлар сонининг ошишига ижобий таъсир кўрсатади. Ўзбекистон Республикасининг халқаро майдондаги имиджини мустаҳкамлашда Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг халқаро миқёсдаги алоқалари муҳим ўрин тутиб, мамлакатимизнинг экотуризм соҳасидаги имкониятларини тарғиб этишда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига илова сифатида "2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси" келтирилиб, ушбу Концепцияга кўра Ўзбекистон Республикасининг хилма-хил ҳамда йилнинг турли фаслларида жозибадор ва рақобатбардош туристик маҳсулотлари, шу жумладан мамлакат худудларида тематик туристик зоналари ва кластерларни яратиш орқали ҳамда туризмнинг истиқболли турлари (зиёрат, маърифий, экологик, этнографик, гастрономик, спорт, даволовчи-соғломлаштирувчи, қишлоқ, саноат, ишбилармонлик ва бошқаларни) ҳисобга олган ҳолда, янги туризм дастурларини ишлаб чиқиш[21], белгиланди.

---

[19] Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 2020 йил, 300 бет.

[20] https://beruniyalimov.uz/archives/986, 172 бет.

[21] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига 1-илова. "2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси". www. uza. Uz / oz / documents /sdfscxzcxcvxv? ELEMENT_CODE= sdfscxzcxcvxv & SECTION_CODE= documents&print=Y

Ўзбекистонда зарур экологик туризм инфраструктурасини шакллантириш учун дор (осма) йўлларни, тоғ-чанғи кўтаргичлар, фуникулёрлар ва бошқа ўхшаш объектлар ва иншоотларни қуриш, қайта таъмирлаш ва жиҳозлаш учун асбоб-ускуналар, механизмлар ва эҳтиёт қисмлар, шунингдек, аэростатлар (ҳаво шарлари), моторли қайиқ ва квадрацикллар учун белгиланган тартибда тасдиқланадиган рўйхатларга кўра божхона тўловлари тўлашдан озод этилиши[22], белгиланди.

Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш экотуристик фан, таълим, тарбия ва тарғиботни кучайтириш асосида амалга оширилади. Бунинг учун аҳолининг экологик онги ва маданиятини юксалтириш учун оммавий ахборот воситаларида, интернетда экотуризмга бағишланган маълумотларни кенгроқ бериб бориш, экотуризмга бағишланган илмий-оммабоп, оммабоп нашрларни янада кўпайтириш зарурдир. Экотуризмни ривожлантиришни тизимли тарзда йўлга қўйиш, зарур инфратузилмани шакллантириш, туристик-рекреацион эркин иқтисодий зоналарни ташкил қилишда инновацион кластерларни ташкил этиш ва фаолиятини кенгайтириш талаб этилади. Шундай тадбирларни амалга ошириш Ўзбекистоннинг халқаро майдонда туризм соҳасидаги имиджининг ошишига, чет эллик сайёҳларнинг мамлакатимиз экотуристик имкониятларига қизиқишининг кучайишига олиб келади.

**АДАБИЁТЛАР:**

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 2020 йил, 300 бет.

3. https: // kun. Uz / news / 2018 / 09 / 01 / jizzahda-Yellouston-milliy bog‘I-kabi-loyiha-amalga-oshiriladi.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига 1-илова. “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси”. www. uza. Uz / oz / documents /sdfscxzcxcvxv? ELEMENT_CODE=sdfscxzcxcvxv& SECTION_CODE=documents&print=Y

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида. www. lex/ uz / docs / 3548467.

[22] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида. www. lex/ uz / docs / 3548467.

# MEHNATDA YOSHLARNING EKOLOGIK MADANIYATI BILAN AXLOQIY-ESTETIK ONG IMKONIYATLARI DIALEKTIKASI

**Xushvaqtov Alisher Ashirboy o'g'li**
Respublika ma'naviyat va marifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchi tadqiqotchisi

**Annotatsiya** Maqolada yoshlarnning tabiatga axloqiy-estetik munosabati va uning ekologik madaniyat bilan integratsiyasi, bevosita tarbiya masalalari bilan bog'liq jarayon. Ma'lumki, tarbiyaning bosh vazifasi inson borlig'ini kamol toptirishdan iborat. Zero, axloqiy, estetik, ma'rifiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy kabi barcha ta'lim-tarbiya shakllarida insonni tarbiyalash muammosi yotadi. Ularning har biri, o'zining tadqiqot predmetidan kelib chiqib, inson tarbiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Insonning ekologik madaniyati esa uning axloqiy va estetik tarbiyasi bilan bog'liq, jarayon hisoblanadi. Axloqiy tarbiya jamiyatda insonni faol shaxs bo'lib, yetishuvida zarur hisoblangan uzluksiz jarayon bo'lib, u insonni ijobiy fazilatlarini boyitishga, salbiy illatlardan xalos etishga xizmat qiladi. Ma'lumki, fazilatlar nafaqat insonning, balki jamiyatning ma'naviy boyligi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy-estetik tarbiya, aqliy mehnat, jismoniy faoliyat, ekologik inqiroz, ekologik madaniyat, amaliyot, dialektika, munosabat, atrof-muhit, texnika, o'zlikni anglash, axloqiy ong, noosfera, mehnatsevar, axloqiy pok, estetik did, vijdonli, estetik baho, axloqiy normalar iste'moli va targ'iboti.

Mehnat qilish jarayoni, insonning amaliyotdagi har qanday faoliyatini o'zida ifoda etadi. U jismoniy va aqliy ko'rinishda amalga oshishi bilan, insonni maqsadli faoliyatini o'zida ifoda etadi. Hozirgi vaqtga kelib, dunyo jamoatchiligi o'rtasida axborot olish imkoniyatlari ko'lamining kengayishi, yoshlarimizni milliy axloqiy-estetik jihatdan tarbiya imkoniyatlarini kuchaytirishga bo'lgan ehtiyoj, muhim ahamiyatga molik. Shunga ko'ra, yoshlarda ekologik madaniyatini ilmiy tadqiq etish bizlardan, nazariy, metodologik va amaliy vazifalarni amalga oshirishni taqoza qiladi. XIX-XX asrlarga kelib insoniyat, tabiiy boyliklardan imkon qadar, ko'proq manfaatdor bo'lish maqsadida, qazilma boyliklarga keng qamrovli hujum boshladi. Natijada tabiiy muvozanat buzuldi. Insonlar tabiiy resuslardan, betartib foydalanishi oqibatida, ekologik inqiroz yuzaga keldi. Yoshlar ongida ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirish hozirgi vaqtda ekologik inqirozni, oldini olishning eng samarali yo'li hisoblanib, davlatimiz oldida turgan dolzarb bo'lgan vazifalaridan biridir. Shuningdek o'z mohiyatiga ko'ra ekologik madaniyat- inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklanishiga ma'sullik bilan qarab, mavjud ekologik bilimlarga tayanib, kun kelib ekologik madaniyatning tantananasiga ishonib, ekologik faoliyatda faol ishtirok etuvchi insonning yashash tarzini o'zida ifodalaydi.

"Ekologik madaniyat uchta bir-biridan ajralmas tarkibiy qismlarga ega. Bular birinchidan, ekologik bilimlar-ekologik onglilik tarzida namoyon bo'ladi va insonning ekologik vaziyatning holatini to'g'ri anglashiga ta'sir qiladi. Ikkinchidan, Ekologik e'toqod shaxsning atrof-muhitdagi ekologik muvazanatni saqlay olishga

bo‘lgan qat’iy ishonchi (bu Ekologik madaniyatning va Ekologik faoliyatning tantanasiga ishonch-e’tiqod shaklida namoyon bo‘ladi), Uchunchidan, Ekologik faoliyat-shaxsning Ekologik halokatlarning oldini olish jarayonida bevosita ishtirok etishi (bu tabiatni va inson yashaydigan muhitdagi muvazanatni asrash uchun faol harakat qilish shaklida namoyon bo‘ladi).”[23][1]

Ekologik madaniyat bir zumda shakllanmaydi. Avvalo ekologik bilimlarning shakllanishi va bu bilimlarning mohiyatini anglab yitish jarayonida vujudga keladi. Shundan so‘ng, shaxsda ekologik o‘zlikni anglash boshlanib, natijada insonning ekologik e’tiqodini vujudga keltiradi. Ekologik e’tiqodga ega bo‘lgan shaxsgina ekologik faoliyatda, ongli tarzda ishtirok etadi. Ekologik muvazanatni his qilish, jarayoni ham o‘ta murakkab jarayondir.

“Tabiat-jamiyat” Ekologik sistemasi ko‘p tarmoqli, nochiziqli rivojlanuvchi murakkab sistemadir. Bu sistemada fluktuatsion o‘zgarishlar ham, bifurkatsion jarayonlar ham uchraydi. Kutilmagan tasodifiy turtkilar ham ekologik muvozanatni halokatli tarzda izdan chiqarishi mumkin. Shu tufayli, ekologik movazanatni sinergetik tafakkur vositasidagina anglab, tushunish mumkin. Demak ekologik madaniyat sinergetik tafakkurga tayanadi. Bu quydagicha

**Birinchidan**, esa Ekologik sistema o‘zini-o‘zi sozlovchi, takomillashtiruvchi, rivojlantiruvchi sistemadir. Shunga mos ravishda, ekologik madaniyat ming yillar maboynida shakllanib, sayqallanib kelgan. Bu madaniyat dastlab, qalb ekalogiyasi tarzida namoyon bo‘ladi. “Avesto”-dagi ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amal tamoyili ham, anashu qalb, ekalogik madaniyatning ifodalanishidir. Shundan keyingi, ekologik madaniyat, inson amaliyotida ham, aks etib borgan.

**Ikkinchidan**, Ekologik madaniyat inson axloqiy kamolotining bir namoyishi bo‘lib, axloqiy kamolotga intilmagan insonda ekologik madaniyat ham shakllanmaydi.

**Uchinchidan,** Ekologik madaniyat ijtimoiy taroqqiyotning yuqori cho‘qqisida vujudga keladi. U ijtimoiy hodisadir. Ekologik madaniyat ijtimoiy muhitning, ijtimoiy munosabatlari ta’sirida insonning jismoniy va aqliy mehnat qilish jarayonida voyaga yetadi.

**To‘rtinchidan**, Ekologik madaniyat insonni ezgulikka boshlovchi stimul, hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy boshqaruvida ekologik madaniyat muhim rol o‘ynaydi. Ekologik madaniyatga ega insonlar jamiyat ravnaqi yo‘lida boshqarish osonroq kechadi.

**Beshinchidan**, Ekologik madaniyat, insonning estetik didi bilan chambarchas bog‘langan. Yuksak estetik did sohibida, ekologik madaniyat qaror topadi. Bunday insonlarning kuzatuvchanligi tabiat va jamiyat o‘rtasida bo‘ladigan nozik o‘zgarishlarni ham yaxshi payqaydigan insonlar bo‘lishadi.

**Oltinchidan**, Ekologik madaniyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ekologik madaniyatga ega bo‘lgan inson ekologik muvazanatni buzuvchilarga doir huquqiy choralarni qo‘llashni yaxshi bilishadilar.

---

[23] To‘rayev B.O. Ijtimoiy falsafa satsiologiya milliy g‘oya va publistika.-T.: O‘zbekiston. 2015.289.b

Ekologik muvozanatni saqlash va ekologik xavfsizlikka oid, milliy va xalqaro huquq normalaridan yaxshi xabardod bo‘ladi va ularni o‘z o‘rnida qo‘llay oladi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, mehnat jarayonida insonning ijtimoiy ong shakllari uyg‘un bo‘lib, uning maqsadli faoliyatida ko‘rinadi.

Shaxsning tabiatga axloqiy-estetik munosabati va uning ekologik madaniyat bilan integratsiyasi, bevosita tarbiya masalalari bilan bog‘liq jarayon. Ma’lumki, tarbiyaning bosh vazifasi inson borlig‘ini kamol toptirishdan iborat. Zero, axloqiy, estetik, ma’rifiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy kabi barcha ta’lim-tarbiya shakllarida insonni tarbiyalash muammosi yotadi. Ularning har biri, o‘zining tadqiqot predmetidan kelib chiqib, inson tarbiyasiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Insonning ekologik madaniyati esa uning axloqiy va estetik tarbiyasi bilan bog‘liq, jarayon hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya jamiyatda insonni faol shaxs bo‘lib, yetishuvida zarur hisoblangan uzluksiz jarayon bo‘lib, u insonni ijobiy fazilatlarini boyitishga, salbiy illatlardan xalos etishga xizmat qiladi. Ma’lumki, fazilatlar nafaqat insonning, balki jamiyatning ma’naviy boyligi hisoblanadi. Jamiyatda axloq normalari bilan faoliyat belgilaydigan fazilatli kishilarning ko‘payishi, ekologik madaniyatning rivojlanishiga hamda taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi va ekologiya sohasidagi bilimlarning shakllanishini tezlashtiradi.

“Mehnatning estetik jihatdan to‘laqonli bo‘lishi avvolo obyektiv omil- ishlab chiqarish jarayoniga ham bog‘liq. Albatta, bu o‘rinda mehnatkashlarning madaniyati, axloqi, estetik did masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yuqori va ilg‘or texnologiya ham did, mahorat, madaniyatga ega emas. Uni inson boshqaradi va inson didi, mahorati, madaniyati mehnat mahsulida o‘z ifodasini topadi. Texnika taraqqiyoti ishchini og‘ir jismoniy mehnatdan xolos etsada, lekin ruhiy-axloqiy ma’suliyatini kuchaytiradi.”[24][2]

Axloq va odob normalari, ta’lim-tarbiya asosida shakllanadi. Shu sababli ham insonda tabiiylikka nisbatan ijtimoiylikka, bo‘lgan intilish kuchlidir. Ta’lim-tarbiya, imkoniyatlarini rivoj topib, insonlar o‘rtasida bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim-tarbiya insonlarning o‘zaro xatti-harakatlarini, ma’lum darajada sistemaga solib, insonlarning amaliy faoliyatini tartibli holatga keltiradi.

Shu bois axloqiy tarbiya, jamiyatda quyidagi vazifalarni belgilaydi:

**Birinchidan**-Insonlarning yuksak axloqiy g‘oyalarga sodiqligini ta’minlaydi.

**Ikkinchidan**-Sha’n va qadr-qimmat, mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, ezozlash kabi oliy axloqiy sifatlani qaror toptiradi.

**Uchunchidan**-Yoshlarni axloqon pok, ma’nan boy, vijdonli, iymon-e’tiqodli, qilib tarbiyalashda asosiy rol o‘ynaydi.

[24] Madaeva va boshqalar, Falsafa. O‘quv qo‘llanma.T.:2019.509.b.

**To'rtinchidan-**Axloqiy normalar va qadriyatlarni jamiyat ma'naviy hayotida amal qilishini ta'minlab, o'z fikriga ega bo'lgan, insonlar jamoasini vujudga keltiradi.

**Beshinchidan-**Bunday jamoa a'zolarining har qanday xatti harakati, tabiatga inson munosabatining uyg'un holatda kechishini taminlaydi.

**Oltinchidan-**Jamiyatdagi bunday kishilarning faoliyatida, axloqiy ong bilan, ekologik madaniyat birgalikda shakllanib boradi.

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning donoligi, buyukligi, avvalo, ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviyatli yuksak insonlargina, o'zining aql-zakovatining kuchi bilan, tabiat va jamiyatda tez-tez sodir bo'lib turadigan muammolarga oqilona munosabatda bo'lib ularni ilmiy o'rganib yechishga harakat qiladi. Chunki inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida, kamolotga erishadi. Zotan, inson tabiatning bir qismi bo'lib, undagi muammolardan chetda turolmaydi.

Abdulla Avloniy axloqqa shunday ta'rif beradi: "Axloq, bu-xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyaan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillikning badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur"[25][3]

Jamiyat taraqqiyotini inson ma'naviy kamoloti bilan bog'lashga bo'lgan intilish, hamma tarixiy davrlarga xosdir. Inson ma'naviy kamolotining muayyan bosqichlarida diniy e'tiqodlar, ma'naviy muhitni barqarorlashtirib turuvchi muhim omil ekanligi, insoniyatning tarixiy tarqqiyoti jarayonida ko'p marta isbotlangan. Birgina misol sifatida, islom dinida, jamiyat hayoti uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan, axloq va huquq mezonlarini Ollohning irodasi, jannat rohati-yu, do'zah azobi, bilan bog'lab, inson shu'uriga, imon–e'tiqodiga singdirish maqsadi, qanchalik katta o'rin egallaganligini ko'rish mumkin.

Mustaqillik yaratgan sharoitlar tufayli yosh avlod ongida, yangi mustaqillik g'oyalarni singdirish orqali, ularda axloqiy-estetik tarbiyaga asoslangan ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Buning uchun oddiy istakni o'zi yetarli bo'lmay, balki insondan muayyan darajada ma'naviy saviya ham kerak. Bu saviyani shakllantirish aniq tarbiyaviy, ma'rifiy ishlarning maqsadi hisoblanadi. Yoshlarni mavjud sharoit va vaziyatga moslashtirish bilan emas, balki istiqlol bergan ne'matlardan ijobiy foydalanib, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishlari uchun, ularni faollikka chaqirish zarur. Har qanday tarbiyadan ko'zlangan bosh maqsad barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Zero jamiyat hayotida axloqiy va estetik ongini o'stirishga qaratilgan tarbiya jarayoni, insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayon bo'lib, yosh avlodning ekologik madaniyatini rivojlantirish, ularga har tamonlama ilmiy asoslangan diniy va dunyoviy bilimlarni berish bilan, yoshlarimizni ijodiy fikrlashga

[25] Abdulla Avloniy.Tanlangan asarlar.1-Jild.-T:Ma'naviyat. 2006 .31-32.betlar

o‘rgatish lozim. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki bo‘lmay yaxshi insoniy fazilatlar jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega bo‘lgan qadiriyat hisoblanadi. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar, tabiat go‘zalligiga o‘z hissalarini qo‘shib undan bahra oladilar. Bu uzluksiz jarayon esa ekologik bilimlarning rivojlanishini tezlashtirib, ekologik ong va estetik ongni shakllanishiga olib keladi. Faylasuf olim Erkin Yusupovning fikricha: “Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy bo‘hronga qarshi kurashishdan ko‘ra uning oldini olish oson. Qayta ayoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi” [26][4]

Inson bu yorug‘ olamga, shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Shunday ekan komillikka tomon yo‘nalish, bevosita mehnat qilish orqali, ma’naviylik tomon borish demakdir.

Shu o‘rinda “komillik” tushunchasiga to‘xtab o‘tishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Ma’lumki, «komillik” tushunchasining xilma-xil talqinlari bor. Diniy ta’limotlarda komillik timsoli sifatida, haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi haqqa talpinishidir. “Hujjatul Islom” Imom Abu Homid al-G‘azzoliy «Kimyoi saodat» asarida yozadilar: «Inson farishta va hayvonlar orasidagi mahluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolotga intilish quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok ilohiy nurdan iborat, Chunki faqat insonlardagina rivojlanish, va ruhiy kamolot hislati mavjud».[27] [5]

Demak insonni tarbiyalash, uchun ulardan moddiy-hayvoniy xirslar o‘rniga, ilohiy-rahmoniy sifatlarni ko‘paytirish lozim. Komil inson-jamiyki insonlarning haqiqatidir, ya’ni odamiylar odamiysidir. Najmiddin Komilov aytganidek, “Komil inson-bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu-siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmolim pokiza zot.”[28][6]

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta’rif berib yozadi: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif.”[29][7]

Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida, ikki narsani asos qilib olgan. Bularning bir-axloq bo‘lsa, ikkinchisi- o‘z-o‘zini tanish. Bu ikki tushuncha inson mehnat faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Shu tariqa, komil insonning o‘ziga xos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamni, tabiatga axloqiy munosabatda bo‘lishi deb qarash mumkin. Yana shuni ta`kidlash lozimki, o‘rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xarakterga ega. Ammo, masala qanday qo‘yilishidan qat’i-nazar, ekologik, axloqiy-estetik bilimlarga ega bo‘lgan komil inson haqidagi g‘oyalar, katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga egadir.

---

[26] Yusupov E. Inson kamolatining ma’naviy asoslari.-T.:Universitet. 1998.82.b
[27] Komilov N. Komil inson haqida to‘rt risola.-T.:O‘zbekiston 1997. 172.b
[28] Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T.:Yozuvchi.1996. 42.b
[29] Komilov N. Komil inson haqida to‘rt risola.-T.:O‘zbekiston 1997. 147.b

Inson to‘g‘ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari tabiatga zarar keltiradi. Hazrat Mirzo Abdulqaodir Bedil ta’kidlaganlaridek, “Agar me’mor dastlaki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo‘lib qolaveradi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, tabiatda yuzaga kelayotgan barcha muammolar yechimi ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk kishilarning fidokorona, halol va to‘g‘ri mehnati, imon-e’tiqodi asosida vujudga keladi va hamkorligi, orqali ro‘yobga chiqadi.

“Gedonizm Etika nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash tomoyili bo‘lib, unga ko‘ra huzur-halovat keltiruvchi va azob uqubatdan qutqazuvchi narsa yaxshilik deb, azob-uqubat keltiruvchi narsa esa yomonlik deb ta’rif qilinadi. U axloq tamoyili sifatida kishilarga dunyoning shod-xurramliklariga, o‘zlari va barcha uchun yuksak rohat-farog‘at olishga intilishni buyuradi.”[30][8]

Ekologik va axloqiy estetik tarbiyani shakllantiradigan, hamda uni mustahkamlaydigan bir qator vositalar mavjud. Ular tabiatni axloqiy va estetik tarbiyaviy asoslari bilan uzviy bog‘langan holda, ijodiy yondashuv asosida qaror topadi. Ekologik, axloqiy va estetik tarbiya vositalarining bir qismi, an’anaviy tarbiya vositalari bo‘lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalardir. Odatda har ikki turdagi vositalardan ijobiy foydalana bilish esa jamiyat taraqqiyotini ta’minlab tabiiy resuslardan oqilona foydalanish malakasini vujudga keltiradi.

Chunonchi, maktabgacha bo‘lgan ekologik, axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiyani, o‘yinchoqlar va o‘yinlar vositasida olib boriladi. Bunda bolaning atrof muhitga, yaxshi ko‘z bilan qarash, suvni iflos qilmaslikka, maysalarni yulmaslikka, daraxt shoxlarini sindirmaslikka o‘yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalarda ekologik, axloqiy va estetik ongni shakllantirishda, televidenie, radio, kompyuter, internet, kino san’ati, va qug‘irchoq teatri katta rol o‘ynaydi. Chunki, har qanday tarbiya vositalarini rivojlantirish maqsadida kino filmlarva san’at asarlarini yaratish, ular haqida turli xil ko‘rsatuvlarni tayyorlash, kunlik matbuot eshittirishlarni davomli olib borish insonlarning tabiatga nisbatan bo‘lgan munosabatining, turli ya’ni axloqiy-estetik,va ekologik jihatlarini ochib berilishi, esa endigina mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi uchun, muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Aynan yuqoridagi tarbiya vositalari orqali, ekologik, axloqiy va estetik ong imkoniyatlari bir nuqtada birlashuvi kuzatiladi.

Barkamol avlodni, axloqiy, estetik va ekologik, tarbiya berishda ota-onaning, hamda ustozlarning shaxsiy namunasi ham, katta rol o‘ynaydi. Ota-ona har tomonlama madaniyatli inson bo‘lsa, bu fazilat farzandlarining kamol topishida, muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning yurish-turishida, ularning fe’l-atvorida, kiyinishida, oilada va mahallada, insonlar bilan muomalasida bilinib, o‘z navbatida u tabiatga bo‘lgan munosabatida va atrof-muhitni asrab avaylashida, o‘z ifodasini topadi. Bu fazilatlar, insonning tabiatga bo‘lgan botiniy munosabatining zohiriy ifodasidir. Yoshlarimiz faoliaytida ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun, ta’lim

[30] Davronov Z., Shermuxamedova N., Fayzixo‘jayeva D., Nurmatova M., Husanov B., Qahhorova M., Sultanova A. Falsafa (I qism) Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2019.464.b

beruvchi tarbiyachilarimizning o‘zlari ham, axloqiy-estetik va ekologik bilimlar bilan qurollanib tarbiyalanishlari kerak. Yoshlarga haqiqiy ekologik ta’lim berishning mohiyati, hayotni o‘zi taqozo etayotgan axloqiy fazilatlarni, yosh avlod vakillarining ongiga, singdirish bilan baholanadi.

Tabiatga nisbatan axloqiy, estetik munosabatda bo‘lishlik bosqichlari, insonlarning mehnat faoliyatlari bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi o‘zaro xatti-harakatlaridan va muomalalarida ham sezilib turadi. Axloqiy normalar- barkamol insonning qalb xazinasidagi eng katta boyligi hisoblanadi. Tildagi chiroyli so‘zlar hamma vaqt ham, dildagi yaxshi niyat, go‘zal maqsadlarning ifodasi bo‘lavermaydi. Donishmandlarning “Yuziga boqma, so‘ziga boq”-degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Muomala esa insonlarni ekologik harakatlarida bir-biriga bog‘lovchi, yaqinlashtiruvchi, tabiatni asrash yo‘lidagi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Go‘zal muomalali inson, dilni qanchalik hushnud etsa, aksincha achchiq so‘z, qo‘pol muomalali inson qalbni qora qiladi. Shirin muomalada bo‘lish ham katta san’at. Shirin so‘z bilan, kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So‘z, yuz va ko‘z, tilning ko‘rki hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, boshqa insonlarga nisbatan go‘zal va chiroyli muomalada bo‘lgan insonlar, tabiat resurslariga ham axloqiy va estetik munosabatda bo‘lishadilar.

Yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal qilish, kishilarning ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liq, biri ikkinchisini taqozo qiladigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham, yangi O‘zbekiston sharoitida obod turmushimizning ma’naviy asosini har doim, barkamol avlodni, axloqiy-estetik tarbiyasi bilan ekologik madaniyatni uyg‘un holda rivojlantirish yodda tutishimiz kerak.Ta’lim-tarbiya ishlarining zamirida, barcha davrlarda ham, muayyan manfaatlar bilan bog‘langan, maqsadlar yotadi. Ma’naviyat va ma’rifatning mohiyati, uning ahamiyatli tomonlarini o‘rganish va targ‘ib etishda, ta’lim tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni talab etadi. Har qanday sharotida ham yoshlarning ma’naviy kamoloti, ekologik madaniyatini ro‘yobga chiqarib, ekologik muomolarning bartaraf etishning ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, o‘z aksini topadi.

Yuksak ekologik ong va madaniyat sohibi, odatda davr uchun, tabiatning buguni va kelajagi uchun o‘ta muhim bo‘lgan g‘oyalarni, ko‘tarib chiqadilar va shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar. Tabiatning ochilmagan qirralari kashf qilinar ekan, u ma’naviy, axloqiy va estetik ong hamda ta’lim-tarbiyaning yangi qirralarini keltirib chiqaraveradi. Axloqiy normalarni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni sezmaslik esa ekologik bilimlarning tanazzul belgisidir. Ekologik madaniyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil-bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezidentimiz I.A.Karimov ham o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya haqida shuni ta’kidlaydilar:

“Albatta, ta’lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakillantiradigan va

boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya orqali ongni o‘zgartirmasdan turib, shaxs ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.”[31][9]

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu islahatlarning roli va ahamiyati o‘z-o‘zidan tushunarli va ravshan bo‘ladi. Shu boisdan kelajak avlodni ekologik, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash va yoshlarni tabiatga bo‘lgan ratsional munosabatini yanada rivojlantirish uchun, yurtimizda amalga oshiralayotgan islohatlarning bosh maqsadidir. Prezidentimizning «Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak.»[32] [10] degan qat’iy va betakror so‘zlarini asos qilib olishimiz lozim.

Ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topgan shaxs, demokratik qadiriyatlarni istemolchisi bo‘libgina qolmay, ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Axloqiy tarbiya va estetik madaniyat mushtarakligining ijtimoiy mohiyati ham shunda. Agar, biz bugun yoshlarimizni ona tabiatni asrab avaylash yo‘lidagi munosib shaxslar sifatida, tarbiyalashga bel bog‘lasak, buyuk istiqlolimiz, va tarqqiyotimiz hamda global ekologik-siyosiy munosabatlarni ijobiy hal etgan bo‘lamiz.

Go‘zal axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan kishilar, ekologik bilimlarni o‘rganishga ham, tabiatga oqilona munosbatda bo‘lishga ham, odamlarga foydasi tegadigan kasb-hunarni egallashga harakat qilmaydilar. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham shunday deydi: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.”[33][11]

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, ta’limni-tarbiyadan ajaratib bo‘lmaganidek inson mehnat faoliyati davomida to‘plagan bilimlarini o‘zida aks ettiradigan ijtimoiy ong shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish inson barkamolligiga putir yetkazadi. Ekologiyaga oid bilimlar, bugungi kunda axloq normalari bilan sug‘orilib rivojlansa, inson va tabiat o‘rtasida vujudga keladigan har qanday muammoning yechimini topish imkoniyatini tug‘uladi.

Bu bilimlarni istemol qiluvchilarning ijtimoiy ong sohalari ham, har tamonlama rivojlanishini, bugun hayotni o‘zi bizdan shuni talab qilmoqda. Faqat insonning aql mehnatini axloq va ma’naviyat bilan oziqlantirish davr talabidir. Xullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog‘liq va aynan shu bog‘liqlik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi”,-degan g‘oyatda o‘rinli fikrni har birimiz ongli mushohida yurutib, anglab olishimiz zarur. Shunday bilimlarimiz asosida shakllangan ma’naviyat, tabiatga bo‘lgan munosabatimiz va amaliy faoliyatimizda o‘ziga xos yo‘nalish, ochib beradi.

Istiqlol g‘oyalariga chuqur e’tiqodli, dunyoqarashi teran, ma’naviyati boy xalqgina, o‘zining buyuk kelajagini bunyod etishga qodir bo‘ladi. Fuqarolari

[31] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.:Ma’naviyat. 2016.61.b
[32] Karimov I.A. « Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston. 1998.162.b
[33] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T.:Ma’naviyat. 2016. 62.b

jismonan sog‘lom, ruhan pok, axloqan yetuk bo‘lgan mamlakat farovonligi va taraqqiyot yo‘lini ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirish yo‘lidan dadil bora oladi.

Bunday mamlakat xalqi, o‘zidan keyingi avlodlarga ozod va obod yurtni, mislsiz boyliklarni eng muhimi-ona tabiatga, ona tuproqqa, insonga, cheksiz mehr-muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini meros qilib qoldiradi. Ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yetuk inson, irodasi mustahkam, e’tiqodi butun, vijdon amri bilan yashaydigan barkamol avlod, har qanday davlat, xalq va millatning eng katta boyligi, qudratli salohiyati manbai sanaladi.

Bugun yurtimizni ozod va obod go‘shaga aylantirish bilan, erkin va farovon hayotni bunyod qilish mumkin. Shuning uchun jamiyat hayotida ekologik madaniyatni rivojlantirish, muhim konstruktiv ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Davlat boshqaruvini ekologik madaniyatga tayanib olib borish, inson va jamiyat, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona tabiatning go‘zalliklaridan lazzatlanish, ma’naviy huzurlanish yoshlar amaliy harakatlarida ko‘rinib to‘g‘ri tarbiyalanishlariga yo‘l ochib beradi. Bu esa, o‘z navbatida voyaga yetayotgan avlodlar tarbiyasiga, ekologik madaniyat nuqtai-nazaridan ham alohida e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Yoshlarimiz ongiga shu ezgu g‘oyalarni singdirish orqali, ularni yanada faol va yanada tashabbuskor bo‘lishlariga dalda berish, har bir farzandimiz qalbida, mustaxkam axloqiy-ekoestetik dunyoqarashni shakllanishi, yangi O‘zbekistonning, ekoturistik salohiyatini oshirishda, muhim sanaladi. Shu bois, ekoturizm, turlarining bugungi davr talablaridan kelib chiqib, axloqiy-ekoestetik dunyoqarash bilan dialektik aloqadorligini oshirishning, yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni, davrni o‘zi taqoza qilmoqda.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1.To‘rayev B.O. Ijtimoiy falsafa satsiologiya milliy g‘oya va publistika.-T.: O‘zbekiston. 2015.

2.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. -T:Ma’naviyat. 2016.

3.Karimov I.A.Bizning yo‘limiz demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modirnizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir.-T.:O‘zbekiston.2001

4.Karimov I.A. « Ma’naviy yuksalish yo‘lida .-T: O‘zbekiston. 1998.

5.Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T:Yozuvchi.1996.

6.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-T.:“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.

7.Yusupov E. Inson kamolatining ma’naviy asoslari.-T:Universitet. 1998.

8.Komilov N. Komil inson haqida to‘rt risola.-T.:O‘zbekiston 1997.

9.Abdulla Avloniy.Tanlangan asrlar to‘plami. 1.Jild. -T:Ma’naviyat. 2006 .

10.Сатторов, М. Д. (2020). Экологическое воспитание молодежи в Узбекистане на основе национальных традиций. Россия и мусульманский мир, (3 (317)), 55-59.

11.Sattorov, M., & Ostonov, J. (2023). YANGI O ‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISHDA MAISHIY TURMUSH ESTETIKASINING O‘RNI VA AHAMIYATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(35).

# ENHANCING ESP COURSE DELIVERY THROUGH THE KAIZEN METHOD: A CONTINUOUS IMPROVEMENT APPROACH

**Khabirova Zulfiya Anvarbekovna**
e-mail: zulya.uz@gmail.com
Ajou University in Tashkent ESP Teacher

**Annotasiya**. Ushbu tezis maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini (ESP) o‘qitishda Kayzen usulini tatbiq etishni o‘rganadi va kursni o‘tkazish, talabalarning faolligini va ta’lim natijalarini yaxshilash uchun Kayzen tamoyillarini tatbiq etishni o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** Kayzen usuli, Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), Kayzen tamoyillari

**Аннотация**: В этомтезисе исследуется применение метода Кайдзен при преподавании курсов английского языка для специальных целей (ESP), а также исследуются принципы Кайдзен для улучшения преподавания курса, вовлеченности студентов и результатов обучения.

**Ключевые слова:** Метод Кайдзен, курс английского языка для специальных целей (ESP), принципы Кайдзен

**Abstract**. This thesis explores implementing the Kaizen method in teaching English for Specific Purposes (ESP) courses, and itexamines the principles of Kaizen to enhance course delivery, student engagement, and learning outcomes.

**Keywords**: Kaizen method, ESP course, principles of Kaizen

Kaizen, a Japanese philosophy focused on continuous improvement, has been widely applied in various sectors, including manufacturing and business. First, it was introduced by Masaaki Imai's book 'Kaizen: The Key to Japan's Competitive Success' introduced the term KAIZEN, now recognized worldwide as a crucial pillar of long-term competitive strategy, resulting in superior results.

Since Kaizen focuses on making small, incremental changes that lead to significant improvements over time (a Japanese term meaning "change for better”), it can be implemented as well in an ESP course by setting elements based on these principles. Implementing Kaizen in teaching an ESP course is about creating a dynamic learning environment where continuous improvement is part of the culture. Itis a collaborative effort involving teachers, students, and the broader educational community, all working together to enhance the quality of education.Its core principles are continuous improvement, teamwork, quality circles, standardization, observation, and empowering people.

Scholars have recognized the potential of the Kaizen methodology, traditionally celebrated in manufacturing, for its application in the educational sector, including teaching English for Specific Purposes (ESP) courses. The core principle of Kaizen in education is continuous improvement, focusing on small, incremental changes that lead to significant enhancements in teaching quality and student learning outcomes. German professor at the South Westphalia University of Applied SciencesIngo Kregel in his research highlighted the application of Kaizen in

university teaching through action research, combining the philosophy of continuous improvement with evaluations of student courses, in which Kaizen was found to successfully improve course quality, especially in the first two years of newly developed courses.

However, by integrating this new approach, challenges in ESP teaching such as the lack of student engagement, the static course content, and the need for more adaptable teaching methods should be taken into consideration. In this term, the core-based principles of Kaizen can be implemented by refining them in teaching ESP. To resolve the challenges, it is suggested to set clear objectives by identifying the specific needs of students. According to Harrison (1996), to accumulate some information that concerns the learning needs, to define the purpose of the targeted courses, and to determine the suitable content need analysis is immediately needed. So, based on the needs analysis teachers can set clear, specific, and achievable learning objectives for the course.

The next step to avoiding challenges can be engaging in continuous assessment by providing regular and constructive feedback to students on their performance. Evans (2013) outlines models and theories of feedback that highlight the variety of approaches to feedback and its significant positive impact on student achievement and engagement. It is suggested that feedback must be clear, direct, and tailored to individual student needs to foster effective learning. Teachers should regularly evaluate the effectiveness of teaching methods and materials, seeking ways to improve them.

Indeed, to improve the ESP course teachers cannot do without motivating students which is the third step. To motivate students to participate actively in the learning process, teachers should encourage them to share their ideas on improving the course and their learning strategies. Moreover, teachers may force educators to collaborate with peers because peer observations can provide new perspectives and ideas for improvement.

The fourth step is embracingsmall changes. Implementing small changes to teaching practices or materials and observing their impact, reduces risk and makes it easier to adapt. The fifth step might be utilizing technology. Using technology can help to enhance learning and teaching processes. This could include language learning apps, online resources, or digital platforms for collaboration and feedback. Several scholars have extensively explored the use of technology in education, highlighting its potential to transform learning and teaching methods. One prominent figure in this field is Marc Prensky. Prensky (2004) is an advocate for the use of technology in the classroom, claiming that since today's students are digital natives, technology can effectively meet their diverse learning demands and learning styles. Prensky's research highlights how crucial it is to modify teaching strategies to use digital tools and resources to improve student learning and results. It is also beneficial for tracking the progress of students. By employing digital tools teachers can track and analyze student progress over time and identify areas for further improvement.

Promoting self-directed learning is also very essential in teaching ESP courses and it can be the sixth step to teaching students effectively. This element will encourage students to take charge of their learning journey, exploring additional resources and engaging in self-study.Malcolm Knowles has extensively discussed promoting self-directed learning. According to Knowles' idea, adult learners would rather be in charge of all aspects of their education, including designing, carrying out, and reviewing their courses. His research paved the way for our current understanding of how adults and children learn differently and the significance of creating learning settings that support independence and self-direction.

The finalstep can bereflecting and revising. Applied linguists, Rubin and Thompson are known for their research on language learning strategies. Rubin's and Thompson’s (1994) work emphasizes the importance of reflection in understanding one's learning process and making informed decisions about when and how to use different language learning strategies. In a nutshell, these probable elements hopefully help to resolve the challenges encountered during implementation to address them. Further to find out the effectiveness of these approaches feedback from participants and deep analysis are about to take. In this regard, it is suggested to recapitulate the key findings and their implications for ESP teaching practices.

**References**

1. Evans, C. (2013). Making Sense of Assessment Feedback in Higher Education. Rev. Educ. Res. 83 (1)
2. Harrison, K. (1996). The training of ESP teachers in Russia. English for Specific Purposes – Russia, 2: 24-26
3. Kregel, I. (2019), "Kaizen in university teaching: continuous course improvement", International Journal of Lean Six Sigma, Vol. 10 No. 4, pp. 975-991.
4. Knowles, M S. (1984). Andragogy in Action: Applying Modern Principles of Adult Education, Jossey-Bass, San Francisco
5. Masaaki I., (1986). 'Kaizen: The Key to Japan's Competitive Success'. Random House Inc.
6. Prensky M., (2004). The Emerging Online Life of The Digital Native
7. Rubin J., and Thompson I., (1994). How To Be a More Successful Language Learner. Boston, MA: Heinle & Heinle Publishers.
8. https://kaizen.com/what-is-kaizen/
9. https://www.emerald.com/insight/

# MAVLONO MUHAMMAD QOZINING OLAM VA ODAMNI BILISH HAQIDAGI QARASHLARI.

**Xurshid Ulmasjonovich Samatov**
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali gumantar va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)
Email: samatov1084@mail.ru
telefon raqam +998915273808
**Alimov Mansur Narboyevich**
SamDVMCHBU akademik litsey o'qituvchisi SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
Email: alimovmansur317@gmail.com

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Mavlono Muhammad Qozi ilmiy merosida ilgari surilgan olam va odamni bilish haqidagi qarashlari shunigdek**,** insonning ma'naviy va axloqiy fazilatlari to'g'risidagi qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada mutasavvufning "Silsilat ul-orifiyn va tazkiratu-s-siddiqiyn" asarida ilmga, borliqni bilish, ya'ni ilmiy-falsafiy va orifiy bilish muammolariga bo'lgan munosabati yoritilgan.

**Kalit so'zlar**: Tasavvufda bilish,ustoz, ma'rifat, borliq, ilm olish uchun solikka 4 qoida, olamni bilish, qalb haqiqati

**Key words**: Knowing in Sufism, Teacher,Enlightenment,Existence, 4 rules of learning for students,to know the world , the truth of the heart

**Ключевие слова**: знание в суфизме, учителъ, посвещение, существование 4 правил соликов знаний познание, мира правда, души

**Kirish.** Inson o'zini qurshab olgan atrof - muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatining biron-bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi bilim bo'lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro'y beradi. Bilim faqat insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj hayotiy zaruriyatdir. Inson doimo atrof-muhitni bilishga intilib kelgan. Bilish masalasi falsafaning asosiy tadqiqot obyekti bo'lib, qadimgi davrdan hozirgacha bu masala bo'yicha asarlar yozilgan.[34] Tasavvufda bilishning bosh masalasi Allohni tanimoqlikdir. Bu ilmi tavhid deyiladi. Butun olam uning yagonaligi va uning zotidan iboratligi haqidagi diniy qarashlar majmuyi. Tasavvufda bilishning falsafiy yo'llari – tasavvur, his-tuyg'u, mantiqiy tafakkur va intuitiv bilishdir. Aqliy-hissiy bilish zohiriy-dunyoviy bilim uchun kifoya qiladi. Ammo ilohiyotni bilish uchun esa, aql yordam bera olmaydi. Ilohiyot ilmi aqlga sig'maydigan, aql o'lchovlaridan ustun turadigan ilmdir.

**Asosiy qism.** Tasavvuf ahli bilishning ikki jihatiga e'tibor beradi. Birinchidan, bilish orqali olam sirlarini zohiriy empirik darajadagi bilishni nazarda tutib, bu orqali tabiat va jamiyatdagi o'zaro aloqadorliklarini bilib olishlari mumkin. Ikkinchidan, bu bevosita bilishning ikkinchi bosqichi bo'lib, bilishning murakkab darajasini nazarda tutiladi. Mazkur bosqichda murid muayyan ilmlarni o'rgangan, lekin unda

[34] Фалсафа: қомусий луғат (тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров).–Т.: "Шарқ" нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти,2004.– Б. 55.

gʻayritabiiy olam sirlarini ochish qobiliyati shakllanmagan boʻladi. Muayyan piri komil, ustoz yordamida shogirdga turli tasavvuf sirlari oʻrgatiladi va bu tasavvufda bilishning yuqori bosqichi hisoblanadi.Koʻpgina tasavvufga bagʻishlangan adabiyotlarda bilish maʼrifat tushunchasi bilan ifodalangan. “Maʼrifat” soʻzi arabcha, “arifa”-bilmoq soʻzidan yaralgan, maʼrifat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan.

“Maqomoti Miri Kulol”da Amir Kulol muridlariga taʼkidlagan quyidagi oʻgitlari keltiriladi: “Qayerda boʻlmang, sizning oldingizda qanday qiyinchiliklar boʻlmasin, toʻsiqlar, daryolar, olovlar boʻlsa ham siz ularni bartaraf etib, bilimni egallashingiz kerak. Faqat ilmgina insonga haqiqiy ruh, rohat bagʻishlaydi” [35].

Xojagon-naqshbandiya tariqatining pirlaridan biri Muhammad Qozi bilish masalasida oʻziga xos, shu bilan birga umumtasavvufiy tamoyillardan foydalanib, asarlarida fikr-mulohazalarini bildirib oʻtgan.

**Munozara.** Muhammad Qozi siymosida tafakkuriy, toʻlaqonli aqliy bilim bilan botiniy-maʼrifiy bilim, donishmandlik, dunyoviy zakovat bilan valiylik alomatlari mujassam boʻlgan. Mutasavvufning “Silsilat ul-orifiyn va tazkiratu-s-siddiqiyn” [36] asarida ilmga, borliqni bilish, yaʼni ilmiy-falsafiy va orifiy bilish muammolariga boʻlgan munosabati yoritilgan. Muhammad Qozi mazkur asarning asosiy gʻoyasi sifatida ilm ahli, olimlarning ulugʻ maʼrifiy masʼuliyati - silsilasidagi vorisiylik ulamolar qoʻlidan-qoʻliga oʻtkazilib saqlab qolinadigan, boshqalarga najot yoʻlini koʻrsatuvchi chirogʻ-qandilga oʻxshatilishidir. Muhammad Qozi haqiqiy ilm ahliga yaqin turganligi, ilmning mashaqqatlari-yu oʻziga xosliklari bilan bevosita tanish boʻlganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Asarni naqshbandiya tariqatida ustoz-shogird asosida ilm olishning nazariy asoslarini ochib beruvchi yoʻriqnoma deyish mumkin. Chunki Xojagon tariqatida taʼlim va tarbiya shayxlarining kelib chiqishini ketma-ketlikda izohlab berilgan.[37] Muhammad Qozi fikricha, ilm olish uchun soliklar 4 qoidaga amal qilishlari lozim: Birinchidan: ilm olish daʼvosining boshlanisi va manbayi nafsoniyl sabab va maqsad boʻlmasligi lozim. Xuddiki, ruhning malolligidan qutulish, mijozga moslashish, yoki soʻz ustasining soʻzlarini eshitish, yoki bilimlarni izhor etish uchun hikoyalar va rivoyatlarni xotirada saqlash, yoki shubhalar-u eʼtirozlarning va qoyil qiluvchi noaniq amallar, vaziyatlar toʻgʻrisida maʼlumot talab qilish. Agar bu daʼvoning asli nafsning sifatlarlari va taqiqlangan axloqidan oʻzga boʻlmasa, oʻqishdan hech qanday foyda boʻlmaydi va shunday boʻlishi kerakki, oʻqishning talabi Haqning aniq toʻgʻridan toʻgʻri yoʻlining hidoyati boʻlishi kerak, shunda qalb talabi sadoqatining barokaoti bilan unga ishoratlarining tushunish yoʻli ochiladi.Ikkinchidan: ilm olishda meʼyorni saqlasin va xotirdan malolni tark etmogʻi kerak, toki ifrot (haddan oshish)gakim - nafsning oshishidir, tortinmasin va tushunish safosi zaiflik bilan tugamasin.Uchinchidan: zohiriy idrokka qanoat qilmasin, bilsinki, paygʻambar soʻzlarining har bir soʻzi va

---

[35] Шаҳобиддин ибн Амир Ҳамза. Мақомоти Мири Кулол. Бухоро музейи. Инв № 1158.-В. 33.

[36] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 8ª варақ:

[37] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 46ᵇ варақ:

mashoyix soʻzlari paygʻambar sollallohu alayhi vasallam va roziallahu anhumning soʻzlari zohriy (tashqi) va botiniy (ichki maʼnolarga ega)dir. Va har bir tushunish ilmiy dalillardir va har bir sabil bilimni butun (botiniy ichki maʼnolar)ning mohiyatini tushunishga yetaklaydi.Toʻrtinchidan: talab mashqining tahammuli va zamonning choʻzilishiga sabrli boʻlsin va ilmiy tafakkur darajasida har bir tushunchani taqdim etsin, toki tadrijiy maqsadga erishsin, inshaallah [38].

Mutasavvuf “Agar zohiriy ilmlarni har bir oddiy kishi egallay olsa, botiniy ilm maʼrifatni esa faqat barcha dunyoviy istaklardan poklangan qalb egasiga Alloh inoyati ila beriladi”, - degan falsafiy xulosaga keladi. U maʼrifat insonning oʻzligini anglatadi, qalb koʻzini ochadi va koʻngil xilvatxonasini poklaydi,-deb uqtiradi. Jumladan, “vahdoniyat daryosining tubiga yetib borib, unda suzib, voqelik sirlarining javohiri va ilohiy maorif (maʼrifatlar, bilimlar)da gʻalaba qozonib, har narsakim, xalqlar uchun gʻoyibdir, u kishiga ayon va shahodatdir. Va har narsakim, xalq hikoyat tariqasida eshitganlar, u kishi ayni basirat (qalb koʻzi) koʻzi bilan koʻrganlar. [39] Biroq ilohiy ilmlar oʻzidan oʻzi paydo boʻlavermaydi, faqat qalb poklash orqali ilohiy sir(ilm)lar ayon boʻladi. Bu jarayonni Muhammad Qozi quyidagicha tushuntiradi: “shunday ekan, shubhasiz, bu toifadirlarkim, Haq subhonahu taoloning vujudi (borligi)ni muqaddimalar tartibisiz va adila va hujjatlar (dalillar) yordamida idrok etadilar va u kishining bu idrok uchun botiniy poklikdan boshqa narsaga ehtiyoji yoq”. [40]Muhammad Qozi bu borada xojagon-naqshbandiya tariqati pirlarini qalbni ilm olishga tayyorlash borasidagi usullariga oid tavsiyalariga amal qiladi. “Tariqat buyuklari va haqiqat ahli ulugʻlari baʼzilari aytganlarkim: birinchi usuli shunga oʻxshaydiki, shaxs, masalan, oʻz maqsadini cheksiz zulmat sahrosida chiroq nuri bilan qidiradi. Bu yoʻl bilan maqsadni qoʻlga kiritish aqlu min al-dalildir, shuning uchun uni mutaʼazzir (uzr soʻrovchi) deyish mumkin. Va farqning ikkinchi usulini esa shunga oʻxshatganlarki: tong yorugʻligida izlaydilar, gʻolib shunday boʻladiki, u maqsad ustidan gʻalaba qozonadi va botiniy ilm amalga oshadi. Yana boshqa baʼzilari shunday deyishgan: Birinchi ilm olish yoʻli shunga oʻxshaydiki, masalan, bir kishi kiyimdoʻzlik hunarini dunyo manfaatlariga ragʻbat qilish orqali topsa, bu juda taʼsirlidir, balki uzrlidir, chunki u kishi kiyim tikish sanʼatini tirikchilik sababidan oʻrgangan boʻlib, kunlik moddiy ehtiyoji evaziga mehnat yordamida qoʻlga kiritadi. Ikkinchi usulda basirat ahli uchun bu juda sodda va osondir. Negaki, basirat ahli oldida dunyo zohiru paydo va dalillangan-u ochiqdir”. Dunyo foydalarini egallashni - hazofirlar (butun boyligi, qamrov)ga - kimyogarlik sanʼatini egallagan kishilarga qiyoslaganlar [41].Muhammad Qozining fikricha, olamni aql yordamida toʻlaqonli bilib boʻlmaydi, sababi ayrim ilohiy nurlarni aql ilgʻamaydi. “…al-qissa, U subhonahu taoloni bilish va anglashga muyassar boʻlmaydi, toki uning nuri «kona

---

[38] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 7 b варақ:

[39] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 9а варақ.

[40] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 9а варақ.

[41] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 9 б варақ.

Alloh nur ul-samavat va al-arz» javhari kishi qalbiga tushmasa. Bunday holatda kishiga yo‘lovchi va yo‘ldosh bo‘lmaydi. O‘sha nurning zuhuridan so‘ng, dalilu o‘lchovchi va yo‘ldosh Unung o‘zi boladikim: «Quyoshni qayerdaligini Quyosh bilan ko‘rish mumkin». [42] Mutafakkir ilmining xususiyati shundaki, unga amal qilinsagina natija beradi, degan fikrni qo‘llab quvvatlaydi. Bizning fikrimizcha, Muhammad Qozining asarlarida ilgari surilgan ilm va amal masalasi uning “shariat-tariqat-futuvvat” tamoyilini ifodalashdir. Chunki Muhammad Qozi ilm olishdan maqsad shu ilmi orqali Allohni tanishi, Uning bandalariga yaxshilik qilishdan iboratdir. Shariat ilmini o‘rganmay turib, tariqat ilmi o‘rgatilmaydi. Tariqat ilmidan keyin murid o‘zida ilohiy xususiyatlarni his etadi. Shundan keyin solik barchaga yaxshilik qilishga intiladi. Solik endi futuvvat yo‘liga kiradi. Agarda murid ilmiga amal qilmasa, hech qachon o‘zida ilohiy sifatlarni shakllantira olmaydi. “Bilingki, tasavvuf arbobi va tasavvuf sahobalari murid va murod so‘zlarini ikki ma’noda talqin qiladilar: biri muqtadiy va maqtadiy ma’nosida, ikkinchisi esa muhib (mehribon) va mahbub (sevuvchi) ma’nosida. Murid muqtadiy ma’nosida, shu erurkim, uning basirat ko‘zi (nazari) hidoyat nuri bilan bino bo‘ladi, o‘z nuqsonini ko‘radi va komillik talabi olovi uning vujudida alangalanadi. Vahmiy kamol emas, balki, shu kamolki, nabiylar uni kamol deb aytganlar va nihoyat uni taraqqiyotda deb bilganlar. Har narsakim odamiylikda farqlanadi hamda uning asari qoladi, vahmiy kamollikdir. Va u murod hosili va Haq subhonahu vujudining qurbiga etmaguncha tinchimaydi va kimki iroda ahlining yo‘lida mansub bo‘lsa va Haqdan o‘zga uning ikkita murod makoni bo‘ladi. Yoki bir lahza murod talabidan orom topadi, uning so‘fiylikdan hosili shudirki, Irodit nomi unga haromdir. Bunday kishi murididir, ammo u o‘z nafsining murididir!”[43]. Muhammad Qozi fikricha, ilm-u amalning yaxshi natija berishi uchun komili mukammal ustozdan ta’lim olib, ruxsat berilgan bo‘lishi lozim. Mutasavvuf “ulusi nafe’”, ya’ni el-ulusga foydasi tegadigan ilmni o‘rganish, kasb – hunar egallash va uni shogirdlarga o‘rgatib ketishdek ezgu ishlarga da’vat etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фалсафа: қомусий луғат (тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров).–Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти,2004.– Б. 55..

2. Шаҳобиддин ибн Амир Ҳамза. Мақомоти Мири Кулол. Бухоро музейи. Инв № 1158.-В. 33..

3. Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 286 а варақ.

[42] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 9 б варақ.

[43] Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413.В 12 а варақ.

# XX ASR 50-YILLARDA XALQ TA’LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING ULUSHI (SAMARQAND HUDUDI MISOLIDA)

**Mardiyeva Go‘zal Karimovna**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti, SamDU tadqiqotchisi.
Email: mardiyeva89@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 50-yillarda O‘zbekiston xalq ta’lim tizimini holati, ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarni Samarqand viloyati hududi misolida ko‘rib chiqilgan. Ushbu davrda Samarqand hududi xotin-qizlarning xalq ta’limi sohasiga qamrab olinishida ba’zi bir muammolar vujudga kelganligi, hukumatning maktablarni moddiy ahvoliga dastlabki davrda e’tibori sustligi muammolarni vujudga keltirgan. O‘zbekiston hududi bo‘yicha mahalliy qizlarning maktablardan ketib qolishi holati, ayniqsa Samarqand, Andijon, Farg‘ona viloyatlarida g‘oyatda avj olgan. Samarqand viloyatdagi bir qator tumanlarda ham qizlarini maktabga borishga ruxsat berilmaslik, bundan tashqari, voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish holatlari tez-tez uchrab turgan Maqolada shunday holatlar va xotin-qizlarni ta’limga jalb qilish, hamda xotin-qizlarni ta’lim sohasiga ulushini oshirishdagi muammolar tahlil qilingan.

**Kalitso‘zlar:** Samarqand, ta’lim,xalq ta’limi, xotin-qiz kadrlar, qisqa kurslar, o‘rta maktab,sakkiz yillik maktab.

**Абстракт**. В данной статье состояние системы народного образования Узбекистана в 50-е годы 20 века, работа, проводимая в этой области, рассматривается на примере Самаркандской области. В этот период возникли некоторые проблемы с включением женщин в сферу народного образования Самаркандской области, а также отсутствие внимания правительства к финансовому состоянию школ в начальный период. Ситуация с отсевом местных девочек из школ на территории Узбекистана, особенно в Самаркандской, Андижанской и Ферганской областях, чрезвычайно высока. В ряде районов Самаркандской области девочкам не разрешают ходить в школу, кроме того, нередки случаи раннего замужества несовершеннолетних девочек.Проанализированы проблемы.

**Ключевые слова**: Самарканд,образование,народное образование, женские кадры, краткосрочные курсы, общеобразовательная школа, восьмилетняя школа.

**Abstract.** In this article, the state of the public education system of Uzbekistan in the 50s of the 20th century, the work carried out in this field is considered on the example of the region of Samarkand. During this period, some problems arose in the inclusion of women in the field of public education in the Samarkand region, and the government's lack of attention to the financial condition of schools in the initial period caused problems. The situation of local girls dropping out of schools on the territory of Uzbekistan, especially in the regions of Samarkand, Andijan, and Fergana, is extremely high. In a number of districts of Samarkand region, girls are not

allowed to go to school, and in addition, cases of early marriage of underage girls are common. problems are analyzed.

**Key words**: Samarkand,education,public education, female personnel, short courses, secondary school, eight-year school.

**Mavzuning dolzarbligi.**Shuni aytish joizki, ikkinchi jahon urushidan keying yillarda O‘zbekiston hududida ham boshqa sovet mamlakatlari singari tiklanishishlari olib borildi. Ijtimoiy hayotning muhim tarmog‘I bo‘lgan maorif sohasi davlatning katta e’tibori qaratilgan yo‘nalishi sifatida rivojlana boshladi. Zero, urush yillarida maktablar tarmog‘I qisqargan, o‘quvchilar kontingenti kamaygan, o‘quv jarayonlari normal tashkil etilmagan, ko‘plab bolalar turli sinflarda maktablarni tashlab ketgan edi. Bundan tashqari maktablardagi o‘quv jihozlari yaroqsiz bo‘lib, ta’minot darajasi yo‘q holatga kelib qolgandi. O‘qituvchilarning bir qismi urush yillarida qisqa muddatli turli kurslarda bilim olib, uzoq qishloq maktablariga yuborilgan, ularning nama’lumot darajasi, nametodik tayyorgarligi talabga javob bermasdi.

**Asosiyqism.**Urushdan keying yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida ko‘tarilgan eng katta muammo bu-xotin-qizlar ta’limi masalasi bo‘ldi. Urushdan keying yillardagi qiyinchiliklar tufayli ko‘plab oilalarda qizlarni ro‘zg‘or yumushlariga jalb etib, maktablarni tashlab ketish, qizlarni ta’lim muassasasiga yubormaslik holatlari ko‘paydi. Albatta bu vaziyat ta’lim tizimidagi eng murakkab muammolardan biri edi. 1951-yilda O‘zbekiston maktablarida 549,5 ming o‘quvchi qizlarning 371,4 minggi o‘zbek va mahalliy millat vakillarini tashkil etgan. Bu 1946-yilga nisbatan 80,4 mingga ko‘paygan[4].

Shu o‘rindaxotin-qizlarning xalq ta’lim sohasiga jalb etish masalasini Samarqand viloyati misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1951-1952 o‘quv yilida Samarqand viloyati 111726 nafar o‘g‘il bolalar, 83889 nafar qizbolalar ta’lim olgan. Ko‘rinib turganidek viloyatda ham o‘zbek qizlarining ta’lim olishi muhim masalalardan bo‘lib qolaverdi. Chunki viloyat maktablarida tahsil olayotgan 59028 nafar qizlar asosiy o‘quvchilarning 40,6% ni tashkil etgan.

O‘zbekiston hududi bo‘yicha mahalliy qizlarning maktablardan ketib qolishi holati, ayniqsa Samarqand, Andijon, Farg‘ona viloyatlarida g‘oyatda avj olgan[6]. 1951-yilda 2335 o‘zbek qizlarni erta turmushga berish holati qayd etilgan[7].

Bunday kamchilikla re’tiborga olinib, O‘zbekistonda xotin-qizlar ta’limiga alohida e’tibor kuchaytirildi va bu sohani rivojlantirish bo‘yicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqildi [8]. Eng avvalo, maktablardan ketib qolgan, pedagogic o‘quv kurslarini bitirmagan qizlar sonini aniqlash, ularni qaytarish masalalari ko‘rib chiqildi.

1951-yil fevraldan boshlab O‘zbekistondagi barcha mahallalar va yashash joylarida faollar maktab o‘qituvchilari yordamida savodsiz va ma’lumoti yetarli bo‘lmagan ayollarni aniqlash va ularni o‘qitish uchun guruhlar tayyorlashishlari boshlandi[9]. Samarqand viloyatida ham o‘zbek qizlarining ta’lim holati yaxshi emasdi.1951-yilgi Samarqand xalq ta’lim boshqarmasining kasaba uyushmasining hisobotiga ko‘ra, viloyatdagi maktablarda qizlarning ayniqsa, o‘zbek qizlarining maktabdagi holatini saqlab turish juda qiyin bo‘lgan va bunga qarshi samarali

choralar koʻrilmagan. Oʻzbek qizlarining maktabdagi kontingenti yuqori sinfga oʻtgan sari tushib ketavergan. Masalan, shu yili 1-9 sinflarda oʻgʻil bolalar va qiz bolalar oʻrtasidagi nisbati 47%ni,1-7 sinflarda 31,7%ni, 8 va 10 sinflarda 21,3% ni tashkil etgan.[10] Yana bir misol eʼtibo rqaratsak 1957-1958 oʻquv yilida Payariq tumanida 852 nafar 10-sinf bitiruvchilaridan 129 nafari oʻzbek qizlari tashkil etgan.[11]

1953-1955 yillar mobaynida Oʻzbekistonda xotin-qizlar oʻrtasida olib borilayotgan ishlarda jiddiy kamchiliklar yuzasidan davlat darajasidagi, jumladan taʼlim sohasidagi ijro qoʻmitalarining bir necha qonunlari qabul qilindi. Respublikada xotin-qizlar taʼlimini rivojlantirish boʻyicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqildi.[8]

Koʻrilgan bir qancha tadbirlar natijasida Samarqand viloyatida ham xalq taʼlim sohasida xotin-qiz oʻqituvchilarning sonini yildan-yilga ortib borgan. Xususan, 1959-yilda viloyatda 3660 nafar oʻqituvchi boʻlib, shundan 1376 nafari mahalliy xotin-qiz oʻqituvchilar boʻlgan boʻlsa,1962-yilgi oʻquv yiliga kelib 3854 nafar oʻqituvchidan 1781 nafari mahalliy xotin-qiz oʻqituvchilarni tashkil qilgan.[12]

1951-yil 20-yanvarda Respublika xalq taʼlimi vazirligi oʻzbek va boshqa mahalliy millat ayollari orasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashni qoniqarsiz, deb baholadi. Xotin-qiz oʻqituvchilar uchun tizimda yetarli shart-sharoitlar yaratilmaganligi sababli, ularni pedagogic faoliyatlarini toʻxtatayotganligi qayd etildi.[13] Bu masalaga davlat etibori kuchaytirildi. Chunki bu yillarda Xalq taʼlimi vazirligida faoliyat yuritayotgan oʻzbek xotin qizlarining soni gʻoyatda kamchilikni tashkil etar edi. Xususan, 1961-1962 oʻquv yilida Samarqand viloyati xalq taʼlimining xotin-qizlarning taʼlimga jalb etish masalasidagi hisobotiga koʻra viloyatdagi 13552 nafar pedagoglarning 34 %ni yaʼni 4573 nafarini xotin-qizlar tashkil etgan boʻlsa, shundan 2082 nafari mahalliy millat xotin-qizlaridan iborat boʻlgan. Bundan koʻrinib turibdiki, mahalliy xotin-qiz kadrlarning kamligi sohadagi mavjud muammolar haletilishi anchayin qiyin boʻlgan. Viloyatda mahalliy xotin-qizlar xalq taʼlim sohasida faoliyat yuritishi koʻproq shaharlarga toʻgʻri kelgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, urushdan keying yillarda Oʻzbekiston taʼlimi sovet davlati tomonidan belgilangan koʻrsatmalar asosida harakatlantirildi. Ushbu yillarda xotin-qizlar taʼlimiga boʻlgan eʼtibor anchagina kuchaytirildi. Shunga qaramay, xotin-qizlar taʼlimiga berilgan eʼtiborni ikki-yoqlama baholash zarur. Albatta bu jarayonlar direktiv organlarning qattiq qoʻl nazorati, majburiy zoʻravonliklar evaziga amalga oshirilsa-da, xotin-qizlar taʼlimi, ularni maktabdan uzoqlashishlarini oldini olish boʻyicha qator ishlar amalga oshirildi.

## Foydalanilganadabiyotlar

1.Алимова Д.А. Женский вопрос и Средней Азии.-Ташкент,Фан.1991

2.JoʻrayevaN. Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning oʻrni(XXasrning 20-30 yillari) Tarix.fan.nom.diss.-2004

3.Нуриева В. Участие женшин Самаркандской области в културномстроительстве (1929–1932 гг.) Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 331.Самарқанд, 1977.С.

# КОМПЬЮТЕРЛИ ВИРТУАЛ РЕАЛЛИКНИНГ ТАЪЛИМДАГИ АҲАМИЯТИ

**Муҳамадиев Ҳусан Ҳамроқулович**
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Самарқанд филиали Гуманитар ва ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси
husanmuhamadiyev0@gmal.com

**Аннотация:** Инсоният глобаллашган, ахборотлаштирилган ва компьютерлаштирилган ижтимоий-иқтисодий ҳамда маданий тузилмалардан иборат бўлган постиндустриал цивилизация дунёсига кириб келди. Бу дунё бизга компютерли вируал реалликнинг оммалашишиб ижтимоий ҳаётнинг диярли барча жабҳаларида кенг тадбиқ этилиши имконини бермоқда. Биз ушбу мақолада компютерли виртуал реалликнинг ўзига хос тамонлари, кўринишлари ҳамда ижтимоий муаммоларни ўрганиш ва уларнинг ечимини топишда фалсафий жиҳатдан ёндашиб ёритишга уриниб кўрамиз. Бунда биз компютер ва интернет оламидаги виртуал реалликнинг имкониятлари ҳақида тухталиб, баъзи ижтимоий ҳаёт масалаларига таъсирига эътибор қаратамиз. Шу билан бирга, мактаб таълим тизимида болаларнинг дунёқарашини шакллантиришда ҳамда дарсларни тушунтиришда виртуал кўргазмали қуролларнинг аҳамиятини кўриб чиқамиз.

**Аннотация:** В наши дни человечество живет в постиндустриальной эпохе, где основными являются глобализированные, информатизированные и компьютеризированные общественные и культурные структуры. Этот мир открывает перед нами новые возможности применения компьютерной виртуальной реальности в различных сферах общественной жизни. Наша статья рассматривает конкретные аспекты компьютерной виртуальной реальности, ее воздействие и философский подход к решению социальных проблем. Мы сосредоточимся на роли виртуальной реальности в мире компьютеров и Интернета, а также выясним, как она влияет на общественные вопросы. Кроме того, будем обсуждать значимость использования виртуальных образовательных инструментов для формирования мировоззрения у детей и объяснения учебного материала в школьной системе.

**Annotatsiya:** Intheconte mporaryworld, mankind residesin a post-industrialcivilization characterize dbyglobalized, informatized, andcomputerizedsocialandculturalframeworks. Thissettingoffersfreshoppor tunitiesforthein tegrationof computer-generatedvirtual realityacrossdi versefacetsofsocietalexistence. Ourstudydel vesintospe cificdimen sionsof computer-simulatedreality, examiningit simplicationsandthephilo sophicalap proachtoadd ressingsoci etalchallenges. Wewillexp lorethesignifican ceofvirtual realityinthe realmofcomputersandthe Internet, aswellasitsim pactonsocialissues. Moreover, thearticlewillelabora teonthesignificanceofemployingvirtual education nalresour cestoshapechildren's perspecti vesandelucidate educationalconten twithin theed ucationalsystem.

**Таянч сўзлар:** интернет, компьютер, виртуал реаллик, виртуал уйин, таълим, тарбия, ижтимоий фанлар,

**Ключевые слова:** Интернет, компьютер, виртуальная реальность, виртуальная игра, образование, воспитание, социальные науки,

**Keywords:** Internet, computer, virtualreality, virtualgame, education, upbringing, socialsciences,

Кўп процессорли компьютер тизимлар ҳамда фойдаланишда ниҳоятда қулай бўлган шахсий компьютерларнинг ихтиро қилиниши ва оммавий тарзда қўлланилиши билан компьютерли инқилобнинг иккинчи босқичи бошланиб кетди. Бу инқилоб, ўз навбатида, билиш ва амалиётни виртуаллаштириш (виртуал моделлаштириш усули ва технологиясидан кенг фойдаланиш маъносида), жамиятни ялпи ахборотлаштириш каби туб ўзгаришларнинг содир бўлишига олиб келди.

Юқорида қайд этилган кўп омилли илмий ва технологик жараёнлар жаҳон INTERNET тармоғининг яратилиши билан якунланди. Оқибатда, ижтимоий ҳаётнинг аксарият томонлари ва жабҳаларини виртуаллаштириш миқёси глобал жараён даражасига кўтарилди[44].

Виртуалистик тадқиқотлар маълум антропологик, эргономик, психологик, техник ва технологик илмий-тадқиқот дастурлар доирасида олиб борилмоқда. Шу боис, айрим тадқиқотчилар компьютердаги виртуаллик хусусида турли фикрларни билдиришмоқда.Хусусан, проф.Ш.С.Қушоқов постноклассик фан объекти ва субъекти, ҳамда, янги билиш объекти-«компьютерли-виртуал» реалликнинг пайдо бўлаётганлиги ҳақида фикр билдирган[45].

Компьютерли виртуал реалликнинг бир кўриниши бу-У.Гебсон тамонидан ишлаб чиқилган «кибермакон» ҳисобланади. У.Гибсоннинг “Neuromancer” (рус тилига таржима қилганда- «Нервосочинитель»,) номли техно-утопик фантастик романида кибермакон миллионлаб одамларнинг жамоавий галлюцинацияси сифатида тасвирланади. Бу ерда жамоавий галлюцинацияни субъектив психологик виртуаллик сифатида кўришимиз мумкин.

«Компьютерли-виртуал» реаллик-бу дастурий таъминот билан биргаликда ҳосил қилинган компьютер хотирасидаги информацион ҳудудлар харитасидир, ҳамда бу информацияни антропологиялаштириш, унга топологик аниқлик киритиш ва қоидаларини ишлаб чиқишдир. Бунда инсон маълумотларни худди буюмлар каби ишлата олади, ҳамда бир вақтнинг ўзида турли географик нуқталарда бўлувчи, компьютер тармоғи орқали бир-бири билан боғланган ҳар қандай компьютернинг график сифатидаги маълумотларига ўралашиб қолган одамлар макони тушунилади. Бу реаллик

[44] Қаранг: Идея информационного общества и internet // http:// 5 ka.ru.72.171 54.1.html; Клименко С.В., Уразметов В.Ф. INTERNET: среда обитания информационного обществa. Противно: РЦФТИ, 1995. -327 с.; Кастельс М. Информационная эпоха: экономика,общество и культура. Пер. с англ. -М.:Изд-во ГУВШ - Э, 2000. - С 606.; Иванов Д.В. Виртуализация общества //Социология и социальная антропология. СПб,1997.

[45] Кушаков Ш.С. На пути к новой парадигме философского мышления // Ўзбекистонмустақиллигинингижтимоий-иқтисодийвамаънавийривожланишмасалалари (ҳалқаро конференция маърузалари, Самарқанд, 1997 йил 18-20 ноябрь).- Самарканд: СамДУ, 1997. –с. 3-4.

инсонни ўлим ва вақт тугаб бораётганлигини инкор этишга олиб боради. Ҳозирда виртуал реаллик тадқиқотчилари тамонидан «Компьютерли-виртуал» реаллик ғоясининг мазмуни “виртуал жамият” тушунчаси асосида бойитилиб, шакллантирилиб бормоқда. Виртуал жамият – бу компьютер ва телекоммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида интернет орқали мулоқот ва муносабатларни амалга оширадиган одамлар жамоасига нисбатан қулланиладиган тушунча ҳисобланади.

Компьютердаги виртуал реалликнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у инсон томонидан яратиладиган артефактлар соҳасига тегишлидир. Компьютер оламидаги виртуал реаллик худди биз ҳис этиб кўрадиган борлиққа ўхшайди.

Компьютер воситалари ёрдамида яратилган воқеллик модели виртуал ва виртуал воқелик ҳисобланади. Мазкур модел инсоннинг воқелик ичида мавжудлиги эффектини ҳосил қилади ва хаёлий обьектлар билан ишлаш имконини беради. Айрим тадқиқотчиларвиртуалвоқеликдунёсигаинсоннинг чуқур кириб бориши, унга тўла бўйсунишини виртуал воқеликнинг асосий фазилатлари сифатида кўрсатадилар. Демак, компьютер мавжудлигини эътибордан соқит этадиган бўлсак, инсоннинг ўз онги фантазияларида саёҳат қилишиши зофрения [46] га етаклайди, компьютер моделлаштирувчи тизими иштирок этган тақдирда эса инсон хаёлий воқелик билан амалга оширувчи худди шу амаллар виртуал оламдаги нормал ўзаро алоқа, деб эътироф этилади. Бунда виртуал воқеликнинг мазмуни дунёни такрорлашдан иборат эмас, аксинча у мазкур дунёга киришга ёки уни тулдиришга йўналтирилган[47].

Компьютерли виртуал реаллик таълим жараёнининг шаклланишига ҳам ўзининг таъсирини кўрсатмоқда компьютер технологиялари асосида яратилганвиртуал кўргазмали қуролни таълим жараёнида ишлатиш ўқитувчига катта ёрдам кўрсатади, унинг дарсини, равшан, тушунарли қилади, исбот ва асослашни кучайтиради, жараёнлар ва ҳодисаларни кераклича тезлатиб, секинлатиш, орқага қайтариш имкониятларини беради.

Виртуал кўргазмали жараёнларни ифодалашда асосан компьютер ва интернет тармоғидан фойдаланилади. Буларнинг талим жараёнига кириб келиши таълимга оид янгича тушучаларни шакллантирди. Хусусан, “виртуал таълим”, “виртуал лаборатория”, “виртуал кутубхона”, “электрон дарслик” ва бошқалар шулар жумласидандир.

Компьютердаги графикли-виртуаллар туфайли ҳар хил вақт ва маконда туғилган ғояларни бир-бири билан таққослаш, асосий мазмунга урғу бериш, сўз ва тасвирни органик, яъни оқилона боғланиш имконияти пайдо бўлади. Бунда турли виртуал модел ва схемалардан фойдаланиб янги ғоя ва назариялар яратиш ҳодисасини амалга ошириш мумкин. Интернетни тадбиқ қилиш эса масофавий таълим технологияси-виртуал таълимни келтириб чиқаради. Бу

---

[46]**Шизофрения** (юн. бўлинишваақл, онг, фикр) руҳийкасаллик: Немиспсихиатрии Е.Крепелин 1898 йилбиринчи марта ушбу касалликни «Илкэсипастлик» дебномлаган. Шизофрениянинг асосида фикрлаш, мулоҳаза юритиш жараёнининг бузилиши ётади. Унда ҳиссиёт, ирода, фикрлаш ва хулқ-атворнинг бузилишлари устун бўлиб, васваса, иллюзйя ва галлюцинациялар пайдо бўлиши хос.

[47]Қаранг: Н.Шермухамедова,Фалсафавафанметодологияси.Тошкент 2005: б-93-95

тизим орқали турли умумтаълим мактаблари ўртасида виртуал фикр ва ғоялар алмашинуви юқори босқичга кўтарилади. Виртуал таълим жараёнида қатнашчилар ўртасида виртуал маконнинг шаклланишига олиб келади.

Аудиторияда турли виртуал кўргазмалар асосида дарс ўтишнинг асосий мақсади ўқувчида виртуал оқимни тасаввур шаклида кўришни шакллантириш эмас, балки бир вақтда бўладиган ҳар хил воқеалар, товуш шаклларини эмоционал ҳис қилишни шакллантириб назарий таҳлил даражасини кучайтиришдир. Бу доим инсоннинг ички экранига – ўқувчининг кенг қамровли онгига келаётган ҳар хил информацион жараёнларни образли сентизлаб янги фикрларни туғдиради.Виртуал кўргазмали қуроллар президентимиз айтганидек "...ўғил-қизларни болалигиданоқ билимли ва фазилатли этиб тарбиялаш, бунинг учун мактабгача таълим муассасаларига методик ёрдам кўрсатишда"[48] муҳим аҳамият касб этади.

Виртуал кўргазмали восталар ёрдамида бирон бир ижтимоий-ҳаётий муаммони таҳлил қилиб анализ қилиш ўқувчида шу масала юзасидан башорат қилиш имкониятлари яратилмоқда. Чунки виртуал кўргазмали воситалар инсоннинг олдин бўлган, ҳозир кўриб ўтган ва келажакда бўладиган хар хил аниқ вазиятларни виртуал эсга олиб сентизлаш жараёнигача олиб боради. Бу ерда ўқувчи предметлар ҳақидаги яққол кўзга ташланиб турадиган образларни мужассамлаштириб қолмасдан, балки образларнинг ифодаланиши, вужудга келиши, олдин учратмаган янги реалликни, янги педагогик системани, янги қиёфаларни умумлаштириб ижодий фикрини шакллантиради.

Умуман олганда, виртуал кўргазмалар ўқувчида ижод ҳақида тассаввур қилиш имконини беради. Ижод билан шуғулланиш ўқувчида йўналтирилган соҳавий инновацион тафаккурнинг шаклланишига олиб келади. Йўналтирилган соҳавийлашган инновацион тафаккурнинг шаклланиши заминида янгиликни ишлаб чиқиш, тадбиқ қилиш ва тарқатишга қаратилган инновацион корхоналарнинг яратилиши ва шу орқали реал меҳнат жараёнининг вужудга келиши ётади.

Фақат ўрганиш эмас, балки виртуал объект ва қонуниятларни билиш асосида виртуал реалликни ўзлаштириш, сунъий виртуал реаллик технологияларини (маданиятда, санъатда, таълимда, иқтисодиётда ва ҳоказо) амалий фаолиятида татбиқ қилиш ва шу орқали ҳозирги замон инновацион тараққиёт даражаси ва босқичига ўтиш мақсад қилиб қўйилмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, компютер технологиялари ва виртуал оламдиги турли жараёнлар ва уларнинг инсон ҳаёт фаолиятидаги аҳамиятини таҳлил қилиш олдимизда турган муҳим ижтимоий, онто-гносеологик муаммолардан бири бўлиб турибди.

## Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Идея информационного общества и internet // http:// 5 ka.ru.72.171 54.1.html;

[48] https://president.uz/uz/lists/view/4089

2. Клименко С.В., Уразметов В.Ф. INTERNET: среда обитания информационного общеста. Противно: РЦФТИ, 1995. -327 с.;

3. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика,общество и культура. Пер. с англ. -М.:Изд-во ГУВШ - Э, 2000. - С 606.;

4. Иванов Д.В. Виртуализация общества //Социология и социальная антропология. СПб,1997.

5. Кушаков Ш.С. На пути к новой парадигме философского мышления // Ўзбекистон мустақиллигининг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий ривожланиш масалалари (ҳалқаро конференция маърузалари, Самарқанд, 1997 йил 18-20 ноябрь).- Самарканд: СамДУ, 1997. –с. 3-4.

6. Н.Шермухамедова, Фалсафавафанметодологияси .Тошкент 2005: б-93-95

7. Носов Н.А. Виртуальная реальность. Вопросы философии. №10. 1999. –с 156-158

8. Розин В.М. Существование, реальность, виртуальная реальность //Концепция виртуальных миров и научное познание. - СПб, 2000.

9. Нуруллин Р.А. Виртуальность как основание бытия. Монография. - Казан: КазГУ, 2004

10. https://president.uz/uz/lists/view/4089

# XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTEGRATSION ALOQALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI

**Norova Nargiza Xalmamat qizi**
Nukus davlat pedagogika instituti 13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ichta’lim) mutaxasisligi II bosqich tayanch doktoranti
E-mail: norovanargiza592@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada xorijiytillarni o‘zlashtirish naqadar muhimligi va uni boshqa fanlar bilan aloqadorligini oshirish natijasida ma’lumotlar bazasini kengaytirish to‘g‘risida tavsiyalarberilgan, xulosalarchiqarilgan. Ta’lim bosqichlarida xorijiy tillarni o‘qitishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanishning yutuqlari ochib berilgan.

**Kalitso‘z:** Xorijiy til, integratsiya, CLIL, tabiiy fanlar, dars jarayoni, til ko‘nikmalari, kommunikatsiya.

**Аннотация**: в данной статье рассмотрена важность изучения иностранных языков и повышения его связи с другими предметами, в результате чего даны рекомендации по расширению базы данных, сделаны выводы. Достижения в использованиимеждисциплинарности в обучении иностранным языкам выявлены в педагогических исследованиях.

**Ключевые слова:** Иностранный язык, интеграция, CLIL, естественные науки, учебный процесс, языковыенавыки, общение.

**Abstract:** in this article, the importance of learning foreign languages and increasing its connection with other subjects, as a result of which recommendations to expand the database were made, conclusions were drawn. The achievements of the use of interdisciplinarity in the teaching of foreign languages have been revealed in educational researches.

**Key word:** Foreign language, integration, CLIL, natural sciences, teaching process, language proficiency,communication.

Hozirgi globallashuv jarayonida ko‘plab ma’lumotlarni toppish va ular bilan ishlash, ularni to‘g‘ri talqin etish, asoslilarini saralash, tajribalar almashish uchun ham xorijiy tillarni bilish juda muhim hisoblanadi. Hamma vaqt dunyo bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘z faoliyatini yuksak cho‘qqisiga chiqishga harakat qilishgan va bu jarayon davom etib kelmoqda. Bir tadqiqot boshqa bir makonda o‘zgacha uslubda izlanayotgan, yoki asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu bois, barcha kerakli va to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish, uni ta’lim va davlat rivojiga hissa qo‘shish uchun xorijiy tillarni bilish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan islohatlar xorijiy tillarni o‘rganish uchun keng imkomiyat ochib bermoqda va bu shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun naqadar muhimligi aks ettirmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida [3]

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-yanvar 2022-yildagi 340-sonli “Xorijiy tillarni oʻrganishni takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”qarori ishlab chiqildi, koʻplab ishlar amalga oshirildi va amalga oshib kelmoqda. Chet tillarini oʻrgatish ta’limning ilk bosqichlaridan boshlangan va bu tilni oʻrgatishga tayyorlov kurs deb qarasak boʻladi. Negaki, bunda bolalarga ma’lum mavzuga doir tizimlashtirilgan soʻzlarni yod oldirishdan boshlanadi.

Bugungi kunda bilimlarni oʻquvchilarga yetkazib berishda eng samarali usullardan biri bu- integratsiyadir. Fanlarni oʻzaro integratsiyalash olinayotgan bilimlarning sifat darajasini oshishiga xizmat qiladi. Har bir darsni integratsiya qilib boʻlmaydi. Dars davomida fanlararo aloqadorlikdan foydalanishda, avvalo, mavzular bir-biri bilan oʻzaro mos boʻlishi kerak. Oʻquv jarayoni integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi, integratsiya tizimini takomillashtiradi, kamchiliklarini bartaraf etadi. Predmetlar orasidagi aloqalar va bogʻliqliklarni chuqurlashtiradi, bunday yondashuvlar differensiva va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi. Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega boʻlgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, u integratsiyani amalga oshirishda oʻqituvchilarga yordam berishdir [177, 1].

Bugungi kunda eng dolzarb kommunikativ texnika bu intergatsion aloqalardir. Dunyo boʻyicha xorijiy tillarni integratsiya qilib oʻqitish uchun CLIL (CLIL - Content and Language Integrated) metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ya’ni mavzu va tilni integratsiya qilishni oʻrganish. CLIL harqanday narsani oʻzlashtirishga asoslangan oʻqitish usuli sifatida talqin qilinadi. Chet tiliorqali fan sohasiva fan orqali chet tili. CLIL atamasi D. Marsh tomonidan kiritilgan va barcha oʻquv fanlari boʻlgan vaziyatlarni tasvirlab bergan yoki fanlarning bir qismi oʻquv fanini oʻzlashtirish uchun chet tilida oʻqitildi va bir vaqtning oʻzida chet tilini oʻrganishga sharoit yaratiladi.

CLIL metodologik yondashuvining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- chet tillari orqali fanni, maxsus terminologik bazani oʻrganish, til va keying kasbiy faoliyatga tayyorgarlik;
- Ijtimoiy-lingvistik jihatdan rivojlanish uchun sharoit yaratish, muloqot qobiliyatlari, chettilini chuqurroq oʻrganish va orttirilgan malakalardan amaliy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari;
- Kognitiv va tarbiyaviy jihatdan oʻquvchilarning motivatsion komponenti, oʻzlashtirish va turli xil foydalanish ta’lim strategiyalari, ta’lim faoliyati shakllari va turlarini oshirishga yordam beradi[3,2].

Yuqoridagi fikrlardan xorijiytilarni oʻrganish naqadar muhimligini anglash qiyin emas. Hozirgi kundagi eng dolzarb masalardan yana biri oʻquvchilarga ekologik tarbiya berishdir. Bu jarayonni hayotning har bir bosqichida berish boorish lozim, ammo ilmiy asoslarga tayangan holda maktab davridan boshlanadi. CLIL metodologiyasiga asoslanib oʻquvchilarga tabiiyfanlarni oʻrgatishda xorijiy tillardan foydalanish orqali, bir vaqtning oʻzida ham bilim olish, ham til oʻrganish qobiliyatlarini shakllantirish mumkin. Maktab fan dasturlari ham mavzular

izchilligini ta’minlagan holda tuziladi. Fanlar aloqadorligi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Hozirda global muammolarning aksariyat qismi tabiat bilan bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchilarga tabiiy fanlarni o‘qitishda xorijiy tillarni o‘rgatish, yoki aksincha xorijiy tillarni o‘qitishda tabiatga muhabbatni uyg‘otish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy tillarni bilish orqali o‘quvchilar jahondagi bo‘lgan va bo‘layotgan voqea-hodisalar, olingan ma’lumotlar bilan tanishishadi. Buning natijasida olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlarining malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Har qanday vaziyatda ham xorijiy tillarni o‘rganish, ularni boshqa fan predmatlari bilan bog‘lash o‘z natijalarini berib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, xorijiy tillarni o‘qitishda, integratsion tarzda olib borilgan bilim berish jarayonida o‘quvchilar quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

- Bir tushunchaning boshqa sohalarda ham qo‘llanilish o‘rni va ahamiyatini ongli tarzda anglash;
- Bir vaqtda bir necha fanlarni o‘zaro bog‘lash va ma’lumotlar bazasini kengaytirish;
- ma’lumotlarni sohaga oidlarini saralashga o‘rgatish;
- asosli manbalarni ajratish va ularni hayotda qo‘llay olishga sharoit yaratish;
- xorijiy tillarni o‘rganishda yod olish qobiliyatini mexanik emas, mantiqiy tarzda amalga oshishga ko‘maklashish;
- xorijiy tillarni boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ma’lumotlar biri ikkinchisini to‘ldirishi, fiklash qobiliyatini yuksalishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

**1.** Mavlyanova Raxima.Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiva va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.

**2.** Поленова А.Ю. Интеграцияиностранного языка и содержания профессионально-ориентированных дисциплин в вузе // Интернет-журнал «Мир науки» 2017, Том 5, номер 5 https://mir-nauki.com/PDF/15PDMN517.pdf (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ. 3

**3.** https://lex.uz/docs/-5831978

# “FARZAND” KONSEPTINING LISONIY VOQELANISHI

**Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi**
Namangan davlat universiteti O‘zbek tili ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti
nargizatilshunos29@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada til va madaniyatning o‘zaro aloqasi, lingvomadaniyatshunoslikning vazifalari, “Farzand” konseptining lingvomadaniy va etimologik xususiyatlari, “Farzand” konseptini hosil qiluvchi so‘zlar va ularning badiiy matn takomiladagi o‘rni haqida ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** til, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, farzand, madaniy konsept.

**Annotation:** In this article, the interrelation of language and culture, the functions of linguacultural studies, the linguistic and etymological characteristics of the concept of "Child" the words that form the concept of "Child" and some thoughts and conclusions about the place they occupy in literary texts are discussed.

**Key words:** language, culture, linguoculturology, child, linguocultural concept

**Аннотация:** в данной статье высказаны некоторые мнения о соотношении языка и культуры, задачах лингвокультурологии, лингвоэтимологических особенностях понятия «Ребенок», словах, составляющих понятие «Ребенок» и их место в развитии художественного текста.

**Ключевые слова:** язык, культура, лингвистика, ребенок, культурная концепция.

Til doimo jamiyat bilan bog‘liq bo‘lib, xalq bilan yashaydi, taraqqiy etadi va o‘zining qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Til-millatning obro‘si, milliy an’ana va madaniy meroslarini avloddan avlodga tashuvchi kumulyativ vosita. Har bir xalqning milliy g‘ururi, urf-odalari, e’tiqodlari, olamni anglash tafakkuri bevosita tilda aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig‘ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmun-u mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir [1,82].

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari ming yillik tarixga ega. Bu munosabatlarning tilda aks etishini tadqiq etuvchi yangi fan tarmog‘i lingvomadaniyatshunoslik sanaladi. Bu yo‘nalish jonli milliy tilda va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘rganadigan ijtimoiy fan [2,24]bo‘lib, lingvokulturema, madaniy konsept, madaniy an’analar, submadaniyat, lakunalar va boshqa birliklarni tadqiq qiladi. Hozirda konsept bo‘yicha ilmiy ishlar o‘zbek tilshunosligida ham salmoqli o‘ringa ega. Konsept kognitiv va lingvomadaniy birlik, tushunchaga nisbatan kengroq ma’nolarni anglatadi. Maqolamizda “Farzand” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari, farzand bilan bog‘liq ayrim tushunchalarning etimologiyasi tadqiq qilingan.

Konsept mental tuzilma bo‘lib, til egalarining ongida bir-biriga o‘xshamagan tushunchalar va leksemalar bilan birga saqlanib turadi. **“Farzand”konsepti** bilan

bog‘liq ayrim so‘zlar quyidagicha uyadoshlik hosil qiladi, ya’ni 1) go‘dak, chaqaloq, bola, avlod, zurriyot, nasl, bola-chaqa, bola-baqra, o‘g‘il, qiz, qizaloq, o‘g‘lon, uli, jiji/chichi/ninni, buvak (shevalarda) kabi otlar; 2) norasida (go‘dak), murg‘ak, mitti, kichik, jajji, ma’sum, mahmadona, shum (bola), yuvosh kabi sifatlar; 3) to‘ng‘ich, o‘rta, kenja kabi nisbiy sifatlar; 4) yo‘rg‘alamoq, emgachalamoq, yo‘rgaklamoq, farzand ko‘rmoq, farzand kutmoq, bola parvarish qilmoq, tarbiyalamoq, erkalamoq, uyg‘aymoq, dumalamoq, yig‘lamoq, o‘yin o‘ynamoq, rivojlanmoq kabi fe’llar; 5) xumpar, bo‘taloq, qo‘zichoq, toychoq, targ‘il kabi hayvon bolalari nomlari; 6) beshik, belanchak, alla, bolalar aravachasi, o‘yinchoq, qo‘g‘irchoq kabi buyumlar 7) tarbiya, axloq, odob kabi tushunchalar kishilar ongida shu tarzda namoyon bo‘ladi va nutqqa tayyor holda turadi.

Konseptlar o‘zi bir millatning tarixini, dunyoqarashi, mentalitetini, hududiy til koloritini, hissiyotlari va emotsiyalarini o‘zida jamlaydi. Konsept jamiyat taraqqiy etgan sari tilda va madaniyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

“Farzand” konsepti bilan bog‘liq so‘zlarning etimologiyasiga e’tibor qaratsak, **farzand** – bola, o‘g‘il-qiz; nasl. Bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o‘g‘il yoki qiz (ota-onaga nisbatan); bola [3,328]ma’nolarini anglatadi. Farzand so‘zi uslubiy betaraf so‘z bo‘lib, asosan adabiy so‘zlashuv nutqida, sinonimlari esa badiiy uslub va shevalarda faol qo‘llanadi.

Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da farzand leksemasini shunday izohlaydi: “bu tojikcha ot “ota-onaning bolasi” ma’nosini anglatadi (ТжРСБ 406); adabiy o‘zbek tilida shu tovush tarkibi bilan aytiladi va shunday yoziladi (ЎТИЛ, II, 295); so‘zlashuv tilida f tovushi p tovushiga almashtiriladi, ba’zan oxirgi d tovushi talaffuz qilinmaydi” [4,332].

Sputniknews.uz saytida prof. Y.Odilov “O‘zbekning o‘z so‘zlari” ruknida “bola-chaqa”, “bola-baqra” so‘zlarini izohlab bergan. **Bola-chaqa** “katta-kichik yoshdagi bolalalar”, “oila a’zolari, xotin va bolalar” ma’nolarini bildiradi. Maqolada chaqa so‘zining dastlab “go‘dak” ma’nosini bildirishi, turkman tilida yoki ayrim o‘g‘uz shevalarida ham chaqa so‘zi “go‘dak bola”ni anglatishi aytib o‘tilgan. **“Bola-baqra”** esa “katta-kichik bolalar” ma’nosi bildiradi, qadimgi turkiy tildabaqir fe’lining bir necha ma’nosi bo‘lgan, shu ma’nolaridan biri “yig‘lamoq” ekanligi muallif sharhlagan. Xulosa qilib shu aytadiki, bola-baqra so‘zida dastlab “yig‘laydigan yoshdagi bola” ma’nosi ochiq ifodalangan, keyinchalik bu ma’no xiralashib, “katta-kichik bolalar”, “har xil yoshdagi bolalar” ma’nosi ustunvorlashgan [5].

E.Vohidov “So‘z latofati” kitobida **chaqa** so‘zini insonning bolasiga nisbatan qo‘llanishini izohlaydi, ya’ni tosh maydalab chaqa degan inson uchun hamma mayda narsalar chaqa bo‘ldi. Pul maydalab chaqa dedi. Mayda bolasini bola-chaqa dedi. Eng maydasi chaqaloq[6,15].

E.Shukorov “Boboso‘z izidan” kitobida esa **chaqa** so‘zini arzimas, mayda mazmuni emas, qimmatli ma’nosini bildirishini, chaqaloqni shu so‘zdan hosil bo‘lganligini aytib o‘tgan.

**Go‘dak** – yosh bola, chaqaloq. Emadigan, ko‘krakdan ajratilmagan, odatda bir yoshgacha bo‘lgan bola; chaqaloq [7,529]ma’nosini bildiradi. Chaqaloq so‘ziga nisbatan darajasi yuqori. **Chaqaloq** – yangi tug‘ilgan bola; go‘dak [3,465]. Ko‘rinadiki, “Farzand” konsepti voqelantiruvchi so‘zlar o‘z ichida ma’noni anglatish darajasi, uslubiy xoslangangligiga ko‘ra darajalanadi.

**Jiji** so‘zi k>ch>j hodisasi orqali kichik so‘zidan tug‘ilgan: kichik>kichi:>chichi [8,57] shaklida fonetik o‘zgarishlarga uchrab, hozirda shevalarda faol qo‘llanadi. Vodiy hududida chaqaloqni chichi/jiji/nini nomlari bilan ataladi. Bu nomlar yangi tug‘ilgan, hali yosh bolalarga nisbatan qo‘llaniladi.

“Farzand” konsepti **tirnoq, tuyoq, qarog‘**kabi qism orqali butunni ifodalovchi so‘zlar orqali ham ifodalanadi. Ruscha qorachiq ma’nosidagi малчик so‘zini eslatadi. Biz o‘zimiz ham farzandimizni **qarog‘im**deymiz. Bolani ko‘z qorachig‘iga tenglash deyarli barcha turkiy tillarga xos [6,59]. Badiiy matnda **chirog‘im** so‘zi “oilani chirog‘ini yoquvchi”, “naslni davom ettiruvchi” bolaga nisbatan ishlatiladi.

“Hechqisi yo‘q, ishga pishasan, qorning to‘q bo‘lsa, bas, **chirog‘im**”, deb aldab-suldab jo‘natardim men gumroh (Oybek “Bolalik xotiralarim” 28-b).

Badiiy asarlarda farzand obrazining xarakterini ochib berish uchun leksik-semantik va uslubiy-badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Oybekning “Bolalik xotiralarim” qissasida xuvari, azamatcha, xumpar, tentak, shumtaka, o‘g‘ilcha so‘zlari; tixirlik qilmoq, chuvvos solmoq, g‘illamoq, “paq-paq” o‘ynamoq, ag‘raymoq, g‘alva qilmoq, xarxasha qilmoq, ermak qidirmoqkabi fe’llari orqali bola obrazi gavdalantirilgan.

– Hoy, yiqilib ketasan, **xuvari**! – koyinadi bobom o‘rnidan bazo‘r turib, qo‘limdan ushlaydi-da, uyga olib jo‘naydi (Oybek “Bolalik xotiralarim” 5-b).

**Xuvari** so‘zi ko‘p o‘rinda murojaat qilishda ishlatilgan va hazil aralash yengil so‘kish shakli: shumtaka, shayton, xumpar, xumsa kabi [3,419]ma’nolarini bildiradi. Qissada qo‘llangan so‘zlardan ko‘rinadiki, asosan kattalar tomonidan yosh bolalarni yengil so‘kish, erkalash uchun shunday so‘zlar qo‘llangan.

Yoki boshqa asarlarda tentagim, erkatoyim, podshoyim, qandak o‘rigim, ona qizim, ota o‘g‘il, kichkintoyim, mittivoyim, arzandam, merosxo‘rim kabi erkalash so‘zlari orqali obrazlarning his-tuyg‘ulari ko‘rsatilgan. O‘z xalqi bolajon, bu xususiyat kundalik turmushda ishlatiladigan so‘zlarida ham aks etgan.

– Qayoqlarda yurgan eding, bolam? Ko‘zim ochiq paytlarda qayoqlarda eding, tentagim? (S.Ahmad “Jimjitlik” 6-b). Ota-onalar **tentagim** deb murojaat qilganida o‘z bolasiga kuyinish, achinish va suyishini namoyon qilgan.

“Farzand” konsepti farzand komponentli maqollarda ham aks etgan. “Odobli o‘g‘il – ko‘kdagi yulduz, Odobli qiz yoqadagi qunduz”, “Yaxshi bola yog‘ keltirar, Yomon bola dog‘ keltirar”, “Qizim uyda, qilig‘i tuzda”, “Tulpordan tuyoq qolar, Shunqordan qiyoq qolar”, “Bolasiz xotin sumakka to‘ymas” kabi maqollar orqali biz uchun milliy madaniyat, farzand tarbiyasi va odob-axloq bosh mezon ekanligini ko‘rish mumkin.

“Qazisan, qartasan, asl zotingga tortasan”, “Olmaning tagiga olma tushadi”, “Nima eksang, shuni o‘rasan”, “Otning ichi qartadir, asl zotiga tortadir”kabi majoziy

ma’noga ega maqollarda ham farzand tushunchasi aks etgan. Ota-bolalarning xarakteri, nasl-nasabi va yurish-turishi zurriyotlarga o‘tishi tasvirlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Farzand” konseptining badiiy matn takomilida alohida o‘ringa ega. “Farzand” konsepti leksik qatlamning katta qismini o‘z ichiga oladi. Farzand ma’nosi bildiruvchi leksemalar milliy an’ana va urf odatlar, maqollar, metafora, o‘xshatish va hatto ko‘p o‘rinlarda frazeologizmlar tarkibida ham uchraydi. “Farzand” konsepti hosil qilgan so‘zlar etimologiyasida “kichik, mayda” semalari aks etgan hamda bu konsept lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sanalmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 82.

2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. –B. 24.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 4-ж. – Б. 328.

4. Раҳматиллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III. –Тошкент: Университет, 2009. –Б. 232

5. Odilov Y. Mamot, zaqqum, baqra, chaqa, anda, yorti, siqtab so‘zlarining ma’nosini bilasizmi? https://oz.sputniknews.uz./amp/20230725/hayot-mamot-bola-chaqa-yarim-yorti-juft-sozlarning-manolarini-bilasizmi-36966174.html

6. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент:O‘zbekiston , 2014. – Б. 15

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 1-ж. Б. 529.

8. Маматов А. Этимологик кузатишлар (Ўзбек тили материаллари асосида). – Тошкент, 2010. – Б. 57

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.

**Rozmamatova Mexriniso Xudoynazar qizi.**
Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal’a pedogogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich ta’limda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati va ular bo‘yichaqo‘llanmalar yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika, mashg‘ulot, misol, sinf, bilim, o‘quvchi, natija.

**Kirish:** Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda ko‘pincha yuqori sinflar nazarda tutiladi. Lekin ilg‘or tajribalarning tasdiqlashicha, boshlang‘ich sinflarda ham sinfdan tashqari turli tuman formalarda mashg‘ulotlar olib borishning potensial imkoniyatlari mavjud. Bu imkoniyatlardan foydalanish o‘qitishda boshlang‘ich va yuqori sinflar uzviyligini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda o‘quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirishga kompleks holda yondashish talab qilinadi.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta’lim tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni benihoya katta. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin. Darsdan tashqari qilinadigan ishlar o‘quv reja asosida ya’ni darslik talablarini bajarishga qaratilgan bo‘lib, bunga sinfdagi barcha talabalar bevosita ishtirok etiladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan asosiy maqsadi reja va darslikdan tashqari o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalar berish, ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiq qila bilishga yordam berishdan iborat.

**ASOSIY QISM:** Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning mohiyati: Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta’lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O‘quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, ximiya va boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun boshlang‘ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta’lim- tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta’sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar

deganda o‘quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlarni tushunamiz.

Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar, sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi.

■og‘zaki hisob ko‘pincha sinfdagi hamma o‘quvchilarning yana, yana» degan istaklari bilan o‘tkaziladi. o‘quvchilarning talabiga ko‘ra, darsda boshlangan ishlarning davomini darsdan tashqari vaqtga ko‘chirish mumkin. o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni oldin ularning talabiga ko‘ra, so‘ngra yechiladigan misol, masalalar, o‘yin va qiziqishning ortishiga qarab oyida ikki marta sistemali o‘tkazib turish mumkin. chunki dasturni bajarishda bunday qiziqarli masalalarni yechish, o‘yinlarni tashkil qilish, topishmoqlar topish, tez hisoblash mashg‘ulotlarini darsda ko‘proq o‘tkazishga imkoniyat yo‘q.

■tajribalar bizni shu narsaga ishontiradiki, o‘quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko‘tarinki ruhda faollik bilan ishlaydilar.

■bunday mashg‘ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo‘lishi kerak. bu masalalarda qiziqarli matematikaga doir ko‘rsatma qurollar, sanash jadvallari, figuralarni sanash, plakat formasidagi o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

■Mashg‘ulotlarni o‘tkazishga ketadigan vaqt ularga qo‘yilgan maqsadga qarab aniqlanadi. Agar o‘quvchilar bilan uchrashish darsdan keyin o‘tkazilsa va o‘z oldiga biror o‘yin bilan tanishish maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa, bu holda bunday mashg‘ulotga dastlabki paytlarda 10-15 minut vaqt yetarli bo‘ladi. O‘quvchilar o‘yin bilan tanishgandan keyin, odatda ular ko‘pincha o‘zlari ota-onalari, aka-ukalari va boshqalar bilan ham shunday o‘yinni bajaradilar, ya’ni ularni ham jalb qiladilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. L.ShLevenberg va boshqalar "Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi" Toshkent "O‘qituvchi" 2015-yil.

2. Bikbayeva N va boshqalar "Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi" Toshkent "O‘qituvchi" 2016-yil.

3. Trudnev V.P "Boshlang‘ich maktabda matematikadan sinfdan tashqari ishlar" M. Ma'rifat 2015.

# АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ ВА ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЪНАВИЙ АХЛОҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

**С.Т.Абдуллаев**
Самарқанд давлат университети. Социология ва ижтимоий иш кафедраси доценти.

**Annotatsiya:** Инсон шахсининг шаклланишидаги биринчи босқичи оила булиб, оила муҳитида биоижтимоий сифатга эга бўлган тузилма сифатида жамиятнинг барқарор дастлабки бўғига кириб бориши. Ёшлар барча даврларда жамиятнинг интилувчан, ҳаракатчан фаол қатлами сифатида эътироф этиб келинган. Давлат томонидан ёшларнинг мамлакат манфаатлари йўлида эркин ижтимоийлашуви ва ўзини самарали намоён этиши учун мақбул шароит ва имконият яратиш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар тизими ёшларга оид давлат сиёсатини англатади.

**Kalit so'zlar:** Ижтимоийлашуви, интеграция, Инсон шахси, жараён, ёш-авлод, глобаллашув.

Бугунги кунда глобаллашув инсоният жамияти тараққиёти ва ижтимоий жараёнларнинг жаҳон миқёсида интеграциялашиб, оламшумул аҳамият касб этиб боришини ўзида ифодаловчи тушунча бўлиб, жамиятдаги ҳар бир инсон, қолаверса, ижтимоий ҳаётга қадам қуйиб келаётган ҳар бир ёшавлодга ўз таъсирини ўтказмоқда. Бу шиддат билан илдам кетаётган жамият ҳаёти нафақат, жамият соҳаларида балки, ҳар бир инсон, фаолиятида фаолликни талаб этмоқда. Айниқса, ҳар бир ёш-авлоднинг ижтимоий ҳаётга кириб келишида уларнинг фаолиятидаги фаоллигига қараб уларнинг жамиятга ижтимоийлашиши фарқланади.

Барчамизга маълумки, ёшларнинг ижтимоий ҳаётга кириб боришида энг аввало, оиланинг, оилавий муҳитнинг ўрни беқиёсдир. Инсон шахсининг шаклланишидаги биринчи босқичи оила булиб, оила муҳитида биоижтимоий сифатга эга бўлган тузилма сифатида жамиятнинг барқарор дастлабки бўғига кириб боришади. Гўдак оилада илк бора ижтимоий-маданий қадриятларни ўзлаштиради ва улар заминида фаоллигини ошириб боради. “Бу борада оилалар мустаҳкамлигигини таъминлаш, оиланинг фарзанд тарбияси борасидаги масъулиятини ошириш, оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш, жамиятда тинчлик ва барқарорликни сақлашда оиланинг тутган ўрнини кўрсатиш ҳамда оила институтининг мавқеи оширилмоқда”[49].

Бу жараёнда, ота-онанинг оила бошқарувида, фарзанд тарбиясидаги фаолиятида тизимли тарбия беришнинг ўрни беқиёсдир. Оилада уюштирилажак ахлоқий тарбиянинг мақсади болаларда энг олий ахлоқий сифатлар ота-она ҳамда оиланинг бошқа аъзолари, шунингдек, атрофдагиларга

[49] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги 4947-сон Фармони, 237-банд.

нисбатан меҳр-муҳаббат, катталарга ҳурмат, кичикларга мурувват, камтарлик, тўғрисўзлик, меҳнатсеварлик, саҳоват, инсонпарварлик, адолат, виждон, ор-номус, ғурур, интизом, ижтимоий бурчни англаш ва ҳоказоларни шакллантиришдан иборатдир.

Ёшлар барча даврларда жамиятнинг интилувчан, ҳаракатчан фаол қатлами сифатида эътироф этиб келинган. Давлат томонидан ёшларнинг мамлакат манфаатлари йўлида эркин ижтимоийлашуви ва ўзини самарали намоён этиши учун мақбул шароит ва имконият яратиш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар тизими ёшларга оид давлат сиёсатини англатади. Ўзбекистонда ёшлар тарбияси, уларнинг маънавиятини, ҳуқуқий онги ва маданиятини, билим, дунёқарашини юксалтириш ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш асосида олиб борилмоқда.

Ҳозирги даврда Ўзбекистонда олиб борилаётган демократик ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад ҳам ёшларнинг юксак маънавий маданиятга эришувини таъминлаш, соғлом авлодни тарбиялаб вояга етказиш, ҳар томонлама янгича фикрлайдиган маънавий баркамол инсонни тарбиялаш, ахлоқий ва руҳий жиҳатдан пок ҳамда етук авлодни камол топтиришдан иборатдир. Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш масаласининг давр руҳи билан уйғунлашиб боришини Т.Махмудов қуйидагича эътироф қилади: “Ёшлар ҳаёт майдонига қадам қўяётган эканлар, қайси томонга қарайдилар (орқагами, олдингами), кимга эргашмоқдалар, нимани орзу қилмоқдалар, ўз ёшлик кучи, истеъдоди ва имкониятларини нимага сарф қилмоқдалар – булар бевосита миллат ва мамлакат истиқболини белгиловчи масаладир. Ана шу маънода ёшларга бефарқлик истиқбол мевасининг илдизига болта уриш билан баробар бўларди[50].

Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш  ҳақида фикр юритилар экан, энг аввало тафаккур тушунчасининг ўзига  эътиборни қаратиш максадга мувофиқдир.

Мавжуд адабиётларда тафаккур ҳақида қуйидаги таърифлар берилган бўлиб, биринчи таърифга кўра, Тафаккур инсон ақлий фаолиятининг юксак шакли; объектив воқеликнинг онгда акс этиш жараёнидир.  Интернетнинг islom uz. сайтида тафаккурга қуйидаги таъриф, Тафаккур нафсни поклайдиган ва ахлоқни сайқаллайдиган энг муҳим омиллардан биридир. Тафаккур “фикр” ўзагидан олинган бўлиб, бир нарса ҳақида чуқур фикр юритиш маъносини англатади, деган таъриф берилган. Куйидаги таърифда тафаккурнинг психологик жиҳатларига эътибор қаратилган бўлиб, бу таърифга кўра, Тафаккур ижтимоий сабабий, нутқ билан чамбарчас боғлиқ, муҳим бир янгилик кидириш ва очишдан иборат психик жараёндир. Тафаккурга гносеологик ва фаолиятли ёндашув асосидаги таъриф Интернетдаги “Тафаккур бирла қилмиш одамизод” деб номланган сайтда берилган бўлиб, бу таърифга кўра, Тафаккур инсон ақлу фаолиятининг юксак  шакли, атроф муҳитни, ижтимоий

[50] Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. Тошкент, Шарқ, 2001 йил, 120 бет.

ҳодисаларни, воқеликни билиш қуроли, шунингдек, инсон фаолиятини амалга оширишнинг асосий шарти саналади.

Мустақиллик шароитида тафаккур маданияти ва мустақил фикрлаш ҳар бир ёшнинг қобилияти, оламга фаол муносабатини, малакасини таркиб топтиришдаги муҳим маънавий омил бўлиб, ўзининг қадр-қимматини англайдиган, иродаси бақувват, иймони бутун, ҳаётда аниқ  мақсадга эга бўлган инсонларни тарбиялаш масаласи Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотлар жараёнидаги асосий масалалардан бўлиб ҳисобланади.

Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантириш жамиятимиз ҳаётида вужудга келган бир қатор вазифаларни ҳал этишни кўзда тутади. Энг аввало мамлакатимизда бозор муносабатлари жадал шаклланиши шароитида ёшларимиз онгида унга мос иқтисодий тафаккурни шакллантириш талаб қилинади.Иккинчидан, ёшларимиз онгида ҳозирги замон фан-техникаси ва технологияси ютуқларини эгаллаш зарурлигишакллантирилади.Учинчидан, демократик қадриятларни ёшларимиз онгига сингдириш ҳам амалий аҳамиятга эга бўлиб, демократик қадриятларни эгаллаш уларни мустақил фикрлашга, жамиятда ўз ўрнини топишига, ўз-ўзини англаши ва эркин фаолият кўрсатишларига имкон беради.  Тўртинчидан, ватанпарварлик,халқпарварлик, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ёшлар онги ва дунёқарашини шакллантириш масаласига асосий эътибор қаратилади. Бешинчидан, фидойилик туйғусини ёшларимиз онги-тафаккурида мустаҳкам шакллантириш миллий ривожланиш учун зарур омил сифатида эътироф этилади. Фидойилик бу Ватан равнақи йўлида виждонан меҳнат қилиш, шу билан биргаликда у моддий ва маънавий бойликларни асраб-авайлаш, уларни кейинги авлодларга етказиб берилиши билан ҳам боғлиқдир.

Ёшларда янгича тафаккур маданиятини шакллантиришнинг зарурлиги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг  маърузалари, нутқлари ва асарларида ҳам доимо эътибор қаратилиб келинаётган масалалардан бири  бўлиб, - Фарзандларимизни мустақил фикрли, замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган, мустаҳкам ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади , - деб таъкидлайди Президент.

Бугунги кунда ёшларни тарбиялашда биринчи ўринга янги техника, технология ва фан ютуқларини ўзлаштириш қўйилмоқда. Хорижий тилларни, янги замонавий техника ва технологияларни ўзлаштириш, бу омилларни тадбиркорлик ва ишбилармонлик билан уйғунлаштириш, уларнинг бирлигига эришиш Ўзбекистон олдида турган асосий вазифани – замонамизнинг ривожланган давлатларидан бири бўлиш вазифасини амалга оширишни тезлаштиради.

Жамиятимизда ёшлар янгича тафаккур маданиятининг мустақиллик билан узвий алокадорлиги масалалари таҳлил қилинар экан, бу тушунчаларнинг бир-бири билан нақадар чамбарчас боғлиқ эканлиги, уларнинг муштарак мазмуни-моҳияти ҳар бир авлод маънавиятини белгиловчи мезон

эканлиги кўзга ташланади. Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, шу жумладан ёшлар учун мустақиллик даври миллий истиқлол маънавиятини тиклаш ва ривожлантириш, миллий тил ва маданиятни тараққий эттириш, миллий ўз-ўзини англаш, миллий ҳис-туйғуларни, ғурурни, ватанпарварликни ўстириш ва мустаҳкамлаш билан боғлиқдир. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ва маънавий тараққиёти жамият аъзолари, ҳар бир шахс ва энг аввало ёшларнинг маънавий камолоти, истиқлол ғояларининг кишилар онгига, кундалик ҳаётига чуқуррок сингишига боғлиқдир. Мустақиллик ҳар бир соҳада ёшларимизнинг янгича тафаккурга эга бўлиши лозимлигини, замон билан ҳамнафас яшаш давр талаби эканлигини кўрсатиб берди.

Бугунги кунда мамлакатимизда қобилиятли, билимли, маънавий, ахлоқий жиҳатдан камолотга етган, мустақил фикрлай оладиган, халқининг равнақи учун хизмат қилишга бел боғлаган фидоий ёшлар жуда кўпчиликни ташкил этади.

Ўзбекистонда бозор муносабатларига асосланган, демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти барпо қилиниб, давлатимиз томонидан олиб борилаётган сиёсатда баркамол инсонни, баркамол авлодни тарбиялаш масаласига давлат ва жамият тараққиётидаги устувор масала сифатида муносабатда бўлинмоқда. Ўзбекистоннинг келажаги, унинг истиқболи, энг аввало ёшларни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ақлий, ахлоқий, жисмоний камол топиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш масаласига бевосита боғлиқ бўлиб, Ўзбекистоннинг ёшлар соҳасидаги сиёсати қуйидаги асосий йўналишларни ўз ичига олмоқда.

1. Ёшларни жисмонан ва ақлан соғлом бўлиб ўсишини таъминлаш.
2. Уларга тадбиркорлик, ишчанлик, мустақил фикр юритиш қобилиятини ҳаётдаги биринчи қадамлариданоқ сингдириш.
3. Ҳар бир ёшни ўз Ватанига муҳаббат ва меҳр, садоқат ва фидокорлик руҳида тарбиялаш.
4. Бу меҳр-муҳаббат ва садоқатнинг илдизи чуқур бўлиши учун ёшлар ўз миллати, ўз юрти тарихини, урф-одатлари ва расм-русумларини, унинг жаҳон цивилизацияси тарихий тараққиётидаги ўрнини ҳар томонлама билишини таъминлаш.
5. Спорт ва жисмоний тарбияни ривожлантириш, спортдан мамлакат ва миллатни улуғловчи холис восита сифатида фойдаланиш.

Бугунги тез ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар очмоқда. Шу билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор қилмоқда. Ғаразли кучлар содда, ғўр болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига, умрига зомин бўлмоқда,-дейди Президент Шавкат Мирзиёев,- Бундай кескин ва таҳликали шароитда биз ота-оналар, устоз мураббийлар,жамоатчилик, маҳалла-куй бу масалада ҳушёрлик ва огоҳликни янада оширишимиз керак. Болаларимизни бировларнинг қўлига бериб қўймасдан, уларни ўзимиз тарбиялашимиз лозим.

Бунинг учун ёшларимиз билан кўпроқ гаплашиш, уларнинг қалбига қулоқ солиш, дардини билиш, муаммоларини ечиш учун амалий кўмак беришимиз керак. Бу борада уюшмаган ёшлар билан ишлашга алоҳида эътибор қаратишимиз зарур .

Бугунги кунда Ўзбекистонда жамият ҳаётининг турли соҳаларида фаолият олиб бораётган ёшлар ва шу билан биргаликда уюшмаган ёшлар билан олиб борилаётган ишларни тизимли ташкил этишга катта эътибор қаратилмоқда. Ёшларни фаоллаштириш, уларнинг ташаббускорлигини ошириш ёшлар тарбиясига ижодий тарзда ёндашиш, тарбия жараёнининг ўзини тизимли равишда ташкил қилишни талаб қилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда биринчи ўринга уларнинг турли тилларни билиши, компьютер техникасини мукаммал эгаллаши, янги техника, технология ва фан ютуқларини ўзлаштириши муҳим вазифа сифатида кун тартибига қўйилмоқда. Бу омилларни тадбиркорлик ва ишбилармонлик билан уйғунлаштириш, уларнинг бирлигига эришиш Ўзбекистон олдида турган асосий вазифани – замонамизнинг ривожланган давлатларидан бири бўлиш вазифасини амалга оширишни тезлаштиради. Ушбу мақсадни амалга оширишда жамиятдаги барча фуқаролар, энг аввало жамиятдаги энг фаол, изланувчан, ишбилармон ва тадбиркор ижтимоий қатлам бўлган ёшлар, шу билан биргаликда уюшмаган ёшлар билан олиб бориладиган ишларни тизимли равишда ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади.

# SOVET DAVLATINING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGIDA O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASINING O‘RNI

**Sarvar Tulkinovich Axmedov**
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti, Qarshi axborot texnologiyalari va menejment universiteti katta o‘qituvchisi.
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ilm-fanning aniq fanlar sohasida XX asrning 60-70 yillarda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining olib borishi, rivojlanishi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademik olimlarining xalqaro konferensiyalarda o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etishi, shuningdek, O‘zbekiston sobiq Ittifoqning tarkibida bo‘lgan davrda ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalarida faol ishtirok etganligi manbalar asosida ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro aloqalar, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, xalqaro simpozium, ilm-fan aloqalari, geologiya, atom energiyasi,xalqaro gidrogeologiya

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие и сотрудничество Академии наук Узбекистана в области точных наук с зарубежными странами в 60-70-е годы XX века, участие академических ученых Академии наук Узбекистана в международных конференциях с их лекциями, также на основе источников показано, что Узбекистан активно участвовал в международных отношениях в области науки в то время, когда он был в составе бывшего Союза.

**Ключевые слова:** международные отношения, Академия наук Узбекистана, международный симпозиум, научные связи, геология, атомная энергетика, международная гидрогеология.

**Abstract:** In this article, the development and cooperation of the Academy of Sciences of Uzbekistan in the field of exact sciences with foreign countries in the 60-70s of the XX century, the participation of academic scientists of the Academy of Sciences of Uzbekistan in international conferences with their lectures, it is also shown on the basis of the sources that Uzbekistan actively participated in international relations in the field of science during the time when it was part of the former Union.

**Key words**: international relations, Academy of Sciences of Uzbekistan, international symposium, science relations, geology, atomic energy, international hydrogeology

Jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilashning asosiy shartlaridan biri ilm-fan sohasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqligidir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ilm-fan sohasida o‘ziga xos strategiya ishlab chiqilib, tizimda doimiy ravishda yangilanishlar va o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ilm-fan islohotlari, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini

joriy etish, fan olimlari oʻrtasida tajriba almashish, xalqaro konferensiyalarda oʻz ilmiy maʼruzalari bilan ishtirok etishi shular jumlasidandir.

“Oʻzbekistonning Markaziy Osiyodagi ilmiy salohiyati yuqori mamlakat sifatida jahon mamlakatlari tomonidan eʼtirof etilishi bejiz emas. Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishda juda muhim oʻrin tutadi, bu holatda davlat birinchi navbatda fanlar akademiyasiga tayanadi, bugungi kunda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi juda dolzarb ahamiyatga ega... Ayni paytda jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda”[51] – deb taʼkidlagan edi Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev.

XX asrning 60 yillaridan boshlab Oʻzbekistonning xorijiy davlatlar bilan ilmiy aloqalari rivojlangan. Ammo bu aloqalar nihoyatda murakkab sharoitda amalga oshirilgan. Bunday vaziyatda ilm-fan maʼmuriy buyruqbozlik tuzimining "quliga", kommunistik mafkuraning oʻz siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga koʻmak beruvchi vositasiga aylangan. Endi bunday holga yoʻl qoʻymaslik esa ushbu mavzuni chuqur, har tomonlama tadqiq etishni talab qiladi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi ilm-fan sohadagi xalqaro hamkorlik aloqalarini olib borishda muhim rol oʻynagan hamda olimlarga yordam bergan. Jumladan, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi bilan Polsha davlati hamda Chexoslavakiya fanlar akademiyasi oʻrtasida ilmiy aloqalari yoʻlga qoʻyilgan. Masalan, Organik kimyo institutining organik sintez kabineti dotsenti Y. Vrubel Oʻzbekiston florasidan hosil qilingan yangi alkoloidlarni olish va ularning tuzilishini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar bilan tanishgan boʻlsa, Chexoslovakiya davlatining geolog olimlari A. Gatsiya, M. Oberdjek, Z. Boshechki, kimyogarlar Ye. Novotniy, G. Vshiklo, Hindiston sharqshunos olimi M. Ashraf, Birlashgan Arab Respublikasining va boshqa malakatlarning olimlari ham Oʻzbekistonda fanning turli sohalari boʻyicha ilmiy ishlarning qanday qoʻyilganligi bilan tanishishgan[52].

XX asrning 60 yillarida oʻzbek olimlarining xalqaro ilmiy aloqalari dunyoning turli mamlakatlarida oʻtkazilgan xalqaro kongresslar, konferensiyalar, simpoziumlarda qatnashish orqali amalga oshirilgan. Jumladan, Oʻzbekistonning 100 dan ortiq olimlari xorijiy davlatlarda oʻtkazilgan turli xil xalqaro simpoziumlarga ishtirok etishgan. Mazkur olimlar orasida Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasining prezidenti Ubay Orifov boʻlgan. U Daniyada fizika tadqiqotlarida radioizotoplardan foydalanish boʻyicha oʻtkazilgan xalqaro konferensiyada qatnashgan boʻlsa, akademik Gʻani Mavlonov Daniyada oʻtkazilgan xalqaro gidrogeologiya birlashmasiding yigʻilishida, akademik S. Azimov yuqori energiya zarrachalari fizikasi boʻyicha AQShda oʻtkazilgan xalqaro konferensiyada, professor Y.Toʻraqulov Daniya va Yaponiyada endokrinologiya boʻyicha oʻtkazilgan I va II xalqaro kongresslarlarda, professor G. Mahkamov Gonolulu (Gavay orollari)da oʻtkazilgan Tinch okean kongressining ishida ishtirok etishgan hamda

[51] ЎзбекистонРеспубликасиПрезидентинингбиргуруҳ фан арбоблари, давлатважамоатташкилотларивакиллари, Фанларакадемиясиаъзолари, мамлакатимизнингетакчиолийўқувюртлариректорларибиланучрашувдагинутқи. - Т., 30 декабр 2016 //[електрон ресурс]. //www.газета.уз/ру/2016/12/31/ссиенсе/ (мурожаат санаси: 08.05.2022)

[52] АбуталиповЧ. А. Ўзбекистоннингхалқароалоқалари. Т., “Ўздавнашр”, 1984. –Б.159.

Chexoslovakiya tibbiyot xodimlari oldida ma'ruza qilishgan[53]. Shuningdek, xorijiy davlat olimlaridan chexoslovakiyalik geolog olimlar G. Obordjak, Bojechkiy, Novotniy, hindistonlik J.Naydu, amerikalik Kraukon, polshalik kimyogar Vrubel, fransiyalik gidrotexnik Shollerlar O'zbekiston Fanlar akademiyasida bo'lib, ilmiy yutuqlar bilan tanishgan bo'lsa, xitoylik olim Jen-Fu-in va Chjen uze-uchuy O'zSSR Fanlar akademiyasining gidrogeologiya instituti ishi bilan, xitoylik Chjan-Chjen Van botanika institutining ishi bilan tanishib chiqishgan[54].

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi akademiklari T.Z.Zohidov, T.A.Sarimsoqov, S.A.Azimov, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi korrespondent a'zosi K.S.Ahmedovlar AQShga borib, oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim strukturasi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash ishi bilan tanishishgan. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi korrespondent a'zosi V.P.Shcheglov yer qobig'ining hozirgi harakati yuzasaidan GDRda bo'lib o'tgan simpoziumda ishtirok etgan hamda "Hozirgi zamon astronomiya tadqiqotlarida qit'alarining harakati"degan mavzuda ma'ruza qilgan[55]

Kimyo fanlari doktori N. A. Abubakirov Chexoslavakiyada bo'lib, tabiiy qo'shilmalar kimyosiga bag'ishlangan simpozium ishida qatnashgan va "Strof antidinning angidro qo'shilmasi" degan mavzuda ma'ruza qilgan. Fizika-matematika fanlari doktori M. Y.Antonovskiy Polsha matematiklarining taklifi bilan Polsha Fanlar akademiyasining matematika institutida bo'lib, yarim maydonchalar bilan bog'liq bo'lgan oshkora akslar nazariyasidan hamda bularning yarim maydonchalari va topologik algebrasi haqida o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan[56]. 1962 yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi gidrogeologiya va injeyeyenerlik geologiyasi institutida, YUNESKO qaroriga binoan, arid zonalarini o'zlashtirish sohasidagi metodlarini o'rganish uchun xalqaro kurslar ochilgan. Osiyo va Afrika mamlakatlarining, jumladan, Hindiston, Eron, Isroil, Livan, BAR, Turkiya va boshqa davlatlarning gidrologlari va tuproqshunoslari to'rt oy davomida o'zbek olimlari va injenerlarining ma'ruzalarini tinglashgan.Shuningdek, 1962 yil avgust oyida Toshkentda bo'lib o'tgan gidrologlar jahon forumini ham xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan eng yirik ilmiy tadbirlar qatoriga qo'shish mumkin. Bu forumda dunyodagi oltita qit'aning 24 mamlakati – Fransiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Avstraliya, Chili, Niderlandiya, BAR, Hindiston Suriya, Vengriya, Eron, Braziliya, Livan, Isroil, Turkiya, Afg'oniston, Gretsiya, Tunis, ngliya, Avstriya, Jazoir Kipr davlatlaridan olimlar ishtirok etishgan. Mazkur xalqaro forumda 51 ta ma'ruza tinglanib, 37 tasi o'zbek olimlarining, shu jumladan, 20 tasi mahaliy olimlarning ma'ruzlalari hisoblangan[57].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalarining yana bir ko'rinishi atom energiyasi sohasida bo'lgan. Jumladan, 1964 yilda Toshkentda SEV doimiy komissiyasining atom energiyasini tinchlik maqsadlarida foydalanish masalasiga bag'ishlangan majlisining o'tkazilishi

---

[53]Шукурова Ҳ. Совет Ўзбекистонинг халқаро алоқалари. Т., "Ўзбекистони Сурх". 1964. –Б.25.
[54]Шукурова Ҳ. Совет Ўзбекистонинг халқаро алоқалари. Т., "Ўзбекистони Сурх". 1964. –Б.29.
[55]Абуталипов Ч. А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Т., "Ўздавнашр", 1984. –Б.155.
[56]Абуталипов Ч. А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Т., "Ўздавнашр", 1984. –Б.156.
[57]АбуталиповЧ. А. Ўзбекистоннингхалқароалоқалари. Т., "Ўздавнашр", 1984. –Б.161.

muhim voqea hisoblandi. Seminarda Vengriya, Chexoslovakiya, Polsha va Ruminiya davlatlaridan vakillari qatnashgan. Mazkur yilda atom energiyasi boʻyicha Xalqaro agentlikning ilmiy-konsultativ komitetining sessiyasi chaqirilgan. BMTning ilmiy konsultativ komitetining sessiyasi oʻtkazilib, bunda Jenevada atom energiyasini tinchlik maqsadlarida foydalanish masalasiga bagʻishlangan III Xalqaro konferensiyaning chaqirilishiga tayyorgarlik koʻrish masalalari koʻrilgan[58].

Shuningdek, Chexoslovakiya kibernetik olimlar tajribasini Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasi olimlari axborot hisoblash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda, xususan, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi ilmiy tadqiqot ishlari ABSni yaratishda foydalanishgan[59]. 1966 yilda “Arxitektura CHSSR” jurnalida pragalik arxitektor P.Shvaxaning maqolasi bosilib chiqildi va unda toshkentlik arxitektorlarning ishlari toʻgʻrisidagi oʻz xotiralari bilan fikr almashishgan[60]. Shuningdek, 1966 yili Toshkentda jahonga mashhur chex jurnallarining katta koʻrgazmasi boʻlib oʻtgan. Laboratoriyada va texnikada qoʻllanadigan jurnallar namoyish qilingan ushbu koʻrgazmaning maxsus boʻlimi oʻzbek olimlarida, ayniqsa, katta qiziqish uygʻotgan[61]. Jumladan, Toshkent shahrida bu xildagi koʻrgazmalar bir necha bor oʻtkazildi[62]. 1968 yilda yadro fizikasi institutida oʻzbek va hind olimlarini qiziqtirgan ilmiy muammolar boʻyicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borishga kelishilgan. Shu maqsadda sobiq SSSR FA Prezidiumi muzokaralar olib borish uchun Dehliga SSSR FA vitse-prezidenti, akademik A.P.Vinogradov boshchiligida delegatsiya yuboriladi. Delegatsiya tarkibiga Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik O.S.Sodiqov va boshqa ittifoqdosh respublikalarning vakllari kiritilgan. Dehlida yer haqidagi fan, onkologiya, matematika va fizika, tabiiy birikmalar kimyosi, dorivor oʻsimliklarni ekish va ularni oʻrganish muammolari, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarda hamkorlik qilishning asosiy yoʻnalishlari haqida kelishib olingan. 1968 yil sentabr oyida Toshkent shahrida oʻzbek-hind ilmiy simpoziumi oʻtkazilib, unda 150 ga yaqin oʻzbek, 15 nafar hind olimlari ishtirok etgan, tabiiy birikmalar kimyosining turli muammolari boʻyicha yuzdan ortiq maʼruzalar tinglandi hamda hind olimlari ilmiy muassasalar faoliyati, Oʻzbekiston kimyo sanoati korxonalari bilan tanishishgan[63].

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, Oʻzbekiston SSR fanlar akademiyasi aniq fanlar sohasidagi hamkorlik aloqalari olib borgan. Oʻzbekistonning xalqaro aloqalarini rivojlanishida Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining akademik olimlar munosib hissa qoʻshgan hamda oʻz tajribalarini xorijiy davlat olimlari bilan almashishgan. Umuman olganda, xalqaro hamkorlik Oʻzbekistonda fan sohasini yanada bir pogʻona koʻtarilishiga olib kelgan.

---

[58] ЗияевҲ. Ўзбекистоннингхорижиймамлакатларбиланиқтисодийвамаданийалоқалари (1960-1980 йиллар). Т., “Фан”, 1986. –Б.27.
[59] Oʻz. MA. R-2415-fond, 1-roʻyxat, 19-ish, 46-varaq.
[60] ”Правда Востока”, 1966yil, 26 март.
[61] ”Правда Востока”, 1966yil, 26 март.
[62] Oʻz. MA. R-2415-fond, 1- roʻyxat, 19- ish, 116- varaq.
[63] Oʻz. MA. R-2415-fond, 1- roʻyxat, 19- ish, 116- varaq.

# ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ ВЕТЕРИНАРИЯ ХИЗМАТИ ТАРИХИ

**Джамила Бадридиновна Сайфудинова**
Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация:** Ўзбекистон чорвачилигининг ривожланишида ветеринария хизмати муҳим аҳамият касб этади.Унинг тарихини ўрганиш эса соҳа ходимларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш билан бирга тарихимизнинг кўп қиррали, сермазмун ва ибратли эканлигидан далолат беради. Ўрта Осиё халқларининг ҳаётида 1Х-ХП ва иккинчи Х1У-ХУ асрларда мавжуд илмий адабиётларда ветеринарияга оид маълумотлар, тарихий манбалар соҳа тарихини илмий жиҳатдан тадқиқ этилишини талаб этади.

**Калит сўзлар:** Илк Уйғониш даври, иккинчи ренессанс даври, учинчи ренессанс пойдеворини барпо этиш**,** ветеринария хизмати, халқ табобати, Ибн Сино “Ҳайвонлар” асари, махсус яйловлар, отлар тўғрисида рисола, касалликлар белгилари, даволаш йўллари, қўлёзма манбалар.

Буюк аждодларимизнинг бой илмий-маънавий меросини чуқур ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш мақсадида юртимиздан етишиб чиққан алломалар қаламига мансуб асарларни халқимизга етказиш юз мақсаддан иборат бўлган 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг 73-мақсад ва вазифаларида ўз ифодасини топган. Мазкур вазифалар “Янги Ўзбекистон-Учинчи ренессанс” шиори остида халқимиз чорвачилиги ривожида муҳим аҳамият касб этган, лекин унинг тарихи деярли ўрганилмаган ветеринария хизматига оид юзлаб маънавий меросимиз дурдоналарини ҳам тадқиқ қилиш ва тарғиб қилишни талаб қилади.

Зеро, учинчи ренессанс бунёдкорларини ветеринарияга оид бой меросимиздан баҳраманд қилиш соҳа ривожига таъсир қилади, ёш кадрларни ватанпарвар, ўз касбига садоқат ва масъулиятлик руҳида тарбиялашда маънавий қувват бахш этади.

Ўзбекистонда халқ ветеринария табобати тарихи тўғридан-тўғри яхлит ҳолда ёзилмаган бўлсада, бу ҳақда ноёб ва қимматли муҳим ветеринария тарихига доир маълумотларни ўрта асрларда яшаб ўтган йирик шарқ олимларининг асарларидан олишимиз мумкин. Абу Али ибн Синонинг “Тиб қонунлари”да[1], Абу Райхон Берунийнинг бир қатор нодир асарлари[2], машҳур олиму-уламолар асарларида нафақат жамият ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маънавий-маърифий маданият соҳаларига доир, балки медицина, халқ табобати, ветеринария тарихига доир ноёб ва қимматли тарихий маълумотларни ўрганиш мумкин. Буюк қомусий олим Абу Али ибн Синонинг “Тиб қонунлари”да нафақат инсонлар учун турли-хил касалликлар, уларнинг белгилари ва даволаш усуллари, воситалари, доривор ўсимликлар, гиёҳлар ва уларни тайёрлаш йўлларинигина эмас, балки ҳайвонлар учун ҳам халқ

табобати, ветеринария хизмати салоҳияти хақида ажойиб маълумотлар, маслаҳатлар берган, унинг услуби ва услубий йўналишлари ҳақида қимматли йўл йўриқлар кўрсатилган.

Абу Али ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” 1-китобидаги “Иккинчи фан”, “Учинчи таълим” бобида “Касаллик белгилари ва уларнинг юз бериши ҳақида”, ушбу китобнинг “иикинчи жумла, ўн биринчи фаслида” “Ҳайвонлар сийдиги ва у билан одамлар сийдигининг фарқи ҳақида”ги боби ва бошқа фаслларида касалликни аниқлаш ва даволанишнинг ҳамма имкониятларини илмий асосда таърифлаб берган[3]. Халқ табобати, медицина ва ветеринария хизмати масалаларига доир ноёб маълумотларни Ибн Синонинг бошқа асарларидан ҳам кўплаб олиш ва фойдаланиш мумкин[4]. Масалан, ибн Сино ўзининг “Ҳайвонлар” номли китобида тўрт оёқли ҳайвонлар (чорванинг барча тури-С.Ж.) тўғрисида, уларнинг соғлиқ-саломатлиги, маҳсулотининг сифати, инсонлар учун зарур томонлари, ҳайвон турларининг бир-биридан фарқи, касаллиги, даволаш усуллари, семиртириш, чидамлилиги ҳақида кўплаб фойдали маълумотлар беради.

Барча ҳайвонларга таъриф берар экан, уларни семиртириш осонлигига эътиборни қаратади, яъни, “от, хачир ва эшакларни сув ичириш семиртиради. Қормол тиниқ сувдан ичади. Отлар ва туялар тиниқ сувни туёғи билан лойқатадида кейин ичади[5].” “Тўнғиз лойга ағанаса ҳам семираверади[6]”-деб ёзади.

Абу Али ибн Сино ўша китобнинг яна бир жойида чорва маҳсулотларини кўпайтиришнинг яна бир услуби ҳақида ўз фикрларини беради: “Майда молларни тез-тез суғориб туриш семиртиради. Туз уларни сергушт ва саломат қилади ва ташна қилиш билан кўп сув ичишига ёрдам беради[7].” “Улардан сут эмизадиганига туз едирилса,-деб ёзадиибн Сино- кўп сут берадиган бўлади; оч қолдирилиб бирданига ем берилса, кўп сув ичади ва тез семиради[8].” Яъни, “Кечки пайтда молларни ўтлатиш уларга фойдалироқдир[9]”-деб ёзадиибн Сино ўз ҳикматларида. Бундай ноёб халқ ветеринария табобати тарихига оид маълумотлар машҳур энциклопедик олим, халқимизнинг буюк фарзанди Абу Райхон Беруний фаолиятида, унинг ўрганилмаган кўплаб нодир илмий асарларидан ҳам топишимиз мумкин[10]. Унинг 5-та китобдан иборат “Қонуни Маъсудий” тўплами ветеринария табобатига доир қонун, қонуниятлар, категориялари, функцияларининг илмий–назарий тамойилларини ўрганишда кўл келса, унинг “Китоб ас-Сайдана фи-т-тибб” (қисқача Сайдана)[11] асарида эса ўрта асрларда доиршуносликнинг қимматли манбаи сифатида намоён этади. Бу асарлар чорвачиликда халқ ветеринария табобати соҳаси учун муҳим аҳамиятга эгалиги билан ажралиб туради. Бу асар Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” дан тубдан, яъни доривор воситаларнинг (чорва учун ҳам-С.Ж.) таъсир кучи доираси, туб мазмун-моҳияти билан фарқ қилади[12]. Асарда Абу Райхон Беруний ўзи таъкидлашича араб, грек, Сурия, Ҳиндистон, Эрон, Хоразм, Сўғдиёна, Турк ва бошқа халқлардан номлари билан ишлатиладиган қарийб 4500 хил доривор, шифобахш (жумладан чорва ҳайвонлари учун ҳам-

С.Ж.) ўсимликлар, ҳайвонлар, миниераллардан олинадиган дори-дармонлар номларини (терминалогия) аниқлаб, доришунослик тарихига ҳам эътибор беришга муваффақ бўлганлар[13]. Бу эса ҳозирги кун учун ҳам ўз моҳиятини йўқотмаган.

Бу асарни ёзишда Абу Райхон Беруний қарийб 250 дан ортиқ турли йўналишдаги асарлардан фойдаланган. Шифобахш ўсимликлар, ҳайвонлар, минираллар ва турли хил махсулотларнинг шифобахш дориворлигини халқ орасида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган халқ табобатида фойдаланиб келаётганликларини ҳам аҳоли ўртасидан сўраб-суриштириб, амалий жиҳатдан ишлатиб кўриб фойдаланишга тавсия этган.

Чорва моллари учун ҳам фойдали дориворлар ва уларни ишлатиш йўллари ҳақида қимматли маълумотларни “Сайдана” асарида кўплаб учратиш мумкин.

Ўзбекистонда халқ ветеринария табобати тарихи хусусидаги ноёб ва қимматли тарихий ва манбавий аҳамиятга эга бўлган маълумотларни Амир Темур ва Темурийлар даврида ёзиб чоп этилиб, ҳозирги кунгача етиб келган кўплаб тарихий асарларидан олишимиз мумкин. Амир Темур тузукларида чорвачиликка доир ноёб ва қимматли тарихий маълумотларни олиш мумкин. Амир Темур қонуний тартибга эга бўлган асарида чорва моллари ҳақида (мулк, бойлик мақсадида ва айниқса отчилик (йилқичилик) тўғрисида алоҳида эътибор бериб, йилқичилик зоти, зотли яъни, арабий, арғумон хиллари ҳақида, йилқичиликда халқ табобати, ветеринария хизматини яхшилаш, улардан унумли фойдаланиш усуллари ҳақида маълумотларни кўплаб олишимиз мумкин). Амир Темур йилқичилик, туячилик, қорамолчиликни озиқ-овқат маҳсулотлари сифатида қарасада, отчилик ва туячиликка эшак, хачирчиликка алоҳида эътибор беради. Нафақат уларни кўпайтириб махсус яйловлар ташкил этиш, балки махсус билимга, амалий тажрибага эга бўлган йилқи, туя боқарлар, сайислар ветеринария илмидан кенг билимга эга бўлган мутахассилардан кенг фойдаланган, уларни тарбиялаб, билим беришга жиддий эътибор берган. Йилқичиликка махсус зотли отларни боқишга яйловлар ташкил этиб, ҳарбий отларни тайёрлаганлар, ана шу бақувват, чидамли отларда қарийб 800 минггача ҳарбий ҳаракатга жалб қилинган ҳарбий кишилар[14] бир мамлакатдан иккинчи мамлакатга тез ва ташкилий жиҳатдан уюшган ҳолда ҳарбий талабга мувофиқ кўз илғамас ҳолатда ҳаракат қилишга муваффақ бўлиб ғалабадан-ғалаба эришганлар.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, Амир Темур бирон бир мамлакатга ҳарбий юриш қилмоқчи бўлса, у нафақат ҳарбий жангчи ва зобитларини, амалдору-хизматчиларини умуман ҳарбий юришда иштирок этадиган барчани, транспорт сифатида фойдаланадиган йилқи, пода, эшак, хачир, туя ва бошқа ҳайвонларни халқ ветеринария табобати кўригидан ўтказган. Ҳарбий қўшинлардан сон жиҳатидан қарийб 3 марта кўп бўлган отлар[15]ни, озиқ-овқат учун миллионлаб қўйларни боқиб етиштирган.

Бунинг учун албатта турли хил касалликлар тарқалмаслигининг олди олиниб, мутахасислар тайёрланган. Шу сабабли буюк Соҳибқирон ўз тузукларида "касалликлар учун шифохона қўрдирсинлар ва уларда ишлаш учун табиблар тайинлансинлар[16]"-деб ёзишда шу ҳолат аниққим албатта табиблар тайинласинлар" деб мамлакатда "медицина, ветеринария мутахассислар тайёрлайдиган халқ ветеринария табобати илмидан ҳарбардор қилинадиган ўқув масканлари мавжуд бўлган.

Ўзбекистонда халқ ветеринария табобати тарихи ўрганилиш даражасини аниқлашга доир қимматли тарихий маълумотларнитемурийлар ва улардан кейинги буюк ватанимизнинг фарзандлари бўлган олим ва мутахассислар томонидан ёзиб қолдирилган ва ва ҳозирги кунда ўзбек ва рус тилларига чоп этилган кўплаб асарлардан олишимиз мумкин[17]. Жумладан, Ғиёсиддин Алининг "Темурнинг Ҳиндистонга юриши кундаликлари" (1399-1403 йил), Низомиддин Шомийнинг"Зафарномаси" (1404 йил ёзиб тугатган);1424-25 йилларда ёзиб тугатган Шарофиддин Али Яздийнинг шу номли асари; ундан ташқари тарихий-географик аҳамиятга эга бўлган 1412-1425 йилларда тузган Ҳафизи Абрунинг ҳам шу номли асари, ижтимоий тарихий аҳамиятга эга бўлган фундаментал 1470-йилда, 1480 йилда ёзиб 1480 йилда эса қисман ўзгаришлар киритган Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлайи Садайн" номли асари,Мирхонднинг умумий тарихий йўналишидаги асари, 1524 йилда ёзиб тугатган. Мирхонд невараси Хондамирнинг асари[18] ва айниқса Захириддин Мухаммад Бобурнинг асарлари[19] Ўзбекистонда ўрта асарларида ва ундан кейинги даврларда ветеринария тарихини ўрганилиш даражасини аниқлашда илмий ва назарий жиҳатдан катта аҳамиятга эгадир.

Юқорида кўрсатилган тарихий-манбавий аҳамиятга эга бўлган асарлари ичида Заҳириддин Бобурнинг "Бобурнома" асари, Бобурнинг қизи Гулбаданбегимнинг "Хумоюннома" асарлари ажралиб туради.Заҳириддин Бобурнинг "Бобурнома" асарида Фарғона водийсининг кўркамлиги, гўзаллиги, турли хил меваларга бойлигини батафсил баён қилар экан, ўлкада чорвачилик тараққий этганлиги, турли-хил хонаки ва ёввойи ов қилинадиган кийиклар, паррандалар, буғулар кўплиги аҳолини моддий бойлиги, соғлиқ-саломатлиги манбаи деб ҳисоблайди[20]. Шу билан Бобур Мирзо Фарғона тоғларида бошқа юртларда бўлмайдиган ноёб доривор ўсимликлар, жумладан "Ябрух ас-санам" номли, халқ уни "айиқ ўти" ҳам деб таърифласада у "Меҳри-гиёҳ" деб оғир касалликларни даволашда ишлатади[21]-деб ёзади.

Боборийлар сулоласининг йирик вакили Шоҳжаҳон даврида ёзилган 55 бобдан иборат отлар хусусидаги "Фараснома" - рисолада 29 тадан ортиқ минатюра расмларда отлар тавсирланган. Рисолада отларни ўрганиш, яхши ва ёмон белгиларни аниқлаш ҳамда касалликларини даволаш хусусидаги маълумотлар Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг Қўлёзмалар бўлимида сақланмоқда.

Умуман олганда ўлкамизда халқ ветеринария табобати илми тарихига доир тарихий маълумотлар берадиган тарихий асарлар, Темурийлардан кейинги

даврларда ҳам араб, форс тилларида ёзилиб, кўплаб ўзбек, рус, тожик тилларига таржима қилинган. Ҳозирги даврда ҳам мавжуд асарлар кўпчиликни ташкил қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “ 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 28 январь 2022 йил ПФ-60 сонли Фармони

2. Абу Али ибн Сино“Тиб қонунлари” V-VIII томли 1-китоб, Тошкент “Фан” 1983 й; “Ҳикматлар” Ўзбекистон, Тошкент 1980 й; “Ўгитлар” Ёшгвардия, Тошкент 1980 й;

3. Абу Райхон Беруний “Фармаконгнозия” (Сайдана) танланган асарлар, Том-V, “Фан”, Тошкент 1974 й; ўшаники, танланган асарлар, Том-V; “Қонуни Маъсудий” “Фан”, Тошкент 1973 й; “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” Т, 1957 й; “Индия” Т, 1963 г;

4. Абу Али ибн Сино“Тиб қонунлари” 1-китоб, Тошкент “Фан” 1983 й, 221-290 бетлар;

5. Абу Али ибн Сино Бисотидан; Абу Али ибн Сино “Ўгитлар” Ёшгвардия, Тошкент 1980 й;

6. Абу Али ибн Сино “Ҳикматлар” Ўзбекистон, Тошкент 1980 й 97-100 бетлар;

7. Абу Али ибн Сино “Ҳикматлар” Ўзбекистон, Тошкент 1980 й 100-101 бетлар;

8. Абу Райхон Беруний “Қонуни Маъсудий” I-V китоблар, Танланган асарлар 5-том, “Фан”, Тошкент 1973 й; ўшаники, “Фармаконгнозия” (Сайдана) танланган асарлар, Том- IV, “Фан”, Тошкент 1974й;

9. Иванин М. “Буюк саркарда Чингизхон ва Амир Темур” “Фан”, Тошкент 1994 й, 187-бет;

10. “Темур тузуклари”, Тошкент 1991 й;

12. Ибн Арабшоҳ “Амур Темур тарихи” 1-2 китоблар Е.. Меҳнат 1992 йил Рюи Гонзолис де Клавихо “Самарқанддаги Амур Темур саройи сайёҳат кундалиги (1403-1406). Тошкент. “Санъат” журнали, 1990 йил №2-10 сонлари.

11. Мирзо мухаммад Ҳайдар “Тарихи Рашидай” Тошкент Фан

12. Хондамир “Хабиб-ас-сияр” Давлатшоҳ, Тазкироташ

13. Захириддин Бобур “Бобурнома”, 1-2 китоблар (русча) Тошкент-1984

15. Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг Қўлёзмалар бўлимида “Фарасннома”- “От ҳақида китоб” 720/2199 рақами остида.

16. Алишер Навоий “Лисон ут-тайир” (Қўш тили) Тошкент 1984 й;

17. Кайковус “Қобуснома” Тошкент Истиқлол, 1994 й;

18. Салохиддин Тошкандий “Темурнома” Тошкент “Чўлпон” 1991 й;

19. Хайруллаев М.М. “Ўрта Осиёда илк уйғониш даври манбалари”Тошкент-1994 йил,

20. Турғун Файзиев “Темурийлар Шажараси” Т, 1995ё;

# MIGRANTLAR MADANIY ADAPTATSIYASINING FALSAFIY-AXLOQIY TAHLILI

**Halimov Sherzod Igamberdiyevich**
Samarqand davlat chet tillar instituti Tadqiqotchisi
komilov88@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv davrida migratsiyaning xalqaro ahamiyat kasb etishi, uning madaniy munosabatlarga ta’siri, adaptatsiya va integratsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va farqlari, moslashuvning ob’ektiv shart-sharoitlari va sub’ektiv omillari, akkulturatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Adaptatsiyaning mexanizmlari, qabul qiluvchi mamlakat rasmiy tilini bilish darajasining bu jarayonga ta’siri yoritilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется международное значение миграции в эпоху глобализации, ее влияние на культурные связи, взаимозависимость и различия адаптационных и интеграционных процессов, объективные условия и субъективные факторы адаптации, особенности аккультурации. Выделены механизмы адаптации, влияние уровня знания государственного языка принимающей страны на этот процесс.

**Abstract:** This article analyzes the international importance of migration in the era of globalization, its impact on cultural relations, interdependence and differences of adaptation and integration processes, objective conditions and subjective factors of adaptation, specific features of acculturation. The mechanisms of adaptation, the influence of the level of knowledge of the official language of the host country on this process are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** Migratsiya, adaptatsiya, integratsiya, assimilyatsiya, segregatsiya, madaniyat, motivatsiya.

**Ключевые слова:** Миграция, адаптация, интеграция, ассимиляция, сегрегация, культура, мотивация.

**Key words:** Migration, adaptation, integration, assimilation, segregation, culture, motivation.

Migratsiya odamlarning yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq ko‘chishi bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab global muammolardan biriga aylandi. U dunyoning barcha mamlakatlari, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining ko‘plab sohalari, ijtimoiy qatlamlar va guruhlarni qamrab olgan umumjahon miqyosga ega bo‘ldi. Migratsiya murakkab ijtimoiy jarayon sifatida doimo qabul qiluvchi jamiyat va migrant jamoalarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liqdir. Migrantlarning yangi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy sharoitlarga moslashishi, keyinchalik migrantlarning mahalliy aholi bilan teng ravishda mamlakat hayotining turli sohalariga qo‘shilishi mahalliy aholi va migrantlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasi bilan belgilanadi. Migrantlarning yangi sharoitlarga moslashishi va ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shilish jarayonlari adatatsiya va integratsiya deb ataladi. “Adaptatsiya” tushunchasi an’anaviy bo‘lib, hozirgi zamon

fanlarining ham kategoriya tizimiga kiradigan komponentlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha lotincha “adapto” so‘zidan olingan va antik davrlarda tirik organizmlarning muhitga moslashuvini bildirgan. Dastlab bu so‘z biologiyada ishlatilgan, keyinchalik esa uning doirasidan chiqib, bu tushuncha tibbiyot, kibernetika, sotsiologiya, psixologiya, demografiya, tarix, antropologiya va boshqa fanlarda qo‘llanilgan. [1; 58-59]

Migrantning adaptatsiyasi - bu chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan qabul qiluvchi jamiyatda yashash va muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradigan xulq-atvor na’munalari, ijtimoiy normalar va qadriyatlar, bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonidir. Adaptatsiya migrantning rasmiy maqomni olishi va o‘zining yashashini qonuniylashtirishi bilan chambarchas bog‘liqdir. [2; 4] Adaptatsiya va integratsiya bir-biri bilan bosqichma-bosqich bog‘langan. “Adaptatsiya” va “integratsiya” tushunchalari ko‘p qirrali bo‘lib, ular ko‘pincha turli ma’nolarga ega. Adaptatsiya va integratsiya ko‘pincha uzoq muddatli va yakuniy natijaga erishishga qaratilgan ijtimoiy jarayonlar sifatida tushuniladi. Qabul qiluvchi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, va huquqiy voqeligiga muvaffaqiyatli moslashgan xorijlik migrantgina o‘z hayoti davomida mahalliy hamjamiyatga bosqichma-bosqich qo‘shilib, uning to‘laqonli a’zosiga aylanishi mumkin. Shuning uchun migrantlarning adaptatsiya va migratsiya jarayonini bir-biridan ajratish va ular to‘g‘risida fikrlarni asoslashga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. Adaptatsiyaga integratsiyaning birinchi bosqichi sifatida qarash kerak. Buning sababi shundaki, hali bu bosqichda migrantning qabul qilgan jamiyatga moslashuvi sodir bo‘ladi. Integratsiya bu madaniyatlarning bir biriga qarab harakati jarayoni bo‘lib, u turli shakllarda (assimilyatsiya, multikulturalizm va boshqalar) namoyon bo‘lishi mumkin.

Faqat yangi ko‘chib kelganlarga xos bo‘lgan uch xil adaptatsiya jarayoni mavjud:

• yangi ijtimoiy-demografik muhitga moslashish, ya’ni yangi tanishlar topish va eski tanishlar bilan munosabatlarning zaiflashuvi;

•kichik shahar aholi punktlaridan yirik aholi punktlariga ko‘chib o‘tish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan adaptatsiya;

•turli tabiiy-iqlim sharoitlarida va geografik joylashuviga moslashish.

Adaptatsiyaning barcha turlari yangi ko‘chib kelganlarning yashash joylarida omon qolishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Chunki ularning hayotiy faoliyatiga butun tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuasi ta’sir qiladi.[3;78-86] Migrant va oilasining keyingi taqdiri ko‘p jihatdan uning yangi sharoitlarga qanday moslashishiga bog‘liq. Moslashuvning u yoki bu modelini shakllantiruvchi mikroiqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarni aniqlash, migrantlarni tashlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni chuqur tahlil qilish talab qilinadi.

Adaptatsiyaning ikkita turi mavjud. Birinchisi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq adaptatsiya hisoblanadi. Bu jarayon ish joyini o‘zgartirishdan boshlanadi. Adaptatsiyaning bu turi yordamida migratsiyaning iqtisodiy vazifalari amalga oshiriladi. Ikkinchisi, ijtimoiy va turmush bilan bog‘liq adaptatsiya hisoblanadi. U yashash joyini o‘zgartirish davridan boshlanadi.

Aynan shuning uchun adaptatsiya to‘g‘risida umumiy fikr bildirish, uni tasniflash mumkin emas. Chunki adaptatsiya migratsiyaning turli ko‘rinishlariga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun u vaqtinchalik va doimiy mehnat migrantlari, o‘quv yurtlariga kiruvchilar va boshqa toifadagilar uchun yagona tavsifga ega bo‘la olmaydi. Migrantlarning adaptatsiya jarayonlari amalda uzluksiz bo‘ladi. Qabul qiluvchi mamlakatda migranlarning har qanday toifasining adaptatsiyasi muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi.[4;720-721] I.Molodikovaning ta’kidlashicha, V.Mukomel migrantlarni hayotiy rejalariga qarab uch guruhga ajratadi. Birinchi guruhga muqim joylashib olgan va jamiyatga to‘liq integratsiya bo‘lganlar, ikkinchi guruhga ishlab pul topishga kelganlar, ammo allaqachon moslashganlar va o‘zlarining hayotiy rejalarini qaytadan ko‘rib chiqqanlar, uchinchi guruhga o‘z vataniga qaytishni maqsad qilib qo‘yganlar kiradi. Bu guruhga kiruvchilar asosan ma’lumot va malakaga ega bo‘lmagan yoshlardan iborat bo‘lib, ular faqat ishlab pul topish uchun kelganlar.[5; 24-25]

Ijtimoiy adaptatsiya faol yoki passiv shaklda, lekin ko‘pincha ikkalasi bir vaqtning o‘zida ham sodir bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy adaptatsiyaning faol shakli shu bilan tavsiflanadiki, subyekt ijtimoiy muhitga ta’sir qilib, uni o‘zgartirishga harakat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pincha ijtimoiy muhitni to‘lasincha o‘zgartirish imkoniyati bo‘lmaydi, chunki shakllangan ijtimoiy muhit hulq-atvor normalari, qoidalari barqarorligini saqlab qolishga harakat qiladi. Bundan tashqari ijtimoiy muhitning normalarini qabul qilgan individlar uni tubdan o‘zgartirishni xohlamaydilar. Adaptatsiyaning boshqa shakli migrant kirib qolgan ijtimoiy guruhining hamma normalari va qoidalarini passiv qabul qilishidir. Buning uchun migrant o‘zining qarashlari va qatiy ishonchini qayta ko‘rib chiqishi kerak. Albatta jamiyatda mavjud bo‘lgan normalar va qoidalar asosida yashash migrant uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Migrantning qabul qilgan mamlakatdagi adaptatsiyasi jarayoni chegarali jarayon emas. Migrant o‘zining yangi jamiyatga moslashuvini tahlil qilib, xulosa chiqara olgandagina mustaqil yashashi va integratsiyaga tayyor ekanligini his qilishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Проскурякова О.Л. Адаптация мигрантов как социальный прогресс.// Вестник ОГУ. № 4/апрель. 2007.

2. Адаптация и интеграция мигрантов. Сборник эффективных практик. Автор-составитель Якимов А.Н. Санкт-Петербург 2018 г.

3. Гриценко В.В. Влияние культурных различий на адаптацию русских переселенцев из стран ближнего зарубежья в Россию // Психологический журнал. – 2000. – № 1.

4. Леденева В.Ю. Формы и модели социальной адаптации мигрантов.// Политика и общество. 6(126). 2015.

5. Молодикова И. Западные подходы к исследованию миграции-возможности сравнений с Российской исследовательской школой.// Методология и методы изучения миграционных процессов. Междисциплинарное учебное пособие.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR

**Shaxzod Farxod o‘g‘li Axmedov**
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti,
axmedovhistorian@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda veterinariya va chorvachilik sohasidagi oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, keyinchalik uning negizida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tashkil topishi va faoliyati, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash tizimida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** chorvachilik, zootexniya, zooinjeneriya, veterinariya, malakali mutaxassis, davlat ta’lim standartlari, malaka talabi, o‘quv reja, fan dastur, o‘quv-ilmiy laboratoriya, chorvachilik fermalari.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются изменения в системе подготовки специалистов с высшим образованием ветеринарии и животноводства в новом Узбекистане, создание Самаркандского института ветеринарной медицины по подготовке высококвалифицированных конкурентоспособных специалистов, а в дальнейшем создание Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии на его основе, а также некоторые проблемы, возникающие в системе подготовки специалистов.

**Ключевые слова:** животноводство, зоотехника, зоотехника, ветеринарная медицина, квалифицированный специалист, государственные образовательные стандарты, квалификационные требования, учебный план, научная программа, учебно-научная лаборатория, животноводческие фермы.

**Abstract.** This article discusses changes in the system of training specialists with higher education in veterinary medicine and animal husbandry in the new Uzbekistan, the creation of the Samarkand Instituti of Veterinary Medicine for the training of highly qualified competitive specialists, and subsequently the creation of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology on its basis, as well as some problems arising in the system of training specialists.

**Key words:** animal husbandry, livestock science, animal science, veterinary medicine, qualified specialist, state educational standards, qualification requirements, curriculum, scientific program, educational and scientific laboratory, livestock farms.

Chorvachilik tarmog‘ining rivoji bevosita soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq hisoblanadi.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, chorvachilikdahayvonlarni urchitish, oziqlantirish, saqlash va ulardan samarali

foydalanish bo‘yicha zootexniya yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanadi. Veterinariya sohasining vazifasi esa hayvonlarni sog‘ligini saqlash va mustahkamlashga, davolashga, ularda yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslikka, insonlar va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasalliklardan aholini muhofaza qilishga, shuningdek, O‘zbekiston hududiga boshqa davlatlardan yuqumli kasalliklarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikkaqaratiladi. Veterinariya shifokori chorvachilikning barcha sohalari bilan birga parrandalar, yovvoyi hayvonlar, asalari, baliqlarni o‘z ichiga oluvchi boshqa sohalar bilan ham shug‘ullanadi[1]. Veterinariya kasbini egallash nisbatan qiyin va mashaqqatli bo‘lganligi uchun ushbu sohadaoliy ma’lumot olishko‘plab davlatlarda 5-6 yilni tashkil qiladi[2].

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida oliy ma’lumotli veterinariya va chorvachilik sohasimutaxassislari asosan Samarqand qishloq xo‘jalik institutida tayyorlanib kelindi. Institut ushbu sohalarda mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha tayanch oliygoh bo‘lib, undagi veterinariya va qorako‘lchilik fakultetlari respublikadagi “yagona” fakultet hisoblangan. Shuningdek, Toshkent agrar universiteti va uning Farg‘ona filialida ham (zootexniya ta’lim yo‘nalishida) mutaxassislar tayyorlanib kelingan[3]. 2017-yildan boshlab kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratgan holda oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlaridagi veterinariya xizmati tizimi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash qismini tanqidiy qaytadan ko‘rib chiqib, zamonaviy talablarni o‘quv jarayoniga joriy qilish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shu o‘rinda aytish lozimki, 2017-yilda O‘zbekiston veterinariyasi tarixida ilk bor veterinariya mutaxassisligi bo‘yicha bitirayotgan talabalar tantanali ravishda “Veterinariya vrachining qasamyodi” ni qabul qilishi joriy qilindi[4].

2017-yilda esa Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali tashkil etilib, unda ham zootexniya ta’lim yo‘nalishiga o‘rin ajratilgan. Shunday qilib, 2017-yil qabul yiliga kelganda jami 2 ta oliygoh (1 ta filial) da: Samarqand qishloq xo‘jaligi institutining veterinariya, zootexniya (turlari bo‘yicha), zootexniya (baliqchilik), zootexniya (qorako‘lchilik); Toshkent davlat agrar universiteti va uning Nukus filialida veterinariya, zootexniya (turlari bo‘yicha), zootexniya (baliqchilik); Termiz filialida esa zootexniya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlariga talabalar qabuli amalga oshirilgan[5]. Toshkent davlat agrar universitetida ham chorvachilik sohasida mutaxassislar tayyorlash borasida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2018-yildan boshlab ushbu yo‘nalishidagi fakultet “zooinjeneriya” nomini oldi. Unda zootexniya (turlari), zootexniya (baliqchilik) bakalavr yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanib kelindi[6]. 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab respublikaning boshqa hududlarida ham soha mutaxassislari tayyorlash yo‘lgan qo‘yilgan. Jumladan, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida veterinariya meditsinasi va zooinjineriya ta’lim yo‘nalishlariga, Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filialida esa endilikda zooinjineriya ta’lim yo‘nalishi bilan bir qatordaveterinariya meditsinasi ta’lim yo‘nalishiga qabul amalga oshirilgan[7].

Umuman olganda2017-yilgacha bo‘lgan davrda ushbu ta’lim muassasalarini bitiruvchi veterinariya sohasi mutaxassislari soni respublika uchun yetarli hisoblangan. Lekin soha mutaxassislarining ish haqining pastligi, og‘ir va zararli mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoyasizlik malakali mutaxassislarni boshqa ishga o‘tishiga sabab bo‘lgan. Shu sababdan hududlarda mutaxassislar yetishmovchiligi yuzaga kelgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, veterinariya sohasi mutaxassislarining mehnat sharoitlari og‘ir va sog‘lik uchun zararli bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston qonunchiligida ularga hech qanday ijtimoiy imtiyozlar nazarda tutilmagan va aksariyat rivojlangan davlatlardan farqli ravishda O‘zbekistonda veterinar kasbiga nisbatan “nufuzli kasb” sifatida qaralmadi.

**2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bo‘lgan veterinariya sohasida zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan kadrlar yetishmayotganini, ayniqsa, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida veterinar mutaxassislarga ehtiyoj katta ekanligi, chorva mollarining zotini yaxshilash, parrandalarda kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo‘yicha ilmiy izlanishlar deyarli olib borilmayotganligi tanqid ostiga olindi. Sohaga ilmiy yondashuvni tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Veterinariya institutini tashkil etishning fursati kelganligi qayd etib o‘tildi[8].**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3703 sonli qaroriga[9] asosan Veterinariya sohasi kadrlarini tayyorlash tizimini maqbullashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonlarini tubdan takomillashtirish maqsadida Samarqand qishloq xo‘jalik instituti negizida Samarqand veterinariya meditsinasi instituti tashkil etildi. Institutda rivojlangan xorijiy davlatlarning veterinariya va chorvachilik sohasi bo‘yicha ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqildi. Veterinariya sohasida alohida ta’lim yo‘nalishlari tashkil etilib, tor doiradagi veterinariya mutaxassislari tayyorlash belgilandi. Shuningdek,magistratura bosqichida ham bir qator yangi ta’lim yo‘nalishlari paydo bo‘ldi va 2022-yilga kelib ularning soni 36 taga yetdi[10].

2017-yildan boshlab dastlab tibbiyot yo‘nalishlarida, keyinchalik agrar va qishloq xo‘jalishi yo‘nalishida ham maqsadli qabul asosida davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilish boshlandi. 2019-yildan veterinariya sohasida ham talabalarni hududlar kesimida davlat granti asosida maqsadli qabul qilish yo‘lga qo‘yildi[11]. Bunda maqsadli qabul asosida o‘qishga qabul qilingan talabalarga oliy ta’lim muassasasini tamomlagandan so‘ng tegishli hududda 5 yil ishlab berish majburiyati yuklanishi belgilandi. Shu orqali respublikaning barcha hududlarida (shu qatori olis va chekka hududlar ham) ushbu soha mutaxassislariga bo‘lgan extiyoj ta’minlanishi nazarda tutildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yildagi 13-noyabrdagi 926-son qarori bilan institutning Nukus va 2019-yil 3-oktyabrdagi 840-son qarori bilan Toshkent filiallari tashkil etildi. Institutda

Belorussiyaning Vitebsk davlat veterinariya meditsinasi akademiyasi, Grodno davlat qishloq xo‘jaligi universiteti hamda Latviya tabiiy fanlar universiteti bilan hamkorlikda “2+2” va “3+2” dasturi bo‘yicha qo‘shma fakultet faoliyati yo‘lga qo‘yildi[12].Xorijiy hamkor oliy o‘quv yurtlarining ko‘plab professor-o‘qituvchilari oliygohdagi o‘quv jarayoniga jalb qilina boshlandi. Misol uchun, Latviyaning “Tabiiy fanlar va texnologiyalar” universiteti professorlari tomonidan sohaga oid ko‘plab fanlardan talabalarga dars mashg‘ulotlari o‘tkazilgan[13].

2021-yilda institutning yangi bosh binosi foydalanishga topshirildi. Ta’kidlash joizki, mazkur bino qurilishi o‘tgan asrning 85-yillarida ayrim sabablarga ko‘ra, to‘xtatib qo‘yilgan va keyingi 35 yil mobaynida qurilishni davom ettirishga ko‘p marotaba urinishlar bo‘lgan bo‘lsa-da, bu ish amalga oshmagan edi. 28 mlrd. so‘m davlat mablag‘lari hisobidan 2 yil davomida dunyodagi eng ilg‘or va yetakchi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi o‘quv va ilmiy laboratoriyalar bilan raqobatlasha oladigan 9 ta eng zamonaviy rusumdagi ilmiy va o‘quv laboratoriyalariga ega bino qurib bitkazildi[14].

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022-yil 16-fevral kuni chorvachilik sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida chorvachilik sohasiga ilm va ilg‘or tajribalarni joriy etishga Samarqand veterinariya meditsinasi instituti mas’ul etib belgilandi. Endilikda ushbu institut maqomi oshirilishi hamda unga veterinariya, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tajriba institutlari biriktirilishi qayd etildi. Shuningdek, bu muassasa klasterlarga amaliy va metodologik ko‘mak berib, pullik xizmatlar ko‘rsatishi, aholi va fermerlarni qisqa muddatli kurslarda o‘qitishi ta’kidlab o‘tildi[15]. Institut faoliyati ko‘lamini kengaytirish, xalqaro nufuzini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tizimli olib borish, innovatsion ta’lim va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, ta’lim va ishlab chiqarishni uzviy bog‘lash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son qarori[16] bilan Samarqand veterinariya meditsinasi instituti negizida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tashkil etilib, institutga universitet maqomi berildi.

Chorvaning asosiy qismini aholi qo‘lida to‘planishi o‘z navbatida malakali veterinariya mutaxassislariga extiyojni oshirib bormoqda. Hududlarda veterinariya sohasi xodimlarining chorva mollariga pullik xizmat ko‘rsatish tizimining paydo bo‘lishi esa ularning manfaatdorligini oshirishga imkon yaratmoqda. Masalan, 2021-yilda birgina Xorazm viloyatidagi jami 75 ta chorvachilik fermer xo‘jaliklarida (100 shartli bosh chorva va 100 ming bosh va undan yuqori parrandachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda) alohida shtat asosida veterinariya shifokori va zootexnik mutaxassislar faoliyat yuritishi joriy etilgan[17].

Chorvachilik sohasida mutaxassislar tayyorlashdagi bugungi kundagi eng asosiy muammolardan biri shundaki, chorvachilik fermalarida ko‘p miqdorda chorva mollari bo‘lmaganligi uchun zootexnik mutaxassisga unchalik extiyoj sezishmay kelmoqda va bu soha bitiruvchilariga mehnat bozorida talab kamligicha qolmoqda. Boshqa tomondan esa “zootexnik” yoki “zooinjiner” kasbi faqat kolxoz va sovxoz

tizimidagi yirik chorvachilik komplekslari uchun zarur boʻlgan degan fikrlar bildiriladi. Bu yoʻnalish faqat sobiq SSSR va uning tarkibida boʻlgan respublikalardagina mavjud boʻlganligi, chorvachilik tarmogʻi rivojlangan dunyoning boshqa mamlakatlarida bunday mutaxassislikning oʻzi yoʻqligi haqida maʼlumotlar uchraydi. Bugungi kunga kelib chorvachilik sohasida Yevropa mamlakatlarida hayvonlarga gʻamxoʻrlik qilish, hayvonlarni boshqarish, hayvonlarning xulq-atvori va farovonligi kabi bir qancha zamonaviy mutaxassisliklar paydo boʻlgan[18].Shuningdek,baʼzi soha mutaxassislari tomonidan zamon talablaridan kelib chiqib yoʻnalish nomini va oʻqitish dasturlarini oʻzgartirish zarurligi aytilmoqda. Ushbu yoʻnalish bitiruvchilari bugungi kundaoʻz ish oʻrnini topishda qiyinchilikka uchrab kelayotgani bois oʻqishga kirganlarning aksar qismi oʻqishini boshqa yoʻnalishlarga koʻchirishga, bitiruvchilari esa ikkinchi mutaxassislik boʻyicha oʻqishga harakat qilib kelishmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. SamDVMCHBU idoraviy arxivi// Veterinariya fakultetining 1993-1994 oʻquv yili hisoboti. 1-roʻyxat, 7111-ish. 1-varaq.
2. https://gyanberry.com/blog/veterinary-universities-in-europe-for-international-students/
3. Тошкент давлат аграр университети 90 ёшда: тарих,бугун ва истиқбол./ академик Б.А.Сулаймонов умумий таҳрири остида- Тошкент: Тошкент давлат аграр универститети,2020.70-бет.
4. https://vetgov.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonda-veterinariya mutakhassisligini-bitira
5. 2017/2018 oʻquv yilida Oʻzbekiston Respublikasining Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish toʻgʻrisida. 06.05.2017. https://lex.uz/docs/3192998
6. Тошкент давлат аграр университети 90 ёшда: тарих,бугун ва истиқбол./ академик Б.А.Сулаймонов умумий таҳрири остида- Тошкент: Тошкент давлат аграр универститети,2020.279-281-бетлар.
7. 2021/2022 oʻquv yilida Oʻzbekiston Respublikasining Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari toʻgʻrisida. 23.06.2021. https://lex.uz/docs/-5472291
8. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – 59-бет.
9. Samarqand veterinariya meditsinasi institutini tashkil etish toʻgʻrisida. 10.05.2018. https://lex.uz/docs/3725039
10. 2022/2023 oʻquv yili uchun davlat oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari toʻgʻrisida.16.06.2022. https://lex.uz/docs/-6069606#-6072250
11. 2019/2020 oʻquv yilida Oʻzbekiston Respublikasining Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari toʻgʻrisida.19.06.2019. https://lex.uz/docs/-4380357#-4382716

# MA’NAVIY TAHDID VA QARSHI TARG‘IBOT

**Vahabov M.T.**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida ma’naviy hayot va mafkuraviy jarayonlarning asosiy mayl (tendensiya)lari, targ‘ibot va tashviqot fenomenlariga zamona kiritayotgan o‘zgartish (korrektiva)lar, tobora xatarli tus olib borayotgan ma’naviy va g‘oyaviy tahdidlar, ularga qarshi kurashda targ‘ibot va tashviqot kabi sub’ektiv omillarning ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Аннотатция**: В данной статье рассмотрены основные тенденции духовной жизни и идеологических процессов в период глобализации, возрастание опасных духовных и идеологических угроз и пропаганды в борьбе с ними. Даётся философский анализ субъективных факторов.

**Annotation:** In this article, the main trends of spiritual life and ideological processes in the current globalization period, the changes (correctives) that bring modernity to the phenomena of propaganda and propaganda, the increasingly dangerous spiritual and ideological threats, propaganda and propaganda in the fight against them. Theimportanceofsuchsubjectivefactorsisphilosophicallyanalyzed.

**Kalit so‘zlar**: globallashuv, ma’naviyat, ong, tafakkur, geosiyosat, mafkura, ma’naviy va g‘oyaviy tahdid, informasion xuruj, diniy ekstremizm, vayronkorlik, buzg‘unchilik, axloqsizlik, ommaviy madaniyat, zamonaviy texnologiya, telekommunikasiya, OAV, Internet, targ‘ibot va tashviqot.

**Ключевые слова**: глобализация, духовность, сознание, мышление, геополитика, идеология, духовно-идеологическая угроза, информационная атака, религиозный экстремизм, разрушение, безнравственность, массовая культура, современные технология, телекоммуникация, средства массовой информации, Интернет, пропаганда и агитация.

**Key words**: globalization, spirituality, consciousness, thinking, geopolitics, ideology, spiritual and ideological threat, information attack, religious extremism, destruction, destruction, immorality, popular culture, modern technology, telecommunications, mass media, Internet, propaganda and propaganda.

Hozirgi davrning- globallashuv davrining muhim xususiyatlaridan biri- insonlarning ongi va qalbi uchun kurash maydonining o‘zgarayotganidir. Endi qonli urushlar, harbiy istilolar, iqtisodiy iskanjaga olishlar o‘rniga tobora ko‘proq mafkuraviy vositalar va ma’naviy qurollar ishlatilmoqda. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinish tobora ko‘proq ma’naviyat maydonida yuz bermoqda. Boshqa hudud va halqlarni o‘ziga qaram qilish uchun ochiq ko‘rish va sezish qiyin bo‘lgan usul va vositalar, xususan g‘oyaviy tazyiq, ma’naviy buzg‘unchilik uslublari qo‘llanilmoqda. Odamlarning ma’naviy hayotini egallagan, ongi va ong osti qatlamlariga kirib borgan mafkura g‘oyaviy kurashda g‘olib kelishi

ayon bo‘ldi. Binobarin, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo‘li ustun kelishi tobora mafkura va ma’naviyat sohasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.Yuqoridagilarning barchasi birga yig‘ilib “ma’naviy tahdid” tushunchasini paydo qiladi.

“Ma’naviy tahdid”tushunchasi qandaydir mavhum, sun’iy o‘ylab topilgan havfxatarni emas, balki real ijtimoiy hodisani ifodalaydi. Bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berish o‘rinli bo‘ladi: “ma’naviy tahdid” milliy g‘oyaga, madaniy merosning o‘ziga xos xususiyatlariga zid bo‘lgan buzg‘unchi, yot g‘oyalarni bir tomonlama ustun qo‘yishga erishish orqali, millatni o‘zligidan, qadriyatlaridan, ma’naviy negizlaridan mahrum etishga qaratilgan g‘oyaviy tasavvurlar, qarashlar majmui, shuningdek bunday maqsadlarni amalga oshirish yo‘lidagi tajovuzkor faoliyatdir.

«Ma’naviy tahdid» tushunchasi muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitusion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi, ma’naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar va shunga asoslangan amaliyot majmuini ifodalaydi. Uning mazmun-mohiyati, zararli oqibatlari va ma’naviy taxdidlarga qarshi kurashish zarurligi birinchi prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida har tomonlama va ishonchli dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Ushbu asarda ta'kidlanganidek, tili, dini, e’tiqodidan qatiy nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion xurujlar ma’naviy tahdid hisoblanadi.

Bugungi kunda ma’naviy tahdidlar,diniy ekstremizm, vayronkorlik, buzg‘unchilik, axloqsizlik,ommaviy madaniyat kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma’naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg‘ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya, telekommunikasiya, OAV, Internetdan ustalik, g‘irromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qilmoqda.

Ma’naviy tajovuzkorlar ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar niqobi ortida ish ko‘radi. Bunday kuchlar ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular puxta o‘ylangan hamda davomli maqsadlariga xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz bermoqda, millatlarning asriy qadriyatlari milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chikmoqda, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolmokda. Eng yomoni, bunday manaviy xurujlarning pirovard maqsadi odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg‘ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo‘lgan shaxsga aylantirishga qaratilgan.

Ma’naviy tahdid shakllarining aksariyati informasion xuruj va uydirmalarni tarqatish orqali yuz bermoqda. Bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday taxdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil

etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya – qarshi targʻibot bilan javob berish mumkin.

Hozirgi davrda har birimiz ma’naviy taxdidlarga nisbatan loqaydlik, beparvolik va begʻamlik illatidan xalos boʻlishimiz, har bir fuqaro yurtimizda, jahonda sodir boʻlayotgan har qanday voqea, hodisa, jarayonlar menga, mening taqdirimga bevosita daxldor deb hisoblamogʻi darkor. Shu bois hozirgi oʻta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir boʻlayotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega boʻlish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato boʻlmaydi.

Oʻzbekiston davlati va oʻzbek millatiga xizmat qilish gʻoyasini targʻib va tashviqqilish ( qarshi targibot ) talabalarning jamoatchilik ishlari jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun talabalarni ijtimoiy foydali mehnat, jamoatchilik ishlariga jalb qila turib, faoliyatning jamoaviy xususiyati, ijtimoiy foydali mehnat maqsadlari, ma’naviy ahamiyatini tushuntirish zarurdir. Ana shunda uning gʻoyaviy, ma’naviy mohiyati, mazmuni mafkuraviy tarbiyaning qudratli vositasiga aylanadi. Toʻgʻri yoʻlga qoʻyilgan jamoatchilik ishlariga yoʻnaltirish bu -qat’iy gʻoyaviy maslakni uqish va jamoat ishiga ongli singdirishning asosiy omilidir.

Zamonaviy oliy oʻquv yurtida bozor iqtisodiyoti sharoitida mafkuraviy hamda mehnat tarbiyasining mazmuni va shakllari ham yangilanmoqda.Bunda harikkala jarayonning birligiga erishish katta ahamiyatga ega. Masalan, mafkuraviy klublar jamiyat, shaxshuquqi, mulki, tafakkurini himoya qilishga tayyor turish, targʻibot va qarshi targʻibot ishlarini olib borish koʻnikmalarini shakllantiradi. Bu erda talabalar ijtimoiy-siyosiy bilimlarini toʻla ishlatadilar, siyosiy voqealarga toʻgʻri baho berishni oʻrganadilar. Talabalar klub ishi, uchrashuvlar, sayohatlar, davra suhbatlari, kinofilmlar muhokamasi, hasharlar, koʻkalamzorlashtirish ishlari, kitobxonlar anjumanlari, koʻrik-tanlovlar, siyosiy shiorlar, mafkuraviy ishlarni tayyorlashda ishtirok etish bilan birga mustaqil, milliy, sogʻlom turmush tamoyillarini faol oʻzlashtirib oladilar, ularning afzalliklariga ishonch hosil qiladilar

Talabalarning jamiyat, millat, Vatan oldidagi shaxsiy burch va mas'uliyatlarini qanchalik his qilishlariga, qanday munosabatda boʻlishlariga qarab ularning inson, fuqaro va shaxs sifatida shakllanishlarini ma'lum darajada bashorat qilish mumkin.

Binobarin, Oʻzbekiston halqining eng faol, eng etuk qismiga mansubman deguvchi har bir sof vijdonli talaba ma’naviyatni saqlash, avaylab asrash va boyitish uchun mas'uldir. Bu mas'uliyat hukumat yo ma'muriyat tomonidan yuklanmaydi. Buni milliy gʻurur, sha'n va oriyat taqozo etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar royhati.

1.Mirziyoev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutq. Nyu-York. 2017 yil 19 sentyabr. // Toshkent. “Oʻzbekiston”. 2017.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // “Xalq soʻzi”, 2020 yil 25 yanvar.

3.Krisko V. Sekreti psixologicheskoy voyni. M. 1997.

# YOSHLARDA ESTETIK MADANIYAT SHAKLLANISHIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

**Suvanova Dilnura Kurbanovna**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi assistenti
dilnursuvanova51@gmail.com +998937296043
ORCID ID https://orcid.org/0009-0007-9414-4775

**Annotatsiya.** Maqolada estetik madaniyat, uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar masalasi tahlil qilingan. Estetik madaniyatning yoshlar ijtimoiy faolligi, intellektual darajasiga ko‘rsatuvchi ta’siri masalalari ko‘rib o‘tilgan. Estetik ong va madaniyatning inson ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni va ahamiyati hamda unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ijtimoiy falsafiy masalalari haqida fikr bildirilgan.

**Аннотация.** В статье анализируется вопросы эстетической культуры, ее место в жизни общества и факторы влияющие на нее. Рассмотрено влияние эстетической культуры на социальную активность и интеллектуальный уровень молодежи. Выражены роль и значение эстетического сознания и культуры в духовном развитии человека, а также социально-философские вопросы факторов влияющих на него.

**Abstract.** The article analyzes the question of aesthetic culture, its place in the life of society and the factors affecting it. The influence of aesthetic culture on the social activity and intellectual level of young people is considered. The role and importance of aesthetic consciousness and culture in human spiritual development and the social and philosophical issues of the factors affecting it are expressed.

**Kalit so‘zlar:** Estetik madaniyat, ijtimoiy hayot, estetik ong, estetik faoliyat, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, yoshlarning ijtimoiy faolligi, estetik madaniyat va ijtimoiy faollik, insonning ma’naviy kamoloti

**Ключевые слова:** Эстетическая культура, общественная жизнь, эстетическое сознание, эстетическая деятельность, факторы влияющие на нее, социальная активность молодежи, эстетическая культура и социальная активность, духовная зрелость личности.

**Key words:** Aesthetic culture, social life, aesthetic consciousness, aesthetic activity, factors influencing it, social activity of young people, aesthetic culture and social activity, spiritual maturity of a person.

**KIRISH.** O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etilishi, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi jadal rivojlanish, islohotlarning muvaffaqiyati yoshlarning ijtimoiy faolligi, intellektual bilimi, estetik madaniyati darajasiga bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy jihatdan yetuk yoshlargina jamiyat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladi. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma’naviyatini yuksaltirish, ular

tomonidan dunyoviy bilimlarning egallanishi, ilg‘or texnologiyalardan unumli foydalanish ko‘nikmasining shakllantirilishi, estetik ong va madaniyat darajasining yuksalishi dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan masalalardir.

Mamlakatimizdagi tub o‘zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha yagona ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi “O‘zbekiston yoshlari - 2025” konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur[64].

Estetik bilim chuqur va barqaror estetik qiziqishlarni hosil qiladi. Yoshlardagi estetik bilim ularni estetik faol bo‘lishga, o‘z faoliyatlarini namoyon qilishga tayyorlaydi. Inson tevarak-atrofni go‘zallik qonunlari asosida o‘zgartirishga, go‘zallikni yaratishga harakat qiladi. Ushbu jarayonda unga bir qator omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Estetik jihatdan tarbiyalangan inson hayotni go‘zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo‘lishga harakat qiladi. Insonning estetik faolligi quyidagi omillarda, hayotda go‘zallik yaratishga qaratilgan faoliyatda, chiroyli, bejirim kiyinishida, madaniy muomalasida, o‘zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishida namoyon bo‘ladi. Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash jarayoniga ham bir qator omillar ta’sir ko‘rsatib, bular, yoshlarda estetik bilimlarning tarkib topganligi, estetik madaniyatning tarbiyalanganligi, estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo‘lish, estetik tuyg‘uning rivojlanganligi, yoshlarning ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini his etishi, go‘zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi, estetik idealning shakllanganligi, fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishga intilish kabilardan iboratdir. Yoshlarning estetik madaniyati ularning estetik his-tuyg‘usi, bilimi, dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Estetik madaniyat jamiyatning san’at, go‘zallik va estetik qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘zida ifodalaydi. Jamiyatning estetik madaniyatiga uning san’atga bo‘lgan qiziqishi, san’at asarlarini baholash qobiliyati, estetik qadriyatlarga hurmat va go‘zallikni idrok etish kabilar kiradi. Estetik madaniyat jamiyatning madaniy boyligi va badiiy mahoratining ko‘rsatkichidir. Jamiyatning estetik axloqi uning qadriyatlari, e’tiqodlari va uslubini aks ettiruvchi san’at asarlari va me’moriy inshootlari orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyatning estetik mentalitetini rivojlantirish va saqlash uning madaniy-ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Estetik sivilizatsiya jamiyatda san’at va badiiy ishlab chiqarishga qiziqish uyg‘otadigan muhitni yaratadi va yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Estetik madaniyat taraqqiyoti shaxsda faollikni kuchaytiradi, o‘z ijodiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish va ro‘yobga chiqarishga da’vat etadi. Ana shunday ijtimoiy-tarixiy va ma’naviy jihatdan nihoyatda zarur bo‘lgan masala – jamiyatda estetik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish ham nazariy, ham

[64] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил, 34-35 бетлар.

amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib hisoblanib, birinchidan, shaxs estetik madaniyatining ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tarixida qanday o‘rganilganlik darajasi hamda ijtimoiy taraqqiyot jarayonida estetik madaniyat va unga doimo jamiyatda ehtiyojning oshib borishi ob’yektiv jarayon ekanligi ma’naviy-madaniy sohalardagi o‘zgarishlarda ro‘y bermoqda. Buning natijasida jamiyatda shaxs estetik madaniyati rivojiga xizmat qiluvchi milliy va umumbashariy qadriyatlar, jumladan, ajdodlarimiz ma’naviy meroslarini tadqiq etish, erishilgan yutuqlari asosida voqelikni ilmiy-nazariy o‘rganish, xalq manfaatlarini ifodalovchi tizimni yaratishga qaratilgan nazariy-metodologik masalalar muhim ahamiyat kasb etadi[65].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

G‘aybullayev Otabekning “Estetik madaniyat” deb nomlangan monografiyasida ta’kidlab o‘tilganidek, “Yoshlarning ma’naviy qiyofasini belgilashda, ularning ijtimoiy faol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil – estetik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega”[66].

Estetik madaniyat shaxs, xususan, yosh avlod dunyoqarashida Vatanga bo‘lgan muhabbat, yurtga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Jamiyatda jismonan baquvvat, axloqan pok, estetik madaniyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Shu asosda yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda, - deydi Shavkat Mirziyoyev, - Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta’minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning munosib a’zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda[67].

2016 yil 14-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni qabul qilinib, ushbu qonunning 12/1-moddasi “Madaniyat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari” deb nomlangan. Ushbu moddada, “Madaniyat organlari: ijodkor yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi, ularning o‘z iqtidori va iste’dodini to‘laqonli namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi”[68], deyilgan.

Milliy estetik madaniyat shaxsning qalbi va ongiga o‘ziga xos ta’sir etish yo‘li bilan yuksak ma’naviyatni tarbiyalovchi omil bo‘lib hisoblanadi. Estetik madaniyat umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni egallash va hayotga tatbiq etishga yordam beradi. Tarixiy-badiiy an’analardan ijodiy foydalanish, ularning tadrijiy taraqqiyot qonunlarini egallash imkoniyatini yaratadi. Boshqa xalqlarning madaniyatlari bilan

---
[65] Ғайбуллаев Отабек. Эстетик маданият. Монография. Тошкент, Наврўз нашриёти, 2020 йил 4 бет.
[66] Ғайбуллаев Отабек. Эстетик маданият. Монография. Тошкент, “Chashma print” нашриёти, 2008 йил 6 бет.
[67] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил, 490 бет.
[68] Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”. 2016 йил 14-сентябрь, ЎРҚ-406-сон. https://lex.uz/docs/3026246

milliy madaniyatning o‘zaro aloqasini, milliy g‘oyaning maqsad-manfaatlari bilan uyg‘unlikni ta’minlaydi. San’at asarlari, shuningdek, zamonaviy turmush va xalq estetikasini rivojlantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqishda texnika estetikasi yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. San’at asarlariga murosasiz tanqidiy munosabatni, sog‘lom estetik did va ehtiyojlarni shakllantiradi. Shu bilan birgalikda estetik madaniyat taraqqiyotiga maktab ta’limi, oliy ta’lim, maktabdan tashqari muassasalar, yoshlar klublari, musiqa maktablari kabi ijtimoiy-ma’naviy omillar ham o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatadi.

Estetik madaniyat kasbiy faoliyat estetikasi orqali namoyon bo‘ladi. Kasbiy faoliyat estetikasi deb biron bir kasb sohiblarining voqelikka estetik munosabatda bo‘lish orqali o‘zlarining xizmat faoliyatlarini nafosat qonunlari, prinsiplari, vositalari asosida tashkil qilishlarini o‘rganish va o‘rgatishga aytiladi. Kasbiy faoliyat estetikasi quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) xodimlarining olamni go‘zallik qonunlari asosida yaratishi, o‘zgartirishi va qayta qurishida ko‘maklashish; 2) go‘zallik, qahramonlik va ulug‘vorlikni ularning antipodi bo‘lgan xunuklik, qo‘rqoqlik va pastkashlikdan ajrata bilish; 3) nafosat qonunlari, prinsiplari asosida estetik tarbiya ishlarini tashkil qilish[69].

## NATIJA VA MUHOKAMA

2022 yil 28 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning №PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, ushbu farmonga 1-ilovada fuqarolar, eng avvalo yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish masalasiga katta e’tibor qaratilgan edi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 75-maqsadda, “Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish” masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, 76-maqsadda “Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va ob’yektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash”,[70] masalalariga e’tibor qaratildi.

2023 yil 11sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-158 sonli Farmoni qabul qilinib, farmonga 1-ilovadagi 1-maqsad, “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish”, deb nomlangan. Ushbu maqsadning 1,5 yo‘nalishi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar”, deb nomlangan bo‘lib, farmonga ilovadagi 42-maqsadda “Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish”, masalasiga e’tibor qaratilgan edi. Ushbu yo‘nalishda “San’atshunoslik instituti, o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti arxividagi 3 mingtadan ortiq arxiv materialini zamonaviy formatga o‘tkazish, kamida 3 ta noyob nomoddiy madaniy meros namunasini YUNESKOning xalqaro ro‘yxatlariga kiritishga erishish, 30 tadan

---

[69] Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Фалсафа. Дарслик. Самарқанд, 2021йил, 387 бет.

[70] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” . 2022 йил 28-январь, №ПФ-60. https://lex.uz/docs/5841063

ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish, 158 ta madaniy meros ob'yektini asrashga doir ishlarni bajarish"[71], kabi vazifalar belgilangan edi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog'larini tashkil etish, ularni zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish choralarini ko'rish zarur, - deydi Prezident Shavkat Mirziyiyev, - Ushbu bog'lar tarkibida birinchi navbatda sport maydonchalari, amfiteatr va kichik sahnalar, kutubhona, "Kitob kafelari" bo'lishi lozim[72]

## XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilib, yoshlarni dunyoqarashi keng, turli bilimlarni puxta egallagan, xorijiy tillarni, kompyuter texnologiyalarni yaxshi biladigan, estetik, madaniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ongi va madaniyati yuksak shaxs qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda inson barkamolligining muhim mezoni sifatida shaxsning madaniy darajasi, uning estetik ongi va madaniyati masalasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Shaxsning madaniy darajasi, uning estetik ongi va madaniyati millat genofondining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi. Fuqarolar, eng avvalo yoshlarning madaniyatliligi, estetik ong va estetik madaniyat darajasining yuksakligi ularning sog'lom, aql-zakovatli, ma'rifatli, insonparvar, mehnatsevar, mas'uliyatli ekanliklari bilan belgilanadi. Estetik madaniyat va estetik tarbiya inson ma'naviy kamolotining muhim omillari sifatida ijtimoiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2020 yil.

2.G'aybullayev Otabek. Estetik madaniyat. Monografiya. Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020 yil.

3.Ғайбуллаев Отабек. Эстетик маданият. Монография. Тошкент, "Chashma print" нашриёти, 2008 йил.

4.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2018 yil.

5.O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida". 2016 yil 14-sentyabr, O'RQ-406-son. https://lex.uz/docs/3026246

6.Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand, 2021yil.

---

[71] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2023 йил, 11 сентябрь №ПФ-158. "Ўзбекистон-2030" стратегияси тўғрисида. https://lex.uz/ru/docs/6600413

[72] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 34-35 бетлар.

# ҲУСАЙН ВОИЗ КОШИФИЙНИНГ КУРАШ САНЪАТИ ҲАҚИДА

**Азизқулов Акрам Абдурахмонович**
Фалсафа фанлари номзоди, доцент.
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти Ижтимоий фанлар кафедраси мудири, E-mail: a.azizkulov@mail.rz
**Алимов Акбар Нарбоевич**
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ижтимоий фанлар кафедраси доценти E-mail: alimovakbar231@gmail.com

**Аннотасия:** Мазкур мақолада мутафаккир алломаларимиз, хусусан, Ҳусайн Воиз Кошифий томонидан халқ орасида кенг тарқалган томоша санъатининг бир тури сифатида курашнинг мазмун-моҳиятини кураш ва унинг ахлоқий меъёрларига оид мулоҳазаларнинг фалсафий методологик таҳлили баён этилади.

**Калит сўзлар**: Кураш, спорт тури, қадрият, миллий қадрият, Ҳусайн Воиз Кошифий, илмий мерос, ахлоқ, одоб.

Курашнинг қизиқарли спорт турларидан бири эканлиги ҳамда Марказий Осиё халқлари маънавий тараққиётида муҳим ўрин эгаллаганлиги тарихдан яхши маълумдир. Мардлик, жасурлик ва ҳалоллик рамзи сифатида бу спорт тури халқ достонларимизда, жумладан “Алпомиш“ достонида яхши таърифланган. Шунингдек, мутафаккир алломаларимизнинг илмий меросларида, хусусан, Маҳмуд Кошғарий[1], Алишер Навоийнинг[2], Зайниддин Восифийнинг[3], Ҳусайн Воиз Кошифийнинг „Футувватномаи султоний“[4], Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг[5 ]асарида кураш ҳақида қимматли маълумотлар бор. Улар ўз асарларида ўлка халқлари турмуш тарзида кураш уйинларининг моҳияти ва аҳамиятини батафсил ёритиб берганлар. Хусусан, темурийлар даврида яшаб, баракали ижод қилган олимлардан бири Ҳусайн Воиз Кошифий ҳам ўз асарларида кураш уйинлари хусусиятини тўлиқ баён этади.

Ҳусайн Воиз Кошифий ўзининг„ Футувватномаи султоний“ асарида томоша кўрсатувчи паҳлавонларга оид мусобақалар хусусида мулоҳазаларини баён етар экан, кураш тушувчилар ҳақида батафсил тўхталиб ўтади. Курашнинг оммабоп томошалардан эканлигини таъкидлар экан шундай дейди: “Билгилки, кураш одамлар кўп қизиқадиган ҳамда султонлар, шоҳларга мақбул бўлган ҳунарлардандир. Бу иш билан шуғулланувчи кишилар ҳар қандай вазиятда тўғрилик ва поклик қонунияти билан яшайдилар”[4.97]. Ҳусайн Воиз Кошифий кураш мусобақасини ҳалоллик, тўғрилик ва покликка асосланиши лозимлигини алоҳида таъкидлайди. Халқ орасида кенг тарқалган томоша санъатининг бир тури сифатида курашнинг моҳиятини аллома тўлиқ ёритиб беради.

Дастлаб курашнинг маъжозий маъно касб етишини, инсон табиатида икки хил хил қат ўртасида доимо кураш мавжудлигини қуйидагича тушунтиради: “Агар курашнинг маъноси нима, деб сўрасалар, жавоб бериб айтгилки, бунинг

маъноси одамзод ҳилқатидан келиб чиқади, чунки одамзо дўз ахлоқини ўзгартириб боради, яъни хулқ-атвор яхшилик томон ўзгариши керак ва бу сўзнинг ҳақиқати шундаки, одамда мақбул ва номақбул ахлоқий сифатлар орасида доимий кураш боради, яъни ҳар бир сифат ўзига қарши сифатни даф қилиш пайида бўлади. Кураш инсон хилқатидаги шу хусусиятни ифодалайди...”[4.97].

Инсон доимо ўз руҳиятидаги ёмон иллатлар билан курашиб, езгу гўзал ахлоқий хислат ларни такомиллаштириб бориши зарурлигини таъкидлаши Ҳусайн Воиз Кошифий ахлоқ фалсафасининг расионал мағзини ташкил етади. “Агар курашда асл моҳият нима, деб сўрасалар, ушбу ҳунарнинг илми деб жавоб бергил. Агар куч-қувват қанақа нарсадир, деб сўрасалар, айтгилки, куч-қувватнинг эътибори йўқ, зеро ҳайвонларда куч жуда кўп, аммо уларда илму дониш (инсоний фазилат) йўқ, шу учун улар ҳурматга лойиқ емаслар” [4.97]. Аллома курашнинг моҳиятини тушунтирар экан, масалага яна расионаллик тамойилиги таяниб кураш муайян илм талаб қилишини қуйидагича изоҳлайди: “Агар илм билан қўшилган кучқанақа нарса, деб сўрасалар, буғоят еътиборли ва таҳсинга сазовор нарса, деб айтгил. Зеро, улуғлардебдурларки: «Билим сиз куч адли йўқ шоҳдир, қуввати йўқ илм эса, адолатли, лекин лашкари йўқ шоҳ кабидир». Ва агар билим билан кучўзаро мувофиқкелса, муваффақиятга эришиш йўли очиқдир” [4.97]. Ҳусайн Воиз Кошифий инсоннинг бошқа мавжудотлардан фарқи ҳам шундалигига урғу бермоқда. Билим билан куч биргаликда қудрат касбета олишини расионал тарзда тушунтириб бермоқда.

Ҳусайн Воиз Кошифий ҳозирги замон епистемологиясидаги амалиёт ва билимнинг, назариянинг уйғунлиги тамойилини назарда тутиб курашнинг моҳиятини қуйидагича изоҳлайди: “Агар кураш тушиш илм-миёкиамал-ми, деб сўрасалар, жавоб бериб айтгилки, амал билан зичбоғлиқ илмдир. Ҳар ким ҳаётда ниманидир ўрганади, бир оқунгаамалқилмаслиги мумкин. Аммо кураш санъатида илмга амал қилмасликнинг иложи йўқ. Бас, шундай экан, бунда билим ва амал бир-бирини безайди, тўлдиради, бир-бирига мадад беради” [4.98]. Ҳусайн Воиз Кошифий кураш ҳам муайян илмни талаб қилар экан, демак, унинг албатта одоблари, ахлоқий жиҳатлари борлигини таъкидлаб шундайдейди: “Агар кураш усталарининг одоби (қоидалари) нечта, деб сўрасалар, ўниккита деб айтгил: биринчидан, устознингўзипоквануқсон – иллапсизодамбўлсин. Иккинчидан, шогирдларинипокликкадаъватецин. Учинчидан, бахил бўлмасин, шогирдларидан ҳеч нарсани қизғанмасин. Тўртинчидан, шогирдларига мехрибон бўлсин. Бешинчидан, шогирдлар мол-мулкига таъмагир бўлмасин. Олтинчидан, ҳар бир одам ниқобилиятигақарабтаълимберсин. Еттинчидан, фириб-найранг, риё билан шуғулланмасин. Саккизинчидан, ўзшогирдларига ёмонликни раво кўрмасин. Тўққизинчидан, шогирдларидан бирортаси ёмон кураштушса, жеркибташламасин, балки мулойимлик билан тушунтирсин. Ўнинчидан, шогирдига маъракада таълим бермоқчи бўлса, буни яширин ҳолатда қилсин, токи душман хабардор бўлмасин. Ўнбиринчидан, дастур бўладиган

курашилмининг барчанозикликларини муфассал билиши керак. Ўниккинчидан, ҳечбир маъракада пири ва устозларини дуо билан хотиргаолишни есдан чиқармасин” [4.98].Дастлаб кураш илмида устозга оид одоб қоидаларини шарҳлайди. Мазкур одоб қоидалар ҳар қандай соҳадаги устозларга тегишлидир.

ҲусайнВоизКошифийкурашилмидашогирдҳамриояетишилозимбўлганахлоқ-одобқоидаларииникуйидагичатушунтиради: “Агаршогирдлародобинечта, дебсўрасалар, бу ҳам ўниккита деб айтгил: биринчидан, тўғри сўз ва тўғри фикрли бўлиш, иккинчидан, тақволи ва яхши муомалали бўлиш, учинчидан, сийрат ва сурати ораста, яхши ахлоқлибўлиш, тўртинчидан, покниятли бўлиш, бешинчидан, устозларининг айтганини сидқидилдан бажариш, еттинчидан, ҳеч бир одамга ҳасадқилмаслик, саккизинчидан, бахил бўлмаслик ва пирга борини бағишлаш, тўққизинчидан, бошқа шогирдлар билан тилда ва дилда дўст, иттифоқ тутиниш, ўнинчидан, одамлар кўнглини топиш, кўнгилгадоси бўлиш, ўнбиринчидан, ўзкучига мағрур бўлмаслик, ўниккинчидан, ҳарифнинг мағлубиятидан кувонмаслик” [4.98]. Томошабинларга жўнгина содда кўринганиккирақибўртасидакечадиганкурашжараёниаслидамуайянилмларданташкилтопганбўлибўзининг тартиб қоидаларига эга экан.

Курашда ғолиб бўладиган паҳлавон қандай хислатларга эга бўлиши кераклигини қуйидагича тушунтиради: “Агар кимни паҳлавон дейиш мумкин, деб сўрасалар, жавоб берибайтки, биринчидан, бақувват, жусса-гавдали, иккинчидан, ширинтилли, учинчидан, қўрқмасюракли, тўртинчидан, етукақлли, бешинчидансабрли, олтинчидан, баркамолилмли, еттинчидан, доимий жидду жаҳд қилувчи, яъни ҳаракатчан, хуш-ахлоқ, ҳаромдан ҳазар қилувчи, сахий, ноз-неъмат дастурхони очиқ одам паҳлавонлик номига сазовор кишидир” [4.99]. Ҳусайн Воиз Кошифий кураш санъатини батафсил баён етар экан, унинг Марказий Осиё халқлари ҳаётида муҳим аҳамият касб етишини, унинг оммабоплиги, ҳатто, тасаввуф тариқати вакиллари орасида ҳам кенг тарқалганлигини асослаб бериши катта илмий аҳамият касб етади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, кураш спорти Марказий Осиё халқлариҳаётидамиллий қадрият сифатида иккимингйилдан ортиқ тарихга эгадир. Курашнинг аждодларимиз тўғрилик ва покликка, ҳалоликка асосланиши лозимлигини алоҳида таъкидлаб ўтганлар. Мутафаккир алломаларимиз ўзасрларида курашнинг моҳияти ва хусусиятига оид қимматли маълумотларни баён етгналар. Хусусан, Ҳусайн Воиз Кошифий илмий меросида курашваунинг тахлоқий меъёрлари ҳақидаги мулоҳазалари бугунги кунда ёшавлодни баркамол қилиб тарбиялашда муҳим тарбиявий аҳамият касб етади.

**Фойдаланилганадабиётлар рўйҳати:**


1. Кошғарий, Маҳмуд. Девону лугати-т-турк (Туркий сўзлар девони). - Тошкент: Ғафур Ғуломномидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. - 488 б.
2. АлишерНавоий . Ҳамса. –Тошкент.:Янгиасравлоди, 2021. - 496 б.

# IQTISODIY MADANIYAT BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA IQTISODIY XULQ-ATVORNI O'RNI.

**Djuraev Lukmon Narzullaevich**
Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrasi DSc dotsenti

**Annotasiya:** Mazkur maqolada iqtisodiy madaniyat barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy xulq-atvor masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish madaniyati va xulq-atvorniga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Ular o'rtasidagi funksional aloqalarni uzviyligi to'g'risida bir qancha mutaxasislarning qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Empirik tadqiqotlar, raqobotdosh, integrativ, funktsional, struktura, iqtisodiy xulq-atvor, xulq, mehnat, odob-axloq.

Iqtisodiy madaniyatning funktsional aloqalaridan biri bu iqtisodiy xulq-atvordir. Iqtisodiy xulq-atvor mavzusi ko'plab iqtisodchi va psixologlarga bog'liq bo'lgan aloqalar bo'lib, ular tizim va elementlar o'rtasida ham ro'y beradi. Ular nafaqat tizimning gomeostozisini ta'minlaydi, balki tizimning dinamikasini belgilaydi. Xulq - bu shaxsning harakatlari majmui. "Xulq-atvorda odamning shaxsiyati, fe'l-atvori, ehtiyojlari, didi xususiyatlari aniqlanadi; uning atrofdagi haqiqat narsalari va hodisalari bilan munosabatini ochib beradi" [73]. Xulq-atvor faoliyatning shaxsning fazilatlari va qadriyatlar yo'nalishlari erkin namoyon bo'ladigan jihatlarini tavsiflaydi. Faoliyat mezoniy tushunchasiga tizim va o'zaro bog'liq bo'lgan quyi tizimlar kiradi, ularning kombinasiyasi odamlar sa'y-harakatlari umumiy hamkorligi, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy tuzilmaning ma'lum bir yaxlitligini belgilaydi.

Faoliyat tushunchasi ikki xildagi harakatlarni birlashtiradi: 1) tabiatan yoki iqtisodiy kuch tizimi tomonidan shartlangan qat'iy zaruriyatga bo'ysunadi; 2) faqat ma'lum darajada ob'ektiv holatlar, jamiyatning madaniy va huquqiy normalari bilan bog'liq sabab, lekin sub'ektga o'z va jamoat manfaatlarini qondirish maqsadlari va vositalarini tanlashda kengroq shaxsiy erkinlik berish. Shunga ko'ra, ushbu faoliyat sohasida shaxs erkin tanlash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega va shu bilan birga u o'z harakatlariga ko'proq javobgar bo'ladi. Agar ular ma'lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda ma'lum bir umumiy yo'nalishga ega bo'lsa, unda ular boshqalarning o'zlari bilan ijtimoiy aloqada o'zlarini yo'naltirishlariga imkon beradigan xatti-harakatlarning nisbiy yaxlitligini tashkil qiladi.

Hayotning turli sohalarida turli xil qiziqishlar, modellar, xulq-atvor turlari ustun bo'lganligi sababli ularni iqtisodiy, oilaviy va maishiy, deontologik (professional) va boshqalarga bo'lish mumkin. V. I. Verxovin, T.I.Zaslavskaya, V.G.Zalevskiy, V.S.Lyubchenko, I.V.Rozmaynskiy aholining iqtisodiy xulq-atvorining asosiy jihatlari to'g'risida umumiy nazariy va falsafiy qoidalarni ishlab chiqishga katta hissa qo'shdilar.

---

[73] Петросян Д. С. Интеграционная модель поведения человека / Д.С.Петросян // Общественные науки и современность. – 2008. – № 3. – С. 43

Iqtisodiy xulq-atvorning asosi-farovonlikka erishish yoki yuqori davlat yoki xususiy maqomga erishish yo‘lidagi foyda va xarajatlarning nisbati to‘g‘risida shaxsning sub’ektiv g‘oyasi. Iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar bilan bir qatorda har bir insonning shaxsiy qobiliyatlari va ijtimoiy institutlar, urf-odatlar, etnik va mahalliy mentalitetning ta’sirini e’tiborga olgan holda ma'lum hayotiy imtiyozlarning nisbiy mavjudligini e’tiborga olish iqtisodiy xulq-atvorning individual va guruhli modellarini shakllantirishda ishtirok etadi.

Atrof-muhit mentaliteti va haqiqatni idrok etishning individual xususiyatlariga qarab, uning amaliy qo‘llanilishi boshqa sub’ektiv bahoni oladi - axloqiy hukmdan faol harakatlar va ijodkorlik uchun eng kuchli moddiy rag‘bat sifatida tan olinadi. M.Veberning ijtimoiy harakatlar nazariyasida, A.Smit tomonidan ijtimoiy koordinasiya, T.Veblen tomonidan iste’molchilarning xatti-harakatlari va V.Zombratning "iqtisodiy ruhi"da nazarda tutilgan klassik metodologiyani tahlil qilish asosida iqtisodiy manfaat maqsadga muvofiq (terminologiyada) shakllanishini belgilaydi.

M.Veberning fikricha, "iqtisodiy xulq-atvor turi, milliy madaniyat, xulq-atvorning oqilonaligi, ijtimoiy stereotiplar iqtisodiy xatti-harakatlarning an’anaviy turining paydo bo‘lishiga ta’sir qiladi. Inson hissiyotlari dunyosi shaxsning iqtisodiy xulq-atvorining affektiv turini oldindan belgilab beradi"[74]. Shubhasiz, iqtisodiy xatti-harakatlarning sub’ekti - bu shaxs ya’ni odamlar manfaatlari va motivlari, ularning faoliyati nafaqat foyda olish bilan cheklanib qoladi balki, ma’naviy hayot, madaniyat, ta’lim va ijtimoiy psixologiyaning ko‘p qirralariga ta’sir qiladigan (shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, jamiyatdagi obro‘si) haqiqiy birlashmasi, asosiy iqtisodiy maqsadga zid bo‘lmaslik va pirovardida unga erishishga hissa qo‘shishi, xulq-atvor bu shaxs tomonidan belgilanadigan faoliyat shaklidir[75].

Iqtisodiy xulq-atvorni ijtimoiy va shaxsga yo‘naltirilgan xulq-atvor turlaridan biri sifatida ko‘rilganda, ushbu model nafaqat oqilona tomon (xarakterli xarajatlar va foyda nisbati bo‘yicha qat’iy iqtisodiy hisob-kitob) bilan, balki axborot etishmovchiligi va shaxsiy sub’ektiv mulohazalar tufayli ahamiyatsiz deb tushunish mumkin. Bu esa ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste’mol qilish kabi xatti-harakatlarning xilma-xilligini ta'kidlashimizga imkon beradi. Aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarining iqtisodiy xulq-atvori shuni ko‘rsatadiki, har bir shaxsning imkoniyatlarining xilma-xilligi uning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish darajasini aks ettirishi, hamda "iqtisodiy jarayonlardagi mavqeini belgilaydi, iqtisodiyotda va jamiyat hayotining boshqa sohalarida ishtirokini ta’minlaydi”[76].

Xulq-atvor tushunchasi umumlashtirilgan shaklda shaxsning xatti-harakatlari o‘zini o‘rab turgan muhitini idrok etishidir. Bu nafaqat hozirgi paytda shaxsning hayotiy pozisiyasini aniqlash bo‘yicha xulosalar chiqarish, balki kelajakda uning

---

[74]Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения / М.Вебер. – М. : Прогресс, 1990. – С. 602.

[75]Зомбарт В. Буржуа : этюды по истории духовного развития современного экономического человека : пер. с нем. / В. Зомбарт ; изд. подгот. Ю.Н.Давыдов, В.В.Сапов. – М. : Наука, 1994. – С. 6-7.

[76] Шабунова А.А. Экономическое поведение населения : теоретические аспекты : препринт / А.А.Шабунова, Г.В.Белехова. – Вологда : ИСЭРТ РАН, 2012. – С. 4-6.

harakatlarida oqilona kutishlarni bashorat qilish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy xatti-harakatlar – bu ma'lum bir shaxs yoki guruhga xos bo‘lgan, ularning turli xil manfaatlarini qondirish, foyda olishga qaratilgan ijobiy yo‘naltirilgan harakatlarning nisbiy yaxlitligidir.

Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy xatti-harakatlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida iqtisodiy sohada faoliyat ko‘rsatadigan va sub’ektlarini yo‘naltiradigan qadriyatlar, me'yorlar va ehtiyojlarning namoyon bo‘lishidir. Iqtisodiy va noiqtisodiy bo‘lmagan xatti-harakatlarning umumiy asoslari iqtisodiy madaniyatning uchta tarkibiy qismida namoyon qiladi: 1) mehnat odob-axloqi; 2) ilmiy va kasbiy bilimlar; 3) inson xulq-atvorini boshqaradigan me'yorlar va qadriyatlar. Hozirda inson iqtisodiy hayotini bilish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini aks ettirish va o‘z-o‘zini tashkil qilishning roliningoshib borishi, ongni erkinlashtirish va individualizasiya qilish tendentsiyalari kuchaymoqda.

Yoshlarning jamiyatga moslashuvi va iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoni keskin o‘zgarishlarga boy bo‘lib, turli muhitda va makonda yashab ketishi, mulkni qo‘lga kiritishi bilan harakterlanadi. Rossiyalik tadqiqotchi N.K.Jamsueva o‘z ilmiy ishida iqisodiy ijtimoiylashuv jarayonlarini quyidagi jihatlar bilan bog‘laydi:

- adaptasiya (nafaqat tashqi muhit jarayonlariga, balki insonning ichki ruhiy dunyosini shakllantiruvchi faol va nofaol kechinmalarga moslashish);
- his qilish (jamiyatdagi mavjud bilimlar tizimini o‘zlashtirishda, uni o‘zaro faoliyat orqali individ va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiylashuv ob'ektining kommunikativ jihati hisoblanadi);
- ta’sir o‘tkazish (jamiyat va referent guruhlarning maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir o‘tkazishi natijasida ongsizlik holatida qadriyatli va me'yoriy ustanovkalarni o‘zlashtirish);
- fasilizasiya (hulq-atvorni yumshatish, bunda referent guruhlar individga ma'lum darajada erkinlik berib, unga ijodiy yondashish asosida o‘z tajribasini namoyon qilish imkonini beradi);
- ingibitsiya (harakatning pasayishi, individning hayotiy tajribada o‘zi to‘plagan sosial tajribasi asosida shakllangan hulq-atvoriga atrofdagilarning to‘sqinlik qilishi);

Yoshlarning iqtisodiy xulq-atvori bozor iqtisodiyoti islohoti ta’sirida, yangi O‘zbekistonni qurishda islohotlarni jadallashishi ta’sirida o‘zgarib boradihamda ular o‘z-o‘zini tashkil qilish orqali shu yangi iqtisodiy qadriyatlar muhitiga ijtimoiylashib boradilar.

Xulosa shuki o‘zgaruvchan iqtisodiy xulq-atvori mohiyatini xossalari quyidagilardan tashkil topadi. Birinchidan, o‘zgaruvchan elementlarning o‘ziga xos xususiyatlari maqsadlar, manfaatlar, qadriyatlar, motivlar, e’tiqodlarni o‘zida jamlaydi; ikkinchidan, iqtisodiy xatti-harakatlarning tuzilishini belgilaydigan ular o‘rtasidagi munosabatlarning tabiatidan kelib chiqadi; uchinchidan, iqtisodiy xulq-atvorni kontseptual tahlil qilishga urinish avvalo, uni atributlarini metodologik tahlil qilish kerakligini anglatadi. Uning umumiy ma’nosi – iqtisodiy fikrlash bilan bog‘liqligini, xarajatlar va natijalar kombinasiyasini baholashda rasionalizmga

bo‘lgan istak-maylni ifodalaydi; to‘rtinchidan, yoshlarning iqtisodiy qadriyatlar yo‘nalishlari tarkibi bozor madaniyatining haqiqiy qadriyatlaridan farq qiladi: mehnat qila olish, mehnatsevarlik, shaxsiy javobgarlik, foyda, jamg‘arma, boylik (iste’molchilik), ijtimoiy muvaffaqiyat (yutuq, obro‘-e’tibor, maqom) bular bozor iqtisodiyotiga asoslangan tadbirkorlik strategiyasini belgilaydi; beshinchidan, iqtisodiy xatti-harakatlarning afzal qilingan strategiyalari etuk yoshdagi yoshlar va ular orasida sezilarli darajada farq qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Петросян Д. С. Интеграционная модель поведения человека / Д.С.Петросян // Общественные науки и современность. 2008. № 3. С. 43

2.Веблен Т. Б. Теория праздного класса / Т. Б.Веблен ; пер. С. Сорокина. М. : Либроком, 2011. С. 200-201.

3.Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения / М.Вебер. – М. : Прогресс, 1990. С. 602.

4.Зомбарт В. Буржуа : этюды по истории духовного развития современного экономического человека : пер. с нем. / В. Зомбарт ; изд. подгот. Ю.Н.Давыдов, В.В.Сапов. – М. : Наука, 1994. С. 6-7.

5.Шабунова А.А. Экономическое поведение населения : теоретические аспекты : препринт / А.А.Шабунова, Г.В.Белехова. Вологда : ИСЭРТ РАН, 2012. – С. 4-6.

6.Жамсуева Н.К. Социализация молодежи в обществе переходного перио да (общетеоретический подход). Улан-Уде, 1999. С. 23-24.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDA TA’LIM TIZIMI VA OILAVIY TARBIYANING ROLI.

**Ro‘zimurodov Siroj Madatovich**
SamISI, ijtimoiy fanlar kafedrasi kafedrasi (PhD) dotsenti.
rozimurodov86@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada yangi O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalash borasidagi vazifalar yoritilgan. Yoshlarni ma’naviy etuk qilib tarbiyalashda oila institutini hamda ta’lim maskanlarini oldidagi tarbiya va ta’lim sohasi o‘rni va sag‘lom ona, sog‘lom bola va sog‘lom jamiyat kansepsiyasining amaldagi natijasini bugungi kundagi ahamiyati ilmiy taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Mahalla, oila, maktab, shaxs, axloqiy-estetik tarbiya, reproduktiv, axloqiy qadriyatlar, sog‘lom farzand, farovon, an’ana.

Jamiyatning har tomonlama mustahkamligi va farofonligi albatta birinchi navbatda oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, oila a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan samimiy munosabati va axloqiy tarbiyasiga uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shu jixatdan bugungi kunda bolalikda xamda maktabgacha tarbiyaga shartli ravishda oila va bog‘cha tarbiyasini kiritish mumkin. Oiladagi ahloqiy tarbiya juda muhim hisoblanadi, uning o‘ziga yarasha qoidalari mavjud. Shu urinda tarbiya va ta’lim insoniyatning tabiiy va ijtimoiy borliqdagi o‘rnini ham belgilab beradigan, uni ma’naviy ozuqa bilan boyitadigan sohadir. Insoniyat barcha tarixiy davrlarda ta’limning qudratini va uning yaratuvchanlik kuchiga guvoh bo‘lgan, pirovardida u jamiyatda yuksak maqomga ega bo‘lgan ijtimoiy qadriyat sifatida tan olinib kelingan. Shuning uchun xar bir davrda yoshlar tarbiyasida yuksak tajribaga ega bo‘lgan onaxonlarning, buvixonlarning tarbiyasini ijobiy axamiyati va roli katta bo‘ladi.

Oilada yoshlar tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tar ekan “...Maktab - faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur”[77]. deb to‘xtalib o‘tadi. Shu jihatdan xalqimiz orasida shakllangan boy ma’naviy meros, odob-axloq va tarbiya bugungi kunda ham yoshlar ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Yosh avlodning axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi. Bu o‘rinda XVII asrda yashagan Chex olimi Ya.A.Komenskiy e’trof etganidek, ta’lim va tarbiya tizimida samaradorlikni ta’minlash, maktab ishlarini tashkil etish, bilimlarni nazorat qilishga qaratilgan, ta’lim taraqqiyotini ta’minlash bilan bog‘liq ilg‘or qarashlar va nazariyasiga asosan, “o‘qitiladigan fanlarni tasniflash va ta’lim jarayoni oldindan ishlab chiqilgan darsliklar asosida o‘tilishi ta’lim samaradorligini oshirishi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari suradi. U yaratgan ta’lim tizimiga shuningdek, o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilib borish, dars qoldirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, maktab ishlari qat’iy intizom asosida tashkil etilishi

[77] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – Б. 214

qoidalari ham xosdir”[78]. Ayniqsa, o‘zbek xonadonlarida shakllangan milliy tarbiya maktab o‘quvchilarida o‘ziga xos axloqiy qadriyatlar sifatida: o‘zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi. Oilada va maktabda yoshlarga xalqimiz uchun muqaddas bo‘lgan har bir kishi burchi va vazifalar o‘rgatiladi. Shu bilan birga oilada farzandni dunyoga keltirish, uni tarbiyasi masalasi juda dolzarb masaladir. Demak ota-ona ularni yuksak ma’naviyatli, ma'rifatli qilib tarbiyalash bilan birga jamiyatda o‘z o‘rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan ham iboratdir.

Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sog‘lom tafakkur, sog‘lom dunyoqarashni yuksaltirish bevosita oilaviy va ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Oilada avvalo ota-onaning o‘z farzandlari tarbiyasida shaxsiy o‘rnak, ibrat, namuna bo‘lishi muhim mezon sanaladi. Ota-onaning oiladagi xulq-atvori, muomala madaniyati, yurish-turishi farzandlari ma’naviy tarbiyasining shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ota-onalarning o‘zlari sharqona odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarga yuksak ehtiromda bo‘lishi, yuksak umuminsoniy xislatlarga ega bo‘lishlari kerak. Ijobiy dunyoqarashga ega bo‘lgan farzandlarda esa o‘z navbatida vatanparvarlik, fidokorlik, sadoqat, mardlik, jasurlik, chidamlilik, vazminlik, qadr-qimmat, tashabbuskorlik kabi xislatlar shakllanib boradi. Abu Homid G‘azzoliy yozadi: “inson tug‘ma aqli komil, xulqi go‘zal bo‘ladi”[79]. Shu jihatdan xalqimiz orasida shakllangan bunday dunyoqarash va odob-axloq bugungi kunda ham yoshlar ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Ma’naviyatga va ma'rifatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab etadi va unga amal qiladi.

Yoshlarda ta’lim-tarbiyada innovasion sohalarni amalga oshirishda avlod-ajdodlarimizning o‘tmish ma’naviy merosidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Sharq tsivilizasiyasi yutuqlarini, o‘tmish ajdodlarimizning madaniy va ma’naviy boyligini chuqur va har tomonlama o‘rganishimiz darkor”[80], deb aytgan so‘zlari muhimdir. Xalqimizning urf-odat, an’analarini tiklashda, mahalla va guzarlarning oqsoqollari yaqindan yordam berayaptilar. Har bir xalqning o‘zi uchun e'zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asarlar davomida avloddan – avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixori manbaiga aylangan durdonalardir. Millat va elatning o‘ziga xos tarixiy me'rosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odati va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yoshlarni ta’lim va tarbiya berishda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol uynaydi.

Yosh avlodning hayotiy mo‘ljallari, “zamona qaxramoni” haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy Qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Bunday ma’naviy qadriyatlarni oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabda yoshlarning

---

[78] Коменский Я. Буюк дидактика..http://makarenko-museum.ru/Komensky_Yan_Amos_Velikaya_didakt.pdf
[79] Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун-нафс. – Тошкент, “Movarounnahr”, 2006. – 28 б.
[80] Каримов И. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент, Шарқ, 1998. –Б. 97.

qalbiga singdiriladi va shu “zamona qaxramoni” asosida tarbiyalanadi. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta’sir ko‘rsatmasin, har bir millat uchun ma’naviy kamolotning asosiy yo‘li va mezoni milliy qadriyatlar bo‘lib qoladi. Ma’naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma’naviy boy, axloqan pok, jismonan sog‘lom farzandlarni tarbiyalab voyaga etkazish dastlab oilada amalga oshiriladi. Yoshlarga va insonlarga bir umr hamroh bo‘ladigan insoniy fazilatlar - ezgulik, yaxshilik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, fidoiylik, sadoqat, mardlik kabilarning barchasi oiladan boshlanadi. Oila yoshlarni axloq-odobi, rostgo‘y mehnatsevar, halol bo‘lib voyaga etishi uchun zamin tayyorlaydi. Har bir xalqning, millatning avlod ajdodlari tomonidan qoldirilgan qimmatli qadriyatlari, urf-odati, an’analari mavjudki, ular oilada, mahallada va ta’lim dargohlarida e'zozlanib kelinadi va o‘sib kelayotgan farzandlar tarbiyasiga singdirilib boriladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o‘tishimiz lozimki oilada va ta’lim dargohlarida sog‘lom dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi e’tiborning qaratilishi yoshlarni jismonan etuk va ma’nan barkamol bo‘lib voyaga etishining muhim asosidir. Shu o‘rinda oilada, va ta’lim dargohlarida yoshlarning tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar va jamiyatda yashayotgan har bir fuqoroning birinchi galdagi vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Chunki bobo-buvilarimizning jamiyatdagi o‘rni mavqeyi e’tiqodi bugungi kundagi yoshlarni milliy urf-Odatlarini aks ettiruvchi yuksak ma’naviyati orqali ta’lim-tarbiya berish albatta o‘zining ko‘proq samarasini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Mirziyoev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki. // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. 2 jild -T.: O‘zbekiston, 2018, 464-bet.
2. Komenskiy Ya. Buyuk didaktika..http://makarenko-museum.ru Komensky Yan Amos Velikaya didakt.pdf
3. Abu Homid G‘azzoliy. Riyozatun-nafs. Toshkent, "Movarounnahr", 2006. 28 b.
4. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, Sharq, 1998. B. 97.
5. Ro‘zimurodov S. Globallashuv davrida yoshlarni sog‘lom qilib tarbiyalashda mahalla va oilaning tutgan o‘rni //Journal of Social Sciences. 2022. T. 1. №. 0

# O'ZBEKISTON - QOZOG'ISTON: MA'NAVIY - MADANIY HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

**Sa'dullayev S.S**
Samarkand state university of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnology

**REZYUME.** Hozirgi kunda O'zbekiston qo'shni respublikalar bilan faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Qozog'iston Respublikasi bilan olib borilayotgan o'zaro aloqalar bu borada muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlarining yangi bosqichi va uning natijalari bayon qilingan.

**RESUME.** Currently, Uzbekistan maintains active cooperative relations with neighboring republics. Mutual relations with the Republic of Kazakhstan are important in this regard. This article describes the new stage of Uzbekistan-Kazakhstan relations and its results.

**РЕЗЮМЕ.** В настоящее время Узбекистан поддерживает активные отношения сотрудничества с соседними республиками. В этом плане важны взаимные отношения с Республикой Казахстан. В данной статье описан новый этап узбекско-казахстанских отношений и его итоги.

**Tayanch so'zlar**: Markaziy Osiyo, diplomatik munosabatlar, Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, BMT, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi

**Keywords:** Central Asia, diplomatic relations, Strategic Partnership Agreement, UN, SCO, Organization of Islamic Cooperation, International Fund to Save the Island

**Ключевые слова:** Центральная Азия, дипломатические отношения, Соглашение о стратегическом партнерстве, ООН, ШОС, Организация исламского сотрудничества, Международный фонд спасения острова.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan e'tiboran qo'shni mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini olib bordi. Qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikning kuchaytirilishi har bir mamlakat taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, bir qancha omillar bilan belgilanadi. Jumladan, muammolarning o'xshashligi, yagona pozitsiya shakllantirilgan holda o'z echimini kutayotgan masalalarning xalqaro tashkilotlar doirasiga ko'tarilishi ularning hal etilishi imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, xalqaro terrorizm, narkotrafik va boshqa xavflarga qarshi kurashish mamlakatlar imkoniyatlarini kelishilgan holda safarbar qilinishini taqozo qiladi. Bundan tashqari, mamlakatlar iqtisodiyoti bir-birini to'ldiradi, yaqin qo'shni mamlakatlar bilan savdo qilish transport xarajatlarining kamligi sababli tovarlar raqobatbardoshligini oshiradi va katta iqtisodiy samara beradi. Bu borada Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan yaqin qo'shni mamlakatlar bilan yo'lga qo'yilgan aloqalar katta ahamiyat kasb etdi. Bu esa o'z

navbatida mintaqa umumiy taraqqiyotiga xizmat qildi. Shu sababdan mazkur davr tarixini oʻrganish va uni ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qozogʻiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ham hududiy, ham iqtisodiy salohiyati jihatidan eng yirik respublika hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu mamlakat bilan hamkorlik aloqalarini olib borish Oʻzbekiston uchun muhim ahamiyatga egadir. Oʻzbekiston Respublikasi va Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 23 noyabrda oʻrnatilgan edi[1. 291-bet]. Ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlar 1998 yilda imzolangan Oʻzbekiston Respublikasi va Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasidagi Abadiy doʻstlik shartnomasi, 2013 yildagi Strategik sheriklik toʻgʻrisidagi shartnoma[2. 1,3-bet] va boshqa qator hujjatlar asosida rivojlanib keldi.

Oʻtgan davr mobaynida ikki mamlakat xalqaro siyosiy maydonda bir birini qoʻllab quvvatlab keldi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston va Qozogʻiston BMT, ShHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik aloqalarini amalga oshirib keldi.

Mazkur yillar davomida barcha yoʻnalishlar qatori iqtisodiy aloqalar ham taraqqiy etdi. Xususan, 2016 yilgacha boʻlgan davrda mamlakatimizda Qozogʻiston kapitali ishtirokida tuzilgan 230 ta, Qozogʻistonda Oʻzbekiston ishbilarmonlari ishtirokida 130 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritdi. Bu esa oʻz navbatida oʻzaro hamkorlik aloqalarida muhim ahamiyatga ega boʻldi.

2016 yildan e’tiboran Oʻzbekiston va Qozogʻiston munosabatlari taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Muammoli masalalarni ochiq muhokama qilish, ularni hal qilishga sidqidildan intilish, oʻzaro hurmat va ishonchga asoslangan yangicha asosdagi munosabatlar oʻrnatish har ikki mamlakatlar aloqalarini yangi yuqori pogʻonaga koʻtarish imkonini berdi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 22-23 mart kunlari Qozogʻiston Respublikasiga amalga oshirilgan davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega boʻldi. Muzokaralar natijasida umumiy qiymati 1 milliard dollar boʻlgan savdo shartnomalari va investitsiyaviy bitimlar imzolandi[3. 1-bet].

Ushbu tashrif davomda koʻplab tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017 yilning oʻzida ikkita yirik biznes-forum oʻtkazildi. Qozogʻistonda farmatsevtika sanoati savdo uyi boʻyicha ta’sis hujjatlari tasdiqlandi. “Oʻzavtosanoat” AK va “SariarkaAvtoProm” korxonasi bilan uzoq vaqtli hamkorlik boʻyicha kelishuv doirasida tashqi bozorlarga mahsulotlarni eksport qilish qoʻshma loyihasi amalga oshirish boshlandi. Shuningdek, “Oʻzavtosanoat” AKning “SariarkaAvtoProm” korxonasiga kapital kiritish imkoniyati koʻrib chiqildi.

Mazkur davrda madaniy hamkorlik aloqalari ham tez sur’atlarda rivojlandi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 martda «Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qoʻnonboev ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish toʻgʻrisida» qaror[4.1-bet] qabul qildi. Ushbu qaror asosida Oʻzbekistonda buyuk qozoq shoiri va mutaffakkiri Abay Qoʻnonboev ijodiy merosini oʻrganish va uni keng targʻib qilish boʻyicha chora tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Mazkur reja asosida bir qancha tadbirlarni, jumladan, Abay Qoʻnonboevning “Saylanma” asarini hamda “Oʻzbek va qozoq adabiy aloqalari” nomli adabiy-tahliliy

maqolalar toʻplamini nashrga tayyorlash va chop etish, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “Abay va oʻzbek adabiyoti” nomli doimiy ekspozitsiyani tashkil etish, har yili shoir tugʻilgan 10 avgust sanasida Toshkent shahrida oʻrnatilgan Abay Qoʻnonboev haykali poyiga gul qoʻyish marosimi va mushoira oʻtkazish, oʻquvchi va talaba yoshlar oʻrtasida “Abay asarlarining bilimdoni” insholar koʻrik-tanlovini oʻtkazish, ommaviy axborot vositalarida Abay Qoʻnonboev hayoti va ijodi haqida turkum koʻrsatuv va eshittirishlar, maqolalar berib borish va boshqa tadbirlarning amalga oshirilishi belgilandi.

Oʻzaro madaniy aloqalar rivojida davlat rahbarlarining 2018 yilda Qozogʻistonda Oʻzbekiston yili, 2019 yilda esa Oʻzbekistonda Qozogʻiston yilini oʻtkazish toʻgʻrisidagi qarorlari bu borada tarixiy ahamiyatga ega boʻldi. Mazkur qarorlar ijrosi yuzasidan Qozogʻistonda ushbu mamlakat Prezidenti Nursulton Nazarboev tomonidan 2018 yil Oʻzbekiston yili deb e’lon qilindi. Qozogʻistonda Oʻzbekiston yili dasturi doirasida koʻplab madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi, jumladan, Olmaota shahrida Oʻzbek adabiyoti kunlari oʻtkazilishi, Oʻzbek Milliy akademik drama teatri ijodkorlari Chimkent shahriga safar qilishi, Ostona shahrida Oʻzbek ayollar milliy liboslari va xalq amaliy san’ati koʻrgazmasi hamda kitoblar koʻrgazmasi tashkil etilishi va boshqa koʻplab tadbirlarning amalga oshirilishi belgilandi.

Shu bilan birga, yil davomida ikki davlat vakillarining tasviriy san’at sohasidagi xalqaro koʻrgazmalari, konferensiyalari, seminarlari, qiziqarli madaniy-ma’rifiy tadbirlar oʻtkazilishi koʻzda tutildi. Xalqaro “Evroosiyo” kinofestivalida Oʻzbekiston kino ijodkorlarining ishtiroki, Jahon mutolaa kongressida oʻzbek adiblarining, “Ostonaning madaniy qiyofasi” xalqaro ilmiy-amaliy konfe-rensiyasida Oʻzbekiston olimlarining, “Xalqaro bolalar yozuvchilari forumi”da oʻzbek yozuvchilarining, “Ostonaning 20 yilligi: Ostonaning 20 ta jahon kutubxonasi” loyihasi hamda “Ostona 2018 Yevroosiyoning kitobxonlik poytaxti” xalqaro festivalida oʻzbek kutubxonashunoslarining qatnashishi belgilandi[6].

Turizm sohasini rivojlantirish va diniy bayramlarni bir xillashtirish ham ikki mamlakat hamkorlik aloqalarining tarkibiy qismiga aylandi. Bu borada ham tegishli kelishuvlarga erishildi. Jumladan, Oʻzbekiston va Qozogʻiston xorijlik sayyohlarga har ikki davlatga tashrif buyurish imkonini beruvchi turistik multivizalarni amalga kiritish toʻgʻrisidagi kelishuvni tayyorlash jarayoni boshlangan boʻlsa, Oʻzbekiston va Qozogʻiston diniy idoralari oʻrtasida «Oʻzbekiston va Qozogʻiston diniy bayramlarni nishonlash sanalarini bir xillashtirish boʻyicha memorandum» imzolandi.

Oʻzbekiston Qozogʻiston aloqalarining rivojida oʻzaro davlat tashriflarining muntazam amalga oshirilishi ham muhim ahamiyatga ega boʻldi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti N.Nazarboev taklifiga binoan 2018 yil 15 mart kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahrida boʻldi. Tashrif doirasida Oʻzbekiston delegatsiyasi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. Sh.Mirziyoev shu kuni Qozogʻistonda Oʻzbekiston yilining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq soʻzladi. Oʻz navbatida Qozogʻiston Prezidenti N.Nazarboev

O‘zbekiston xalqini Navro‘z bilan tabriklash maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Samarqand shahridagi Forumlar majmuasidagi uchrashuvda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikning mavjud holati va uni yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi[5. 1-bet].

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tadbirlar natijasida ikki mamlakat hamkorligida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Jumladan, 2017 yilda o‘zaro tovar aylanmasi ikki milliard AQSH dollariga etib, 2016 yilga nisbatan 31,2 foiz ko‘p bo‘ldi. Temir yo‘l transporti orqali o‘zaro yuk tashish bo‘yicha esa 2018 yilning ikki oyida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yuk tashish hajmi 44 foizga o‘sdi. Shu bilan birga savdo-iqtisodiy hamkorlik dinamikasi inobatga olinib ikki mamlakat tomonidan o‘zaro tovar aylanmasini 2018 yilda uch milliard dollar, 2020 yilga borib esa besh milliard dollargacha ko‘tarish to‘g‘risidagi kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qo‘shni respublikalar bilan olib borilayotgan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari umummintaqa taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mustqillik yillarida mazkur davlat bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari rivojlandi. Ayniqsa, ushbu aloqalar 2016 yildan e’tiboran yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu davrdan boshlab bir necha davlat tashriflari amalga oshirildi, salmoqli miqdordagi iqtisodiy bitimlar imzolandi va ularni amalga oshirish bo‘yicha tegishli chora tadbirlar rejalari tasdiqlandi. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida xalqaro siyosiy maydonda ham ikki mamlakat hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. Jumladan, Qozog‘iston mamlakatimizning hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyillariga asoslangan tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlab keldi. O‘zbekiston ham, o‘z navbatida, Qozog‘istonning mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarini va konstruktiv takliflarini qo‘llab quvvatladi. Xususan, O‘zbekiston Qozog‘istonning 2017-2018 yillarda BMT Xavfsizlik kengashiga muvaqqat a’zolikka saylanishini ma’qullab ovoz berdi. Shu va boshqa omillar ikki mamlakat hamkorlik aloqalari yangi qirralarining ochilishiga xizmat qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Жураев С.А, Худойбердиев Б.Х, Қосимов О.С, Ғофуров С.М, Жалилов А.Т, Саидолимов С.С, Рустамбоев С.М, Убайдуллаева С.Ф, Бердиев Б. // Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент, “Akademiya” нашриёти, 2005 й.
2. Usmonov N. Qozog‘im qardoshim, o‘zbegim o‘z og‘am//Xalq so‘zi, 2018 yil 18 aprel № 76 (7034).
3. Ўзбекистон-Қозоғистон: Азалий дўстлик ва стратегик шерикликка асосланган ҳамкорликнинг янги босқичи//Халқ сўзи, 2017 йил 24 март, № 58(6752).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori: «Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida»Xalq so‘zi, 2018 yil 14 mart. № 50 (7008).
5. O‘zA. Navro‘z do‘stlik va hamjihatlik bayrami// Ishonch, 2018 yil 22-mart. № 34 (4007).

# TABIAT SIRLARINI KASHF ETISHDA TABIIY VA IJTIMOIY FANLAR DIALEKTIKASI

**Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich**
qulboyevzohid35@gmail.com
**O'rinov Shuhrat Suyunovich**
shuhraturinov1980@gmail.com
Jizzax politexnika instituti, Jizzax shahri

**Annotatsiya:** Maqolada fizika fanini o'qitish jarayonida, ijtimoiy-gumonitar fanlararo aloqalarni qo'llash asosida darslarni tashkil qilish ko'rsatib o'tilgan. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlarini rivojlantirishga imkon beradigan fanlararo integratsiyasidan foydalanish yordamida, ularda darslik, ilmiy ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi hamda ushbu jarayonning avzalliklari haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, fizika, biologiya, tarix, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar, fan dasturlar, konsepsiya, sinergetika.

**Аннотация:** В статье показана организация занятий по физике, основанная на применении социогуманитарных межпредметных связей.С помощью межпредметной интеграции, которая позволяет учащимся развивать самостоятельную и творческую работу по изучаемому предмету, у них есть навыки самостоятельной работы с учебниками, научно-популярной и дополнительной литературой, развиты навыки творческого и самостоятельного мышления, обсуждаются преимущества этого процесса.

**Ключевые слова:** Интеграция, физика, биология, история, государственные стандарты образования, учебные планы, научные программы, концепция, синергетика.

**Abstract:** In the course of teaching physics, the organization of classes based on the application of socio-humanitarian interdisciplinary relations is shown in the article. With the help of interdisciplinary integration, which allows students to develop independent and creative work on the studied subject, they have the skills of independent work with textbooks, scientific popular and additional literature, the development of creative and independent thinking skills, and the advantages of this process are discussed.

**Key words:** Integration, physics, biology, history, state education standards, curricula, science programs, concept, synergetics.

Integratsiya bu –differensiyaga qarama qarshi o'laroq, birlashish, butunlik va qo'shilishni bildiradi. Bu tushuncha boshqa fanlarga ham tegishli bo'lib, ikki va undan ortiq fanlarning bir-biriga qo'shilish jarayonini ifodalaydi. Dastlab barcha fanlar integrativ ko'rinishda qaralgan, so'ngra ular alohida-alohida yo'nalishlar bo'yicha differensiyalashgan. XVII asrda R. Dekart quyidagi fikrni bildiradi: Fanlar bir biri bilan shunday bog'liqki, ularni ajratish butunlikni bilishda yoki dunyoning

yagona manzarasini yaratishga halaqit beradi. Nemis faylasufi Gustav Glauber quyidagicha fikrini aytgan. Fanlar bir biri bilan shunday bog‘liqki, ularni ajratish butunlikni bilishda yoki dunyoning yagona manzarasini yaratishga halaqit beradi. Nemis faylasufi Gustav Glauber quyidagicha fikrini aytgan: Asosda bir-biridan uzoq bo‘lgan fanlar vaqt o‘tishi bilan yuqorida uchrashadilar: masalan, Fan san‘atga aylanadi, san‘at fanga aylanadi.

Akademik V. I. Vernadskiy XX asrda gumanitar fanlar bilan tabbiy fanlar o‘rtasida chegara yo‘qolishini bashorat qilgan edi. Haqiqatdan ham XX asr oxirida paydo bo‘lgan sinergetika gumanitar fanlar bilan tabiiy fanlar o‘rtasidagi chegarani olib tashlamoqda. Fanlarning keyingi rivojlanishi vaintegratsiyasi tufayli yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Bunga misol fizikani tarix, san‘at, sotsiologiya, lingvistika, iqtisodiyot bilan integratsiyasi tufayli yuqorida aytgan g‘oyalar tasdiqlanmoqda.

Fizikaning tarix bilan integratsiyasi haqida juda ko‘p olimlar tomonidan ilmiy – uslubiy ishlar qilingan [1]. Masalan, Eytkin “Fizika va arxeologiya”, Veganov “Fiziklar tarixni yozmoqda” va h.k. ishlarida fizika metodlarining tarixda, jumladan arxeologiyada va numizmatikada keng qo‘llanilmoqda. Ma’lumki, arxeologlarimiz Afrosiyobda tadqiqotlar olib borib, bu yerda shahar hukmdorining arki, saroylar, mahallalar, turar joy inshoatlari, ko‘chalar, qadimgi mudofaa devorlari ochishib, Samarqand shahrining yoshi (2750 yil) radiaktiv izotoplar orqali aniqlandi. Neytronlar orqali tarixiy shaxslar vafotining sabablari oydinlashtirilgan. Tabiy-ilmiy va gumanitar bilimlarning integratsiyasining zarurligi haqida turli xil yozuvchilar va mashhur olimlarning fikrlarini eslatib o‘tmoqchiman. A. P. Chexov quyidagicha yozgan edi: ―Vaqt o‘tishi bilan san‘at va tabiatshunoslik uslublarining rivojlanishi natijasida ular bir-biriga shunday qo‘shilib ketadiki, uni hozir tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoki mashhur matematik N.N. Moiseev Biz gumanitarlarni tabiatshunoslik bilimiga, tabiatshunoslarni esa gumanitar fikrlashga o‘rgatishimiz kerak. Bu hozirgi davrning zaruriyati, yoki boshqacha qilib aytganda uning ma’nosidir. Afsuski, gumanitarlar bunga e’tibor qaratishmayapti va uning ahamiyatini anglashmayapti, ayniqsa hozirgi zamon tabiatshunoslik ilmining yetakchisi hisoblangan -fizikaning o‘rnini tushunishmayapti.Mashhur ingliz fantastik yozuvchisi, fizik olim Ch.Snoek o‘zining ikki madaniyat asarida tabiatshunoslik bilan gumanitar fanlarning qo‘shilishi va uning zarurligi haqida yozadi. XX asrning mashhur fiziki N. Bor aytgan ediki: Tabiat falsafasi bilan inson madaniyati o‘rtasida aniq chegara o‘rnatib bo‘lmaydi. Aslida fizika fanlari bizning sivilizatsiyamizning ajralmas qismidir. Bunday fikrlarni juda ko‘p keltirish mumkin. Aytaylik, Isaak Nyuton umrining oxirlarida kimyo bo‘yicha tajriba o‘tkazishda simob bilan ishlaganligi tufayli zaharlanib o‘lgan ekan. Yoki so‘nggi kashfiyotlardan biri Buxoro vohasidagi Poykent shaharchasida amalga oshirilgan O‘zbekiston - Rossiya xalqaro qo‘shma ekspeditsiyasi olimlari tomonidan yodgorlikdan topilgan 4200 dona ilk o‘rta asrlarga oid noyob tangalarning qaysi davrga tegishli ekanligi ham fizik metodlar orqali aniqlangan. O‘zbekiston arxeologlari bugungi kunda dunyo arxeologiyasida

qo‘llanilayotgan barcha zamonaviy texnologiyalar, asbob – uskunalardan xabardor. Arxeologik qazishmalar jarayonida lazerli teodolitlardan keng foydalaniladi. Xullas, tabiiy fanlar bilan (fizika) va ijtimoiy fanlar (tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot) va h.k. o‘rtasidagi integratsiya to‘g‘risida keyingi vaqtda olimlar tomonidan ko‘p bahs va munozaralar olib borilmoqda.

Sir emaski, tabiiy va gumanitar fanlar o‘rtasidagi ko‘prik, chegara sinergetikaning kashf qilinishi natijasida olib tashlanmoqda. Bular oqibatida nazariy tarix ham shakllanmoqda. Koinot haqidagi tasavvurlar, vaqt va dunyo xaritasi haqidagi tushunchalarni har bir o‘qituvchi va o‘quvchi bilishi muhimdir. Darvoqe, “Buyuk donolar kashfiyotlari”, “Koinot haqidagi tasavvurlar” mavzularini integrallab o‘qitish ikki fanning ham takomillashuvi va o‘quvchilarning yaxlit bilim olishlariga xizmat qiladi. Aslida ushbu mavzular sinflar kesimida uzviylikni ta’minlash o‘rniga bir-birini takrorlab kelgan edi. Ushbu takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida fizika va tarix fanlarini integratsiyalab o‘qitishga tayaniladi. Temuriylar davrining umuman sharqning yuksak ilm – fan va madaniyati ta’sirida XVI asrdan Yevropada ham ilm fan taraqqiy eta boshladi. Ayniqsa, tabiat fanlari sohasida buyuk kashfiyotlar amalga oshirildi, bu kashfiyotlar polshalik N. Kopernik va italiyalik olimlar J. Bruno va G. Galiley nomi bilan bog‘liqdir. N. Kopernik o‘ttiz yillik kuzatishlari natijasida Yer bir kecha – kunduzda o‘z o‘qi atrofida bir marta, bir yilda esa Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishini isbotladi. “Tarixda yil hisobi” mavzusida ham vaqtning kunlarga, haftalarga, oylarga va yillarga bo‘lib hisoblanishi, tavqimga yil, oy va kunlarning nomlari yozib qo‘yilganligi, bu esa tavqimdan foydalanishda katta qulaylik tug‘diradi. Shuning uchun ham fizika kursidagi quyidagi tushunchalar tarix fani bilan integratsiyalab o‘tilsa, foydali bo‘ladi. Masalan, oddiy yilda fevral oyi 28 kun, kabisa yilida esa 29 kun bo‘ladi. Ko‘rsatilgan yil 4 ga qoldiqsiz bo‘linsa, bunday yillar kabisa yili hisoblanadi. Mashhur fantastik yozuvchisi Ch. Snosk “Ikki madaniyat” asarida tabiatshunoslik fanlari bilan gumanitar fanlar qo‘shilishi va uning zarurligi haqida yozgan edi. Fizika qonunlari uslublari gumanitar sohaga kirib kelmoqda. Fizika tadqiqot uslublari, tarixiy yodgorliklar, arxitektura, san’at va kriminalistikada keng qo‘llanilmoqda. Masalan, 1956 yilda ingliz olimi Petrik Styuart aholining joylashishi ham fizik qonuniyatga bo‘ysunishini ko‘rsatib, shunday fikrlar bildiradi: “U fizik o‘lchamga o‘xshash bo‘lib, unga aholi, masofa va vaqt kiradi”, shu tariqa ijtimoiy fizika vujudga keldi. Amerikalik olim Martinning ta’kidlashicha “Agar biz fizika qonunlaridagi qat’iylik va shartlarni bilmas ekanmiz, ijtimoiy geografiya, ijtimoiy fan ham mavjud bo‘lishi mumkin emas, uning o‘rniga izohlab bo‘lmas, yalang‘och faktga ega bo‘lamiz”. Bu qonunlar fizika qonunlaridan farq qilmasligi kerak, faqat murakkab bo‘ladi.

Turli xil fizikani o‘qitishga doir bo‘lgan konferensiyalarda bu kursga alohida e’tibor qaratilmoqda.Adabiyot darslarida ham tabiiy va gumanitar fanlarning integratsiyasiga doir ko‘p ma’lumotlar berish mumkin. L.Tolstoyning ―Maorif saboqlari‖ asaridagi qahramonlarning so‘zini keltirsak: ruxiy dunyoni moddiy dunyoga qarama-qarshi qilib qo‘yish nohaqlikdir, ikkala dunyo ham bir biri bilan tegishib turadi, birini ikkinchisidan ajratib turuvchi demarkatsiya

chizig‘i yo‘qdir‖. A.S.Pushkinning Пиковая дамаǁ asarida fizika qonunlaridan foydalanib asarning mohiyati ochib beriladi. Bu asarning mohiyatini yanada chuqurroq anglash va tushunish uchun fizikada ikki tipdagi qonunlar: determinallashgan (sabab va oqibatga olib keluvchi) klassik fizika qonunlari va ehtimoliyatga asoslangan kvant mexanik va statistik qonunlar yotadi. Bu qonunlarni qo‘llash orqali asar qahramoni Germanning fojiasini tushuntirish mumkin. Bu qahramon determinallashgan va ehtimoliyatga asoslangan dunyoda yashayotganligini tushunmaydi. German uchta qarta o‘yinidayoq birdan yutuqqa erishishga ishonadi. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan shunday xulosa kelib chiqadiki, to‘la qonli zamon talabiga javob beradigan mutaxassislar tayorlash uchun barcha oliy o‘quv yurtlarining davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalarining asosida fanlarning integratsiya jarayoni keng o‘rin olishi kerak. Darhaqiqat, fizika fanini o‘qitishda fizika va tarix fanlaridan integrativ ta’lim umumiy didaktik jarayonning tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilsa, o‘quv bilimlar mazmunini shakllantirishda fanlarning integrallanish xususiyati hisobga olinsa, fizikadan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy malaka va ko‘nikmalar mazmuni integrallashgan bilimlar asosida tashkil etilsa o‘qitish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. O.Q. Quvondiqov, Sh. Usanov. “Fanlararo integratsiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning yangicha dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi”. Ma’rifat gazetasi. 2013 yil, 14, 18, 21 dekabr sonlari, Toshkent.

2.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste‘dod» jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017yil 27 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5121-son Farmoni.

4.Sayidaxmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –Toshkent.: ―Fan va texnologiya, 2014.

5.Quvondiqov O.Q., Rajabov R.M., Eshmirzaeva M., Xolmurodov S. Analogiya va uni fizikani o‘qitishdagi o‘rni. // fizika, matematika va informatika 2014 y, No 2.

6.Quvondiqov E. O. Pedagogik sinergetika asoslari. Samarqand. 2007. SamDU nashri.

7.Quvondiqov O.Q., Fizika o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Sam-2021.

8. Qulboyev, Z. (2021). Olamni o‘rganishda va texnikaning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9), 366-369.

9. Kh, K. Z. (2022). COMPUTER OF SECTION OF SOLID PHYSICS TEACHING TECHNIQUES USING TECHNOLOGIES. Экономика и социум, (6-1 (97)), 153-156.

10. Qulboyev, Z. X. (2022). O‘QUVCHILARGA TA’LIM BERISHDA FUNDAMENTAL FANNINGO ‘RNI VA AHAMIYATI. Экономика и социум, (6-1 (97)), 223-226.

# ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА МАКТАБ ТАЪЛИМИ СОҲАСИ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТАДБИРЛАР

**Абдуллоев Шерқўзи Ахматбобоевич**
Самарқанд Давлат Университети таянч докторанти.
sheriabdullayev1@gmail.com

**Аннотация.** 2016 йилдан эътиборан барча соҳалар қатори мактаб таълимини ривожлантириш борасида ҳам кенг кўламли ишлар амалга оширилди ва салмоқли ютуқлар қўлга киритилди. Бунда соҳа ҳуқуқий асосларининг такомиллаштирилиши катта роль ўйнади. Шу сабабдан соҳа ҳуқуқий асосларини замон талаблари асосида такомиллаштириш ва унинг натижаларини ўрганиш бугунги кунда долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** 11 йиллик таълим, “Таълим тўғрисида”ги янги таҳрирдаги қонун, Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепсияси, Президент мактаблари.

**Аннотация.** С 2016 года проведена большая работа по развитию школьного образования, а также по всем направлениям, достигнуты значительные успехи. Большую роль в этом сыграло совершенствование законодательной базы отрасли. По этой причине совершенствование правовых основ отрасли с учетом требований времени и изучение ее результатов является сегодня одной из актуальных задач.

**Ключевые слова:** 11-летнее образование, новая редакция Закона «Об образовании», концепция развития системы государственного образования до 2030 года, Президентские школы.

**Abstract.** Since 2016, extensive work has been carried out in the development of school education as well as in all areas, and significant achievements have been made. The improvement of the legal framework of the sector played a big role in this. For this reason, improving the legal foundations of the industry based on the requirements of the time and studying its results is one of the urgent issues today.

**Key words:** 11-year education, the new version of the Law "On Education", the concept of development of the public education system until 2030, Presidential schools.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда барча соҳалар қатори мактаб таълимини ривожлантириш бўйича ҳам муайян ишлар амалга оширилди. Хусусан, “Таълим тўғрисида”ги Қонун, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” қабул қилинди. Шунингдек, соҳа моддий-техник базасини ривожлантириш чоралари кўрилди. Аммо шунга қарамай, бу борада ҳам айрим камчиликлар сақланиб қолди. Давлат тасарруфидаги мактабларда математика, физика, кимё, информатика ва чет тили каби фанлар бўйича ўқитувчилар етишмаслиги, узоқ

ҳудудлардаги ёшлар учун ОТМга киришда имтиёзларнинг йўқлиги сабабли у ердаги мактабларда ўқитувчиларга эҳтиёж юқори даражада сақланиб қолгани ва бошқалар шулар жумласидандир. Шунингдек, айрим мактаблардаги синфларда ўқувчилар сонининг белгиланган миқдордан ошиб кетгани ва шунга ўхшаш муаммолар сақланиб қолди[1]. Бундан ташқари, мутахассис кадрлар тайёрлаш ва таълим тизими жамиятдаги янгиланишлардан орқада қолмоқда эди[2].

Йиғилиб қолган муаммолар соҳани тубдан ислоҳ қилишни, дунёнинг ривожланган мамлакатлари тажрибасидан фойдаланиш зарурлигини тақозо қилди. 2017 йил умумтаълим ва ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизимида туб ислоҳотлар йили бўлди. Халқ қабулхоналари ва Президентнинг виртуал қабулхонасига тушган таклиф ва мулоҳазалар, шунингдек, республика мактабларидаги битирувчиларнинг ота-оналари ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларидан келиб чиқиб, Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 9+3, яъни 12 йиллик мажбурий таълимдан 11 йиллик таълимга ўтилди. Натижада, биргина 2017 йилда 10-синф ўқувчилари учун 9 млн. нусха дарслик чоп этилди ва 10 мингга яқин умумтаълим мактабида 11 йиллик таълимга ўтилди[3].

Юқорида таъкидланганидек, 2017 йил юртимизда таълим соҳасидаги ислоҳотларни амалга оширишга жадал равишда киришилди. Бунда, аввало, соҳа фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар замон талабларига мослаштирилди. Жумладан, 2019 йил 29 апрелда “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони қабул қилинди. Унда халқ таълимини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари белгилаб берилди[4].

Концепцияда белгиланган мақсад ва вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида бир қатор тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, таълим жараёнида илғор технологияларни қўллаш орқали иқтидорли ёшларни аниқлаш ва ўқитиш тизими шакллантирилди. Шунингдек, иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадида 2019 йил 2 февралда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Президент мактабларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. Мазкур Қарор асосида илк Президент мактаби 2019 йил5 сентабрда Тошкент шаҳрида, 2 декабрда Наманган шаҳрида ва 9 декабрда Хив шаҳрида ҳамда 11-декабрда Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳрида ташкил этилди.

Президент мактабларининг дастлаб чекланган миқдорда ташкил этилиши ушбу муассасаларни бошқариш учун мутлақо янги моделни синаб кўриш зарурати билан боғлиқ эди. Кейинчалик 2020-2021-йилларда Президент мактаблари Ўзбекистоннинг 14 та ҳудудида фаолият юрита бошлади[5].

Таълим соҳасидаги муносабатларни тартибга солишда 2020 йил 16 сентабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлди. Мазкур

Қонуннинг 9-моддасида умумий ўрта таълим ташкилотларининг синфларида (гуруҳларида) таълим олувчилар сони ўттиз беш нафардан ошмаслиги ҳақидаги норма белгилаб қўйилди. Бу билан мактабларда таълим сифатини оширишга эътибор қаратилди[6].

Бу борадаги тадбирлар кейинги йилларда ҳам давом эттирилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 июль кундаги “Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори асосида Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги – Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳузуридаги Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги деб қайта номланди[7].

Бугунги кунда ушбу агентлик тизимида фаолият кўрсатётган 14 та Президент мактабларида 2352 нафар, атоқли адиб ва шоирларимиз номи билан аталган 9 та ижод мактабида 1849 нафар, 3 та таянч ихтисослаштирилган мактаб ҳамда 179 та ҳудудий ихтисослаштирилган мактаб ва мактаб-интернатларида 67454 нафар ўқувчи маҳаллий ва хорижлик маҳоратли ўқитувчилардан таҳсил олмоқда.

2021 йилда илк Президент мактаблари (Нукус, Хива, Наманган ва Тошкент шаҳридаги) нинг 96 нафар битирувчиларининг барчаси нуфузли хорижий олий таълим муассасаларида ўқиш учун таклиф олган. 2022-2023 ўқув йилида14 та Президент мактабини 326 нафар ўқувчи битирди. Шундан 281 нафари муддатидан олдин нуфузли халқаро университетларга қабул қилинди. Уларнинг 51 нафари тўлиқ грант асосида ўқиш имкониятига эга бўлди. 45 нафар битирувчи эса хориждаги нуфузли университетларнинг Ўзбекистондаги филиаллари ва маҳаллий ОТМларга грант асосида ўқишга қабул қилинди[8].

Аммо, юқорида келтирилган тадбирларнинг амалга оширилганига қарамасдан бу даврда кадрлар тайёрлаш борасида айрим муаммолар ҳам сақланиб қолди. Хусусан, мазкур йиллар давомида умумтаълим муассасаларини олий маълумотли педагог кадрлар билан таъминланиш даражаси 87 фоизни ташкил этиб, кўплаб мактаблар, айниқса, чекка ҳудудлардаги таълим масканларида бир қатор фанлар бўйича малакали ўқитувчилар етишмаслиги сезилди[9]. Бу, ўз навбатида, таълим сифатига ўзининг салбий таъсирини кўрсатаётган омиллардан бирига айланди.

Кейинги йилларда ҳам ўқитувчи касби нуфузини ошириш, педагоглар учун қулай ижтимоий шароит яратиш, меҳнатини моддий ва маънавий жиҳатдан муносиб рағбатлантириш борасидагиислоҳотлар изчил давом эттирилди. 2021 йил 11 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олис ҳудудлардаги бюджет ташкилотларига малакали мутахассисларни жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори асосида 2021 йил 1 мартдан бошлаб таълим даражаси юқори бўлмаган мактабларда дарс бериш учун бошқа ҳудудлардан жалб қилинган олий ва биринчи тоифага эга ўқитувчи-педагогларнинг базавий тариф ставкаларига махсус устамалар жорий қилинди.

Унга кўра, бир маъмурий-ҳудудий бирликлар доирасида бошқа туман ва шаҳарлардан келиб фаолият юритаётган ўқитувчи-педагогларнинг базавий тариф ставкаларига 50 фоиз; бошқа маъмурий-ҳудудий бирликдан келиб фаолият юритаётган ўқитувчи-педагогларнинг базавий тариф ставкаларига 100 фоиз махсус устама тўлаш тартиби жорий этилди[10].

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 5 майда қабул қилинган “2022–2026-йилларда мактаб таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони асосида 2022 йил 1 сентабрдан Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги тизимидаги умумий ўрта таълим муассасаларида ўзи дарс берадиган фани бўйича тегишли даражадаги сертификатга эга бўлган педагог кадрларга ҳар ойлик қўшимча устама тўлаш тизими жорий этилди. Унга кўра, халқаро тан олинган сертификатга эга бўлган педагог кадрларга – уларнинг тариф ставкасига нисбатан 50 фоиз миқдорида; халқаро стандартлар талабларига жавоб берадиган миллий баҳолаш тизимидан олинган сертификатга эга педагог кадрларга – уларнинг тариф ставкасига нисбатан 50 фоиз миқдорида; Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг миллий баҳолаш тизимида олинган сертификатга эга педагог кадрларга – уларнинг тариф ставкасига нисбатан 20 фоиз миқдорида (чет тили бўйича сертификатлар бундан мустасно); Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг миллий баҳолаш тизимида чет тили бўйича олинган сертификатга эга педагог кадрларга эса 2025 йил 1 январга қадар – уларнинг тариф ставкасига нисбатан 50 фоиз миқдорида; 2025 йил 1 январдан бошлаб – уларнинг тариф ставкасига нисбатан 20 фоиз миқдорида қўшимча устама тўланиши белгиланди[11].

Ислоҳотлар натижасида, Янги Ўзбекистонда муаллимларнинг ойлик иш ҳақи ўртача 2016 йилга нисбатан 2,5 баравар ошди (ўртача ойлик 3 миллион сўм). Натижада, 6 миллион сўмдан 10 миллион сўмгача маош оладиган ўқитувчилар сони – 23 мингга етди, 10 миллион сўмдан юқори ойлик олувчилар 1 мингдан ошди. Яна 2 мингга яқин муаллимларга Вазир жамғармасидан қўшимча устама тўланмоқда. Мактаблар юкламасини камайтириш мақсадида 700 минг ўқувчи ўрни яратилди. Бу – аввалги йилларга нисбатан 15 баравар кўпдир[12].

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, Янги Ўзбекистонда сўнгги йилларда мактабгача ва мактаб таълими тизимидаги ислоҳотлар чуқур ўйланган ҳолда олиб борилди. Энг аввало, мактабларнинг моддий-техник базаси мустаҳкамланиб, педагогларни моддий ва маънавий рағбатлантиришнинг ҳуқуқий асоси яратилди. Шу билан бирга, бу тизимда ютуқлар билан бир қаторда ҳали ечимини кутаётган муаммолар ҳам сақланиб қолди. Бошланғич ва юқори синфларда ўтиладиган фанлар миқдорининг кўп экани, ўқувчилар аниқ бир йўналишда чуқур билимга эга бўлмаган ҳолда мактабни битираётгани, талаб юқори бўлган фан ўқитувчиларидан айримларининг билими “қониқарсиз” экани ва бошқа масалалар шулар жумласидандир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. https://lex.uz/docs/-4312785
2. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар. – Тошкент: “Тафаккур қаноти” нашриёти, 2017. 300-б.
3. https://conferencea.org
4. https://lex.uz/docs/-4312785
5. https://t.me/piimauz/11449
6. https://lex.uz/docs/-5013007
7. https://lex.uz/docs/-5520855
8. https://t.me/piimauz/11449
9. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyot, 2022-yil.
10. “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2021-yil 13-yanvar №8, 2-bet
11. https://lex.uz/docs/-6008663
12. “Халқ сўзи” газетаси. 2023-yil 29-avgust № 180, 1-bet

УДК: 940.54:619

# ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕТЕРИНАРИЯ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТАРҒИБОТ ИШЛАРИ

**Самиев Абдулло Яшинович**
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети «Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси» тарих фани ўқитувчиси
**Сулайманова Дурдона Зохид қизи.**
Ветеринария профилактикаси ва даволаш факультети "Ветеринария медицинаси" таълим йўналиши 209-гуруҳ талабаси

**Аннотация.** Ҳайвонлар касалликларининг олдини олиш ва уларни бартараф этишда аҳоли ўртасида амалга оширилган тарғибот ишлари муҳим аҳамиятга эга. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда Ўзбекистонда ҳам ҳайвонлар касалликларининг олдини олиш ва бартараф этиш мақсадида тарғибот ишлари амалга оширилди. Бу эса, ўз навбатида, ветеринария соҳасида амалга оширилган ишлар самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатди. Ушбу мақолада мазкур даврда ветеринария тиббиёти борасида амалга оширилган тарғибот-ташвиқот ишлари таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** рангли плакат, тарғибот, илмий тадқиқот муассасалари, гўшт-сут, озиқ-овқат махсулотларини назорат қилиш станциялари, давлат ветеринария инспекторлари.

**Аннотация.** В профилактике и ликвидации болезней животных важное значение имеют мероприятия по информированию общественности. В годы после Второй мировой войны в Узбекистане велась пропагандистская работа по предупреждению и ликвидации болезней животных. Это, в свою очередь, положительно сказалось на эффективности работы, проводимой в области ветеринарной медицины. В данной статье анализируется пропагандистская работа, проводившаяся в области ветеринарной медицины в этот период.

**Ключевые слова:** цветной плакат, повышение, научно-исследовательские учреждения, мясо и молоко, станции пищевого контроля, государственные ветеринарные инспекторы.

**Annotation.** In the prevention and elimination of animal diseases, public awareness activities are important. In the years after the Second World War, propaganda work was carried out in Uzbekistan to prevent and eliminate animal diseases. This, in turn, had a positive effect on the effectiveness of the work carried out in the field of veterinary medicine. In this article, the propaganda activities carried out in the field of veterinary medicine during this period are analyzed.

**Keywords:** color poster, propaganda, scientific and research institutions, meat and milk, food control stations, state veterinary inspectors.

Ветеринария соҳасидаги ишлар самарадорлигини оширишда тарғибот-ташвиқот ишларини амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда ветеринария соҳасидаги ишлар самарадорлигини яхшилаш мақсадида тарғибот-ташвиқот ишлари амалга оширилди. Хусусан, 1965 йилдаги маълумотларга қараганда, Ўзбекистон ветеринария илмий-тадқиқот институти, вилоятлар Қорақалпоғистон АССР ветеринария хизмати билан бирга ҳайвонлар ва қушларнинг юқумли касалликлари, зоонозлар ва бошқа касалликларнинг олдини олиш ва уларга қарши курашиш бўйича ветеринария билимларини тарғиб қилиш учун плакатлар, варақалар, тавсиялар ва йўриқномалар тайёрланди ва чоп этилди.

Шунингдек, журнал ва газеталарда шу соҳа бўйича мақолалар чоп этилди, радиода чиқишлар қилинди, шунингдек, учрашувлар, семинарлар, маърузалар, суҳбатлар ташкил этилди.

Рус ва ўзбек тилларида “Ҳайвон жасадларини йўқ қилишнинг энг оддий усуллари” номли рангли плакат (А.Леонтиев), “Оқсил касаллигига қарши курашиш бўйича Ўзбекистон республика махсус комиссиясининг мурожаати”, “Андижон, Самарқанд, Сурхондарё, Фарғона вилоятларидаги оқсил касаллигига қарши курашиш ҳудудий комиссияларининг мурожаати”, “Фуқаролар оқсил касаллиги билан курашмоқда” номли варақа ва бошқалар нашр қилинда ва аҳолига тарқатилди [1].

Бундан ташқари, соҳага ихтисослашган илмий – тадқиқот муассасаларида ҳам бу борада ишлар олиб борилди. Жумладан, профессор Н.В.Баданин раҳбарлигида ЎНИВИ ва Самарқанд қишлоқ хўжалиги инстиутининг дала қўшма мажлиси ташкил этилди. Шунингдек, Тошкетда гўшт ва сут саноати ходимлари учун Республика, вилоятлар ва Қорақалпоғистон АССР нинг гўшт-сут, озиқ-овқат маҳсулотларини назорат қилиш станциялари ва давлат ветеринария инспекторлари иштирокида семинар бўлиб ўтди. Ушбу семинарда Ўзбекистон ССР Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ветеринария бошқармаси бошлиғи А.Х.Охунов Республикадаги ветеринария хизматининг ҳолати тўғрисида маълумот берган эди [2].

Кейинги йилларда ҳам бу борадаги ишлар давом эттирилди. Жумладан, 1977 йилдаги маълумотларга қараганда, ҳайвонлар ва қушлар касалликларининг олдини олиш ва уларга қарши курашиш бўйича ветринария билимларини тарғиб қилиш мақсадида ветеринария бош бошқармаси, Республика ветеринария лабораторияси, Қорақалпоғистон АССР ва Республика вилоятлари ветеринария хизматлари томонидан плакатлар, варақалар тайёрланди ва чоп этилди. Шунингдек, газета ва журналларда ҳайвонларнинг турли касалликларининг олдини олиш даволаш бўйича мақолалар чоп этилди, учрашувлар, семинарлар ва бошқалар ташкил этилди. Бундан ташқари, радио ва телевидениеда чиқишлар қилиниб, махсус филмлар намойиш этилди [3].

Бу борада аниқ рақамларга мурожаат қилиш муҳим аҳамиятга эга. Жумладан, 1977 йилда колхоз ва совхозларнинг чорвачилик фермаларида, шунингдек, чорвадорлар ўртасида 9682 та плакат, 9290 та маълумот берувчи

варақа, 77774 та эслатма тарқатилди. Газета ва журналларда эса 591 та мақола, 318 та радио ва телевидениеда чиқишлар, 386 та семинар, кўргазма ва учрашувлар ташкил этилди. Шу билан бирга бу боада якка тартибда ҳам ишлар олиб борилди. Жумладан, чорвдорлар ва чорва эгаларига 1088 та маъруза ўқилган бўлса, 157 та махсус филм намойиш этилди. Шу билан бирга, 188996 марта якка тартибдаги суҳбатлар ўтказилди [3].

Матбуот, радио, телевидение, маъруза ва суҳбатларда оқсил, куйдирги, бруцеллёз, сил, қутуриш, гелминтозлар, қон паразитар касалликларининг олдини олиш ва уларга қарши курашиш, сунъий уруғлантириш, ёш ҳайвонларни саноат асосида боқиш, ветеринария-санитария експертизаси, бозорларда чорва молларини сотиш тартиби, чорва молларини юқори навли ем-хашак билан таъминлаш ва бошқа кўплаб масалалар ёритилди [3]. Бундан ташқари, матбуотда эълон қилинган мақолаларда илғор ветеринария муассасалари ва ветеринария мутахассислари фаолияти кенг ёритилди, республика ветеринария хизмати фаолиятида йўл қўйилаётган камчиликлар танқид қилинди.

Ушбу тадбирлар 80-йилларда ҳам давом эттирилди. Хусусан, 1981 йилдаги маълумотларга қараганда ветеринария Бош бошқармаси, республика ветеринария лабораторияси, Қорақалпоғистон АССР ва вилоятлар ветеринария хизмати томонидан плакатлар, варақалар, мақолалар ва даврий нашрлар тайёрланиб, чоп этилди. Хусусан, колхоз ва совхозларнинг чорвачилик фермаларида, шунингдек, чорвадорлар ўртасида 3405 дона плакат ва варақалар тарқатилди. Даврий матбуотда эса 574 та мақола эълон қилинди [4]. Ушбу мақолаларда ветеринария соҳасида амалга оширилаётган ишлар, уларнинг натижалари, чорва ҳайвонлари орасида тарқалаётган касалликлар ва уларга қарши чоралар ҳақида сўз юритилди.

Шу билан бирга, аҳоли орасида турли юқумли касалликларга қарши кураш борасида якка тартибда ҳам ишлар олиб борилди. Хусусан, турли ҳудудларда 9 мингдан ортиқ маъруза ўқилди, чорвадорлар ва оддий аҳоли билан 166 минг 400 маротаба суҳбат ўтказилди, шунингдек 28 та махсус филм намойиш этилди [4]. Кўчма кинотеатрларда “Қутуриш”, “Қишлоқ ҳайвонларининг бруцеллёз касаллигига қарши кураш”, “Ҳайвонларнинг фассиолози”, “Қишлоқ ҳайвонларининг гелминтозлари”, “Қорамол ва чўчқаларнинг финнозлари”, “Ценуроз ва эхинококкозли боритлар” номли омма эътиборига ҳавола этилди [5].

Бундан ташқари, махсус семинарлар ташкил этилиб, уларда ветеринария мутахассисларидан фойдаланган ҳолда сил, бруцеллёз, куйдирги, емкар, гелминтозлар, қон паразитар касалликларининг олдини олиш ва уларга қарши курашиш, фермер хўжаликларида ветеринария санитарияси, ёш ҳайвонларни парвариш қилиш ва бошқа масалалар муҳокама қилинди [4].

Семинарларда тингловчиларга қуйидаги мавзуларда материаллар тақдим этилди:

- Қорамоллар қон-паразитар касалликларининг олдини олиш ва уларга қарши курашиш чора-тадбирлари;
- Хориждан келтирилган қорамолларни сақлаш ва парвариш қилиш;
- Қутуриш касаллигининг олдини олиш ва уни назорат қилиш;
- Қўй бруцеллёзининг аллергик диагностикаси;
- Гелминтоз касалликлариа қарши курашиш ва унинг олдини олиш чора-тадбирлари;
- Тенуроз ва эхиноккоккознинг олдини олиш ва бартараф этиш чора-тадбирлари;
- Нитритлар ва нитартлар бўйича қовоқларни тадқиқ қилиш.

Бу борада семинарлар Ўзбекистон ССР Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг Республика ветеринария лабораторияси томонидан ҳам ташкил этилди. Жумладан, 1981 йилдаги маълумотларга қараганда, ушбу йилда учта семинар ўтказилиб, шулардан иккитаси вилоят ветеринария лабораторияларининг радиология бщлимлари мудирлари билан ўтказилди. Семинарларда ҳудудий ветеринария лаборатория мутахассисларини қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таркибидаги радиоактив моддалар индикацияси бўйича ўқитишни ташкил этиш юзасидан бир қатор масалалар кўриб чиқилди. Шу билан бирга вилоятлар ва уларнинг ҳудудларида чорвачилик ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг радиоактив заҳарланиши ҳақида маълумот берилди.

В развитых странах мира накоплен большой практический опыт семейных отношений. Развитие института семьи становится все более актуальным в результате трудностей и экономических проблем различных форм, связанных с социальными, экономическими, культурными и правовыми факторами и реалиями жизни общества. Поэтому обращается внимание на то, что проблема института семьи связана с практической психологической деятельностью и широко изучается мировым научным сообществом [1]. Известно, что образовательные методы, собранные в Центральной Азии, в том числе в Узбекистане, имеют образовательное значение в обучении и воспитании молодого поколения. Узбекский народ, как и все восточные народы, придает большое значение семье и воспитанию детей. Эта традиция передается из поколения в поколение, как символ народной мудрости и занимает особое место в нашей национальной культуре.

Проблемы человека и человеческих отношений, личности и ее совершенствования на протяжении веков были основными вопросами, находящимися в центре внимания самых передовых людей общества, великих учёных и мудрецов. Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Юсуф Хос Хаджиб, Махмуд Кошгари, Кайковус, Хотам ибн Тай, Алишер Наваи, Захириддин Мухаммад Бабур, Ризудсин ибн Фахриддин, Мукими, Фуркат, Завки, Увайси, которые считаются великими учёные Востока, Надира, Абдулла Авлони, многие учёные и писатели оставили в истории свои шедевры по этим вопросам, имеющим большое социальное и идеологическое значение для современной науки.

Основой, идейно-объединявшей всех восточных мыслителей, было то, что они подчеркивали роль семьи в воспитании и развитии личности, особенно роль семьи в интеллектуальном и нравственном развитии личности, руководстве родителей и близких людей гдеобразовательным задачам уделяется особое внимание. Выше всех других качеств они ставят ряд качеств, которые можно развить только в семье,-честность, чистоту, храбрость,

красноречие, доброту, правдивость и т. д. Выразившие на этот счет ценные идеи и практические наставления в своих философских, социологических и психологические взгляды, такие как переходный период и его положительное влияние на развитие общества. Вопросы, характерные для семейной жизни и культуры поведения в ней, широко освещены в трудах великих учёных-мухадди Мухаммада ибн Исмаила Бухари и Ат-Термизи, а также в философсско-проссветительсских трудах Ахмада Яссави, Баховуддина Накшбанда и Наджмуддина Кубры, которые являются крупными деятелями тасаввуфа.

При изучении научного и культурного наследия восточных мыслителей ценны описанные в них правила семейной жизни, культуры межличностных отношений, развития детей, взаимоотношений мужчины и женщины, формирования человеческих качеств. Идеи устного творчества народов Востока, в частности, узбекского народа мы видим, что это научное и культурное наследие, составленное на основе единства эпоса (узбекские народные пословицы, сказки, былины, легенды,повествования). [2]. Например, в устных произведениях и эпосах узбекского народа мужество, честность, смирение, доверие, любовь-верность, дружба, справедливость, трудолюбие, рассудительность, красота, ум, вера, уважение, защита семьи. Прославляются честь и гордость, любовь к месту рождения, стремление к добру, честная и чистая жизнь. Эту реальность мы можем увидеть на примерах героев узбекских народных эпосов, таких как Алпомиш, Кунтугмиш, Гороглы, Айсулув, Лейли и Меджнун, Юсуф и Зулейха. Роль мужа и жены в семье определена в аяте Священного Корана. По шариату муж несет основную ответственность за все финансовые и духовные аспекты жизни семьи и защищает ее от любых посягательств извне.

В обмен на это и благодаря наличию в семье таких качеств, как трудолюбие и предприимчивость, считающихся добродетелями для мужчины, он считается главой семьи. Хорошая жена – это благочестивая женщина, которая благоустраивает дом своего мужа и верна ему на всю жизнь. Из Священного Корана можно привести множество образцовых примеров супружеских или семейных отношений [3]. Даже в зороастризме, считающемся священной религией наших предков, вопрос брака и семейного долга занимал важное моральное место. Согласно "Авесто", чтобы жениться, мужчина должен быть прежде всего физически и духовно сильным. Кроме того, в этой священной книге рекомендуется не торопиться с выбором партнера. Также есть заслуживающие внимания замечания по поводу прислушивание к советам родителей и старших. В нем также упоминаются конкретные критерии брака и развода.

Особое место отведено вопросу женщины в совокупности этических норм зороастризма. Поскольку в зороастризме семья считается священной, расторжение брака не допускается по иным причинам, в том числе по подстрекательству, клевете, разногласиям между мужем и женой, а также по

причине неспособности ладить с родителями. Вообще и в зороастризме, и в исламе упоминается, что обе стороны равны и достойны в браке. По правилам брака и жизненному опыту жениху и невесте предпочтительно быть близкими друг другу по происхождению, социальному положению, знаниям, вкусу и имуществу. Поэтому в восточных народах серьезное внимание уделяется подготовке молодых людей к семейной жизни, поиску пары и бракосочетанию. Особенно при подготовке девушек к семейной жизни в первую очередь у них должны формироваться человеческие качества, что семья – это святое, и забота о ней – обязанность домохозяек.

Таким образом, народное устное творчество, религиозные идеи и мудрость сохранялись в устной форме из поколения в поколение, а мудрецы и учёные, выросшие среди нашего народа, передавали столь ценную информацию народным традициям и тем, кто, исходя из своих ценностей, , освещенные в своих произведениях, оставили их как научное и культурное наследие для будущих поколений.

**Использованная литература:**

1. Абдурахманова З.Э. Психология семейных отношений. Методическое пособие. Ташкент. "Университет". 2023.
2. Каримова В.М. Психология семейных отношений // Учебное пособие. – Ташкент, 2018. С. 175.
3. Умаров Б. «Уроки семейного воспитания» (Психологические особенности воспитания детей в семье) Научно-методическое пособие. - Ташкент: «Издательство Тасвир», 2019, 52 страницы.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Xo‘jamqulov Adham Qo‘chqor o‘g‘li**
SamDU tayanch doktoranti
Telefon: +998-99-594-04-58
**Gmail**: adhamxojamqulov561@gmail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, yoshlarga oid siyosatida yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.
**Kalit so‘zlar**: yoshlar, yoshlar siyosati, ijtimoiy kapital, hukumat va yoshlar, mahalla va yoshlar, oila va yoshlar.
**Аннотация**: В данной статье научно освещена суть государственной политики в отношении молодежи Республики Узбекистан. Также в молодежной политике даются предложения и рекомендации по развитию социального капитала молодежи..
**Ключевые слова**: молодежь, молодежная политика, социальный капитал, правительство и молодежь, соседство и молодежь, семья и молодежь.
**Annotation**: In this article, the essence of the state policy on youth of the Republic of Uzbekistan is scientifically covered. Also, suggestions and recommendations on the development of youth social capital are given in the youth policy.
**Key words**: youth, youth policy, social capital, government and youth, neighborhood and youth, family and youth.

Har bir mamlakatning jadal rivojlanishi ushbu mamlakat yoshlarining bilimi, salohiyatiga uzviy bog‘liq ekanligini hisobga olsak, yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish masalasi jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, yoshlar har bir davlatning ertangi kuni va aynan ular davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar masalasi juda muhim masala ekanligini ta’kidlab quyidagi fikrni bildirgan edi: “yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[1, 504-bet]. Darhaqiqat, yoshlar masalasi o‘z holiga tashlab qo‘yiladigan masala emas.

Yoshlar masalasini o‘rganish ilk svilizatsiyalardan buyon mavjud bo‘lib, har bir davrning mashxur olimlari yosh avlod tarbiyasiga oid o‘z fikrlarini bayon etganlar. Jumladan, Aristotel o‘zining “Politika” (yunoncha. “Siyosat”) asarida “yoshlar tarbiyasi” masalasini ko‘taradi va bu mavjud bo‘lmagan joyda davlatning asoslariga putur yetadi”[2] deb hisoblaydi.

Buyuk mutafakkir “Sharq Arastusi” va “Muallim us-soniy”(“Ikkinchi muallim” Aristoteldan keyingi) deb tan olingan Abu Nasr Forobiyga ko‘ra “Agar yoshlar kasb-hunar egallashga moyil bo‘lsalar, qiziqsalar, ushbu qiziqish ularni

butunlay shunga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar, uning sirlarini mukammal o‘zlashtiradilar”[3] deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, yoshlar masalasiga to‘xtalganda ularni kasbga o‘rgatish, raqobatbardosh mutaxassis etib tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Jadid ma’rifatparvarlari yetakchisi Maxmudxo‘ja Behbudiy Turkiston yoshlariga murojaatida yoshlar vatan ravnaqi uchun jonkuyar bo‘lishi kerakligini uqtiradi: “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tavassul va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot g‘ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvaronalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo‘lgan mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarimizni marja’ va umidgoh tutib, alardan yordam so‘raymiz[4].

Shu o‘rinda bugungi kunda jahon miqyosidagi yoshlar masalasiga oid qarashlarga e’tibor qaratish joiz deb hisobladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (a’zo davlatlar tomonidan berilgan har qanday boshqa ta’riflarga zarar yetkazmagan holda) 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni yoshlar deb belgilaydi. Bugungi kunda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan 1,2 milliard yoshlar dunyo aholisining 16 foizini tashkil qiladi. 2030 yilga kelib ushbu ko‘rsatgich 7 foizga o‘sib, qariyb 1,3 milliardga yetishi kutilmoqda. Yoshlar o‘z davlatlaridan adolatli va ilg‘or imkoniyatlarni talab qilayotgan sari, yoshlar duch keladigan ko‘p qirrali muammolarni (masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik) hal qilish zarurati har qachongidan ham dolzarb bo‘lib qoldi. Yoshlar masalasiga har bir davlatning o‘ziga xos yondashuvi va siyosati mavjud bo‘lib, ushbu siyosat ana shunday sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘ladi.

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo‘lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo‘llarini o‘rganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlatning yoshlar siyosati sohasidagi asosiy prinsiplari, vazifalari aks etgan huquqiy hujjatning ishlab chiqish masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Ozarbayjon, Belarus, Finlandiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Litva, Janubiy Koreya kabi davlatlarda Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan. Keyingi yillarda aksariyat Yevropa davlatlarida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish tajribasidan keng foydalanilmoqda. Xususan, Albaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Makedoniya, Ruminiya, Serbiya, Slovakiya va boshqa davlatlarda ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish yoshlarga oid davlat siyosatining uzviy bo‘g‘ini bo‘lishi lozim. Yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishda quyidagilarni e’tiborga olish muhim hisoblanadi:

**Birinchidan,** yoshlarning yangicha muammo va ehtiyojlarini tan olish. Chunki, jamiyatimizda ayrim stereotiplarga tayanib ushbu ehtiyojlar va muammolarga salbiy munosabatlar shakllangan.

**Ikkinchidan,** yoshlarga oid siyosatda marginallashuvni bartaraf etish. Ya'ni, yoshlarga oid siyosat yoshlarning barcha qatlamlariga (uyushmagan yoshlar, qishloq yoshlari, migrant yoshlar, nogironligi bor yoshlar) yetib borishi lozim;

**Uchinchidan,** yoshlarga "resurs" sifatida qarash, ularning salohiyatidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishning asosiy boyligi sifatida foydalanish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [5].

Bugungi kun yoshlari Yangi O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida ravnaq topshirishga qodir avlod bo'lishi mumkin. Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etishga bag'ishlangan nutqida "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish nainki Prezident devoni, balki barcha bo'g'indagi davlat organlari rahbarlarining doimiy ishiga aylanishi zarur. Bundan buyon bu sohada aniq tizim asosida ish olib boramiz"[1, 578-bet] deb ta'kidlagan edilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent. «O'zbekiston» - 2017.
2. Aristotel. Siyosat // Bir necha jildli asarlar. M., Mysl, 1983. T.4. S.A.Jebelev tarjimasi.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993-yil.
4. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son.
5. Sh.Mirziyoev. BMT Bosh Assambeleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017.
6. https://lex.uz
7. https://www.ziyouz.com/kutubxona
8. https://uzlidep.uz
9. https://uz.wikipedia.org
10. http://filosof.historic.ru
11. https://www.un.org/en/global-issues/youth

# YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIK DARAJASINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Shamsiyev Shohruz Yo‘ldosh o‘g‘li**
Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti, Ma’naviy-ma'rifiy va yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.
**Telefon: +998-90-103-90-44**
**Gmail:** doniyorovshoxruz@gmail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, yoshlarga oid siyosatida yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar**: yoshlar, yoshlar siyosati, ijtimoiy kapital, hukumat va yoshlar, mahalla va yoshlar, oila va yoshlar.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat bu uning faolligidir. Faollik (lotincha -actus-harakat,-activus - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu-o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-shaxsiy, ham tashqi - ijtimoiy nuqtai nazaridan boshqarilib boriladi.[81] Inson faolligi harakat, faoliyat, xulq tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir.

Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya’ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg‘ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda “ijtimoiy faollik”-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko‘rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o‘zi g‘oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma’naviy yuksalishini ta’minlaydigan bilim, odob axloq, iste‘dod,

[81] G‘oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002. 1-2 kitob

qobiliyat, ijobiy ko‘nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsak, ijtimoiy faollik shaxs ma’naviyatini kamolot sari yetaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o‘zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuidan iborat. Yoshlarni I.A.Karimov va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlarida bayon qilingan ijtimoiy faol va raqobatbardosh, tashabbuskor kadrlar tayyorlashga oid nazariy g‘oyalar, sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, davlatimiz rahbari ijtimoiy ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusi asosida ma’naviy jihatdan shakllantirish ularga kasbiy bilimlar berish o‘qituvchi kasbiga tegishli malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish jarayoni bilan uzviylikda olib boriladi. Bu uzviylik pedagogika fanlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunidagi o‘zaro aloqador xususiyatlarga bog‘liq. Demak, talaba-yoshlarni tarbiyalashda pedagogika oliy o‘quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlaydigan, o‘z fanini chuqur biladigan, kasbiy mahorati kuchli, tashabbuskor, dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Ijtimoiy faollik sifatlarining asosiy elementlarini o‘ziga singdirib olgan har bir talaba yosh, bo‘lajak mutaxassis sifatida xayot qonuniga mas‘uliyat bilan yondashib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aniq idrok etishga, o‘zi va kasbdoshlarining sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishga, ezgu maqsad yo‘lidagi to‘siqlarning hech biridan cho‘chimay engib o‘tishga tayyor bo‘ladi. Ya’ni, demokratik xuquqiy davlatning shakllangan ijtimoiy faol fuqarosiga aylanadi. Ijtimoiy faollik bilimlarga tomon xarakat qilish sifatida sodir bo‘ladi. Bugungi kunda yoshlar omili, komil inson g‘oyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari, xosiyatlari, sifatlari, ichki imkoniyatlari, iste‘dod alomatlari qancha erta ro‘yobga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi super yoshlarni shakllantirish shunchalik tezlashadi. Inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo‘shadi. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda davlatimiz siyosatining strategik yo‘nalishlari. Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga doir islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yoshlarni shu yurtga, shu Vatanga munosib farzand sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shuning uchun davlatimiz va xalqimiz ta’lim-tarbiya tashkilotlari hamda jamoat birlashmalaridan yoshlarni yetuk inson bo‘lishlariga munosib hissa qo‘shishiga katta umid bilan qaraydi. Xalqimiz demokratik institutlarga, ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik harakatlariga katta ishonch bog‘lamokda. Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan bir sharoitda shaxs erkinligini yanada kengaytirish ularda davlat va jamiyat hayoti, uning ravnaqini ta’minlashdagi burch va mas’uliyatlarini chuqur anglab yetish, ko‘nikmalarini hosil qilish huquqiy saviyasi va madaniyatini yuksaltirishda, davlat organlari, ta’lim muassasalarigina mas’ul bo‘lib qolmay shu bilan birga jamoat tashkilotlari va

boshqa nodavlat tuzilmalarini faollik darajasini ortishini ham taqozo etadi. “Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, ijtimoiy faolligi yuksalib borgan sari deb, ta’kidlagan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich oʻtkazib borish zarur. Bu borada oʻzini oʻzi boshqaradigan idoralarning, mahallarning nufuzini va mavqeini oshirish, ularga koʻproq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi”. Fuqarolik madaniyati shakllangan muhitda odamlarda ijtimoiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji paydo boʻladi. Bunda kishilar fuqarolik jamiyati institutlariga birlasha boshlaydilar. Fuqarolik madaniyati kuchayib borgan sari odamlar siyosiy-ijtimoiy jihatdan faollashib, partiyalarga a’zo boʻlish tendensiyasi kuchayadi. Demak, siyosiy partiyalar a’zolari soni va sifatining oshib borishi darajasi ham fuqarolik madaniyatini koʻrsatuvchi, ijtimoiy faollikni oshiruvchi mezonlardan biridir. Fuqarolik madaniyati shaxsning jamiyatdagi faol a’zosi sifatida ma’lum haq-huquqlarga ega boʻlish bilan birga oʻz zimmasidagi burch va majburiyatlarni vijdonan ado etishdir.[82] Yoshlarda ijtimoiy madaniyatini shakllantirish - ularga mustaqil davlat tuzilmasining xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydonda tutgan oʻrni, vatanparvarlik va millatlararo doʻstlik tuygʻulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yoʻlida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an’analari, milliy istiqlol gʻoyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas’uliyat, yot mafkuraviy qarashlarni anglash va unga qarshi boʻlish, ijtimoiy faollik va fidoyilik kabi sifatlarni mujassamlashtirgan yaxlit bir tarbiya jarayoni hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari - oʻz-oʻzini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarini mustahkamlash hamda rivojlantirish yoshlarning siyosiy-ijtimoiy madaniyatini, faolligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Oʻzbekistonda davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini erkinlashtirish, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga oʻtish vazifalarini amalga oshirishda har bir yoshning jamiyatda oʻz oʻrni boʻlishini bilish, eng muhimi, oʻzini jamiyatning ajralmas qismi deb, tushunishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy faollikka erishishda mavjud demokratik institutlar, oʻz-oʻzini boshqarish organlari, partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari muhim oʻrin tutadi. Chunki, jamiyatda yashayotgan har bir yoshning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mavjud siyosiy institutlar, partiyalar yoki nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiriladigan demokratik siyosiy jarayonlarda aks etadi. Bu, bir tomondan, yoshlarning ijtimoiy faollik darajasiga, ularning ijtimoiy qarashlarini idrok etib, uning ishtirokiga bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi mavjud oʻz-oʻzini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining ish faoliyatiga, yoshlarni oʻz atroflariga birlashtiradi. Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan demokratlashuv jarayoni insonlar, turli xil ijtimoiy qatlamlar, siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati va oʻzaro munosabati bilan bogʻliq. Jamiyat

[82]Kon I. S. Shaxs sotsiologiyasi. M., 1967.

hayotining demakratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlamini tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashishiga hamda ularning tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalari hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Shu boisdan ham mustaqillikka erishilgach, aniqrog‘i, 1991 yilning 20 noyabrida "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Ushbu Qonunning 1-moddasida: "Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir", deya mustahkamlab qo‘yilgan. O‘z-o‘zidan, davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi yoshlarning jamiyatga turli xil salbiy oqibatlarsiz kirib kelishini ta’minlash, ularning o‘z huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat. Bu esa, davlatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishida o‘z ifodasini topadi. Shningdek, Oila kodeksi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonunlar yoshlar tarbiyasida, ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishda, ish bilan band qilishda, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim huquqiy baza vazifasini o‘tamoqda. Shuningdek, birinchi prezidentimiz Islom Karimovning 2014 yil 6 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori mustaqillik yillarida olib borilgan bosqichma-bosqich, tadrijiy islohotlarning mantiqiy va qonuniy davomi bo‘lib, bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Respublikamizda mazkur qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelinmoqda. Qarorning qabul qilinishi fikrimizcha, quyidagilar bilan izohlanadi: Birinchidan, mustaqillik yillarida yoshlar siyosati bo‘yicha amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilinar ekan, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma’lum o‘zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda, ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi izchil harakatlarimizda yoshlarning faol

ishtirokini kuchaytirishga ehtiyoj tug‘ilgani, ikkinchidan, mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirgani, uchinchidan, jahon miqyosida globallashuv va axborot texnologiyalari tobora kuchayib borayotgan zamonda dunyoda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarni xolisona va tanqidiy baholagan holda farzandlar kelajagini ko‘zlab, yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilab olish zaruriyati, to‘rtinchidan, har tomonlama chuqur o‘ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan yoshlarga oid dastur va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo‘lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishishi shular jumlasidandir.Qarorga binoan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib, “O‘zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi” ma’qullandi. Dastur 7 bo‘lim, 67 banddan iborat. Unda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar ko‘lami ham keng bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, sud-huquq sohalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Unda yoshlarning ijtimoiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng muhim va dolzarb yo‘nalishlarda chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Dasturda belgilangan yo‘nalishlar o‘zaro uzviy, chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini taqozo etadi. Yoshlarni ijtimoiy ximoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ushbu dasturning o‘ziga xos bo‘lgan jihati

bo‘lib hisoblanadi.[83] Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish ko‘zga tutilgan. Yigit-qizlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, voyaga etmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni keng rivojlantirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirish, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash, turli yot g‘oyalarni targ‘ib qilib kelayotgan va past saviyali “ommaviy madaniyat” ta’siridan asrash kabi masalalar dasturning asosiy vazifasi hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari Mamlakatimizda voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va mustahkam ruxda tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonuniy manfaatlarini muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi barchamizga ma’lum. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va rahnamoligida yoshlar tarbiyasining ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi va bu borada tub islohotlar amalga oshirildi. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy qarashlarini umuman inkor etishning o‘zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo‘lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug‘dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. Shu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, turmush tarziga orqa-oldini o‘ylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik zarur edi. Barchamizga ma’lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma’naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o‘zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o‘ylab ish yuritishni talab kiladi”.

Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko‘rish mumkin. Yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e’tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo‘yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib bormayotganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Yevropa davlatlaridan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiyada bu borada erishilgan natajalar diqqatga sazovor. Bugungi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ikki xil strategiyasi amal qilmoqda. Bular: yoshlar siyosati sohasida davlatning yetakchi roliga asoslangan strategiya hamda yoshlar siyosati sohasida davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya. Hozirgi davrda Germaniya va Fransiyani birinchi yo‘nalishdagi siyosatni olib boradigan

[83] N. Ismoilova, D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. 2013.

davlatlar sirasiga kiritish mumkin. Ushbu davlatlar o‘z faoliyatini yoshlar siyosatini umummilliy, mintaqaviy va hududiy darajalarga qarab ixtisoslashtirish asosida olib boradi. Bunda yoshlar siyosati oila, qariyalar, ayollar va yoshlar ishlari bo‘yicha vazirlik tomonidan Konstitutsiya va federal qonunlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Fransiyada yoshlar siyosati Yoshlar ishlari, sport va jamoat birlashmalari bo‘yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi. Yoshlar siyosati sohasida davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya Buyuk Britaniya va Shvetsiyaga xos bo‘lib, bunda yoshlar siyosatining umumiy ko‘rinishi, maqsad va yetakchi vazifalari davlat tomonidan belgilab berilsa, bu vazifalarning ijrosi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu davlatlarga xos bo‘lgan xususiyat esa yoshlar siyosati va yoshlar ishlari bo‘yicha maxsus davlat organlarining mavjud emasligida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, dunyoning ko‘plab davlatlarida yoshlar huquq va manfaatlarini xalqaro va milliy darajada qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga maqsad qilgan yoshlar parlamentlari hamda milliy yoshlar kengashlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, xalqaro darajada yoshlar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi Yevropa yoshlar parlamenti, Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligi yoshlar parlamenti, Shimoliy Irlandiya yoshlar forumi, Shotlandiya yoshlar parlamenti kabi yoshlar parlamentlari hamda Avstriyadagi Avstriya xalqaro yoshlar hamkorligi qo‘mitasi, Belgiyadagi Flaman yoshlar kengashi, Buyuk Britaniyada Britan yoshlar kengashi, Germaniyada xalqaro yoshlar ishlari bo‘yicha Germaniya milliy qo‘mitasi (bunday kengashlar Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva kabi yana 25 ga yaqin davlatda mavjud) faoliyat yuritmoqda. Bularni keltirishdan maqsad, yoshlar huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi mexanizm mamlakatimizda qay darajada amal qilayotganiga e’tibor qaratishdir.[84]

Xo‘sh, O‘zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish uchun muhim qadamlar tashlanayotgan bugungi kunda yoshlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotini tuzish qanchalik zarur? Bizningcha, yoshlar mamlakatimiz aholisining 64 foizi (17 million 80 ming nafar)ni tashkil etuvchi asosiy qatlam ekan, aytish mumkinki, yoshlar bilan bog‘liq muammolar davlatning olib borayotgan siyosatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, jamiyatdagi barcha sohalar qatori yoshlar tashkilotlarini ham tashkiliy jihatdan isloh qilish, bu borada zamonaviy faoliyat mezoniga ega mustahkam institutni shakllantirish-ertangi kun egalari bo‘lmish yoshlar kelajagini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda kelajak avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mamlakatimizda boshlangan va chuqur ildiz otib borayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasi va qolaversa, kelajagi buyuk davlat qurishdek o‘ta mas’uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan mazkur masalaning yechimiga bevosita bog‘liqdir desak, hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasining paysalga

[84]Belinskaya E. P., Tixomandritskaya O.A. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi. M., 2001.

solinishi yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki oʻz-oʻzidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash oʻta kaltabinlik boʻlar edi. Zero, “qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar oʻziboʻlarchilikka tashlab qoʻyilsa, oʻsha yerda maʼnaviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron boʻlsa, oʻsha yerda maʼnaviyat qudratli kuchga aylanadi”. Yurtimizda yosh oilalar himoyasi, ularni qoʻllab-quvvatlash uchun ham juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Oʻtgan yillar davomida oila haqida 50ga yaqin qonun, 70 ga yaqin qaror va farmoyishlar eʼlon qilindi. Ularning aksariyat katta qismi ijtimoiy, moddiy va maʼnaviy himoya qilish va farovonligini taʼminlashdan iborat. Shunisi eʼtiborga molikki, yosh oilalarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash masʼulligini birinchi navbatda davlatimiz oʻz zimmasiga olgan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda davlat idoralari, fuqarolik institutlari va mahalliy hokimiyatlar tashabbuskor boʻlmoqdalar. Shuningdek, bola huquqlarini himoya qilish borasida milliy qonunchiligimizda ham bir qator qonun hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilingan. Jumladan, 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi milliy qonunchilikni bola huquqlari boʻyicha xalqaro andozalar bilan muvofiqlashtirish, bola huquqlarini himoya qilish sohasida tegishli dasturlar tuzish, davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining bu boradagi vazifalari, vakolatlarini va oʻzaro faoliyatini aniqlashtirish, bola huquqlari himoyasi mexanizmining ishlashi va amaliy natijalari berishini taʼminlash, shu sohaga oid qonunchilikning kelgusidagi rivoji uchun keng imkoniyatlarga yoʻl ochadi. Shuningdek, ushbu qonunda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining bolalarga gʻamxoʻrlik koʻrsatish, ularning huquqlarini himoyalashda ishtirok etish shakllari belgilangan. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, yoshlar bilan ishlash, ularning oʻquvi, jamoat hayotidagi ishtiroki, qolaversa, ularning kelajagini yaratishda nafaqat adliya organlari, balki ota-onalardan tortib davlat idoralarigacha masʼul boʻlishi kerak. Ana shunda biz yoshlar siyosati boʻyicha, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish boʻyicha oldimizga qoʻygan vazifani bajarishda toʻla-toʻkis faol ishtirok eta olgan boʻlamiz. Chunki yoshlar — mamlakat kelajagi. Shuning uchun ham birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Albatta, har bir bandaga rizq-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu hayotda nasibasi butun va toʻla boʻlishi uchun insonning oʻzi ham chin dildan intilishi, zurriyodini sogʻlom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur”, - degan edi. Marhum yurtboshimizning mazkur fikrlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy tizimdagi islohotlar nafaqat farovon turmush tarzini yoʻlga qoʻyish, balki maʼnaviyati yuksak yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yaratishni nazarda tutilgan. Yurtimizning kelgusidagi mavqei, rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi ularning qoʻlida. Ana shuni unutmagan holda yoshlar tarbiyasiga alohida eʼtibor va gʻamxoʻrlik biz kattalarning dolzarb

vazifamizdir. Barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyasi va uni amalga oshirish insoniyatning eng yorqin orzusi bo‘lib kelgan. Bunday insonlar orasida O‘zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o‘z o‘rni va nomi bor. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o‘z tariximizdan juda ko‘p dalillar keltirishimiz mumkin. Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi g‘oyalarni yodga olaylik. Unga ko‘ra jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o‘rni, ya’ni kim bo‘lishidan qat’iy nazar FOZIL kishi. Fozil inson o‘z davlatining barcha qonun qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, o‘z kasbining ustasi, lozim bo‘lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo‘ladi. Ota-ona va farzand, ustozu shogird o‘rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo‘ladi. Avvalo, bunday fikrlashning o‘zi bobolarning ma’naviy darajasi naqadar yuksak bo‘lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko‘p asrlik meroslarni o‘rganish natijasida vujudga kelishini ta’kidlash joiz.

Demak, bizning barkamol avlod tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma’naviy asos bor. Davlatimizning birinchi rahbari I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Mustaqillik yangicha yashashni, yangicha fikrlashni, hayotda har bir fuqarodan o‘ziga yarasha munosib o‘rin egallashni, yangi mafkura asosida yangicha ma’naviyatni talab etadi. Talab etibgina qolmasdan, jadal o‘zgarib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda yangicha o‘ylashga va harakat qilishga majbur etmoqda. Yangicha o‘qish, yangicha ishlashning o‘zi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bizga raqobatbardosh yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi fozil insonlar kerak. Dasturning asosiy maqsadi ham aynan barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdan iboratdir”. Har tomonlama etuk avlodni tarbiyalasakgina, bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og‘ir, sinov va qiyinchiliklarni engib o‘tamiz, shundagina ko‘zlangan yuksak marralarni egallay olamiz. Hech qachon hech kimdan kam bo‘lmagan va hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalab kelayotgan xalqimiz, ezgu maqsad-muddaomiz – erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo‘lmaydi. Shuning uchun bu muhim masalaga doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda. Insoniyat hamisha mukammal jamiyat bunyod etish ishtiyoqida yashagan. Mukammal jamiyatni ma’naviy yuksak, axloqiy barkamol, jismoniy etuk avlod yaratadi. Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar insonlar hayotiga, taqdiriga daxldor ekanligini har birimiz his qilishimiz va shundan tegishli xulosalar chiqarishimiz lozim.[85] Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha o‘zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo‘yilganligi hammamizni quvontiradi. Ya’ni, bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko‘rish, kuzatish qiyin emas. Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish,

[85]Rajabov S. Pedagogika faning buyuk allomalari. T. «O‘qituvchi», 1990.

ularni ijtimoiy faolligini oshirish, rivojlantirish demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shunday ekan, oʻz maqsadlarimizga erishishda bir necha vazifalari borligini ta’kidlab oʻtish mumkin: Yoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayoning faol ishtirokchisiga aylantirish; Amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari, keng koʻlamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini yoshlarimizga sharhlab berish va tushuntirish; Ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targʻibot tizimini amalga oshirish; Ma’naviyatning kuch qudratini faqat ezgu maqsadlar yoʻlida samarali foydalanish va rivojlantirish; Turli qarash va fikirlarga ega boʻlgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakatlarning oʻziga xos orzu intilishlarini uygʻunlashtiruvchi gʻoya Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik-barchamiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish; Qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni izchil davom ettirish; Ta’lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirish.Bu orqali kelajagimiz bilimli, dono va ma’naviy sogʻlom, barkamol avlodga bogʻliq ekanligini chuqur anglashga erishish; Ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e’tiqodimiz boʻlmish islom dinning bugungi hayotimizdagi oʻrni va ta’sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baqquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uygʻunlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka tushintirish borasidagi tashviqot ishlarini davom ettirish; Koʻp millatli mamlakatimiz yoshlari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat’iy nazar, ularda hamjihatlik va birdamlik tuygʻularini kuchaytirish: chunki ma’naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh qiladi.Ularning taqdirini oʻzaro hurmat asosida yaqinlashtiradi; “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan vazifalarni fuqarolar va yoshlar orasida izchil davom ettirish: “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan toʻrtinchi yoʻnalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta’minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga koʻrsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sogʻliqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minlash, umumiy oʻrta ta’lim, oʻrta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Belinskaya E. P., Tixomandritskaya O.A. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi. M., 2001.

2.Rajabov S. Pedagogika faning buyuk allomalari. T. «Oʻqituvchi», 1990.

3.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. T: Oʻzbekiston 2018. 29- bet.

4.Islom ziyosi oʻzbegim siymosida. T.: Toshkent islom universiteti. 2001.

# YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

**Sultanova Ozoda Rajabovna**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, madaniyat jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi

**Anatatsiya:** Yoshlarning jamiyatdagi faolliklari tobora oshib borayotgan bugungi davrda ular erishayotgan ulkan yutuqlarni e’tirof etgan holda, yanada faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish uchun tarixiy xotiraga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ma’naviy mukammalikni oshirish, diniy qadriyatlardan xabardor qilish bugungi kunning asosiy vazifasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Kalit so‘zlar:** odob-axloq, milliy qadriyatlarga etibor, tarixiy merosga e’tibor, tarixiy merosni asrab-avaylash.

**Анатасия:** В современную эпоху, когда активность молодежи все больше возрастает, главной задачей сегодняшнего дня является обеспечение у нее исторической памяти, чтобы сформировать более активную гражданскую позицию, повысить духовное совершенствование, сделать Они осознают религиозные ценности, и это не будет преувеличением.

**Ключевые слова:** манеры, внимание к национальным ценностям, внимание к историческому наследию, сохранение исторического наследия.

**Anatasia:** In the modern era, when the activity of young people is increasingly increasing, the main task of today is to provide them with historical memory in order to form a more active civic position, increase spiritual improvement, make them aware of religious values, and this will not be an exaggeration.

**Key words:** manners, attention to national values, attention to historical heritage, preservation of historical heritage.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiyaga, yoshlarni bilim bilan qurollantirishga, intellektual salohiyat egalarini kamolga yetkazishga e’tibor qaratish masalasi mamlakatimizda davlat siyosati darajasida qaraladi.

Ayniqsa, yoshlarimiz ongini qamrab olishga urinayotgan-ommaviy madaniyati o‘z ta’siri bilan odob-axloq, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi, millatning qudratiga zarar yetkazuvchi xavfli tahdid ekanligini anglash va bunday tahdidlardan farzandlarimizni, xalqimizni, millatimizni himoya qilish masalasi har bir ziyolining oldida turgan eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa ekanligini, tarixiy merosga e’tibor - millat taqdiriga e’tibor ekanligini davlatimiz rahbari doimiy uqtirib kelmoqdalar. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida: Buyuk tarixda hyech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u

qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir, [1.29-b.] deb ta'kidlaganlar.Bizning mintaqamiz geosiyosiy nuqtai nazardan ham, boshqa turli jihatlardan ham dunyo hamjamiyatining diqqat-e'tiborida. Dunyoviy yoki diniy ilmlarning asoschilari ham shu diyordan chiqqan olimlardir. Mana shunday tarixga ega xalq o'zining qanday xalq ekanligini dunyo hamjamiyatiga tanitish istagi [2.65- b.] bilan yashaydi. Islom olamida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislari to'plamining ishonchli manbai deb e'tirof etilgan Al-jome' as-sahih‖ to'plami barcha muhaddislar ustozi bo'lmish Imom Buxoriyning ko'p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O'n ikki asrdirki, ushbu asar ahamiyatiga ko'ra, muqaddas Qur'ondan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo'lib qolmoqda. Nafaqat bizning yurtimiz, balki boshqa mamlakatlardan ham minglab, millionlab musulmonlar bu tabarruk zot tug'ilgan Buxorai sharifga borish va uning Samarqanddagi qabrini ziyorat qilishga intilishi bejiz emas, albatta. X asrda Samarqandlik mutafakkir, Imom al-Huda‖ (Hidoyat yo'lining imomi) deb shuhrat qozongan Abu Mansur Moturidiy tomonidan asos solingan moturidiya ta'limoti butun islom olamida keng tarqalgan.Moturidiya ta'limoti ilm egallash jarayonida bag'rikenglik g'oyasi asosida inson vql-zakovatining o'rni va ahamiyatiga yuksak etibor qaratadi. Bu o'z navbatida ushbu ta'limotning keng ommalashuvida muhim o'rin tutgan. Bunday g'oyalarga bugungi kunda ham insoniyat kata ehtiyoj sezmoqda. Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezga amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. O'rganish uchun esa manbalar, bilimlar bisyor. O'zida buyuk ma'nolarni mujassam qilgan hadisi sharifdan, unda zikr etilgan ruknlardan kelib chiqadigan hikmatlar haqida jild-jild kitoblar yozilgan, ko'plab va'z-nasihatlar qilingan.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Hadis va hayot nomli kitobida quyidagi ibratli iboralarni o'qiymiz: Alloh taolo hakimdir. U Zot behikamat ish qilmaydi. Insoniyatga islomni qiyomat kunigacha ikki dunyosaodat yo'lini ko'rsatuvchi O'zining oxirgi dini qilishi ham bir olam hikmatdir[ 3.12-b].Bugungi kunda islomiy qadriyatlar asosida halollik, poklik, iymon butunligi, adolat tamoyillariga amal qilish dunyoviy taraqqiyot mezonlari bilan, xususan qonun ustuvorligi bilan hamohang ekanligi ayni haqiqatdir.Yoshlarning jamiyatdagi faolliklari tobora oshib borayotgan bugungi davrda ular erishayotgan ulkan yutuqlarni e'tirof etgan holda, yanada faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish uchun tarixiy xotiraga ega bo'lishlarini ta'minlash, ma'naviy mukammalikni oshirish, diniy qadriyatlardan xabardor qilish bugungi kunning asosiy vazifasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ziyraklik bilan yondashishni talab qiladigan bu masala, ko'pmillatli davlatlar jumlasiga kiruvchi mamlakatimiz xalqlari uchun juda dolzarbdir. Sof diniy ta'limotlarning mazmuni turli g'arazli diniy oqimlarning maqsadlaridan farq qilishini ko'rsatish, uning asl mohiyatini xalqqa, ayniqsa, yosh avlodga tushuntirish zaruriyati

ijtimoiy fan olimlari, dinshunos, islomshunos va boshqa aloqador sohalarning mutaxassislari zimmasiga katta vazifalar yuklamoqda.Hali hyech bir mamlakatda dinshunoslik fanini oʻqitish borasida andoza qilib olish mumkin boʻlgan muayyan yondashuv shakllanmagan. Arab va musulmon mamlakatlarining uslubi ham, Yevropa yoki MDH davlatlarining mavqyei ham bizning sharoit uchun nomaqbul ekani ajdodlarimiz qoldirgan an’anaga tayangan holda, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan samarali foydalanish asosida oʻzimizga xos va mos uslubiyatni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu bir tomondan oʻquvchilarning vijdon erkinligi bilan bogʻliq huquqlarining buzilishi, ikkinchi tomon -dan, koʻpmillatlilik va koʻpkonfessiyalilik sharoitida boshqa din vakillari huquqlarining kamsitilishi, uchinchidan, davlatning dunyoviy xarakterini yemirish sifatida baholanib, bir-biriga zid boʻlgan qarashlarning paydo boʻlishiga olib keldi [4.]Koʻrinib turibdiki, talaba yoshlarga din, uning mohiyati haqidagi bilimlarni qay yoʻsinda va qanday shaklda berish nihoyatda nozik, ayni paytda murakkab masaladir. Shu sababli bugungi kunda dinlar haqida ma’lumot beruvchi fanlar boʻyicha yaratilayotgan darslik, oʻquv qullanma, va oʻquv adabiyotlari eng avvalo milliy istiqlol gʻoyasiga hamohang boʻlishi lozim. Ayni vaqtda ular-dunyoviy xarakterda boʻlmogʻi, umumbashariy qadriyatlar, demokratik prinsiplar ruhi bilan sugʻorilgan boʻlishi, respublikamiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilishi, zamonamizga hamnafas boʻlmogʻi;– dinshunoslik asoslarini oʻqitish va oʻrganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik bosh yoʻnalish boʻlishi;– dinni ateistik ruhda, qoʻpol tarzda tanqid qilish yohud diniy vazxonlik qilish, bir dinni ikkinchi dindan ustun qoʻyish – mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydigan yondashuv deb qaralishi;– diniy bagʻrikenglik (tolerantlik) tamoyillarini singdirish;– diniy agʻrikenglik – ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va jamiyat taraqqiyotini ta’minlash omili ekanini ta’kidlash;– insonning ma’naviy kamolotida dinning oʻrnini e’tiborga olish;– diniy tizimlar bilan tanishish koʻproq Oʻzbekistan misolida olib borilishi maqsadga muvofiqligi kabi tamoyillarga asoslanishi kerak[5.68-b].Milliy va diniy urf odatlarimiz, an’analarimizning har bir jihati toʻgʻri talqin etilsa, toʻgʻri tushuntirilsa yosh avlodning barkamol ulgʻayishiga erishish tamoyillaridan birini amalga oshirgan boʻlamiz. Chunki, din, xususan, islom dini tinchlik, doʻstlik, poklik, hurmat, sabr-toqat va boshqa islom odobidagi yuksak fazilatlarni targʻib etadi. Mustaqil diyorimizning 28 yil ichida bosib oʻtgan tarixiy davri mustabid tuzumning din afyundir‖ degan gʻoyalarini chippakka chiqardi, inson biror narsaga e’tiqodsiz yashay olmasligi isbotlandi. Shuningdek, xalqimizga dinni niqob qilib olgan reaksion boshqa diniy ekstremistik, terroristik guruhlar olam kezib yurar ekan, doimo ogoh boʻlish kerakligini koʻrsatib berdi. Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy vositalardan boʻlgan dinshunoslik saboqlari, tushunchalari orqali milliy gʻoya va mafkuramizni farzandlarimiz ongiga singdirsak, ularni turli aqidaparast guruhlarga kirib qolishining oldini olishdek maqsadimizga erishamiz.Aynan diniy va dunyoviy ta’lim - bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi. Insonlarni ezgulikka da’vat etadigan, saxovatli, sabr-qanoatli boʻlishga undaydigan ma’rifat esa, har qachongidan ham muhimdir. Xozirgi

kunda O‘zbekistonda 18 yoshga to‘lmagan yoshlar 12 million nafardan ziyodni tashkil etadi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki talaba yoshlarni milliy qadriyatlarimiz-urf odatlarimiz tug‘risida bilimlarini oshirish qolaversa yoshlarni ongiga maktab yoshidan sindirish maqsadga mofiq bo‘ladi. Shu sababli bugungi kunda dinlar haqida ma’lumot beruvchi fanlar bo‘yicha yaratilayotgan darslik, o‘quv qullanma, va o‘quv adabiyotlari eng avvalo milliy istiqlol g‘oyasiga hamohang bo‘lishi lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T: O‘zbekiston 2018. 29- bet.

2.Islom ziyosi o‘zbegim siymosida. T.: Toshkent islom universiteti. 2001.

3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T:, Hilol nashr‖ 2018. 12-bet.

4 Antonova L. Мы ne mojem pustit izucheniye pravoslaviya na samotyok. Gazeta "Izvestiya " 23 iyulya, 2002 g.

5.Husnidinov Z. O‘zbekistonda dinshunoslik islomshunoslik fanining istiqbollari. // "Sharq mash’ali" jurnali. 2001. №34, B. 68.

6.Sh.M.Mirziyoyev. -Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir‖.‖Xalq so‘zi‖, 2018 yil 8 dekabr. 253-son.

7. Kurbanovna, S. D., & Mustafakulovich, K. S. (2022). The Role of Aesthetic Culture in Educational Processes. Open Access Repository, 8(04), 208-210.

8. Kurbanovna, S. D. (2023). GO‘ZALIK VA ULUGVORLIK KATEGORIYALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 96-98.

# SAMARQANDNING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

**Sherzod Tangirov Abduraxmonovich**
Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti
**Email:** tangirov87@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy yurushlari, Xususan Samarqandning bosib olinishi, Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilib 1868-yilda Zarafshon okrugi tashkil etilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek maqolada 1868-yil 2-iyunda Buxoro va Kattaqoʻrgʻon oʻrtasidagi Zirabuloq tepaliklarida rus va buxoro qoʻshinlari oʻrtasidagi jang, 1868-yil 23-iyunda Rossiya va Buxoro oʻrtasida imzolangan sulh shartnomasi, 1868 yil 28 iyunda general Fon Kaufman tomonidan imzolangan «Zarafshon okrugini boshqarish toʻgʻrisidagi muvaqqat qoidalar», Samarqandning Rossiya bosqinidagi ahamiyati masalalari tadqiq qilingan.

**Kalit soʻzlar:** Rossiya imperiyasi, Buxoro, Xiva, Qoʻqon, Zarafshon okrugi, muvaqqat qoidalar, sulh shartnomasi, Zirabuloq jangi, Turkiston general-gubernatorligi, Samarqand uyezdi, Kattaqoʻrgʻon uyezdi.

**Абстракт.** В данной статье рассматриваются военные походы Российской империи в Туркестан, в частности, завоевание Самарканда, включение Самарканда в состав Российской империи и создание Заравшанского округа в 1868 году. Также в статье бой русских и бухарских войск на холмах Зирабулок между Бухарой и Каттакурганом 2 июня 1868 г., мирный договор между Россией и Бухарой 23 июня 1868 г., 28 июня 1868 г. В июне генерал фон Кауфман подписал Во «Временном положении об управлении Заравшанским округом» изучено значение Самарканда в российском нашествии.

**Ключевые слова:** Российская империя, Бухара, Хива, Коканд, Зарафшанский округ, временное положение, мирный договор, битва при Зирабулоке, Туркестанская губерния, Самаркандский уезд, Каттакорганский уезд.

**Abstract.** In this article, the Russian Empire's military campaigns in Turkestan, in particular, the conquest of Samarkand, Samarkand's incorporation into the Russian Empire and the creation of Zarafshan District in 1868 are discussed. Also in the article, the battle between Russian and Bukhara troops on the Zirabulok hills between Bukhara and Kattakurgan on June 2, 1868, the peace treaty signed between Russia and Bukhara on June 23, 1868, 28, 1868 In June, General Von Kaufman signed the "Provisional Regulations on the Management of the Zarafshan District", the importance of Samarkand in the Russian invasion was studied.

**Key words:** Russian Empire, Bukhara, Khiva, Kokand, Zarafshan district, temporary regulations, peace treaty, Battle of Zirabulok, Turkestan Governorate, Samarkand uyezd, Kattakorgan uyezd.

**Kirish**. XIX asr oʻrtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi oʻz bosqinchilik siyosatini Turkiston yerlari hisobiga amalga oshirdi. Rossiya imperiyasi qoʻshinlari Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari oʻrtasida birlik yoʻqligi, aksincha ularning oʻzoro kurashlar bilan bandligidan foydalangan dastlab Qoʻqon xonligini zabt etdi va oʻzining navbatdagi bosqinchilik siyosatini Buxoro amirligiga, shu qatori Zarafshon vodiysiga qaratdi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi bosqini davrida Sirdaryo viloyati qoʻshinlari shtabida xizmat qilgan, ayni vaqtda Zarafshon vodiysi viloyatlari haqida tadqiqot yozgan podpolkovnik L.N.Sobolevning 1874-yilda Sankt Peterburgda nashrdan chiqqan "Zarafshon okrugi haqida geografik va statistik ma'lumotlar" (Географические и статистические сведении о Зеравшанском округе) nomli tadqiqot ishida Rus Ingliz raqobati davrida Turkiston yerlarining Rossiya imperiyasiga boʻysundirilishining muhim ahamiyat kasb etishi, ruslarning Amudaryo vodiylarida joylashishi inglizlar uchun havotirli ekanligini, Oʻrta Osiyo yerlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi Angliya bilan munosabatlar kafolati ekanligini ta'kidlaydi .[1]

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Zarafshon vodiysi Buxoro amirligi hukmronligi ostida boʻlib, uning oʻrta va yuqori qismlarida Samarqand, Kattaqoʻrgʻon, Payshanba, Chelak, Urgut, Qoratepa, Panjikent, Mohiyon, Farob, Kishtut, Yagʻnob, Mastchoh, Fan, Falgar va Varzimnor bekliklari joylashgan edi. Ularda hokimiyat bevosita amir tomonidan tayinlanadigan beklar qoʻlida jamlangan boʻlib, beklar oʻz mulklarini koʻp sonli amlokdorlar, qozilar, aminlar, oqsoqollar, dahaboshilar va boshqa mansabdorlar yordamida boshqarganlar. Rossiya imperiyasi hokimiyati oʻrnatilishi arafasida Boboxoʻja Samarqand beki, Umarbek Kattaqoʻrgʻonda hokim boʻlgan.[2].

Asosiy qism. Rossiya imperiyasi istilochilari Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki mavsumda (1866 va 1668-yillar) amalga oshirdi. Birinchi mavsumda amalga oshirgan bosqinchilik yurishlari natijasida amirlikning Erjar (1868-yil 8-may), Xoʻjand (24-may) Oʻratepa (2-oktyabr) Jizzax (12-oktyabr) kabi hududlari Rossiya imperiyasi tarkibiga qoʻshib olindi. Keyingi, 1868-yilgi urush mavsum esa Samarqand (1868-yil 2-may), Chelak (6-may), Urgut (12-may), Kattaqoʻrgʻon (18-may) kabi shaharlarning bosib olinishi shuningdek, amir qoʻshinlarining 1868-yil 2-iyunda Zirabuloqda uzil-kesil tor-moq qilinishi bilan bilan yakunlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasi Oʻrta Osiyo xonliklarini zabt etganlishi doirasida Samarqandni butkul oʻz ta'siri ostiga oʻtkazishga alohida e'tibor bergan. Xujjatlarga koʻra 1868 yil 1 mayda Choʻponota tepaliklarida 21 rota askar, 16 ta zambarak va 500 kazak, jami 3 ming 500 kishidan iborat Rossiya imperiyasi qoʻshini qoʻshini [3] jangda amir qoʻshini tor-mor keltirgan va uning butun artelleriyasini qoʻlga olgan, 2 mayda esa Buxoro amirligining ikkinchi poytaxti Samarqand rus qoʻshinlariga jangsiz taslim boʻlgan.[4]

Samarqand shahrini bosib olinishida general fon Kaufman qoʻshini safida ishtirok etgan rassom Verashchagin oʻz xotiralarida "Biz hammamiz, ya'ni

Samarqandni zabt etuvchilar general Kaufman izidan borib, amir saroyiga joylashdik; nihoyatda baland va keng xonalardan iborat asosiy binoni general, saroy atrofidagi uylarni biz qarorgoh a’zolari egalladik. General Koufman xonalari bilan bizning uylarimiz Temurlangning mashhur taxt zaliga tutashib ketgan edi. Muhtasham saroy aylanasi hashamatli yo‘lakdan iborat bo‘lib, to‘rda chiroyli, bo‘rtma naqshlar bilan zeb berilgan oq marmar bo‘lagi ulug‘vor taxt Ko‘ktoshning aynan o‘zi turar edi. Bu yerga mana shu saroy butun Osiyo va Ovro‘paning ko‘pgina joylaridan hukmdorlar hamda elchilar ta’zim bajo etgani tashrif buyurishar, tobelik va sadoqat ramzi sifatida qimmatbaho sovg‘alar keltirishardi. Temurlang bu taxtda viqor to‘kib o‘tirib, ko‘p sonli vassallarni qabul qilardi”[5] deb, bu shaharning mintaqa tarixi va taqdirida naqadar ahamiyatli ekanligini tasdiqlagan. Aynan shu sabab tufayli ham uzoqni ko‘zlagan Rossiya imperiyasi mustamlakachilari tarixdan Turkistonning strategik markazlaridan bo‘lgan Samarqandni bosib olish orqali Qo‘qon xonligi Buxoro amirligi bilan aloqalarini butunlay uzib qo‘ya olar, shuningdek bu shaharni zabt etish orqali Buxoro amirligi “irodasiga zarba” bergan bo‘lar edi. Shu kabi sabablar tufayli Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilib 1868-yilda Zarafshon okrugi tashkil etildi va Samarqand shahri uning markaziga aylantirildi.

Tarixdan ma’lumki o‘rta asrlarda (ayniqsa Amir Temur va Temuriylar davrida) Samarqand Osiyo va Yevropada eng mashhur shaharlarida bo‘lgan. Rossiya imperiyasi harbiy-siyosiy doiralari O‘rta Osiyo istilosi davrida Samarqand bosqiniga, bosqindan so‘ng esa Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Samarqandning idora uslubiga alohida e’tibor berganligi ham so‘ngi yillardagi tadqiqotlarda tobora o‘z isbotini topmoqda. H.Ziyoyev o‘zining “Turkistonda Rossiya tajovusi va hukmronligiga qarshi kurash” kitobida “1868-yil 3-mayda amir Muzaffar Samarqandning rus soldatlari tomonidan bosib olinganligidan xabar topgach, qahru alami shu darajada avjiga chiqqanki, xabarchini darhol dorga osishga buyurgan. U “Samarqand qo‘ldan ketgandan ko‘ra xudo jonimni olsa yaxshiroq bo‘lar edi” deb ho‘ngrab yuborgan”[2] ligi to‘g‘risida manbalar asosida ma’lumot beradi. Bundan Samarqandning bosib olinishi Buxoro amirligi uchun “juda katta yo‘qotish” ekanligini bilish mumkin.

Samarqandning Rus imperialistlari tomonidan bosib olinganidan keyin ham bosqinchilarga qarshi harakatlar davom etganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Xususan Shahrisabz va Kitob beklari Jo‘rabek, Bobobek va boshqa nufuzli kishilar bosqinchilarga qarshi Buxoro amiridan mustaqil ravishda kurashishga qaror qilganlar. Bu vaqtda Samarqand shahri aholisida ham bosqinchlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish kayfiyati sezilgan.Bu haqida rassom Verashchagin o‘z xotiralarida “Har kuni bir kazak hamrohligida bozor va shahardagi ko‘chalar va yo‘laklar bo‘ylab aylanardim, hayotim har soat, har daqiqa qil ustida bo‘lganligini keyingina anglab yetdim. Qo‘shin qo‘mondoni[86] shahardan tashqariga chiqayotgan paytda ayrim ko‘chalarda mullalar va’zini jon qulog‘i bilan tinglayotgan aksari o‘rta yashar odamlar to‘dasi

[86] General Chernyayev nazarda tutilmoqda. U bosqinchilik yurishlarini bu vaqtda Kattaqo‘rg‘on va Zirabuloq tomonga qaratgan.

uchrab turardi. Pistolkors[87] ortryadi qaytgan kuni esa bunday va’z o‘qiyotganlar soni ko‘paygan, chamamda xalqni kofirlarga qarshi jangga otlanishga chorlayotgan edi. Qal’aga tezroq yetaqolay deb bozorga boradigan katta ko‘chadan burilib, tor, qing‘ir-qiyshiq yo‘lakdan ketayotganimda, muyulishlardan biridagi masjidning katta darvozasi ochilib ketdi, ichkarida odam to‘la edi, qizil kiyimli kishi -Buxoro amirining ayg‘oqchilaridan biri bo‘lsa kerak nutq so‘zlab turar edi. Xaloyiq tarqalayotgan paytda eng keying ovozi va qo‘l harakatlari bilan xalqni qo‘zga’lishga da’vat etib mening tanishim Sherdor masjidining katta mullasi borardi”[5].

1868 yil 27 va 29 may kunlari Jo‘rabek 20 ming kishilik askar va olomon bilan Kaufman Kattaqo‘rg‘on va Zirabuloqda turgan vaqtda Samarqandga yurish uyushtiradi. Bu vaqtda shahardagi qal’ada 500 rus askari turar edi. [2] Tomonlarning qurollanish holati o‘rtasidagi katta tafovut, vatan himoyachilari sardorlarining ojizligi va qat’iyatsizligi tufayli bu urinishlar zoye ketgan. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy o‘zining Tarixi jahonnomayi asarida Kaufman Zirabuloqda buxoroliklar bilan urushayotgan vaqtda ming, xitoy-qipchoq va Shahrisabz kenagaslarining qabila sardorlari ittifoq bo‘lib, ko‘p sipoh ila Samarqandga kelib, bu shaharni fath etmoqchi bo‘ldilar. (Ular) Saroyning atrofida ichki qal’ani to‘rt tomondan bosib olib, uning ikki darvozasi Samarqand va Buxoro darvozasiga hujum qilib, mardlik bilan sa’yi balig‘ ko‘rsatdilar. O‘ruslarning ahvoli juda tang bo‘ldi. Qabilalar ittifoqi agar yana ikki-uch kun ittifoq va ijtimo‘ ila muhosaraga sabot ko‘rsatganda edi, g‘olib kelib, Samarqandni o‘ruslardan ozod qilgan bo‘lardilar. Ammo movarounnahrlik badbaxtlarning shuncha sa’yu harakatlari va mehnatu mashaqqatlari natijasiz anjom topdi. Buxoro sipohining Zirabuloqda mag‘lub bo‘lganlarini eshitib, birinchi bo‘lub Shahrisabz kenagaslari, keyin esa boshqa toifalar sabot va jalodat qadamlarini tortib olib, muhosaradan yuz o‘gurib, har tomonga parishon bo‘lib, parokandalikka berildilar. Qolgan lashkar besh kun muhoraba va muhosara ixtiyor etib, Kaufman Samarqanddagi o‘ruslar madadiga kelayotir degan xabar ma’lum bo‘lgandan keyingina qamalini to‘xtatib, o‘z vatanlariga qaytdilar.[6]

Ayni shu vaqtda Buxoroga qarshi yurishda bo‘lgan Kaufman Samarqanddagi rus garnizonini qamalga olinishi sabali Buxoroga hujumni tuxtatishga va qamalni bartaraf qilish uchun Samarqand devorlari ostiga qaytishga majbur bo‘lgan.[7] Voqeaga shohid bo‘lgan samarqandliklarning so‘zlariga qaraganda o‘zbeklarning birlashgan qo‘shini ko‘p jasorat ko‘rsatib, o‘ruslardan 270 tasini o‘ldirgan ekanlar. Vereshchagin ham o‘z xotiralarida bu jang ahamiyati haqida to‘xtalib “ancha odamimiz qirildi, buning ustiga qal’adan ajralishimizga sal qoldi, mobodo yengilganimizda butun O‘rta Osiyo xalqlari qo‘zg‘alib ketgan bo‘lar edi”[6] deb aytib o‘tgan. 1868-yil 2-iyunda Buxoro va Kattaqo‘rg‘on o‘rtasidagi Zirabuloq tepaliklarida rus va buxoro qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Buxoro qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi, amir Muzaffar esa Kaufmandan Rossiya shartlari asosida sulh so‘rashga majbur bo‘ldi.

[87] Chor Rossiyasi bosqinchilari safida bo‘lgan asli kafkazlik zobit. U bu vaqtda Samarqand shahriga janubi-sharqdan shaharni ozod qilish uchun kelayotgan Shahrisabz va Kitob qo‘shiniga qarshi jo‘natilgan bo‘lgan

1868-yil 23-iyunda Rossiya va Buxoro oʻrtasida imzolangan sulh shartnomasiga muvofiq amir Rossiyaning Markaziy Osiyodagi barcha qoʻlgan kiritgan erlarini tan oldi va harbiy xarajatlarni qoplash uchun 200 ming rubl tovon toʻlash majburiyatini oldi. 1868 yilgi shartnoma Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylanishini boshlab berdi.[7]

Xullas, 23-iyunda tuzilgan ushbu sulh shartnomasi 18 moddadan iborat boʻlib Buxoro amirligining amalda Rossiya imperiyasiga qaramligini huquqiy asosda mustahkamlandi. Avaz Muahhad Attor Hoʻqandiyning asrida keltirilgan dalillardan shuni anglash mumkinki Buxoro bilan ruslar oʻrtasida tuzilgan ushbu shartnoma fon Kaufman ilgari surgan shartlar boʻyicha imzolangan. Biroq Samarqand va Zarafshon vodiysida oʻrnatilgan Rossiya hokimiyatining mustahkam emasligi va amirning sulh shartlariga rioya etishiga boʻlgan ishonchsizlik fon Kaufmanni Buxoro mulklari chegaralarida alohida harbiy va siyosiy maqomga ega boʻlgan okrugni tashkil etish boʻyicha amaliy harakatlarni boshlashiga omil boʻlgan.

1868-yilda ishgʻol qilingan Buxoro mulklari va 1870-1871-yillarda Rossiya imperiyasiga qoʻshib olingan bir necha toʻgʻli bekliklaridan oʻlkaning tarkibida Zarafshon okrugi tashkil etildi. Ma'muriy jihatdan okrug ikki - Samarqand va Kattaqoʻrgʻon boʻlimlariga va markazi Panjikent shahrida Toʻgʻli tumanlar boshqarmasiga boʻlingan. Zarafshon okrugining tashkil etilishi boʻyicha dastlabki maʼlumotlarni Oʻzbekiston Milliy Arxivi 715-jamgʻarmaning “Turkiston oʻlkasining bosib olinishi tarixi uchun materiallar” nomli 37-ishida keltirilgan materiallardan ham olish mumkin. Ishda oʻlka boshligʻi fon Kaufmanning 1868 yil 24 iyunda Sirdaryo viloyati qoʻshinlari qoʻmondoniga yozgan rasmiy xati keltirilgan boʻlib, unda oʻlka boshligʻi Buxoro amirligidan yangi qoʻlga kiritilgan hududlarda Zarafshon okrugining tashkil etilishi, uni boshqarish uchun koʻp narsa qilinganligi va “muvaqqat qoidalari” ishlab chiqilganligini maʼlum qilgan edi[8].

Zarafshon vohasi bosib olinganidan soʻng, uning maʼmuriy boshqaruvini tashkil qilish bilan bogʻliq 5-boʻlim, 93 moddadan iborat huquqiy xujjat «Zarafshon okrugini boshqarish toʻgʻrisidagi muvaqqat qoidalar» ishlab chiqildi va u 1868 yil 28 iyunda general Fon Kaufman tomonidan imzolandi[9]. Maʼlumki, Turkiston general-gubernatorligini boshqarish boʻyicha bu kabi ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida harbiy vaziyat omili hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat»xususiyatga ega edi[10]. Bundan tashqari Rossiya imperiyasi hukumatining bu kabi qonunchilik hujjatlari eng avvalo Turkistonda imperiyaning mustamlakachilik mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.

«Zarafshon okrugini boshqarish toʻgʻrisidagi muvaqqat qoidalar»ning 1-moddasiga asosan Turkiston oʻlkasi uzil-kesil tashkil etilguniga qadar Buxoro amirligidan 1868-yilda qoʻlga kiritilgan yerlarda alohida Zarafshon okrugi tashkil etiladi. Zarafshon okrugi chegaralari va hududi ushbu xujjatning 2-moddasiga asosan janubda Shahrisabz togʻlari, gʻarbda Buxoro amirligi bilan chegara chizigʻi (u Kattaqoʻrgʻonning oldidan alohida xalqaro komissiya tomonidan oʻtkaziladi), shimolda Nurato togʻlari va sharqda Ilonoʻtti darasi va Qoshgʻar-Davon tizmasi

tarmog‘i bilan chegaralanadi. Sangzor vodiysi ham Zarafshon okrugi tarkibiga kiradi.[11] Muvaqqat qoidalarning 3-moddasiga asosan okrug boshlig‘i Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanishi, 4-moddaga asosan Zarafshon okrugi boshlig‘i qo‘lida unga biriktirilgan okrugdagi harbiy-xalq va harbiy boshqaruv jamlanishi belgilangan. Shu bilan bir qatorda Zarafshon okrugi harbiy-xalq boshqaruvi amaldorlari okrug boshlig‘i taqdimi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan vazifalariga tayinlanadilar va bo‘shatiladilar (7-modda).

9-moddaga asosan esa Zarafshon okrugi boshlig‘ining okrugni boshqarish joyi Samarqand shahri etib belgilangan. Xujjatning 10-moddasiga asosan Zarafshon okrugi ma’muriy munosabatlarda ikki: Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlariga bo‘linadi. Ular o‘rtasidagi chegara okrug boshlig‘i tomonidan belgilanadi. [11] Har bir bo‘limda harbiy-xalq va harbiy ishlar bo‘yicha boshqaruv bo‘lim boshliqlari qo‘lida jamlanadi (11-modda), bo‘lim boshliqlari uezd boshliqlariga teng hokimiyat va majburiyatlardan foydalanadilar. Bo‘lim hududida joylashgan qo‘shinlarga qo‘mondonlik qiladi (12-modda).Bo‘lim boshliqlarining boshqaruv joyi Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari etib belgilanadi (14-modda). Zarafshon okrugi Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan chetlatiladigan boshliq tomonidan boshqarilgan. 1868-yil 29-iyunda okrug boshlig‘i etib general-mayor A.K.Abramov tayinlangan.[12]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi bosqinchilik yurishlarida Samarqandni bosib olinishiga butun imperiya ma’muriyati doirasida alohida etibor qaratilgan. Birinchidan, bu shahar tarixdan Markaziy Osiyo uchun muhim strategik mintaqa bo‘lib xizmat qilgan. Ikkinchidan tabiiy joylashuv bu shaharning ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, Zarafshon daryosi Markaziy Osiyo xususan Buxoro amirligi sug‘orma dehqonchiligida muhim ahamiyat kasb etgan. Rossiya imperiyasi Zarafshon okrugini imperiya tasarrufiga o‘tkazish orqali janubiy hududlar (Buxoro amirligi) ga xohlagan vaqtda “bosim” o‘tkazishga vosita sifatida Zarafshon daryosidan foydalana olishi imkoniyati mavjud bo‘lgan. Uchinchidan Samarqandni Rossiya imperiyasi mulkiga aylantirish orqali Amirlikning Qo‘qon xonligi bilan “aloqalari” butunlay uzildi. Chunki Markaziy Osiyo xonliklari Rus bosqiniga qarshi birlashish ehtimoli hali ham saqlanib qolgan edi. Bundan tashqari Rossiya imperiyasining keyingi harbiy harakatlarida Samarqand okrugi imperiya tarkibiga kiradigan tayanch markazlardan biriga aylanishi maqsad qilingan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Л.Н. Соболев. Географические и статистические сведении о Зеравшанском округе. Императорскоii академш наукъ. Санкт Петербург.1874.

2. Ҳ.Зиёев. “Туркистонда Россия тажовуси ва ҳукмронлигига қарши кураш” Тошкент. Шарқ. 1998-йил.

3. O‘zRMDA 1-jamg‘arma, 34-ro‘yxat, 20 (12)-ish, 16-varaq

4. O‘zRMDA 1-jamg‘arma, 34- ro‘yxat, 20 (12)-ish, 1-2-varaqlar

5. В.Верешчагин. 1868 йилда Самарқанд. Рассом хотиралари. (“Русская старина”б 1888б № 9.) О.Абдуллаев таржимаси. “Шарқ юлдузи”. 1991. 4-сон.

# ГЛОБАЛЛАШУВНИНГ ТИЛЛАР РИВОЖИГА ТАЪСИРИ

**Бозоров Мустафо Жабборович**
Фалсафа фанлари номзоди, доцент. Самарқанд давлат чет тиллар интитути,
Гуманитар фанлар ва ахборот технологиялар кафедраси
**e-mail:** martaba.m@rambler.ru

**Аннотация**. Ҳозирги даврдаги глобаллашув ҳодисаси инсоният цивилизацияси ривожланишининг асосий хусусиятларини белгилайди. У ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига ва жумладан тил маконига ҳам таъсир қилади. Тилнинг глобаллашуви жараёнида ягона глобал тил тизими пайдо бўлмоқда. Глобаллашув даврида жаҳон тиллари минтақавий озчилик тилларидан кўра муҳимроқ бўлиб қолди. Бу глобаллашувнинг умумий тенденцияси билан боғлиқдир.

**Аннотация**. В современных условиях феномен глобализации определяет основные черты развития человеческой цивилизации. Оно затрагивает все сферы общественной жизни, в том числе и язык. В ходе глобализации языка появляется единая глобальная языковая система. В эпоху глобализации мировые языки стали важнее языков региональных меньшинств. Это связано с общей тенденцией глобализации.

**Annotation**. In modern conditions, the phenomenon of globalization determines the main features of the development of human civilization. It affects all spheres of public life, including language. In the course of language globalization, a single global language system emerges. In the era of globalization, world languages have become more important than the languages of regional minorities. This is due to the general trend of globalization.

**Калит сўзлар.** Глобаллашув, цивилизация, тил, коммуникация, макон, тафаккур, тил фалсафаси.

**Ключевые слова.** Глобализация, цивилизация, язык, коммуникация, пространство, мышление, философия языка.

**Keywords**. Globalization, civilization, language, communication, space, thinking, philosophy of language.

Бугунги кунда глобаллашув дунёда содир бўлаётган энг муҳим жараёнлардан биридир. Глобаллашув ҳодисаси инсоният цивилизацияси ривожланишининг асосий хусусиятларини белгиловчи энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Глобаллашув ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига таъсир қилганлиги ва жамият ҳаёти билан боғлиқ бўлганлиги учун ҳозирги даврнинг асосий муаммолари сирасига киради. Глобаллашув - бу турли мамлакатлар ва маданиятларни ягона ҳамжамиятга бирлаштирадиган жараёндир.

Глобаллашув халқаро алоқалар ва ахборот алмашинувининг кучайишига олиб келади, бу эса тил соҳасидаги ўзгаришларга сабаб бўлади. Тилнинг вужудга келиши инсон ҳаётининг маҳсулидир. Шунинг учун бутун

инсониятни қамраб олган глобаллашув муаммоси умуман жамият ва ҳар бир шахсни қамраб оладиган лингвистик маконга таъсир қилади.

Тил ҳар бир шахснинг тафаккурини ифода этиш, дунёни билиш ва дунё ҳақидаги билимларни етказиш усулидир. Шунинг учун тил инсон фаолиятининг жуда муҳим соҳасидир. Чунки у ёки бу тил ҳамжамиятининг бутун тафаккури, маданияти тил орқали узатилиши мумкин. Айнан шунинг учун тилларни ўрганиш ва сақлаб қолиш, бу демак, жамоалар, уларнинг тарихи ва маданияти хилма-хиллигини тадқиқ қилиш ва асрашни англатади.[1;352]. Тилнинг глобаллашуви - бу тил тизимининг барча шакллари ягона глобал тил тизимига айланадиган жараёндир. Глобаллашув даврида ривожланаётган тил, албатта, бошқа тилларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга бўлади. У кўп функцияли бўлиб, инсон фаолиятининг турли соҳаларига хизмат қилади. Глобаллашув даврида жаҳон тиллари минтақавий озчилик тилларидан кўра муҳимроқ бўлиб қолди. Одамлар бутун дунё бўйлаб бир-бирлари билан тил тўсиқларисиз мулоқот қилишни истайдилар, аммо халқаро алоқа тилларини билмасдан бунга эришиш мумкин эмас. Миллати, яшаш жойи, мутахассислиги ва бошқа фарқларидан қатъий назар, ҳар бир киши мулоқот ва билиш тилини танлашда эркиндир. Бундай шароитда халқаро жаҳон тиллари бошқа тилларга нисбатан шубҳасиз устунликка эга эканлиги аён бўлади. Чунки улар дунё, объектив воқелик ва биринчи навбатда жамият, табиат, фан, техника ва технологиялар, ахлоқ, маънавият ҳақидаги билимларнинг бутун мажмуасини ва фалсафани тўлиқроқ акс эттирадилар.[2; 2]. Ҳозирги даврда тил соҳасидаги глобаллашув жараёни деярли фақат инглиз тилининг тарқалиши билан боғлиқдир. Ҳозирги даврда тил соҳасидаги глобаллашув жараёни деярли фақат инглиз тилининг тарқалиши билан боғлиқ. Унинг халқаро роли бошқа тиллардан анча устундир.[3;7]. Инглиз тилининг ривожланиши глобаллашув жараёнининг тақозоси ҳисобланади. Жаҳон иқтисодиётида интеграциялашув жараёнларини чуқурлаштириш, жаҳон ҳамжамияти билан мулоқот ва маданий қадриятларга киришни таъминлаш умумэътироф этилган халқаро тил бўлган инглиз тилининг глобал тарқалиши ва функционал қудратини кўтариш билан бирга амал ошади.[4; 371].

Бир томондан, тилнинг глобаллашуви муқаррар, чунки жамиятда яшовчи шахсни у ёки бу тарзда тушуниш учун ушбу жамиятдаги лингвистик ифодага мўлжал олади. Бошқа томондан, тилнинг глобаллашуви зарурият, чунки у ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий жараёнлар билан боғлиқдир. Тилларда ўзлаштирилган сўзларнинг сони лингвистик глобаллашувнинг муҳим белгисидир. Бундай сўзлар жуда кўп ва ҳар йили уларнинг тиллардаги улуши ўсиб бормоқда. Тиллар ўртасида янги сўзларни олиш муаммоси жуда долзарб ва ўрганиш учун қизиқарли, чунки ўзлаштириш уларнинг ривожланишидаги энг муҳим омиллардан биридир.

Тил ўрганиш объекти сифатида муҳим аҳамиятга эга. Унинг жамиятдаги алоҳида мавқеини тушуниш зарур. Бу шунинг учун зарурки, инсониятнинг тилсиз яшашини тасаввур қилиш мумкин эмас. Ҳамма жамиятларда тил

инсониятнинг энг муҳим алоқа воситаси бўлиб келган ва келгусида ҳам шундай бўлиб қолади. Инсоннинг ҳайвонот оламидан фарқи, унинг тилга эгалиги билан белгиланади. Шунингдек, ҳамма даврларда халқ ва миллатлар ўз тилларини сақлаб қолиш ва уни бойитишга ҳаракат қилганлар. Ҳозирги шароитда тилнинг инсоният ҳаётидаги ўрни ва роли йилдан-йилга ортиб бораётганига шубҳа йўқ. Тил аста-секин инсон ҳаётининг асосий воситасига айланиб бормоқда. Тил инсоннинг саводхонлиги, малакаси, мантиқий фикрлаш кучи ва бошқаларни ўз нуқтаи назарининг тўғрилиги ва афзаллигига ишонтириш қобилиятини белгилайди.

Глобаллашувга хос хусусиятлардан бири шундан иборатки, у туфайли вужудга келган янги шароитда барча тиллар инсониятнинг умумий меросига айланади. Тилни мукаммал ўрганган ва уни дунёни англаш воситасига айлантирган ҳар бир кишига у самарали хизмат қилади. Глобаллашув тиллар ўртасидаги сиёсий, мафкуравий ва бошқа тўсиқларни йўқ қилди. Тил инсоният олдида ўзининг бутун хилма-хиллиги билан намоён бўлади. Канадалик маданиятшунос ва файласуф Маршалл Маклюэн глобаллашув, албатта, маданий интеграцияни келтириб чиқариши ва миллий тиллар, маданиятларга таъсир қилиш учун кучли воситага айланишини башорат қилган эди. [5; 124].

Баъзи тилларнинг барқарор бўлиши ва бошқаларининг йўқ бўлиб кетиши табиий жараёндир. Бироқ, бирон бир тилга устунлик беришга сунъий мойиллик ва бошқа тилларни рад этиш тил хилма-хиллиги вазиятининг йўқолиши ва натижада тилни танлашда мураккаб ҳолатни келтириб чиқаради. Бироқ, баъзи тилларнинг глобаллашуви кўплаб бошқа тиллар ўз мавқеини йўқотишига олиб келиши мумкин. Бу жараённинг тарихий сабаблари, албатта, турли даврларда турлича бўлган. Агар инсоният мавжудлигининг дастлабки босқичларида моддий жиҳатдан ифодаланган омиллар катта рол ўйнаган бўлса, эндиликда эса номоддий характердаги биринчи омил - глобаллашувнинг умумий тенденцияси кучи ҳисобланади.

Тилнинг йўқ бўлиб кетиши муаммоси замонавий дунёда долзарб ҳисобланади. Айрим тиллардан фойдаланмаслик жараёни аввал ҳам кузатилган, аммо глобаллашув уни янада кучайтиради. Шу билан бирга, тадқиқотчилар баъзи тилларнинг йўқ бўлиб кетиши мунтазам ва табиий жараён эканлигини ва йўқолиб кетиш хавфи остида турган тилларнинг амал қилишини сақлаб қолиш, шунингдек уларни қайд этиб бориш муҳим эканлигини таъкидламоқдалар. Ҳар бир тилнинг йўқолиши билан дунёга бошқача қараш, фикрлаш, билиш, мавжуд бўлиш ва ҳаракат қилиш учун яна бир имконият йўқолади.

Глобаллашув билан боғлиқ ҳолда дунё халқлари тиллари динамикасида сезиларли ўзгаришлар юз бермоқда. Халқ тили унинг миллий маданиятининг энг муҳим таркибий қисми бўлиб, у этнос шаклланиши билан бирга шаклланади. Бу эса унинг мавжудлиги шартидир. Шунинг учун, глобаллашув давридаги муаммоларни ўзини маданий намоён қилишнинг асосий воситаси – тилни ҳисобга олмасдан туриб ҳал қилиб бўлмайди. [6; 71]. Бу ҳодиса ҳақда тил фалсафаси тадқиқотчиси, профессор Қ.Хоназаров “Глобаллашув – мавжуд

тилларга зарар етказишни ўз олдига умуман мақсад қилиб қўймайдиган объектив жараёндир. Бироқ у ўзининг тезлашиши ва кенгайиши билан тиллар тагидаги пойдеворга путур етказади, минглаб тиллар, энг аввало, кичик миллатлар, элатларнинг тиллари таянган асосни йўқотиб юборади, - деган фикрни билдирган. [7.]

Тил алоқа воситаси сифатида анъанавий равишда бутун жамият ҳолатининг асосий кўрсаткичларидан бири ҳисобланади, шунинг учун ижтимоий муносабатларнинг ҳар қандай ўзгариши биринчи навбатда мамлакатнинг лингвистик муҳитида ўзини намоён қилади. Халқ тили миллий маданиятнинг энг муҳим таркибий қисми бўлиб, у этник гуруҳнинг шаклланиши билан боғлиқ ва мавжудлик шартидир.

Тил тараққиёти фалсафа категорияси бўлиб, у билан келажакни башорат қилиш, эртага тил ва дунё билан нима бўлишини тушуниш мумкин бўлади. Тил ва тафаккур муносабатлари муаммоси фалсафанинг энг мураккаб ва долзарб масалаларидан биридир .

Муаммонинг мураккаблиги тафаккурнинг ҳам, тилнинг ҳам табиати мураккаблиги ва қарама-қаршилигидан келиб чиқади. Тафаккур ва тил инсоннинг зарурий атрибутлари бўлиб, улар ижтимоий ва биологик хусусиятларни бирлаштиради. Ҳар бир тил маданият билан узвий боғлиқдир.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, жамиятсиз тил бўлмаганидек, тилсиз жамият ҳам бўлиши мумкин эмас. Жамиятнинг пайдо бўлиши ва тадрижий ривожланиши тил феномени билан узвий боғлиқдир. Бу боғлиқлик жамият ривожланишининг ҳар бир босқичида ўзига хос тарзда намоён бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Некипелова И.М. Глобализация языка: неизбежность или необходимость?// Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, №3(47), 2015 ▪ www.sisp.nkras.ru.
2. Ханазаров К. Глобализация и перспективы языков. «Звезда Востока», 2010.
3.Алпатов В.М.Языковой аспект глобализации.//Язык в глобальном контексте: современная языковая ситуация как следствие процесса глобализации. 2018. № 2018.
4.Байтукаева А.Ш., Каутбаева С.Д. Глобализация и глобальный язык.//Вестник КазНУ. Серия международные отношени и медународное право. №2(70) 2015.
5. Бессарабова И.С. Глобализация в современном мире. – СПб.: Библиотека, 2003.
6.Болышева Н.Н. Развитие языка в условиях глобализации: социально-философский аспект.: Дисс. ... канд. филос. наук. Красноярск, 2006.
7.http://mytashkent.uz/2010/12/09/globalizatsiya-i-perspektivyi-yazyikov/

# ЖАМИЯТНИ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛТИРИШГА ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ЎРНИГА ОИД БАЪЗИ МАСАЛАЛАР

**Л.Ў.Жамолов**
**О.Т.Турғунбоев**
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети «Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси»

**Резюме:** Мазкур мақолада , бугунги кунда долзарб масалаларидан бири сифатида янги Ўзбекистонда маънавий етук ҳар томонлама баркамол авлодни шакллантириб, олдимизга қўйган улуғвор мақсадларга эришишда ҳал қилувчи омил сифатида ва бу жиҳатларни шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрнига оид баъзи масалаларга эътибор қаратилди.

**Калит сўзлар**: маънавий баркамол шахс, фалсафа, бадиий адабиёт, ватан тарихи, иқтисодий тараққиёт, маънавий –маърифий омиллар. Ҳуқуқий ва сиёсий маънавият, юрт тақдирига дахлдорлик, янги таҳрирдаги кадрлар тайёрлаш илмий дастури.

Бугунги кунда янгиланган Ўзбекистоннинг иқтисодий тараққиёти ижтимоий- сиёсий ва маънавий-маърифий тараққиёт билан узвий алоқададир. Бошқача айтганда иқтисодий тараққиёт осмондан мужиза бўлиб тушадиган нарса эмас, уни Ўзбекистон халқининг ўзи амалга оширади. Яъни халқнинг маънавий-маърифий савияси, умуммаданий салоҳияти қанчалик баланд бўлса, иқтисодий тараққиёт ҳам шунча тезлашиб “эркин, фаровон ҳаётни таъминлашга шарт-шароит яратилади”шунинг учун ҳар бир фуқаро, аҳолининг ҳамма қатлами буни яхши англаб етиши лозим . “Президентимиз Ш.М.Мирзиёев такидлаганларидек” Ўзбекистоннинг янги уйғониш даврини яратишга киришган эканмиз, ҳар бир-бир юртдошимизнинг қалби ва онгида ана шундай маънавият шуъласи порлаши ва у бизни эзгу ишларга ундаб юксак масъулият туйғуси билан яшашга даъват этиб туриши зарур.

Бугунги кунда юртимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳиатлар самараси уларни халқимизнинг дунёқараши, ҳуқуқий ва сиёсий маданияти изчил юксалиб бормоқда. Дарҳақиқат умумий нуктаи-назардан қарайдиган бўлсак,бугун аҳолимизнинг фикрлаши, атрофда содир бўлаётган воқеаларга муносабати тубдан ўзгариб бормоқда. Шундай экан , биз биринчи навбатда аҳолининг катта қатламини ташкил қилаётган ёш авлоднинг таълим-тарбияси, уларнинг жамиятда қандай ўрин эгаллашига этибор қаратиб, авлодлар алмашинувида бирон-бир камчиликка йўл қўйилишига имкон бермаслигимиз лозимдир. Бугунги кунда – юртимизда дунёни янгича идрок этадиган, ўз тақдирини халқи, Ватани тақдири билан бир деб билиб фаолият кўрсатадиган янги баркамол авлодни шакллантиришдек муҳим вазифа олдимизда турибди.

Шунинг учун ҳам ҳозирги давр талабидан келиб чиқиб “янги таҳрирдаги кадрлар тайёрлаш илмий дастури қабул қилиниб, у изчил амалга оширилмоқда,

яъни ёш авлодга аждодларимизнинг доно тажрибаларини сингдириш, инсоний фазилатларни шакллантириш ва ривожлантириш, миллат олдидаги бурч ва масъулиятни ҳис қилиш ва шу асосда бугунги кун талабига жавоб берадиган юксак маънавияти, билимдон инсонларни тарбиялаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади

Бу ҳақда 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Мамлакатимизда маънавий тарбия тизимининг “янги стратегиясининг яратиб халқимиз айниқса, ёшлар ўртасида маънавий – маърифий ишларни сифат ва мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтаришимиз керак дейилган.

Бугунги бозор иқтисодиёти ёшлар тарбиясига ўз таъсирини ўтказмасдан иложи йўқ лекин бунга теранроқ назар солсак бозор иқтисодиёти барчани эмас балки маънавияти паст одам тез бузади. Маънавияти юксак киши бу шароитда ҳам инсоний фазилатларини йўқотмайди бошқача айтганимизда бозор иқтисоди, инсонларни саралайди ниқобларни йиртади, сохта маънавияти бозорга олиб чиқувчиларни четга чиқариб қўяди. Бу эса маънавий тарбиянинг мухимлигини яна ҳам ўткирроқ қилиб қўяди. Ҳозир аксари ёшларимиз иқтисодий, ҳуқуқий билимларни ўрганишига берилганлар албатта бу яхши лекин шу билан бирга тарих, она тили, адабиёт, санъатни ҳам севиб ўрганиши лозим. Ёшлар маънавий дунёсини кенгайтиришда мусиқа, театр ва бадиий адабиётларнинг роли бениҳоя катта айниқса бу масала шаҳсан Президентимиз алоҳида эътибор қаратиб бир неча йилдан буён беш ташаббус доирасида ёш китобхон кўрик танловлар ўтказилиб келаётганлиги бежиз эмас, чунки бадий адабиёт ҳиссиётларни тарбиялайди кўнгил мулкини обод қилади, тафаккур бойлигини улғайтиради. Демак бугунги талаба, ёшлардан талаб қилинадиган нарсалар борки бу касбий билишдан ташқари, инсоний сифатлар дейилади бунга ватанпарварлик, миллатпарварлик, фидойилик, ҳалоллик, ростгўйлик адолат ва ҳақиқатни севиш ана шундай сифатлардир.

Умумий ўрта ва олий ўқув юртларида бу сифатларни шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларни ўрни катта деб ҳисоблаймиз. Бундан бир неча йил олдин барча олий-муассасаларда маънавият асослари, маданиятшунослик фанлари махсус курс сифатида ўтиларди нимагадир кийинги йилларда бу курслар ўқув режаларидан олинди, бизнингча мутахассислигидан қатъий назар бу фанлар ҳам махсус курс сифатида ўтилиши лозим, юқорида айтганимиздек бадиий адабиётни ўрни алоҳида аҳамиятга эга шундан келиб чиқиб олийгохнинг ўзбек тили ва адабиёти кафедраларида талабаларни бадиий адабиётга алоҳида эътибор қаратиб йўналтириш лозим. Маънавий тарбия ёшларда инсонийлик хусусиятларини тарбиялаш жараёнидир, ана шу тарбия воситаси кишилик жамияти томонидан яратилган моддий ва маънавий қадриятларни кишилар онгига етказиш, ёшларни қадриятларни аниқлаш,уларни ардоқлаш рухида тарбиялашдир. Бу ҳақда Президентимиз Ш.Мирзиёев Ўзбекистон стратегияси китобида шундай деган эди. Неча юз йиллар давомида шаклланган асл инсоний қадриятларимиз ўрнини бузғунчи ғоялар эгаллаб

олишга йўл қўймаслигимиз зарур дийилади. Дарҳақиқат бугунги кунда оммавий маданият ниқоби остида бизнинг миллий қадриятларимизга ёд бўлган ҳолатлар кириб келмоқда. Одамийлик нуқтаи назарида кўпгина одатлар масалан ота-она, қариндош уруғларни ҳурмат қилмаслик, жамоат транспортларда юрганда катталарга болали аёлларга жой бермаслик, кўполлик бетгачопарлик ахлоқсизлик, уят эканлигини билган холда ҳамма вақт ҳам ана шундай салбий ҳолатларни кўринишлари намоён бўлаётган бугунги кунда замон талабларига жавоб берадиган ахлоқий идеалларни шакллантиришдек машаққатли жараён кечаётган бир даврда маънавиятимиз, маданиятимиз қадриятларимиз ва урф одатларимиз қаторида фаровон турмуш-тарзимизни муҳофаза қилишимиз жамиятимизни турли таҳдидлардан муносиб ҳимоя қилишимиз барчамиздан бирдек талаб этилади. Ёш авлод ўртасида жиноятчилик ва бошқа нохуш ҳодисалар келиб чиқишнинг олдини олиш чора-тадбирларини янада кенгайтириш, уларда замонавий интелликтуал тизим ва салоҳиятни кучайтириш долзарб бўлиб ҳисобланмоқда.

Ахборотлашган жамиятда турли таҳдидларнинг бўлиши муқаррардир. Бу эса кундан-кунга кенг қамровли бўлиб бормоқда. Қачонки ёш авлод, халқимиз маънавият ва бир сўз билан айтганда тарбиянинг бош мезон омиллари ва таркибий қисми ҳисобланган ўзларининг миллий маданияти, урф-одат, қадрият ва анъаналари, тили, дини ва миллийлиги ҳамда ўзлигини англасагини соғлом тафаккур ҳукмрон бўлган фаровон жамият яратишимиз мумкин. Жамиятимиздаги барча фуқароларнинг тинч-тотув, фаровон хаёт кечириши ва маънавий етук бўлиши учун доимий нафақат уюшган қатлами билан эмас, балки уюшмаган қисми ўртасида ҳам тарғибот ва тушунтириш ишларини олиб бориш зарурдир.

Бугунги давр миллатимиз келажаги бўлган ёшлар олига қатор вазифаларни қўйяпти.

Биринчидан, ёшлар мустаҳкам ирода, мустақил ҳар-хил таъсирларга берилувчан бўлса, у ўз йўлини осонгина йўқотиб қўйиши мумкин. Мустақил фикр бўлмаса, ёшларнинг жамиятни янгиловчи куч экани қуруқ гап бўлиб қолади.

Иккинчидан ёшларнинг ҳар томонлама билимли бўлишлари керак, негаки, бугунги дунёда билимсиз бўлиш ҳалокат билан тенг. Президентимизнинг ёшларимизга миллат келажаги сифатида қараётганлигининг боиси ҳам шунда.

Учинчидан эса аниқ ва пухта тафаккурга эга бўлишлари шарт. Бу тафаккур замирида миллат, маданият, тарих ва келажак мужассам бўлиши лозим. Илғор билимларга эга бўлиши, компъютер техникаси-ю, хорижий тилларни мукаммал ва айни пайтда ўз миллий қадриятларимизни хам асрай билишимиз шарт. Бу эса ўз навбатида мустақиллигимизнинг аҳамиятини теран англашимизга, ёшларимизни миллий истиқбол ғоялари руҳида тарбиялашимизда жуда асқотади.

Тўртинчидан юқорида қайд этилган барча жиҳатларни ёшлар онгида шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Шу боис адабиёт, фалсафа, ватан тарихи, маънавият асослари, диншунослик фанларининг имкониятларидан мумкин қадар кенг фойдаланишимиз лозим.

Хулоса қилганимизда маънавий етук ҳар томонлама камолотга етган ёшларни тарбиялаш ҳозирги вақтда жамиятимиз олдида турган долзарб вазифалардан бўлиб ҳисобланар экан, асосий вазифа замонавий билим асосларини пухта ўзлаштириб, Ватанимиз равнақи учун хизмат қилишдан иборатдир. Олган билимларини мамлакатимизнинг иқтисодий маънавий маданий тараққиёти йўлида астойдил сарф қилиш асосий бурч бўлмоғи лозим.

# BO‘LG‘USI VETERINAR MUTAXASSISLARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY-MA’NAVIY MEROS VA TARIXIY QADRIYATLARNING O‘RNI

**Sa’dullayev Sanjar**
**Fayzullayev Umidjon Rahmatullayevich**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lg‘usi veterinar mutaxassislarini milliy-ma’naviy meros va tarixiy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashda ularda ijobiy fazilatlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Shuningdek, maqolada milliy-ma’naviy meros va tarixiy qadriyatlar tushunchalari mazmuni, ularning mohiyati borasidagi ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy meros, tarixiy qadriyat, ma’naviy tafakkur, odob-axloq, meyor, munosabat, mahalla, jamoatchilik hamkorligi, axloqiy kamolot, halollik, iymon, vijdon, ma’naviy xislatlar.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”ning 4-moddasi(Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar)da “Ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi va ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati” haqida alohida ta’kidlangan. Demak ta’lim-tarbiyaning barcha bo‘g‘inlarida ushbu prinsiplarga qat’iy amal qilinishi lozim.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ta’lim-tarbiya tizimida ham zaruriy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bunda axloqiy tarbiya alohida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasida bo‘limi - Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar 1.5. bandida (Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash) “Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish” bizni oldimizdagi dolzarb vazifadir.

Ushbu vazifalarni bajarishda biz “kichik” Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy tarbiyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bu borada qanday

muammolar mavjud boʻladi? Taʼlim-tarbiya tizimida ham zaruriy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bunda axloqiy tarbiya alohida oʻziga xos oʻrin egallaydi.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan taʼlim-tarbiya tizimini yangicha koʻrinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qoʻllash orqali taʼlim samaradorligiga erishish davr talabidir. Boʻlajak veterinariya mutaxassisi oʻz hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda oʻz oʻrnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi oʻz sohasi, kasbi boʻyicha raqobatbardosh boʻlishini taʼminlashda asosan, pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uygʻunlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda milliy-maʼnaviy meros, milliy anʼana va urf-odatlar, islom dini va hadisshunos allomalarimizning hadis gʻoyalari asosida yoshlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash masalalari yetakchi oʻrinni egallaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, talabalarni oliygohga qadam qoʻyishidan boshlab turli xil yot gʻoyalardan uzoqlashtirish maqsadida milliy mentalitetimizga xos boʻlgan sharqona urf-odat va anʼanalarimizni chuqur anglash va ularga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik olimlardan atoqli pedagog va adib A.S. Makarenkoning “oʻnta yuqori malakali, oʻz holicha ishlaydigan oʻqituvchidan malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta oʻqituvchi afzal” degan fikrini unutmaslik kerak. Shu boisdan boʻlajak mutaxassislarni oʻqitish jarayonida milliy maʼnaviy merosga tayanish, xalqimizning maʼrifatparvarlik, bagʻrikenglik, mehmondoʻstlik kabi anʼanalari, andishalilik, insoflilik, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur oʻrganish va ularni talabalar qalbiga singdirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan.

Vatanimiz olimlaridan buyuk bobokalonlarimiz boʻlgan Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziy va Al-Hakim at-Termiziy kabi muhaddis olimlarning hamda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning ilmiy asarlarida insonning maʼnaviy-axloqiy, tarbiyaviy qarashlariga oid jihatlaridan yosh avlod maʼnaviy tarbiyasiga tatbiq qilishning pedagogik yechimlarini asoslash, qomusiy olimlar ilmiy merosidan, ayniqsa, xulq, odob-axloqni taʼminlashga xizmat qiladigan kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarning maʼnaviy-axloqiy jihatlariga ilmiy izlanishlarni keng qamrovli amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliygohlarimizda tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlar oʻziga xos maʼlum bir funksiyalarni bajaradi. Axloqiy tarbiya usullari yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

- talabalarga moʻljallangan
- ularning hayotiy faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- ularning axloqiy tajribasi boyib boradi.

Bunda hech qanday usul universal deb hisoblanmaydi. Tarbiya jarayonida pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarining kombinatsiyasini talab qiladigan vaziyatlar yuzaga keladi, ular yoshi, individualligi, alohida talabaning, butun guruhning tarbiya darajasini hisobga oladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bevosita qadriyat, axloq tushunchalari bilan bog‘liq ekan, qadriyat tushunchasining mazmun mohiyatini aniqlashtiramiz. Vatanimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qadriyat tushunchasining mazmunini yoritishda turlicha yondashilgan. Jumladan, “Ma’naviyatsiz buyuk kelejak yo‘q, chunki uni robotlar emas, insonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo ‘lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo‘ladi . Eng katta boylik – insonlar ruhiyatida yashirin”[3,13.]

Ziyoli ma’naviyatli insondir. Shu nuqtai nazardan har qanday kasb egasi, barcha toifa vakillari ziyoli bo ‘lishi mumkin. Hatto xat-savodi bor-yo‘qligi ham muhim emas. Ba’zan oddiy dehqon uchun ma’lum bo ‘lgan sir-sinoat, oliy ma’lumotli agronom tasavvuridan tashqari bo‘ladi[3,317.] Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish asosida ularda bir qator sifatlar namoyon bo‘ladi. Ular: o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘ziga doimo tanqidiy qarash, kamchiliklarni o‘zidan qidirish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, hamma joyda aniq ishlarni vijdonan bajarish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, bunda kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash, axloqiy tarbiyalanganligini, bilimlarni yaxshi egallaganligi, axloqiy tuyg‘ularning rivojlanganligi, maqsadga intilish, dovyuraklik va hal qiluvchanlik, mustaqil fikrga ega bo‘lish, talabchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o‘z-o‘zini idora qilish va tuta bilish tashkil etadi.

Dars mashg‘ulotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini xalqimizning necha ming yillik tarixida ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy-ma’naviy meroslar, an’ana va urf-odatlari, Islom dini va hadisshunos allomalarimizning ta’limiy-tarbiyaviy g‘oyalari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu usullar axloqiy tarbiya negizini tashkil etib, talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirishda xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz joizki, biz yuqorida tahlil qilgan vaziyatlarda talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz, bugungi avlod e’tiqodi, ishonchiga, hayot ma’nosiga asos bo‘lib kelayotgan islom dini manbalaridan, o‘z hayoti, ilmi, asarlari, tajribasi bilan el-u xalqqa namuna bo‘lib kelayotgan keksalar, mehnat faxriylari, din vakillari, serfarzand, serdavlat ota-onalar o‘gitlari, namunasidan unumli, o‘rinli foydalanishimiz lozim.

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida [Электрон ресурс] https://lex/uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12. 2019 yildagi 1059-son Qarori “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. [Электрон ресурс] https://lex.uz/ru/docs/4320700

# YANGI DAVRDA SAMARQAND SHAHRI MUQADDAS QADAMJOLARI QIYOFASINING O‘ZGARISHI VA ULARNING TASNIFI

**Tursunov Javlon Akrom o‘g‘li**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Samarqand hududida joylashgan muqaddas qadamjolarninng bugungi kundagi qiyofasi va ularning taarixi rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** qadamjo, Samarqand, an-Nasafiy as-Samarqandiy, «Tajribanoma», arxeologiya, “Xazrati Hizr”, “Ruhobod” ziyoratgohi, “Imom Moturidiy” ziyoratgohi.

Bugun mamlakatimiz hududlari tarixini o‘rganish, jumladan Samarqand tarixini har tomonlama chuqur tahlil qilish yangi bosqichga ko‘tarildi. So‘nggi yillarda Samarqand hududi tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning mavzu va mazmuni, uning davriy chegarasi bilan bog‘liq xususiyatlari bir necha yo‘nalishga boyidi. Mamlakatimizda ilmiy tadqiqot olib borish uchun xususan, tarix fanida ilmiy tadqiqot olib borish uchun yaratilgan sharoitlarning yaxshilanishi natijasida tadqiqotlarning ko‘lami kengaydi. O‘zbekiston tarixining eng qadimiy ajralmas qismlaridan biri hisoblangan Samarqand zamini hamisha tadqiqotchilar va sayyohlarning etiborini o‘ziga qaratib keladi. Ushbu zaminda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan juda katta tarixiy meros bilan har qancha faxrlanishga arzigulikdir. Samarqand hududi ham ana shu buyuk tarix shodasida avlodlar ardog‘iga munosib madaniy manzillari, bebaho tarixiy maskanlari bilan eng munosib o‘ringa daxldor.

Tarixiy hududda joylashgan mao‘lum bir hududni, mamlakatlar va mamlakatlar guruhini: uning aholisi, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va siyosati, fan va madaniyati, dini, tili va adabiyoti, ano‘analari va qadriyatlarini yaxlit tarzda o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ma’lum bir hududda yashovchi, tarixiy makonda umumiy madaniy birlikka ega bo‘lgan, dunyoda yuz berayotgan jarayonlarda taraqqiyotining o‘ziga xosligi va mavjudligini anglagan xalq va xalqlarni o‘rganishni nazarda tutadi.

Bugungi kunga qadar Samarqandning muqaddas qadamjolari tarixiga bag‘ishlangan bir qator tarixiy manbalar mmavjud hisoblanadi. Masalan, Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy as-Samarqandiyning «Kitob al-qand fi tarix Samarqand» nomli asari yetib kelmagan, faqatgina bir necha nusxada uning fors-tojikcha qisqartmasi yetib kelgan. Shuning uchun ham bu qisqartma asar muhim ilmiy ahamiyatga ega. «Qandiyayi xo‘rd» ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Samarqand tarixi va undagi mozorlar tasvirlangan. Bu qismda muallif foydalangan manbalar («Tarixi Samarqand», «Bayon al-maorif», «Tajribanoma», «Tavorixi Samarqand», «Qissai nishopuriyon») eslatiladi. Keyin «Zikri pironi Hindiston» («Hindiston pirlarini eslash») degan bob boshlanib, foydalanilgan manbalar ko‘rsatiladi. Qisqartmaning mazmuniga qarab, islomgacha bo‘lgan yarim afsona ma’lumotlar, arab istilosi va unga qarshi kurash, Samarqandning qurilishi,

sug‘orish tizimi va sug‘oriladigan yerlardan olinadigan soliqlarni bilib olish mumkin. Asarda Samarqand va uning atrofida yashagan aziz-avliyolarning tarjimai holi, Samarqand mozorlari va ularni ziyorat qilish yo‘llarining bayoniga ham ancha o‘rin berilgan. «Qandiyayi xo‘rd»ning qimmati yana shundaki, unda Samarqand va uning atrofidagi yerlarning kariyb 1000 yil ilgarigi sug‘orish tizimi haqida mao‘lumotlar, Samarqand mozorlari tavsif etilayotgan qismida esa Samarqand atrofidagi qishloqlarning boshqa asarlarda uchramaydigan nomlari keltirilgan. Samarqand chindan ham dunyoning yirik madaniyat, ma’rifat, siyosiy muloqotlar markaziga aylanmoqda. Tabiiyki, bu yerga keluvchi siyosiy arboblar, olimu ulamolar, sayyohlar har qachongidan ko‘paygan. Eng muhimi, ular boradigan manzillar bugun faqat Registon va Shohi Zinda, Amir Temur maqbarasi va Hazrati Xizr masjidi, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy majmualaridan iborat emas, o‘nlab, balki yuzlab obyektlar bor.

Bugungi kunda, yer yuzining sayqali va hamisha navqiron deb e’tirof etilayotgan Samarqand shahri va viloyat hududlarida o‘ziga xos turistik resurslar, moddiymadaniy meros obyektlari mavjud. Statistik mao‘lumotlar bo‘yicha xozirgi vaqtda Samarqand viloyatida 1626 ta moddiy-madaniy meros resurslari, yao‘ni arxeologiya, arxitektura, monumental sano‘at yodgorliklari hamda diqqatga sazovor joylar mavjud. 2017-yildan keyin viloyatdagi muqaddas qadamjolarga bo‘lgan e’tibor yayanada ortib ularning ko‘rinishlarida tarixiyliik va zamonaviylik kasb eta boshladi. Samarqandni aziz, muqaddas avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo‘nim topgan joy tarzida e’zozlashadi. Xalqimiz din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarini ziyorat etish, o‘tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi. Samarqandda ziyorat turizmini rivojlantirish resurslari, ya’ni “Imom Buxoriy” majmuasi, “Shohi Zinda” yodgorlik majmuasi, “Xazrati Hizr”, “Ruxobod” ziyoratgohi, “Imom Moturidiy” ziyoratgohi, “Xoja Doniyor” majmuasi, “Amir Temur” maqbarasi, “Xoja Ahror Valiy” ziyoratgohi, “Imom Dorimiy” ziyoratgohi, "Maxdumi A’zam" ziyoratgohi, “Hazrati Dovud” ziyoratgohi, “Abdulla Ansoriy” ziyoratgohi, “Xo‘ja Xofiz Merosiy” ziyoratgohi, “Shayx Said Nuriddin hoji” ziyoratgohi, “Sog‘ish ota” (Sog‘arjiy) ziyoratgohi, “Chor-chinor” ziyoratgohi va boshqa ko‘plab ziyoratgohlar qiyofasi tubdan o‘zgardi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan “Buyuk olim Abu Mansur Moturidiy maqbarasi va uning yaqinida dafn etilgan 8 buyuk ulamo qadamjosini dunyoda 170 milliondan ziyod izdoshi bo‘lgan moturidiya ta’limotining ziyorat markaziga aylantirish boshlab yuborildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бектурдиев Ш.Қ., Шодиев Э.Т., Қаюмова М. Зарафшон воҳасидаги жой номлари. Ўқув қўлланма. – Гулистон: ГулДУ, 2011. 72 б.

2. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлар. – Т, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240.

3. Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси, СамДЧТИ нашри, 2015й. 156.

# TURKISTON O‘LKASIDA VAQF MULKLARINING HOLATI (F.K.GIRSNING TAFTISH XULOSALARI ASOSIDA)

**B.G‘. Rasulov**
rasulovbaxtiyor219@gmail.com
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim va gumanitar fanlar fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligi davrida vaqf munosabatlari sohasida olib borilgan islohatlar haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Vaqf, Vaqfnoma, 1867-yil, 1886-yil, F.K.Girs, Aleksandr, Xayriya, 1882-yil, Saidlar, Xo‘jalar, Qirm.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о реформах, проведенных в сфере вакфных отношений в период правления Туркестанского генерал-губернатора.

**Ключевые слова:** Туркестан, Вакф, Вакфнама, 1867, 1886 гг., Ф. К. Гирс, Александр, Милосердие, 1882 г., Саиды, Ходжас, Крым.

**Annotation:** This article provides information on the recommendations made regarding waqf relations during the Turkistan General-Governorate period.

**Keywords:** Turkistan, Waqf, Waqfnama, 1867, 1886, F.K. Girs, Alexander, Charity, 1882, Benefactors, Donors, Muslims.

Turkiston o‘lkasida, mulkchilikning keng tarqalgan shakllaridan biri vaqfdir. U hukumdorlar yoki biron bir mulkdor tomonidan ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar bo‘yicha madrasa, masjid, diniy xayriya mahkamalariga xayr-ehson tariqasida beriladi. Vaqf – Arab xalifaligi endi vujudga kelayotgan davrdayoq yuzaga kelgan va keyinchalik barcha musulmon mamlakatlarida keng ko‘lamda tarqalgan. U, ayniqsa, o‘rta asrlarning oxirida juda chuqur ildiz otdi. Vaqfning qirqqa yaqin turi bo‘lib, ularning yigirmadan ortig‘i diniy maqsadlarda foydalanilgan [1. – 6]. Vaqfdan tushadigan daromad asosan madrasa va maktablarning tamirlanishi, masjidlar qurishi va ularga kerakli jihozlar olinishi uchun sarflangan. Shuningdek, maktab va madrasalarda faoliyat olib boradigan mudarislarga va mutasaddi kishilarga oylik maosh vaqflardan kelgan daramadlar hisobidan qoplangan, bundan tashqari madrasa va maktablar uchun o‘quv jihozlari, gilamlar bu yerda istiqomat qiladigan mullalarning yashashi uchun ham, beva-bechoralar yetim-yesirlarga ham xayr- ehson mana shu vaqf yerlaridan keladigan daromadlar hisobidan qoplangan. Vaqfga mulkdorlar tomonidan faqatgina yerlar berilmasdan bog‘lar va shu kabi daromad keltiradigan narsalar ham vaqf qilingan.

Vaqf xonliklar davrida qozilar tomonidan yozma ravishda tuzilgan. Biror narsasini vaqf qilmoqchi bo‘lgan shaxs guvohlar bilan qozi oldiga borib o‘z maqsadini aytgan. Vaqf hujjatini tuzish uchun esa quyidagilar kerak bo‘lar edi: kelishayotgan shaxslar va bu hujjatni tuzayotgan vaqtda ikki guvohning bo‘lishi lozim va agarda guvohlardan biri vafot etgan taqdirda ham guvohning hayotligi davrida hujjat imzolangan bo‘lsa, bu hujjat, kelishuv qonuniy deb hisoblanar edi.

Bundan tashqari vaqf qilingan mulklar ro‘yxti, nima maqsadda vaqf qilayotgani, unga egalik qiluvchining ism sharifi, vaqfdan tushadigan daromadlar nima qilinishi, ko‘chmas mulk bo‘lsa uning joylashgan o‘rni chegaralari aniq qilib ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim edi. Vaqfnomalar o‘raladigan qog‘oz yoki kitob shaklida yozilgan [4. – 11].

Turkiston general-gubernatorligi davrida ham vaqf mulklari saqlab qolingan bo‘lsa-da, ammo avvalgi holatini yo‘qotgan edi. Chor podsholigining vakillari hisoblangan general-gubernatorlar vaqf mulklaridan keladigan daromadlarni davlatga soliq sifatida undirishgan. Turkistonning birinchi general-gubernatori Fon Kaufman o‘zining hisobotlarida bu yerda mavjud bo‘lgan vaqf mulklari haqida ma’lumot berib, vaqf qonunlariga ko‘ra bunday yerlar qozilar tomonidan rasmiylashtirilganligini, musulmon ruhoniylarining ko‘plab mulklari sof vaqf holatida bo‘lib ular davlatga hech qanday soliq bermasliklarini ta’kidlab o‘tadi [5. – 325]. 1886-yilgi joriy etilgan boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomda Turkistondagi an’anaviy vaqf yer-mulk munosabatlariga ham o‘rin ajratilgan. Jumladan, unda aytilishicha davlat tomonidan tan olingan vaqf mulklari qishloq jamoalari ixtiyorida bo‘ladi. Buning huquqiy asoslari odat, shariat qoidalariga suyangan. Bundan tashqari davlat (ya’ni Turkiston mustamlaka tizimi) tomonidan tan olingan vaqf mulki meros huquqidan foydalansa, u holda shu huquqqa ega shajara tugagunga qadar vaqf maqomi saqlangan [3. – 320]. Bu qoida amalda mutlaqo boshqacha amal qilgan. Ko‘pgina hujjatlarda ko‘rsatishicha, vaqf mulkchiligini tubdan tugatish, bunday yerlarni davlat tasarrufiga o‘tkazish mustamlakachilarning asosiy maqsadi bo‘lgan. Chunki an’ana bo‘yicha vaqf mulki o‘zining dahlsizligi bilan alohida mavqega ega bo‘lib kelgan. Shunday bo‘lsada mustamlakachilar tamonidan vaqf mulklari tashkil qilish masalasiga ham qat’iy cheklovchi shartlar qo‘yilgan. Masalan, “alohida e’tiborga loyiq zarurat bo‘lgan taqdirdagina general-gubernator ruxsati bilan vaqf mulki tashkil qilish mumkin”, – deb ko‘rsatilgan. Lekin alohida e’tiborga loyiq zaruratning biror aniq me’yori, ta’rifi berilmagan. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, vaqf mulki tashkil qilishga mustamlaka amaldorlari zimdan qarshi bo‘lishganini anglatadi. Mavjud vaqf yerlarini boshqarish, ulardan foydalanishni tartibga solish, daromadlardan to‘g‘ri istifoda etish, vaqf mulkini taftish qilish kabi vazifalar viloyat hokimlari zimmasiga yuklangan [3. – 321].

Turkiston boshqaruv tizimini taftish qilgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K.Girs bu yerdagi vaqf mulklari haqida ko‘plab ma’lumotlar berib o‘tadi, xususan, uning taftish xulosalarida O‘rta Osiyoda vaqflar, mulkchilikning juda keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, barcha viloyatda yer-soliq islohotlari amalga oshirilayotgan bir paytda, vaqf masalasi hal etilishi zarur bo‘lgan, doimiy ravishda o‘z yechimini topmay, shikoyatlar, da’volar va sud jarayonlariga sabab bo‘lib kelganligi yoziladi.

Shuningdek, vaqf yerlarining tuzilishi to‘g‘risidagi qaydlarida bu yerda, asosan, ikki xil vaqf yerlari keng tarqalganligini keltirib, xayriya muassasalari, masjid, madrasalarga beriladigan vaqflar va Mulkdorlar tomonidan vasiyat qilingan (Vaqf avlod shaklida) vaqflar haqida ma’lumot berib o‘tadi [2. – 349].

Xayriya vaqflari asosan amirlar va xonlar tomonidan, kamdan-kam hollarda katta yer egalari tomonidan tashkil etilgan;

Vaqf avlod esa mulkdorlar tomonidan o‘z yerlarini avlodlariga vasiyat qilib qoldiradi.

Birinchi toifaga quyidagilar kiradi: a) davlat tomonidan tashkil etilgan xayriya vaqflari, b) xususiy shaxslarning xayriya vaqflari.

O‘rta Osiyo musulmon hukmdorlari: amirlar, xonlar va beklar deyarli har doim o‘z hukmronligini vaqflar tashkil etish va turli yerlarni ko‘plab xayriya muassasalari, jumladan, madrasalar (oliy maktablar), masjidlar, qabristonlar va boshqa muassasalarni saqlash uchun mulkka aylantirish orqali belgilab kelganlar. Avliyolar (shayxlar, Xojalar va Sayidlar) maqbaralarini (Mozorlar), saqlash uchun xonlar yerlar ajratishgan va o‘zlarining muhrlari bilan tasdiqlashgan. Keyingi hukumdorlar davrida ham bu vaqflar saqlab qolingan.

Girsning bergan ma’lumotida barcha xayriya vaqflari uchun hujjatlar, odatda, shariat asosida, muftiylar tomonidan muhrlanib, xon va amirlarning muhrlari bilan ham tasdiqlanganligi qayd etilgan. Maxfiy maslahatchi Girsni yozishicha: “Hujjatlarda (vaqfnoma) har doim quyidagilar belgilab qo‘yilgan: qaysi xon yoki amir davrida va kimning buyrug‘i bilan hujjat chiqarilganligi, vaqfga berilgan yerlarning chegaralari qat'iy belgilangan, foydalanish turi va usuli aniq ko‘rsatilgan. Bu toifadagi vaqflar uchun asosiy hujjatlardan tashqari har bir yangi xon o‘z saltanatining boshida o‘zidan oldingilar tomonidan berilgan huquqlarni tasdiqlovchi muhrlar tushirilgan yorliqlar chiqarar edi. Vaqf hujatlarida unga ajratilgan mulklar abadiy berilsin, degan band bo‘lmasa ham vaqfga doimiy egalik huquqlari mulklari tashkil etilganidan to yaqingacha barcha xonlarning ketma-ket silsilasi tomonidan tan olingan edi. 1867-yilda Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihasi bo‘yicha vaqf hujjatlarini ko‘rib chiqish va ular asosida vaqf muassasalarining yerga bo‘lgan huquqlarini belgilash viloyat kengashlariga yuklangan” [2. – 350].

F.K.Girs o‘zining xulosalarida Rossiya hukumati mulk erlariga qanday munosabatda bo‘layotgan bo‘lsa vaqf yerlariga ham shunday munosabatda bo‘lmasligini, chunki bu mulklar nafaqat dini balki xayriya maqsadlarini ham ko‘zlaganligini keltirib o‘tadi. Shu sababdan vaqf masalasi, shubhasiz, mintaqadagi siyosiy va diniy ahamiyati tufayli hukumatdan alohida e’tibor talab qiladi, deb ta’kidlaydi.

F.K.Girs vaqf mulklari mohiyatan bir nechta maqsadlarga xizmat qilishini ta’kidlab misollar keltirib o‘tadi: masjidlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ya’ni diniy ibodatlar uchun moddiy resurslarni ta’minlaydi, madrasalar, ya’ni xalq ta’limining mavjudligini ta’minlaydi, jamoat xayriya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababdan diniy aqidaparastlik alomatlari bo‘lishiga qaramasdan hukumat vaqf mulklari borasida ehtiyotkorlik bilan yondashishni aytib o‘tadi.

Shuningdek, Rossiya hukumati uchun xayriya maqsadlarida berilgan vaqflar alohida ahamiyatga egaligini aytib, Turkistonning arxiepiskopi Aleksandr bilan suhbatida, Aleksaandrning xayriya vaqflarini yo‘q qilish va ularning huquqlarini cheklash, e’tiqod, rahm-shafqat va xayriya masalalariga bag‘ishlangan muassasalarni

tugatish fikrining o‘zi pravoslav ta'limotlari ruhiga zid ekanligini aytganini yozadi va “Agar biz g‘olib bo‘lsak, o‘z qo‘llarimiz bilan ular uchun eng yaxshisini yo‘q qilsak, mintaqaning tub aholisi biz haqimizda nima deyishadi,” deb qo‘shib qo‘ydi muhtaram Aleksandr deya ta’kidlaydi Girs [2. – 351].

Shu sababdan yuqoridagilarni inobatga olib, taftish hay’ati vaqf mulklarini ko‘rib chiqishda xayriya vaqflarini davlat boji va zemstvo yig‘imlaridan ozod qilish lozimligini bildiradi.

Rossiyaning musulmonlar yashaydigan barcha hududlarida vaqflar masalasi qayta-qayta muhokama qilingan va audit fikriga ko‘ra, bu masala Qrimda juda qoniqarli hal qilingan (1203 yildagi 1-ilova, XI jild, Xorijiy konfessiyalarning ma'naviy ishlari konstitutsiyasi). Unga ko‘ra Qrimdagi vaqf mulklari eski holatda qoldirilib, faqatgina uning bosh nazorati, mustamlaka ma'muriyatga o‘tkazilgan.

Taftish xodimlari viloyat bo‘ylab sayohatlar chog‘ida vaqf daromadlaridan noto‘g‘ri foydalanayotgan mutavalilar ustidan, mahalliy hokimliklar tomonidan doimiy ravishda kelib tushayotgan murojaatlarga ham e’tibor qaratgan. Murojaatlarda hatto vaqf daromadlarini hukumat nazoratiga o‘tkazish talab qilingan yozma bayonotlar ham bor edi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, taftishdan so‘ng vaqflar boshqaruvi uchun Yangi Marg‘ilon, Samarqand va Toshkentda bosh gubernator tomonidan tayinlangan davlat amaldori va ular tomonidan saylangan 4 nafar mahalliy aholidan iborat bo‘lgan, maxsus vaqf muassasalarini tashkil etish zarurligini taklif qilindi.

Hujjatlari bo‘lmagan vaqf muassasalari, bunday vaqflar mavjudligining to‘g‘ri asoslari batafsil tahlil qilingandan keyingina bosh gubernator tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Audit vaqf masalasini hal qilishning bu usuli bilan hukumat qonuniy va adolatli asosda qolgan holda, davlat idoralarini to‘ldirib borayotgan noto‘g‘ri da’volar va soxta vaqf hujjatlaridan darhol xalos bo‘ladi, deb o‘ylaydi.

O‘z-o‘zidan ayonki, vaqf bo‘limlari vaqf hujjatlarini baholash asoslari bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalar bilan general-gubernatorning maxsus ko‘rsatmalari bilan ta’minlanishi kerak [2. – 353]

Ayni paytda Girs rus hukumati amir va xonlari singari vaqf mahkamalariga avvalgidek munosabatda bo‘la olmasligini bildirgan va buni sababi sifatida vaqf daromadlarini kattaligini hamda bular ko‘plab muassasalarni ta’minlab turishini ochiqdan-ochiq e’tirof etgan. Chunki, xayr-ehson tariqasida joriy etilgan vaqf mahkamalarining ayrim jihatlari mustamlakachilar uchun ham ahamiyatli edi. Shuning uchun Turkiston o‘lkasini “taftish” qilgan Girs vaqf mulklari masalasida quyidagi xulosalarga kelgan: “Xayr-ehson tariqasida joriy etilgan vaqflar davlat soliqlaridan va “Zemstvo” majburiyatlaridan ozod etilsin. Aholi yashaydigan vaqf yerlari o‘sha yerlarda yashovchi aholiga vaqf mahkamasigasoliqto‘lash sharti bilan berilsin. Aholi yashamaydigan vaqf yerlari esa vaqf mahkamalari ixtiyorida qoldirilsin. O‘z avlodi foydasiga vaqf qilingan mulklar shu avlodning xususiy mulki deb e’lon qilinsin va har qanday imtiyozlardan mahrum etilib ularni davlat foydasiga soliq to‘lashi joriy etilsin”.

Girsning fikrlariga yaxshiroq e’tibor beradigan bo‘lsak, uning vaqf mulklari haqida mukammal ma’lumotga ega ekanligini bilib olish qiyin emas. Lekin u ham vaqf mahkamalarining mahalliy xalqqa ta’sirini cheklash hamda oxir oqibatda yo‘qotish uchun yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatgan edi [1. – 26].

## Adabiyotlar


1. Boltaboyev S. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma “Namangan” nashriyot 2005.
2. Гирс Ф. К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. / Ф.К. Гирс. – СПб.: Б.м., 1883.
3. Nazarov B.S., Yaqubova D.T. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (Qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar) “Bekshox print servis” nashriyoti Termiz – 2023.
4. G‘offorov Sh.S. O‘zbekistonda vaqf mulklari: tarix va hozirgi zamon (Samarqand misolida)// "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue 11
5. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства 7 ноября 1867- 27 марта 1881г. СПб., 1885.ст.325

# 2 - SHO‘BA. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TARAQQIYOTI HAMDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

## LEKSIKOLOGIYAGA DOIR O‘QUV MATERIALLAR MAZMUNI VA O‘QUVCHILARDA LEKSIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY MODELI

**Odiljonova Kamola Abduvosit qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi
17.01.00. Andijon viloyati, Andijon shahri, Do‘stlik ko‘chasi 4-uy
**Email:** kamolaodiljonova5@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada insonlar ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o‘zbek tilidan erkin, samarali, o‘rinli foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘lish kabi zaruriy bilim, ko‘nikma hamda malakalarga ega bo‘lishlari kerakligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** bilim, ko‘nikma, malaka, metodika, maktab ta’limi, savodxonlik, kompetensiya, leksika.

**Abstract**. In this article, people need the necessary knowledge, skills, and abilities to be able to use the Uzbek language freely, effectively, and appropriately in various aspects of social, economic, and cultural life, in all types of communication and relationships, and to fully enjoy its unlimited possibilities.

**Keywords**: knowledge, skills, competence, methodology, school education, literacy, competence, lexicon.

**Аннотация**. В этой статье людям необходимы необходимые знания, навыки и умения, чтобы иметь возможность свободно, эффективно и целесообразно использовать узбекский язык в различных аспектах социальной, экономической и культурной жизни, во всех видах общения и отношений, а также в полной мере насладиться своими неограниченными возможностями.

**Ключевые слова:** знания, умения, компетентность, методика, школьное образование, грамотность, компетентность, лексика.

Insonning kamolot darajasi uning so‘zi orqali, millatning madaniyat darajasi tili bilan belgilanadi. Shuning uchun til millatning qalbi hisoblanadi.[1] Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, o‘z xalqining an’analariga iftixor tuyg‘ularini singdirishda tilning, xususan,ona tilining o‘rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ham “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”, degan fikrlari tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligini yana bir bor anglatish bilan birga ona tili fanini umumta’lim maktablarida o‘qitishning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar jarayoni tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit hamda ijtimoiy muhitda undan oqilona, samarali foydalanish malakalarini oshirishga asosiy e’tiborni qaratish, respublikamizning davlat tili bo‘lmish o‘zbek tilini o‘qitishni yanada takomillashtirish va kompetensiyaviy yondashuvasosida o‘quv dasturlari mazmunini qayta ko‘rib chiqish borasida katta ishlar amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi.[2] Hozirgi kunda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash ta’limning bosh vazifasi ekan, buning uchun ta’lim oluvchilardan kerakli kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Ona tiliga oid bilimlarni berishda tilning ko‘p sathli, cheksiz imkoniyatli, murakkab tizim sifatidagi talqiniga tayaniladi. Shuning uchun ona tili darsligi ona tili qurilishining eng asosiy birliklari va hodisalari bilan tanishtiruvchi “Muqaddima” va “Izchil kurs” kabi ikki qismni o‘z ichiga oladi. Tilning grammatik hodisalarini, sath birliklarini aloqadorlikda tizimlio‘rganish, aynan bir xil fikrni turli xil yo‘sinda ifodalash imkoniyatlari borligini, har bir imkoniyatning o‘ziga xosligini o‘quvchilarga singdirishda bularning ahamiyati katta.[3] Dastur va darsliklarning didaktik asosi: o‘quvchiga ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi; o‘qituvchiga o‘quvchining o‘rganish faoliyatining boshqaruvchisi; darslikka (o‘quv topshiriqlariga) o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatlarini o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida yondashishdan iboratdir.

Bugungikunda ta’lim oluvchilarni barkamol avlod sifatida tarbiyalash bosh maqsadga aylangan bir paytda ularda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish har qachongidan ham muhim vazifa bo‘lib qoldi. Chunki til kishilar o‘rtasida muhim aloqa vositasi bo‘lishi bilan birga, olam haqidagi bilimlarni to‘plovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vosita hamdir.[4] Birinchi vazifasi kommunikativ, ikkinchisi esa kognitiv vazifadir. Shu kunga qadar tilning kommunikativ vazifasi va uning ichki tuzilishini o‘rganishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, XXI asrdan tilning ichki tuzilishini kognitiv vazifa bilan birgalikda o‘rganishga e’tibor berila boshlandi. Chunki ma’lum bir tilni bilish uchun lug‘at tarkibini, so‘zlarni bir-biriga bog‘lash qoidalarini o‘zlashtirishgina kifoya qilmaydi. Bundan tashqari nutqiy jarayonda ulardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish ham muhimdir. Bunda barcha til bo‘limlari qatori leksikologiyaning ham o‘z o‘rni bor.

Bilamizki, leksikologiya,tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yokisemantika, etimologiya, stilistika haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya’ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so‘z ma’nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko‘rilganda, so‘z ma’nolari va tushunchalarning o‘zaro bog‘liq holda bo‘lishi ko‘zda tutiladi[5]. Leksikologiya lug‘at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so‘zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so‘zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me’yorlarini, professionalizm, dialektizm,

arxaizm, neologizm, leksikalashgan so‘z birikmalarini me’yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi.

Ona tilini o‘qitishning hozirgi bosqichida o‘quv maqsadlari, uning mazmuni, bilim darajasi, ko‘nikmalari lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar orqali aniqlanadi. O‘quvchining bilim saviyasiga qo‘yiladigan talab esa ta’lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shu maqsadga ko‘ra ona tili ta’limining mazmuni o‘quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish hamda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o‘z fikri va his-tuyg‘ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta’minlash vazifalarini hal etishga yo‘naltiriladi.

Leksik kompetentlikni rivojlantirish va bu boradagi nazariy-amaliy bilimlarni birlashtirish asosida o‘quvchi tafakkurini o‘stirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi o‘zining yaqqol tasdig‘ini topdi. Chunki insoniyatning bugungi taraqqiyoti har bir shaxsdan keng tasavvur va aniq qaror qabul qilish, o‘rganilgan ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni talab etadi.

Leksik kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holati shuni ko‘rsatdiki, o‘quv dasturlari va darsliklarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan mavzu va o‘quv materiallariga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish, yangi usul va innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishni talab etadi.

Ona tili ta’limida o‘quvchining individual xususiyatlari hamda qiziqishlariga mos ravishda leksik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish, ularning leksikologiyaga doir bilimlarni egallash hamda mustaqil ravishda amalda qo‘llash ko‘nikmasini oshirishga xizmat qiladi.

Nutq vaziyatida leksik bilimlardan foydalanishni o‘rgatishning optimal yo‘llarini tanlash o‘quvchilarda leksik kompetensiyalarni shakllantirish va ular erishgan natijalarini nazorat qilib borish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va b. Ona tili o‘qitish metodiksi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. B. 174

2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 176 b.

3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

4. Roziqov O.R., Mahmudov M.H va b. Ona tili didaktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 382 b. Rasulov

5. Abduraimova M va b. Ona tili. 8-sinf o‘qituvchi metodik qo‘llanmasi. Toshkent: Cho‘lpon, 2006. 144 b.

6. Almamatov T., Q.Yadgarov., Almamatova Sh. O‘zbek tili o‘kitish metodikasi nazariyasi jadvallarda va saytlarda. Toshkent: Hilol Media, 2018. 72 b.

7. Jinkin N. I.Mexanizmы rechi, M.: Akademiya ped, nauk, 1958

# TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BOJXONA TIZIMI TARIXI VA UNING ICHKI QOIDALARI.

**Ernazarov Tuyg‘un Rajabovich**
tuygun.ernazarov.83@mail.ru
Samarqand davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklari bosib olingandan keyin Turkiston general-gubernatorligi bojxona tizimining o‘rnatilishi va uning faoliyati ko‘rib chiqilgan. Muallif bu davrni tahlil qilishda O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari va tarixchilarning asarlariga tayanadi. Turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirish uchun qiyosiy tahlil usuliga alohida e’tibor beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustamlakachilikning birinchi xususiyati iqtisodiy sohadagi o‘zgarishlar bo‘lib, Rossiya imperiyasining Turkistondagi bojxona siyosatida mustamlakachilik siyosati va iqtisodiy jarayonlar o‘z aksini topgan. Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining tarixiy savdo aloqalari, Rossiya imperiyasiga qaramligi ham muhokama qilingan. Ushbu maqola Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati sharoitida bojxona xizmatining shakllanishi va faoliyatini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

**Аннотатция:** В данной статье рассматривается становление таможенной системы Туркестанского генерал-губернаторства после завоевания среднеазиатских ханств в XIX веке и ее деятельность. В анализе этого периода автор опирается на документы Национального архива Узбекистана и труды историков. Особое внимание уделено методу сравнительного анализа для сравнения данных из разных источников. Результаты исследования показывают, что первой характеристикой колониализма являются изменения в экономической сфере, а таможенная политика Российской империи в Туркестане отражала колониальную политику и экономические процессы. Обсуждались также исторические торговые связи Кокандского ханства, Бухарского эмирата и Хивинского ханства, зависимость от Российской империи. Данная статья дает более глубокое понимание формирования и деятельности таможенной службы в контексте колониальной политики Российской империи в Туркестане.

**Abstract.** This article examines the establishment of the economic and political order of the Russian Empire in Turkestan in the XIX century after the conquest of the khanates of Central Asia. The author relies on documents from the National Archives of Uzbekistan and the works of historians to analyse this period. Particular attention is paid to the comparative analysis method for comparing information from various sources. The results of the study show that the first feature of colonialism was changes in the economic sphere, and the customs policy of the Russian Empire in Turkestan reflected colonial policy and economic processes. Historical trade ties and dependence of the Bukhara Emirate and the Khanate of

Khiva on the Russian Empire are also discussed. This article allows us to better understand the formation and activities of the customs service in the context of the colonial policy of the Russian Empire in Turkestan.

**Kalit so‘zlar:** Rossiya imperiyasi, Turkiston, mustamlakachilik, bojxona siyosati, tarixiy savdo aloqalari, Samarqand bojxonasi, Kattaqo‘rg‘on Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Zakot, O‘zbekiston Milliy arxivi.

**Ключевые слова:** Российская империя, Туркестан, колониализм, таможенная политика, исторические торговые отношения, Самаркандская таможня, Каттакорганский Бухарский эмират, Хивинское ханство, Закят, Национальный архив Узбекистана.

**Key words:** Russian Empire, Turkestan, colonialism, customs policy, historical trade relations, Samarkand customs, Kattakurgan, Bukhara Emirate, Khanate of Khiva, Zakat, National Archives of Uzbekistan.

Tarixda savdo-sotiq aloqalari eng muhim ko‘rsatgichlardan biridir. O‘zbekiston hududida ham qadimda mavjud bo‘lgan shahar-davlatlar Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy ko‘prik sifatida mashhur bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi natijasida halqaro tovar ayriboshlashni yangi davlatlar hisobiga kengayishi yurtimizda mavjud bo‘lgan davlatlar uchun yangi savdo yo‘llari tartiblari ishlab chiqish vazifalarini yuklaydi.

O‘zbekiston bojxona tarixini o‘rganar ekanmiz, bir narsa diqqatimizni o‘ziga qaratdi. Agar dunyo davlatlarida bojxona o‘z tarixini chegaralar orqali harakatlanayotgan karvonlar, mol-mulkdan ma’lum miqdorda va ko‘rinishlarda to‘lovlar olish va buning natijasida o‘z xazinalarini to‘ldirish bilan boshlagan bo‘lsa, O‘rta Osiyo tarixida bojxona tizimi savdo-sotiqqa keng imkoniyatlar yaratib berish, savdogarlar uchun katta imtiyozlar barpo etish, karvonlar o‘tishida xavfsizlikni ta’minlash va halq manfaatlarini to‘liq o‘z ichiga singdirib olgan faoliyat natijasi bo‘ldi.[1]

Yurtimiz tarixida kuchli saltanatlarning vujudga kelishi va mintaqa aksar qismining siyosiy bir butunlikka erishishi yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirdi. Yagona iqtisodiy makonning vujudga kelishi o‘z navbatida savdo-sotiqning yanada gurkirab o‘sishiga katta turtki bo‘ldi.[2] Davlatlarning tashqi savdo munosabatlariga kirib borishi, o‘z manfaatlarini ko‘zlab chora-tadbirlarni amalga oshirishi asta-sekinlik bilan bojxona munosabatlarini keltirib chiqara boshladi.

Chorizmning mustamlaka zulmi va xonliklardagi istibdod yil sayin kuchayib borgani O‘rta Osiyo bozorini ruslar tomonidan egallab olinishi va boshqa davlatlar savdogarlarining siqib chiqarilishiga sabab bo‘ldi.

1868 yil 13 fevral kuni Turkiston general-gubernatorligi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida shartnoma imzolanadi. Bu kelishuv, o‘z mohiyati bilan, Qo‘qon xonligi uchun nihoyatda og‘ir, sharmandali shartnoma edi. Shartnomaga ko‘ra, rus savdogarlari Qo‘qon xonligining barcha shahar va qishloqlarida istagan karvonsaroyga ega bo‘lish va savdo agentliklarini tuzish huquqiga ega bo‘ldilar. Qo‘qon xonligi savdogarlari Rossiya hududida emas, balki faqatgina Turkiston general-gubernatorligi hududidagi shahar va qishloqlardagina, ya’ni o‘z

yurtlaridagina shunday imtiyozga ega boʻldilar, xolos. Rus savdogarlaridan zakot 2.5% miqdorda belgilandi. Rossiya hukumati tazyiqi ostida tuzilgan bu shartnoma xonlikning butun halqi, ayniqsa savdo ahli oʻrtasida kuchli norozilik uygʻotdi.[3]

1868 yil 11 iyunda Samarqandda, 1873 yil 23 sentyabrda Shahrisabzda Buxoro amiri Muzaffar va Turkiston general-gubernatori Kaufman oʻrtasida shartnomalar imzolanadi. 1873 yilgi shartnomaning 6-moddasiga muvofiq, rus savdogarlariga tegishli, Rossiyadan Buxoroga kelayotgan yoki Rossiyadan Buxoroga ketayotgan, barcha tovarlardan zakot 2.5% miqdorda olish belgilanadi. Ushbu shartnamalar asosida, xonliklarda amal qiluvchi shariat normalari jiddiy buzilib, ruslar musulmon savdogarlarigina foydalanadigan huquqqa ega boʻlib oldilar. Rus savdogarlaridan zakotdan oʻzga hech qanday qoʻshimcha soliq va yigimlar undirilishiga yoʻl qoʻyilmadi. Shartnomaning 7- moddasi rus savdogarlariga Buxoro hududidan qoʻshni davlatlarga tovarlarni bojsiz olib oʻtish huquqini berdi.[4]

1873 yil 12 avgustda Xiva xoni Rossiya bilan tuzilgan sulh shartnomasining Kaufman tomonidan qoʻyilgan shartlarini soʻzsiz qabul qiladi va boshqa mamlakatlar bilan mustaqil aloqalarda boʻlish huquqidan mahrum boʻldi. Rus savdogarlari va sanoatchilariga xonlikka qarashli hamma joylarda savdo-sotiq ishlarini bemalol olib borish huquqi berildi, ular boj va boshqa majburiyatlardan ozod etildi.[5]

1867 yilda Turkiston oʻlkasini boshqarish uchun ishlab chiqilgan "Ettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi" Turkiston general-gubernatorligi tuzilganidan keyin oʻlkada bojxona ishini yuritishning dastlabki huquqiy manbasi rolini oʻynadi. Unga muvofiq 1868 yil Turkiston general-gubernatorligi tarkibida boshqa masalalar qatori zakot ishlarini yuritish uchun ham “xoʻjalik boshqarmasi” tashkil etildi.

Xoʻjalik boshqarmasi chegara ortidan kelayotgan har bir karvondan shariat boʻyicha belgilangan miqdorda zakot undirish bilan shugʻullanar edi. Nazoratni toʻgʻri va aniq olib borish uchun hisobot daftarchalari yuritilishi joriy etildi va shu daftarchalardan zakot toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar berilgan. Agar olib kirilgan yuklarning koʻrsatilgan qiymati toʻgʻriligida shubha tugʻilsa, xoʻjalik boshqarmasi bir rus amaldori va ikkita mahalliy savdogarlar guvohligida yuklarni ochish va uning qiymatini mahalliy shart-sharoitlar asosida aniqlash huquqiga ega boʻlgan. Shundan soʻng yuklarni nazoratga olinganligi va mamlakat hududiga qonuniy yoʻl bilan kirib kelganligini tasdiqlovchi kvitansiya berilgan. Yuk olib kirgan savdogar yukini zakotchidan berkitsa yoki uning qiymatini kamaytirib koʻrsatsa, undirilishi lozim boʻlgan zakotinig ikki barobari miqdorida jarimaga tortilgan. Jarimaning yarmi davlat xazinasiga, qolgan yarmi esa ushbu huquqbuzarlikni aniqlagan shaxsga berilgan.[6]

1872 yil 1 aprelda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zakot boshqarmasi tashkil etildi.[7] Mazkur zakot boshqarmasi aslida mahalliy zakotchilarga ishonmaslik natijasida vujudga kelgan edi.[8] Zakot boshqarmasi 1874 yil 10 noyabrga qadar Toshkent shahar yarmarka qoʻmitasiga boʻysingan. Uning asosiy vazifalari Turkiston oʻlkasiga kelgan yoki undan chiqib ketayotgan karvonlarni roʻyxatga olish, yuklarning qiymatini aniqlash, yuklar va chorva

mollaridan zakot undirishdan iborat edi. Kirib kelayotgan yoki chiqayotgan karvonlarni nazorat qilish uchun chegaralarda maxsus zakot maskanlari faoliyat yuritar edi.[9]

Zakot boshqarmasi 1874 yil 10 dekabrga qadar faoliyat olib bordi. 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan birga oʻlkada rus savdogarlaridan imperiya miqyosidi amal qiluvchi “Savdo-sotiq va kasb- hunar uchun boj haqidagi nizom” asosida bojxona toʻlovlari undirila boshlagan edi. Biroq Sirdaryo viloyatining Kazalinskiy va Perovskiy uezdlarida, Ettisuv vilyatining barcha hududlarida savdogarlarning barchasi, ular rus yoki mahalliy boʻlishligidan qat’iy-nazar bojxona toʻlovlari toʻlashda yuqoridagi nizomga boʻysinar edilar. [10]

1872 yil general-adyutant Kaufman farmoyishiga muvofiq, Toshkent shahrida Turkiston oʻlkasidagi savdo yigʻimlarini oʻrganish boʻyicha maxsus komissiya oʻz ishini boshlaydi. Komissiya ishining natijasi sifatida butun imperiya doirasida qoʻllaniluvchi 1865 yil 9 fevraldagi Savdo-sotiq va kasb- hunar uchun boj haqidagi nizomni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda qoʻllash maqsadga muvofiq ekanligini bildirdi. Rossiya Moliya vaziri esa bu taklifni koʻrib chiqib, oʻnga ba’zi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritadi, hamda tajriba sifatida bir qancha muddat davomida sinovdan oʻtkazish zarurligini ta’kidlaydi. 1874 yil 3 mayda Turkiston general-gubernatorining farmoniga muvofiq Turkiston oʻlkasida qoʻllaniluvchi Savdo-sotiq va boj haqida Nizom tasdiqlandi va u dastlab 4 yil muddatga vaqtinchalik chora sifatida kuchga kirdi.[11] Ushbu Nizom kuchga kirish bilan Turkiston oʻlkasida zakot undirish tugatildi.[12]

1875 yildan Turkiston Zakot boshqarmasining tugatilishi tufayli, oʻlka 1881 yilga qadar bojxona nazoratidan chetda qoldi.

1881 yil 19 dekabrda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Kolpakovskiy oʻlkaga Gʻarbiy Evropa va Osiyo maxsulotlarining kirib kelishiga chek qoʻyish maqsadida Muvaqqat bojxona qoidalarni tasdiqladi. [13]

1886 yil 2 maydagi qonunga koʻra, Turkistonda bojxona nazoratini olib borish Xarbiy vazirlikdan Moliya vazirligi ixtiyoriga oʻtdi. [14] SHu asosda moliya vazirligi Turkiston general-gubernatorligi bilan kelishgan olda oʻlkaga olib kirilayotgan tovarlar uchun boj stavkalarini belgilash, olib kirilishi taqiqlangan tovarlar roʻyxatini e’lon qilish (qoʻshni xonliklar bilan bu borada tuzilgan shartnomalar shartlarini buzmagan xolda), bojxona toʻlovlarini undiruvchi va chegarada nazorat olib boruvchi bojxona organlari shaxsiy tarkibi sonini koʻpaytirish yoki qisqartirish, ularning oylik ish haqlari miqdorini oʻzgartirish huquqiga ega edi. Bu chora-tadbirlar oʻz navbatida ham Rossiya qonunchiligiga, ham Turkistonda oʻrnatilgan boshqaruv tartib asoslariga mos kelishi lozim edi.

Umumiy asosda chegara boʻylab bojxona liniyasi ba’zi oʻzgarishlarni hisobga olmaganda, 1881 yilda belgilangan holicha qoldi. Oʻzgarishlar asosan bojxona maskanlarining joylashuvigagina taalluqli edi. Hududiy jihatdan bojxona nazorati 5 boʻlimga boʻlingan holda olib borildi. Bular Amudaryo, Jizzax, Katta-qoʻrgʻon, Samarqand va Fargʻona bojxona boʻlimlari. Jizzax boʻlimining bir qismi 1887 yil Katta-qoʻrgʻon boʻlimiga, qolgan qismi esa 1889 yil Samarqand boʻlimiga qoʻshib

yuborildi. 1887 yilda Moliya vaziri bu boʻlimlarning shtatlarini tasdiqlaydi. Unga koʻra har bir boʻlim boshliq va uning yordamchisi, bojxona maskani noziri, devonxona xodimi, mahalliy yigitlar va yuklarni koʻzdan kechiruvchilardan iborat edi. Bojxona boʻlimlarida bir vaqtning oʻzida yuklar ham nazoratdan oʻtkazilar, ham ulardan boj toʻlovlari undirilar edi. Moliya vazirining alohida topshiriqlar boʻyicha amaldorining vakolat doirasi va huquqlari alohida yoʻriqnomada belgilab qoʻyilgan, bojxona boʻlimlari faoliyatining huquqiy asosi sifatida hali ham 1881 yil 19 dekabrdagi muvaqqat qoidalar qoʻllanilib kelinardi. Bu vaqt davomida unga Moliya vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan birgalikda bir qancha oʻzgartirishlar kiritildi.[15]

1890 yil 12 iyundagi Rossiya Imperatori farmoniga muvofiq Turkiston bojxona okrugi tashkil etiladi va u bevosita Turkiston general- gubernatorligiga boʻysindiriladi. Alohida topshiriqlar amaldori lavozimi Turkiston bojxona okrugi boshligʻi lavozimiga oʻzgartirildi. Bu okrug oʻz faoliyati davomida Rossiyaning boshqa bojxona okruglari qatorida bevosita Rossiya Bojxona ustaviga rioya eta boshladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Zayniddinov O.Z. Oʻzbekistonda bojxona tizimi va uning oʻzbek davlatchiligida tutgan oʻrni (1991–2001): Tarix.fan.nomz. ... diss. avtoref. –T., OʻzMU, 2002. –51b.
2. Azamat Ziyo. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. T. SHarq 2000. 47-67 betlar.
3. Oʻzbekiston yangi tarixi . Turkiston chorizm mustamlakasi davrida. 1 jild. T.: 2000. 146 bet
4. OʻzR MDA. 12 roʻyxat , 1775 ish, 107 varaq.
5. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq. 1998. 21-28 betlar.
6. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сир-дарьинской областях. 300-329 moddalar.
7. OʻzR MDA, 1 jamgʻarma 16 roʻyxat, 2303 ish , 1-4 varaqlar.
8. Добросмыслов А.И Ташкент в прошлом и настоящем.-Т. 1972. 104стр.
9. OʻzR MDA, 1 jamgʻarma 20 roʻyxat, 3665 ish , 1-4 varaqlar
10. Туркестанские ведомости. 27 августь 1874 г. №34
11. Туркестанские ведомости. 4 август 1881 г. №30.
12. Ushbu nizom asosida 1883 yildan boshlab butunlay kuchga kirdi. // Turkestanskie vedomosti. 16 avgust 1883 yil. №32.
13. OʻzR MDA, 1 jamgʻarma 27 roʻyxat, 361 ish , 34 varaq.
14. Туркестанские ведомости. 3 июль 1890 г. №27.
15. OʻzR MDA, 1 jamgʻarma 1 roʻyxat, 10 ish , 55-56 varaqlar.

# LINGVISTIK MULOQOT MADANIYATI MAZMUNI VA TUSHUNCHASI

**M.E.Tursunova**
tursunovam89@gmail.com
Samarqand davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolaning asosiy maqsadi lingvistik muloqot madaniyati mazmuni va tushunchasini yoritish hisoblanadi. Hozirgi texnogiya davrida muloqot jarayonida uchraydigan jarayonlar koʻrsatib berilgan. Lingvistik muloqot madaniyatining mazmuni va tushunchasi ochib berilgan.

**Tayanch soʻzlar**: Lingvistik, madaniyat, muloqot, ekzoterizm, ekvivalent, nutq, muloqot jarayoni, ongli va ongsiz.

**Аннотация.** Основная цель данной статьи - уточнить содержание и понимание культуры языкового общения. Показаны процессы, происходящие в процессе общения в современную эпоху глобализации. Раскрыты содержание и понятие культуры языкового общения.

**Ключевые слова:** Языкознание, культура, коммуникация, экзотеризм, эквивалентность, речь, процесс общения, сознательное и бессознательное.

**Annotation.**The main goal of this article is to clarify the content and understanding of the culture of linguistic communication. The processes occurring in the process of communication in the modern era of globalization are shown. The content and concept of the culture of linguistic communication are revealed.

**Key words:** Linguistics, culture, communication, exotericism, equivalence, speech, communication process, conscious and unconscious.

Til muloqot madaniyatining eng muhim qurollardan biri hisoblanib u inson boʻlishi uchun muhim oʻrin tutadi. Avval mavjud boʻlgan qurollar -ya’ni imo-ishoralar, har xil ovozlar keyinchalik oʻzlarining til paydo boʻlgach muhimligini yoʻqota boshlaydi. Til muloqot sohasida yagona jarayon boʻlib qolmoqda. Lingvistik muloqotning jarayonida insonlarning ishtiroki talab etiladi. Bunda biz tinimsiz muloqot qilishimiz kerak boʻladi. Tilda boʻlgan oʻzgarishlar unda muammolar yoʻqligini anglatmaydi. Bu muammolar juda ham kam olimlar tomonidan tadqiq qilingandir.

Lingvistik muloqot muammosida hal qiluvchi narsa tilni tushunish hisoblanadi, chunki muloqotning asosiy vositasi ham til hisoblanadi. Bu borada Donald Devidson oʻz konsepsiyalarini ishlab chiqadi. Muloqot muammosida hal qiluvchi narsa tilni tushunishdir, chunki u uning asosiy vositasidir. Ushbu masalani koʻrib chiqish uchun eng muhim takliflardan biri Donald Devidsonning talqin qilish konsepsiyasi boʻlib, u odamlar oʻrtasidagi oʻzaro tushunishni aniqlash kerakligini ta`kidlab oʻtgan.

Oxirgi marta Devidson bu masala bilan shugʻullangan "Epitafiyalarning chiroyli buzilishi" inshosida, unda u aniq va toʻgʻridan-toʻgʻri tilga oid qarashlarini ifodalash - faqat bunday qarashlar uning oldingi matnlarida yashirin ekanligini taqdim etgan. Bir necha yil davomida u nutqni tushunish nazariyasini ishlab chiqdi,

bu aslida muloqotdir. Bu nazariya katta kenglik va izchillikka ega va intellektual ahamiyatga ega va ta'siri kengdir.

Muloqot haqiqati - bu sub'ektlar doirasi va ularning dinamik xarakteri. Bugungi kelishuv ertangi kelishmovchilikka aylanishi mumkin va aksincha. Buning turli sabablari boʻlishi mumkin: oʻz e'tiqodlari oʻzgarmas boʻlishi, mulohaza yuritmaslik, doimiy niyatlarini qadrlash va intilishlar va muloqotni (agar asosiy inson faoliyati sifatida qaralsa ham) inson faoliyatining boshqa shakllaridan ajratib boʻlmaydi.

Bu yerda tasvirlangan madaniyatlararo muloqotga yondashuv umumiy e'tiqodlar holatiga qanday erishishning oddiy retseptini taklif qilmaydi. Buning sababi boʻlishi mumkin.

Kommunikativ faoliyatning bir qator mumkin boʻlgan maqsadlaridan biridir. Bu yechim ammo biz kiradigan niyatlarning xilma-xilligini koʻrsatishga imkon beradi

Shuningdek, u tushunishga erishish uchun madaniy farqni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi (natijalarni oldindan taxmin qilmasdan): xilma-xillik qanchalik koʻp e'tiborga olinsa va madaniy e'tiqodlarni qayta tiklashga qaratilgan sa'y-harakatlar qanchalik koʻp boʻlsa, muloqot samaradorligi shunchalik yuqori boʻladi. Bu shunchaki ma'lumot almashishni ajratishni talab qiladi va biz erishmoqchi boʻlgan natija hisoblanadi. Garchi madaniyatlararo muloqot mumkin boʻlsa va umumiydir, u kamdan-kam hollarda unga qoʻyilgan barcha umidlarni qondiradi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan til eng muhim madaniyat sohasidir va muhim ahamiyatga ega, chunki u asosiy aloqa vositasidir: “Busiz muloqot, tegishli ma'lumotlarni uzatish va olish imkonsizdir.
Til orqali diniydan tortib "moddiy"gacha boʻlgan har qanday ijtimoiy amaliyot imkonsiz boʻlar edi".

Til, ma'nolarni bogʻlaydigan e'tiqodlar tizimidir. Alohida soʻzlar va ulardan tuzilgan iboralar til foydalanuvchilaridan ushbu e'tiqodlarni baham koʻrishni talab qiladi va faqat bu samarali muloqotni ta'minlaydi. Bu aniqki, bu yerda til mavjudligini koʻrsatadi va (bundan ham muhimi) u ijtimoiy xususiyatga ega.

Til, madaniyat va muloqot tushunchalari bir biri bilan bogʻliq hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda ya'ni texnologiya asrida yashayapmiz va bu zamonga, texnologiyalarga va ijtimoiy tarmoqlarga (Instagram, Tik-Tok, Telegram, Facebook. Twitter mustasno emas), tegishli boʻlgan ba`zi bir salbiy soʻzlar ham kirib kelmoqda. Buning natijasida yoshlar anglamasdan ularni muloqot jarayonida ishlatib kelishmoqda. Bu soʻzlar muloqot me`yorlariga toʻgʻri kelmasada lekin bu soʻzlarni tildagi mavjud soʻzlar bilan ya'ni ekvivalenti bilan qoʻllangani yoʻq. Ayrim soʻzlar borki ular bizning milliy madaniyatimizga toʻgʻri kelmasada lekin yoshlar ularni ishlatishda davom etmoqda.

Ekzotizmlar til madaniyatiga sezilarli ta'sir koʻrsatadi. Bu hodisa soʻzlarning ishlatilishini tavsiflaydi muayyan til tizimi uchun xos boʻlmagan muloqot. Bu tushunchalar millatimiz uchun notanish holat, shuning uchun ularning ekvivalentlari yoʻq yoki ularning analoglari tushunishda cheklangan. Masalan, bunday soʻzlar boʻlishi mumkin "pizza", "éclair" yoki "pub" sifatida. Ekvivalenti boʻlmasa yoki vaziyat buni talab qilsa, ularning tildan foydalanishi joizdir.

Biroq, tilda ekzotizmlardan foydalanish til madaniyatining oʻziga xosligiga va uning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi milliy an'analarni buzadi (Barbu, 2020, 11-bet).

Mashhur odamlar bilan suhbatlar, shuningdek, ekzotizm va qarashlarning paydo boʻlishiga ta’sir qiladi. Ta`kidlab oʻtganimizdek bunday muloqot ya’ni mshahur insonlarning nutqlarini oʻzlashtirish jarayonida yoshlar ularning asl ma`nolarini bilmagan holda ularni muloqt davomida ishlatishadi lekin bu koʻplab tushunmovchiliklarga olib keladi. Shu bilan birga, u tilga sezilarli ta’sir koʻrsatadi va uni yanada zamonaviy qiladi (Kolieva, 2018, r.168).

Bu vositalar garchi til tizimida uygʻunlashmasada uchun muvozanatni saqlash kerak boʻladi yoki aks holda lingvistik me’yor buziladi. Til muloqotining asosiy tamoyillaridan biri odamlar samarali muloqot qilish va bunda oʻzini shaxs sifatida ifodalash tushuniladi.

Muloqot davomida madaniyatlilik ham muhim hisoblanadi ba`zida nutq jarayonida ba`zi bir soʻzlarni ongli ravishda ba`zida asl ma`nosini bilmagan holda ongsiz ravishda nutq jarayonida yoshlar koʻp qoʻllaydi. Nutq davomida til me`yorlariga mavjud boʻlmagan soʻzlar ham qoʻllanilishi mumkin. Bu soʻzlar lugʻatlarda qayd etilmagan va standartlashtirilmagan. Bundan tashqari, bu soʻzlar shakllangan til madaniyatiga aloqasi yoʻq, lekin muloqotda faol qoʻllaniladi, ayniqsa yoshlar orasida. Misol uchun, "hayp", "prank", “su`niy intellekt” va "hurmat" kabi iboralar. Ular rivojlanishni aks ettiradi. Zamonaviy madaniyat, lekin uzbek madaniyatining lingvistik me'yorlariga mos kelmaydi. Biroq, ulardan foydalanish kerakligini koʻrsatadi chunki bu hozirgi zamon talabidir. Faqat shu holatda tilni bilish darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. U foydaliligini ta’kidlaydi lingvistik me'yorlarni oʻrganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish madaniyatining lingvistik jihatlarini aniqlashga qaratilgan nutqiy muloqotdagi oʻzgarishlardir. Bu maqsadning dolzarbligi globallashuv davrida birgalikda yashashdan kelib chiqadi va bu davr lingvistik madaniyatni chuqur bilishni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Agha, A. (2020). Aspects of Language. Jorethang: Sikkim, p. 90.
2.Avramenko, O. (2015). Business communication. Ivano-Frankivsk: Lileya-NV, 160 p.
3.Barbu, C. (2020). Language, Culture and Identity. London: FPETF, p. 21
4.D. Davidson, Inquires into Truth and Interpretation, Oxford 2001. D. Davidson, The Material Mind,
5.D. Davidson, Essays on Action and Events, Oxford 2002.
6.D. Davidson, A Nice Derangement of Epitaphs in D. Davidson, The Essential Davidson, Oxford 2006.
7. Tursunova, M. E. (2021). LEARNING ENGLISH WITH PODCASTS. *ПРОБЛЕМИ ТА ПЕРСПЕКТИВИ РЕАЛІЗАЦІЇ ТА ВПРОВАДЖЕННЯ МІЖДИСЦИПЛІНАРНИХ НАУКОВИХ ДОСЯГНЕНЬ*, *129*.

# ПЕРФЕКТ ВА ИМПЕРФЕКТОП ПОЗИЦИЯСИНИНГ МАТНДАГИ ВАЗИФАЛАРИ

**Кудратов Лазиз**
Самарқанд давлат чет тиллар институти Инглиз тили лексикологияси ва стилистикаси кафедраси ўқитувчиси

**Аннататция:** Матннинг коммуникатив бирлиги шуни кўрсатдики, матндаги гапларнинг ўзгариши ўз-ўзидан эмас, балки маълум мезонларга бўйсуниши орқали амалга ошиши мақолада мисол орқали кўрсатилган. Гаплар бир хабарни етказиб иккинчи хабарга ўтганда, улар ўзаро боғлиқ бўлиши ва тема-рематик занжир ҳосил қилиши мумкинлиги тадқиқи ўрганилган.

**Abstract:** The communicative unity of the text showed that the change of sentences in the text does not occur by itself, but through subordination to certain criteria, as shown by the example in the article. It has been investigated that when sentences convey one message and move on to another, they can be interconnected and form a thematic-rhematic chain.

**Калитсўзлар:** оппозиция, диексис, композицион, аспектуаллик, референция, анафорик, катафорик

**Keywords:** opposition, diexis, composition,aspectuality, reference, anaphoric, cataphoric

Матн таҳлилида референция тушунчаси мавжуд бўлиб референция (мурожаат/илова) назарияси асосида вужудга келди.Ҳозирги вақтда референция назарияси тилшуносликда мустаҳкам ўрин эгаллаган, буни кўплаб ишлар тасдиқлайди, жумладан: Н. Д. Арутюнова /8/, Г. В. Колшанский /71/, E. Loholf, O. Seavle, Э. В. Падучева /109/, М. Д. Потапова /116/, Ш. С. Сафаров, А. Шерматов ва бошқалар. (Колшанский Г.В., I963, вып205,с.3-I2.)

Референция (мурожаат /илова) деганда “нутқ қакиритилган актуаллаштирилган исм ёки номинал иборанинг (номлаш гуруҳи) воқелик объектларига муносабати” тушунилади (Арутюнова Н.Д.,1976. - 383 с.) “Илова назариясининг марказида, – дебёзади Н. Д. Арутюнова, –бир томондан номинал иборалар ва воқелик объектлари ўртасидаги боғлиқликни ўрнатишда маънонинг роли ва жумланинг маъносини шакллантириш масаласи ётади, бошқа томондан – воқеълик” (Арутюнова Н. Д., 1982, вып.XIII, с. 5-38.) Коммуникатив функцияни бажарадиган, яъни хабар қилинаётган объектни кўрсатадиган маъно идентификациялаш атамасини олди. Идентификация функцияси иккита вазифани бажаради: у воқеликка нисбатанва матнга нисбатан объектни аниқлайди (ибораларнинг, бир хил объектни билдирувчи сўзларнинг асосини кўрсатади) (Арутюнова Н. Д., 1982, вып.XIII, с. 5-38.).

Шундай қилиб, матн элементларини воқеликнинг бир хил қисмига, референтга нисбат беришнинг лингвистик усулларини ўрганадиган коеффициент назарияси референция /ҳавола назариясининг барча мумкин бўлган лингвистик ифодада баён ва воқелик объекти ўртасида турли хил

боғланишларни ўрганадиган қисми асосида пайдо бўлди. Т.М.Николаеванинг асосли таъкидлашича, матн тилшунослигининг асосий вазифаларидан бири инсоннинг “тўғри” мулоқот қилиш шартларини тавсия этишдир (Николаева Т.М., I972, f- 2, с.48-54.). Матнни тўғри қуриш ва уни семантик маънода адекват идрок этиш, матннинг лингвистик бирликларининг ўзаро боғлиқлик шартларига риоя қилишни талаб қилади. Шу сабабли, ўзаро боғлиқлик муаммоларини анъанавий грамматика, яъни ибора ва жумла даражасида ҳам кўриб чиқиш мумкинлигига қарамай, матн тилшунослигининг умумий муаммоларига ишонч билан боғлаш мумкин.

Матн лингвистикасига оид асарларда прагматик, грамматик ва семантик ўзаро боғланиши муаммо сифатида қаралади. (Сафаров Ш. С., 2008, 320 с) ва бошқа кўплаб тилшунослар тадқиқот олиб боришган. Матндаги воқеликларни таҳлилида предикат вазифасидаги воситалар семантикасига когерантлик вазифасини бажаради. Бунда матннинг структуравий-семантик уйғунлиги (cohesion) ва унинг тўғри тузилиши олмошлар бажарадиган катафорик ёки анафорик вазифага ҳам боғлиқ. Лингвистик бирликларга асосланиш талаби феълнинг семантикасига мурожаат қилган ҳолда, темпорал воситаларнинг анафорик функциясига жуда мос келади. Катафорик функцияда, предикат семантикаси аргументлар билан ҳамда номинатив фразаларга боғлиқ бўлса, бу лингвистик элементларнинг ўзига хос хусусияти йўқолади ва қийинчилик билан идрок қилинади. Уни идрок этишни осонлаштириш учун дейктик функцияга эга қўшимча тавсифлар талаб қилинади. Матндаги катафорик номинативлик жуда кам учрайдиган ҳодиса бўлиб, кўпинча стилистик мақсадларда қўлланилади.

Сўнгги пайтларда референция муаммосига прагматик ёндашув кенг тус олди. Бунинг сабаби шундаки, нутқий актлар ва матнда фаоллашувида референциянинг анафорик функцияси муҳим аҳамият касб этади. Бу ерда матнга қўшимча шахс киритилганми ёки воқелик, унга ҳавола қиладими ёки йўқлигини аниқлаш билан ҳамма тнсемантикаси таҳлил қилиш керак. Аспектуал семантика матн доирасида фаоллашганда кўпгини ҳолларда воқелик эмас, балким сўзловчининг воқеа ҳодиса кечими ҳолатини маълум вақтда давом этиши ёки нутқ вазиятига нисбатан бирмунча вақт олдин содир бўлганлиги каби ҳодисаларни ифодалаш билан бирга ўзининг коммуникатив мақсадларига кўра воқеа-ҳодис аёки ҳолат кечимини мукаммал ёки номукаммал ҳодиса сифатида ифодаланаётган тасвирлар билан боғлиқ. Воқеа-ҳодисаларнинг нутқ вазиятига нисбатан яқинлиги ёки узоқлиги, сўзловчига нисбатан воқеа-ҳодисалар кечимининг қай даражада яқинлигига қараб қўлланиладиган аспектуал маънолар коммуникатив мақсадга эга бўлади. Бундан танланадиган замон шакллари, контекст ва қўлланилган иборалар мақсади нуқтаи назаридан аспектуал семантика умумлаштирувчи воқеа-ҳодисаларни маълум пайт ёки вақт оралиғига жойлаштиришга хизмат қилади. Масалан: ‘You and your mother arrived here at seven-thirty,I think?’,‘Twenty past,’ said Mrs Hathall, speaking for the first time. She had a harsh metallic voice. Under the South London accent lay a hint

of NorthCountry origins.‘So you hadn’t seen your wife since - when? Last Sunday? Monday 7’‘Sunday night,’ said Hathall. ‘I went to my mother’s by train on Sunday night. My - Angela drove me to the station. I - I phoned her every day. I phonedher today. At lunch- time. She was all right.’ He made a breath-catching sound like a sob, and his body swayed forward. ‘Who - who would havedone this? Who would have wanted to kill - Angela?’ (Ruth Rundell, 16)

Ушбу матндаги тил бирликларини мақсадли қўлланишини аниқлашнинг мавжуд усулларидан ташқари, биз Past Simple билан Past Perfect расмий оппозициясининг ўзига хос семантикасидан фойдаланилганлигини таклиф қайд этамиз. Матндаги лисоний бирликларни аниқлаш мақсадида феълнинг грамматик шаклининг семантикасига мурожаат қилишимиз бежиз эмас. Субъект ва предикат синтактик муносабатларга киришиб, предикатив бирикма ҳосил қилади. Предикатив комплекснинг икки бирлиги ўртасидаги боғланиш бир нечта функциялар каналлари орқали амалга оширилади. Ономасиологикаспектда субъект номинация ва идентификация (шахсинианиқлаш) қилиш функциясига эга; предикат номинация, аниқлаш, тушунтириш ва белгилаш функцияси (Потапова М.Д., I983, вып. 205, с.58-70.).

Хусусан, юқоридаги лавҳада“Youandyourmotherarrivedhere”, бирикмаси коммуникатив мақсадга эга бўлса, “Soyouhadn`tseenyourwifesince-when”? идентификация вазифасида қўлланилган. Жумладаги, Past Perfect шакли танланиши нутқ пайтига нисбатан узоқ вақт олдин содир этилганлигини англатиш учун қўлланилган. Феъл ифодалайдиган вазифа тингловчининг предмет (алмаштирувчи) денотацияси ҳақидаги билимига янгилик киритади ва иккинчисининг маъносини конкретлаштиради.“since-when”аниқ функцияни амалга оширган “went”,“drove”,“phoned”феъллари воқеа-ҳодиса вазиятига аниқлик киритувчи воқеликлар тарзида берилган. Ушбу предикатлар воқеликни изоҳловчи ва мақсадни белгиловчи вазифаларниэмас, балки феълнинг грамматик шакли муҳимлигига ҳам аниқлик киритади. Тугалланган Past Perfect грамматик шакли коммуникатив вазифани, Past Simpleшакли эса“яхлитлик”ни келтириб чиқаради. Бинобарин, субъект ва предикат томонидан ифодаланган ҳаракат табиати билан фарқланади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Колшанский Г.В. Прагматическая: характеристика вербальной коммуникации. - в кн.: лингвистика и методика в высшей школе (XI).Сб. научн. трудов мгпииним.М.Тореза. - М., I963, вып205,' с.3-I2.

2. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. - М.: ~ка,1976. - 383 с.

3. Арутюнова Н. Д. Лингвистические проблемы референции. -В ин.: Новое в зарубежной лингвистике. - М.: РадУГа, 1982, вып. XIII, с. 5-38.).

4. Николаева Т.М. Актуальное членение –категорм грамматикитекста. - Вопросы языкознания, I972, f- 2, с.48-54).

5. Потапова М.Д. Проблема референциального значения синтаксических отношений. - В кв.: Лингвистика и методика в высшей школе (XI). Сб. научн. трудов МГПIИЯ им.М.Тореза, I983, вып. 205, с.58-70.

# NEW PERIOD AND SOCIAL HISTORICAL ASPECTS OF LANGUAGE DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Kholikulova Khulkar Yuldashevna.**
Senior teacher of social gumanitarian sciences of law enforcement academy of Uzbekistan.
**e-mail.** Xalikulova81@mail.ru

**Аннотация.** Мақолада мустақиллик йилларида ўзбек тили борасида олиб борилаётган сиёсат, ўзбек тилининг бугунги ҳолати очиб берилган. Ўзбекистонда миллий масалалар, айниқса, тил масалалари минтақадаги бошқа давлатлар билан солиштирганда демократик тамойиллар асосида, бағрикенглик билан йўлга қўйилганлиги халқаро ҳамжамиятлар томонидан эътироф этилганлиги ёритилган.Ушбу мақолада ўзбек тили борасида жамиятда мавжуд муаммолар таҳлил қилинган ва уларнинг ечими таклиф этилган.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, тил, сиёсат, тарих, она тили, миллий тикланиш.

**Аннотация.** В статье раскрывает процессы возрождения узбекского языка в годынезависимости Узбекистана.Было подчёркнуто, одна из главных сторон менталитета узбекского народа толерантность, имеющая глубокие исторические корни, проявляющая себя и в годы независимости Республики Узбекистан.В данной статье анализируются проблемы, существующие в обществе относительно узбекского языка, и предлагаются пути их решения.

**Ключевые слова:** Узбекистан, язык, политика, история, родной язык, национальное возрождение.

**Annotation**.The article reveals the processes of the revival of the Uzbek language during the years of independence of Uzbekistan. It was emphasized that one of the main aspects of the mentality of the Uzbek people is tolerance, which has deep historical roots, which manifests itself during the years of independence of the Republic of Uzbekistan. This article analyzes the problems that exist in society regarding the Uzbek language, and suggests ways to solve them.

**Key words:** Uzbekistan, language, politics, history, native language, national revival.

Language is a significant asset to a nation, embodying Benazir values and representing a priceless heritage. It reflects the history and culture of the people and elites who created it. In many countries, the state language is used to regulate government affairs, maintain records, and document history in a standardized manner, reflecting the interests of the indigenous population of the region.The state language can be officially designated through legislation or by popular recognition. In some countries where there is no specific law regarding the state language, it is determined by popular recognition, and state work is conducted in that language.

Language is a significant asset to a nation, embodying Benazir values and representing a priceless heritage. It reflects the history and culture of the people and

elites who created it. In many countries, the state language is used to regulate government affairs, maintain records, and document history in a standardized manner, reflecting the interests of the indigenous population of the region.The state language can be officially designated through legislation or by popular recognition. In some countries where there is no specific law regarding the state language, it is determined by popular recognition, and state work is conducted in that language.In addition, the beautiful works of the king and poet Babur Mirza, created in our language, are still read with love by readers today. The development of our mother tongue can be seen in the great love of our ancestors mentioned above[1].

The history of the language, its formation, and development from a normative point of view cannot be studied without considering the history of the nation. In this regard, researching the socio-philosophical and conceptual foundations of the development of the state language from today's perspective is becoming increasingly important.

For many years, world science has studied the development of national languages as state languages from philosophical, political, legal, linguistic, and other perspectives. Such studies aim to find effective mechanisms for problem-solving. However, in practice, the relationship between the state language and national languages is maintained according to the principle of linguistic diversity, either by granting state status to one or more languages in a particular country or by the compulsory introduction of the state language. Scientific research results in the formation of concepts, programs, and methodological approaches for the implementation and functional development of the state language[2].

For this reason, there is a need to conduct a harmonious language policy in an independent state to ensure the wide use of the state language, study its importance in maintaining national identity, and ensure international stability. It is a socio-historical reality that in our country, in 1989, the Uzbek language was given the status of a state language, marking the beginning of its independent development as a sovereign state. "Each of us should consider attention to the state language as attention to independence, respect, and loyalty to the state language, respect, and loyalty to the Motherland, and make this view the rule of our lives," which requires the functional development of the Uzbek language and the search for effective ways of expansion. To fulfill this task, it is necessary to make the socio-philosophical factors of the functional development of the Uzbek language the subject of research[3].

Decrees such as No. PF-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017, "On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan," No. PF-5850 dated October 21, 2019, "On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language," No. PF-5850, 2020 Decree No. PF-6084 dated October 20, 2019, "On measures to further develop the Uzbek language in our country and improve language policy," and PQ-4479 dated October 4, 2019, "On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law "On the State Language," serve to a certain

extent in the implementation of the tasks defined in the decree number and other regulatory legal documents related to the state language[4].

Many of these languages lack a writing system, with 80% of African language speakers not having their own writing system. This limits their use in education systems and on the internet, where English dominates 81% of content. While languages have historically appeared, evolved, and disappeared over time, the current rate of language extinction is unprecedented. Efforts to preserve endangered languages aim to maintain cultural and linguistic diversity, as language is crucial for preserving the culture and traditions of peoples worldwide[5].

According to Article 7 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language," valid scientific rules and norms of the Uzbek literary language are observed in the spheres where the state language is officially used. The state ensures the enrichment and improvement of the Uzbek language, including the introduction of universally recognized scientific-technical and socio-political terms. Through this, the state has taken responsibility for the preservation, enrichment, and development of the Uzbek language.

On this basis, many scientific research projects on enriching and improving the Uzbek language are being carried out in Uzbekistan. Dictionaries and scientific treatises on various fields are regularly published. Currently, all publishing houses in the country are publishing materials that showcase the beauty of the native language. Documents are to be accepted and published in the state language, as specified in the fourth part of Article 26 of the Law "On the Procedure for Preparing Draft Laws and Submitting them to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan." According to this provision, "the draft law and the documents attached to it shall be submitted to the Legislative Chamber in the state language by the subjects of the right of legislative initiative."

The implementation of these norms can be seen in the example of the draft laws currently being submitted to the Legislative Chamber, as well as in the fact that laws being adopted in the Oliy Majlis are being intensively discussed in the Uzbek language. However, there is wisdom in every event, and intellectuals, especially creative individuals, should reflect on the uproar over language issues. Each person should contribute to the further development of the native language, enriching its unique tones and revealing the richness inherent in the language. This is important so that in the future, our children, friends, and compatriots continue to speak Uzbek to each other[6].

Despite Uzbek being declared the state language, Russian is still widely used in government offices. The Uzbek language is not yet the language of inter-ethnic communication, and there is a perceived lack of resources and books in Uzbek. Many believe that the sudden transition to the Latin alphabet has caused damage to the language. In response, the nationwide movement "Yuksalish" has organized free courses for voluntary learners and other initiatives to promote and support the Uzbek language. One proposal is to create mobile applications aimed at teaching young

people about language norms in an interactive way. These efforts are vital for the continued development and promotion of the Uzbek language.

## REFERENCES

1. G. Ortykhuzhaeva. Our state language is pride, pride. Justice. 23.10.2015.

2. Nurmatov, S. Avezov, the Uzbek language really achieve the level of the state and folk language? 07.10.2020. https://www.xabar.uz/uz/jamiyat

3. Sh.M. Mirziyoyev. On measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language. Tashkent, October 21, 2019, PF-5850-son

4.Sh.M. Mirziyoyev. The Uzbek language is a symbol of national identity and independent statehood for our people, an invaluable spiritual asset, a great value//Newspaper "People's Word." - October 22, 2019, 218.3.

5. O. Khusanov. The history of the Uzbek language is rich and unique. Newspaper "Life of Balangur." 19-04-2019. http://bulungurhayoti.uz/index.php?newsid=2114.

6. S. Mukhamedova. Creation of linguistic education for computer programs based on traffic rules. Methodological guidance. -T., 2006. 5. Kurbanova Marguba Boltaevna. Language Policy and Its Social Aspects. International Journal of Development and Public Policy | e-ISSN: 2792-3991 |www

# USMON AZIM DRAMATURGIYASIDA DRAMATIK JANRLAR RANG-BARANGLIGI

**Islomov Jurabek Soxibnazarovich**
SamDU tayanch doktaranti.
islomovj31@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Usmon Azim asarlari misolida hozirgi zamon adabiyotida dramatik janrlarning xilma-xilligi xususida so‘z yuritilgan. Chunonchi, ijodkorning ushbu turga mansub bo‘lgan tragediya, drama, dramatik doston, komediya, ertak-drama kabi bir qancha janrlarga oid asarlar yaratganligi hamda ayrim hollarda mazkur janrlarning nazariyalariga an’anaviy, ba’zan esa novatorona yondashganligi tahlillar asosida ko‘rsatib berildi.

**Kalit so‘zlar:** dramatik janr, kinodoston, radiopyesa, fojia, dramatik qissa, nasriy dramatik doston, ssenariy, spetsifik xususiyat.

**Аннотация.** В данной статье на примере творчества Усмана Азима говорится о разнообразии драматических жанров в современной литературе. Например, на основе анализа было показано, что создатель создавал произведения, относящиеся к нескольким жанрам, таким как трагедия, драма, драматический эпос, комедия, сказка-драма, принадлежащие к этому типу, а в ряде случаев приближался к теориям этих жанров традиционным, а иногда и новаторским способом.

**Ключевые слова:** драматический жанр, киноэпопея, радиоспектакль, трагедия, драматическая новелла, прозаическая драматическая эпопея, сценарий, специфика.

**Abstract.** This article talks about the variety of dramatic genres in contemporary literature using Usman Azim's works as an example. For example, it was shown on the basis of the analysis that the creator created works related to several genres such as tragedy, drama, dramatic epic, comedy, fairy-tale-drama belonging to this type, and in some cases he approached the theories of these genres in a traditional and sometimes innovative way. .

**Key words:** dramatic genre, film epic, radio play, tragedy, dramatic short story, prose dramatic epic, screenplay, specific feature.

Badiiy ijod inson ruhiyati, uning qalb kechinmalari bilan bog‘liq anchayin anglash murakkab bo‘lgan jarayondir, u haqda adabiyotshunoslikda turli- tuman fikrlar bildirib kelinadi. Masalan, “ko‘ngil mulki” deya ta’riflanuvchi she’riyatning aksariyat hollarda shoirning o‘zi uchun ijod etilishi aytilsa, epik asarlarning esa ba’zida yuqori intellektga va adabiy didga ega bo‘lgan xos kitobxonlarga mo‘ljallanib yozilishi borasida ham adabiyotshunoslikda ayrim qarashlar mavjud. O‘zbek adabiyotida dastlab xalqni ma’rifatga chorlash, ularda milliy uyg‘onish tuyg‘ularini paydo qilish maqsadida yuzaga kelgan dramaturgiya xususida so‘z yuritganda esa bu turga mansub bo‘lgan asarlarning, eng avvalo, xalq ehtiyoji uchun yaratilishi, shuningdek, ularda aytiladigan “gap”, ko‘tarildigan masalalar ham ommaning fikr

doirasiga mos bo‘lishi ta’kidlanadi. Shuning uchun ham uslub va til hamda badiiylik jihatdan epik va lirik asarlarga nisbatan soddaroq ko‘ringan dramatik asarlarning vujudga kelishi ijodkordan birmuncha mashaqqat talab etadi. Bunday asarlar ba’zida ijodkor ilhomi, g‘oyaviy maqsadi natijasi o‘laroq yaratilsa, ayrim hollarda ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan voqeliklar sabab xalq ommasiga didaktik uqtiruv zarurati tufayli buyurtma tarzida yuzaga keladi. Ayniqsa, teatrlar bilan adabiy emakdoshlik asosida ijod etgan dramaturglar ijod jarayoni uchun yuqorida qayd etilgan ikkinchi holat ko‘proq xos bo‘lgan deb aytish mumkin. Mavzuga ijodi tadqiqot obyekti etib olingan ijodkorimiz Usmon Azimning uch adabiy tur janrlarida ham ko‘plab asarlar yaratganini bilamiz. Chunonchi, uning ijodida dramatik asarlar ham anchagina salmoqli o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tmog‘imiz joiz. Bunga shoirning bir qancha muddat O‘zbekiston Milliy teatrida adabiy emikdosh bo‘lib faoliyat yuritganligi ham sabab bo‘lgan deb aytish ham mumkin[1]. Har qanday dramaturg ijodida o‘z ijodiy niyati hosilasi sifatida, shuningdek, tarixiy-ijtimoiy hayot ehtiyojiga ko‘ra yaratilgan dramalar uchraydi. Masalan, Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” dramasi 1998-yilda yaratilgan bo‘lib, 1999-yilda “Alpomish” dostonining 1000 yilligi respublika miqyosida nishonlanishi kutilayotgani sabab yozilganligi, shuningdek, ijodkorning diniy aqidaparstlik va terrorizmning mudhish oqibatlari jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘dirishini namoyish etuvchi “Qurshov” (2010) dramalari fikrimizga dalil bo‘la oladi. Epik va lirik turga kiruvchi asarlar buyurtma asosida yozilishi bir qadar salbiy munosabatga loyiq bo‘lgani holda dramatik asarlarning shu tarzda dunyoga kelishi mutlaqo ijobiy holat bo‘lib, hatto jamiyatning ruhiy ehtiyojini qondirish, ularning “ko‘zini ochish”ga qaratilgan pyesalarning tezkor ravishda, xalq e’tiborini tortar darajada yaratib bera olish dramaturgning fazilatidan biri hisoblanib kelingan. Dramatik asarlar yaratilishidagi bu kabi vaziyatlar haqida Usmon Azimning “So‘ngso‘zlar” asarida ham ijobiy munosabat bildiriladi.

Usmon Azimning dramatik asarlari xususida so‘z yuritar ekanmiz, uning 90-yillardan keyingi ijodida ushbu turdagi asarlarning yetakchi mavqega ega bo‘lganligini, dramatik turga mansub xilma-xil janrlarda qalam tebratganligini kuzatishimiz mumkin. Uning “Bir qadam yo‘l“, „Kunduzsiz kechalar“, „Bozor“ (1997), „Alpomishning qaytishi“ (1998), „Jazava“ (2000), „Baxt qushi“ (2002), „O‘tgan zamon hangomalari“ (2003), kabi pyesalar, „Baxtli bo‘laylik“, „Hujjatli film uchun sujet“, „Bahodir va Malika“ singari radiopyesalar yozganligi, „Alisher Navoiy“ kinoqissasi (1990), „Alpomish“ kinodostoni (1997), „Sevgi“ (1998, shu nomli hikoya asosida) va 2 seriyali „Alpomish“ (2000) filmlarining ssenariysiga mualliflik qilganligi ma’lum[2]. Shuningdek, uning “Tong otgan taraflarda” (2013) [3], barcha janriy xususiyatlariga ko‘ra fojia janriga to‘g‘ri keluvchi “Xalil Sulton” kabi asarlarini sanab o‘tish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, Usmon Azim darmaturgiya sohasida ijod etar ekan, janriy izlanishlar, novatorliklar qilishga intildi, Shuning uchun ham, uning dramatik asarlari sirasida o‘zida to‘la ushbu turdagi janrlar qoidalarini mujassam etgan asarlar, shuningdek, ma’lum dramatik janr unsurlariga ega bo‘lgani holda lirik, epik janr xususiyatlarini mujassam etgan asarlar ham uchraydi. Muallif bahosiga ko‘ra uch

dramatik ballada va muallif monologidan iborat doston deb nomlangan “Toshpari”[4], shuningdek, “Tohir va Zuhra” dostonini shunday asarlar qatorida sanab oʻtish mumkin. Aslida, hech qanday adabiy tur janrining sof boʻlmasligi, uch adabiy tur unsurlarining bir-biriga har doim maʼlum darajada omuxtalanib kelishi adabiyotshunoslikda taʼkidlab kelinadi. Bunday xususiyat ayniqsa dramatik asarlarda namoyon boʻlishi xususda nazariy xulosalar qayd etib kelinadi. Masalan, ushbu turning spetsifik xususiyatlari toʻgʻrisida kengroq fikr yuritilgan adabiyot nazariyasiga oid manbadagi ushbu qaydlari diqqatni tortadi:“Shunday qilib, dramaning bosh spetsifik alomati kollektiv sezimga moʻljallanganlikdir. Dramatik asarning ijroga (sahnaga qoʻyishga yoki ekranlashtirishga) moʻljallab yozilganligi aslida dramaning ana shu bosh alomatining talabi va oqibatidir.

Dramaning bosh alomatidan tashqari ikki muhim spetsifik xususiyati ham bor. Bu xususiyatlarning biri-dramaning sintetik jins ekani, yaʼni adabiyotning boshqa jins alomatlarini oʻziga singdirib olishidir. Dramaning bosh spetsifik alomatini toʻldiruvchi ikkinchi juda muhim xususiyat shuki, u (drama) boshqa jinslardan olgan alomatlarni yangilaydi, ularning badiiy quvvatini bir necha bor oshiradi; shu sababli boshqa adabiy jinslardan “qarzga olingan” alomatlar dramada boshqa, baland, prinsipial yangi sifatda maydonga chiqadilar. Shu maʼnoda ham drama oddiy adabiyot emas”.[5, 291-bet]

Koʻrinadiki, dramatik turga mansub asarlarda sintetiklik eng muhim oʻziga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bu esa dastlab uch asosiy janr - tragediya, komediya, dramaga ega boʻlgan turning janriy xillanishida ham koʻrinadi. Jumladan, Usmon Azim ijodida yuqorida nomi keltirilgan uch dramatik ballada va muallif monologidan iborat doston (“Tosh pari”), tarixiy-dramatik qissa (“Xalil Sulton”) [4, 135-311-betlar], dramatik doston (“Baxt qushi”) [3, 212-267-betlar], kabi asarlar fikrimizga dalil boʻla oladi. Umuman olganda, keyingi yillarda oʻzbek adabiyotida dramatik asar xususiyatlariga koʻra bunday janriy nomlanish boshqa dramaturglar ijodida ham kuzatiladigan holatlardandir.

Usmon Azim ijodida muallif tanloviga koʻra tarixiy dramatik qissa deb berilgan “Xalil Sulton” alohida ahamiyatga molik asardir. Temuriy hukmdorlardan boʻlgan Xalil Sulton choʻri qiz Shodimulkka koʻngil qoʻyib, qarshiliklarga qaramasdan, hatto bobosi Amir Temurning qahrlanishini bila turib unga uylanishi haqidagi voqea koʻp jodkorlarning eʼtiborini tortib keladi. Tarixda oshiq hukmdorlar va ularning maʼshuqalarining oʻz oʻlimi bilan vafodorligini isbot etgan muhabbat qissalari har doim mahzun va jozibador boʻlib, ijodkorlar eʼtiborini tortib kelgan. Masalan, badiiy adabiyotga dastlab Firdavsiy “Shohnoma”si orqali kirib kelgan Xusrav va Shirin, Bahrom va Dilorom (Firdavsiyda Ozoda) sujetlarini eslaylik. Xalil Sulton va Shodimulk muhabbati haqidagi tavsilotlar esa nisbatan yaqin oʻtmishga borib taqalishi, afsona va rivoyatga doʻnib ulgurmaganligi ular haqidagi ayrim tarixiy-badiiy asarlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan. Jumladan, 70-yillar avlodiga mansub shoirlardan Xurshid Davron tarixchi Davlatshoh Samarqandiyning maʼlumotlariga asoslangan holda tarixiy esselarida ham bu mavzuga toʻxtalib oʻtadi. Usmon Azim dramatik qissasida ijobiy obraz sifatida talqin etilgan Shodimulkka

esseda quyidagicha ta’rif beriladi: “Xalil Sultondek Amirzodaning cho‘ri qizga uylanishi Amir Temurning qahrini keltiradi. U shahzodani tutib qamab qo‘yishlarini buyuradi. Ammo bobosi amridan voqif bo‘lgan Xalil Sulton Saroymulkxonimga odam yubordi va o‘zini bobosi qahridan qutqarib qolishga o‘tinadi. Saroymulkxonim qulay payt topib, erining ko‘ngliga qo‘l soladi hamda Shohmalik va Shayx Nuriddin yordamida erka shahzodani jazodan qutqarib qoladi. Biroq Amir Temur Xalil Sultonni taxt vorisi qilish rejasidan voz kechadi.

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida “xushsurat, yaxshi xulqli, karamli, xushta’b edi”, - deb ta’riflangan Xalil Sulton Samarqand taxtiga o‘tirgach, saltanatning boshqaruv iplarini qo‘lida mahkam tutolmadi, ketma-ket xatolarga yo‘l qo‘ydi. Hatto o‘ylamay-netmay, ma’shuqasi Shodimulkning so‘ziga kirib bobosining katta xotinlari–murabbiysi bo‘lmish Saroymulkxonim bilan Tuman og‘ani majburan erga berib yubordi”[6, 163-bet]. Saroy hayoti, toj-u taxt, hokimiyatga intilishning shafqatsiz qonuniyatlari natijasida yuzaga kelgan ushbu voqelik ko‘ngil mayllarini ko‘pgina dunyoviy manfaatlardan ustun qo‘ya olgan Xalil Sulton va Shodimulkni ham xato va gunohlardan forig‘ bo‘lmagan real insonlar sifatidagi tasviri, aslida. Ammo tarixga bag‘ishlangan badiiy asarlarda ijodkor g‘oyaviy niyatiga ko‘ra tarixiy shaxslarning badiiy obrazi yaratilar ekan, ular hayotidagi voqeliklar ham ma’lum darajada asar umumruhiyatiga moslashtirilgan holda o‘zgacha talqinda berilishi mumkinligi adabiyotshunoslikdan bizga ma’lum. Xalil Sulton va Shodimulk haqida esseda berilgan yuqoridagi ma’lumot Usmon Azimni ham e’tiborsiz qoldirmadi. “Xalil Sulton” dramatik qissasida ushbu dialog orqali go‘yo bunga munosabat bildirib ketilgan:

Arg‘unshoh: Go‘yo malikamni buyuk momongiz Saroymulkxonimning halokatinda qo‘li bor ermush…

Xalil Sulton: Qaydin topibdi, Bu maraz ig‘voni? [4, 242-bet]

Demak, Xalil Sulton va Shodimulk hayotiga oid ushbu lavha Usmon Azim talqinida ham rad etilmaydi, lekin asarda ijobiy obraz tasviriga putur yetkazmaslik uchun yuqoridagicha, ya’ni Shodimulkka qilingan bo‘hton deya aytib ketiladi. Asarni tahlil etar ekanmiz, uning ijodkorini maftun etgan jihat shoirtabiat temuriy shahzodaning cho‘ri qiz Shodimulkka bo‘lgan samimiy muhabbati hamda ularning fojeiy taqdiri bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Asar o‘zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy mavzudagi fojialar bilan, masalan, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi” fojialari bilan qiyosan o‘rganilganda uning ham tarixiy fojia eknligiga shubha qolmaydi: a) asarga tarixiy shaxslarning hayotidagi eng tig‘iz, dramatik lahzalarning asos etib olinganligi; b) asar qahramonlari bilan jamiyatning hokimiyatparast qatlami orasidagi yaqinlik dushmanlikka aylana borishi jarayoni orqali yuzaga kelgan konflikt; c) bosh qahramonlarning tobora yordam kuchlarisiz qolib pirovard yakkalanishi hamda umidsizlik va chorasizlikning fojiali o‘lim bilan nihoyalanishi. Shu bilan birga, mazkur asarning ham o‘zbek tiliga tarjima qilingan hamda yozilgan ko‘plab tragediyalar kabi oq she’r shaklida ekanligi ham asarning o‘zbek adabiyotidagi ko‘pgina tragediyalarga o‘xshash xususiyatlaridir. Asarning obrazlar ham tarixiy fojialarga monanddir. Masalan, Hind uchun jangga sipohiy

bo‘lib ketib qaytmagan yakka-yu yolg‘iz farzandi ko‘yida telba bo‘lib qolgan ayol obrazi mavjud bo‘lib, unda feodal tuzum davrida oddiy xalq boshiga tushgan baxtsiz qismatlarning ko‘rsatilish “yuki” ortilgan. Qayd etilganlarning barchasi mazkur asarning dramatik qissa emas, balki tarixiy fojia ekanligini ko‘rasatadi.

## Adabiyotlar ro‘yxati


1. https://akademiklar.uz/usmon-azim
2. https://akademiklar.uz/usmon-azim
3. Усмон Азим. Танланган асарлар. Назм, наср, драматургия. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. –Тошкент. – 2021, Б.630.
4. Усмон Азим. Уйғониш азоби: Шеърлар ва тарихий драматик қисса. – Т.; Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 B.119
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom (dabiy-tarixiy jaryon). Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1979. B. 291
6. Хуршид Даврон. Самарқанд хаёли. Тошкент. “Камалак” нашриёти. – B.163.

# ANTROPONIMLARNING ONOMASTIKADA TUTGAN O‘RNI

**Uktamova Nigina Nozir qizi**
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotasiya:** Maqolada antroponimlarning tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo‘lgan onomastikada tutgan o‘rni, asosan, qanday o‘rinlarda kelishi, shuningdek, "Navoiy" romanida qo‘llanilgan antroponimlar izohiga to‘xtalamiz.

**Аннотация:** В статье речь пойдет о месте антропонимов в ономастике, одной из новых областей языкознания, и объяснении антропонимов, использованных в романе "Навои".

**Annotation:** In the article, we will focus on the place of anthroponyms in onomastics, one of the new fields of linguistics, and the explanation of the anthroponyms used in the novel "Navoiy".

**Kalit so‘zlar:** antroponim, onomastika, antroponomik birliklar, ismlar, laqablar, taxalluslar, o‘zbek antroponomiyasi.

**Ключевые слова**: антропоним, ономастика, антропономические единицы, имена, прозвища, прозвища, узбекская антропономия.

**Key words:** anthroponym, onomastics, anthroponomic units, names, nicknames, Uzbek anthroponomy.

O‘tgan asrning 60-70-yillari orasida tilshunoslikda bir qator yo‘nalishlar o‘z mustaqil tadqiqot obyektiga ega bo‘lgan mustaqil soha sifatida ajralib chiqa boshladi. Gapimizning isboti sifatida biz atoqli otlar tizimini maxsus tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan onomastika, onomasiologiya deb yuritiladigan yo‘nalish o‘z rivojlanish yo‘lini topgan. Hozirda tadqiq qilinishi dolzarb hisoblanuvchi, Moskva (yuqori) dan keluvchi, sobiq respublikalarga tarqatiladigan rejalarga 1965-yil onomastika mavzusi ham kiritilgan ekan. Mana shunday reja O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va Adabiyot institutiga ham keldi. Xullas, onomastika muammolarini tadqiq qilish ishiga o‘zbek tilshunoslari ham o‘tgan asrning 1960-yillaridan e’tibor bera boshlashdi. E.Begmatov o‘zbek antroponimiyasini, T.Nafasov Qashqadaryo viloyati toponimiyasini, S.Qorayev esa tarixiy nomlarni o‘rganishga kirishdi. Ungacha o‘rta va oliy maktab ona tili, o‘zbek tili deb ataluvchi darsliklarda turdosh va atoqli otlar sarlavhasi ostida atoqli otlarga kiruvchi nomlarning bir necha turi sanab o‘tilardi, xolos.

O‘zbek antroponimlari bo‘yicha ish olib borgan buyuk tilshunos E.Begmatov sanaladi. U "O‘zbek ismlari ma’nosi" deya nomlangan lug‘at tuzishga muvaffaq bo‘ldi va ushbu lug‘at ismlarning etnografik ma’nolarini izohlashga bag‘ishlangan deyishimiz mumkin. Lug‘atda ismlarning yaratilishi va bolaga atoqli ot sifatida qo‘yilishi bilan bog‘liq ma’nolar talqin qilinadi. Nomlar ma’nosini izohlash jarayoni izohlarning ba’zi hollarda an’anaviy filologik lug‘atlar usulida, ko‘pchilik hollarda esa ensiklopedik talqinlar xarakterida bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunga sabab ko‘pchilik ismlarning ensiklopedik ma’nosi bir necha omillar orqali shakllanishi va ko‘pqirrali xususiyatlarga egaligidir. Ismlarning ushbu lug‘atda izohlangan ma’nolarini to‘liq va

to‘g‘ri tushunish uchun nomlar ma’nosini izohlash bilan bog‘liq ba’zi ilmiy-nazariy fikrlar lug‘at so‘ngida "O‘zbek ismlari etnografiyasi" da berilgan. Lug‘atning bosh qismida Qur'oni Karimda tilga olingan Allohning go‘zal ismlari Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlangan.

Zero, o‘zbek ismlarining ham ko‘pchiligi musulmon ilohiyotida muhim o‘rin tutgan shu "ismlar"ga taqaladi. Kitobning asosiy qismida 14 ming 600 ga yaqin ismlar izohlangan. O‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1 Ismlar - konkret shaxsga berilgan ismlar.

2 Laqablar.

3 Taxalluslar.

4 O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari ("qizi", "o‘g‘li") yordamida nomlash.

5 Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida.

6 O‘tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari. Ushbu antroponomik birliklarni o‘zbek antroponomiyasi o‘rganadi.

Badiiy asarlarda qo‘llanilgan antroponimlar ham o‘ziga xos. Ayniqsa, tarixiy asarlarda qo‘llanilgan antroponomik birliklar, ularning izohi, ma’nosini aniqlash g‘oyatda qiziqarli va maroqli. Chunki badiiy asar yozayotgan yozuvchi voqealar jarayonidan kelib chiqib ham ism tanlashi mumkin.

Keling, fikrimizning isboti sifatida Oybekning "Navoiy" romanidagi antroponomik birliklar izohiga murojaat qilamiz. Asarda qo‘llanilgan antroponomik birliklar: Aloiddin Mashhadiy, Zayniddin, Sultonmurod, To‘g‘onbek, Feruzbek, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Hoji Solih, Turobiy, Iskandar Zulqarnayn, Haydar pahlavon, Orif Buxoriy, Shodi, Jomiy, Firdavsiy, Nizomiy, Abulqosim Bobur, Lutfiy, Fasihiddin, Xo‘ja Fazlullo Abullays, Ahmad Hojibek, Abusaid Mirzo, To‘qli, Majididdin Muhammad, Qosim Anvoriy, Sharafiddin Yazdiy, Farididdin Attor, Darveshali, Suqrot, Aflotun, Arastu, Abu Ali ibn Sino, Xo‘ja Afzal, Sulton Mahmud, Muzaffar barlos, Zunnun Arg‘un, Islim barlos, Bo‘ston, Abulziyo, Dildor, Abdulahad, Abdullo, Qutbiddin, Nizomiddin Baxtiyor, Mirzo Yodgor, Zohid Tarxiy, Poyanda Sultonbegim, Chingiz, Valibek, Amir Nasriddin, Ahmadali, Shirim, Maxdum, Shohruh Mirzo, Nurbobo, Arslonqul va hokazo. E.Begmatovning "O‘zbek ismlari ma’nosi" lug‘atida ayrim ismlarga izohlar: 1 Arslonqul (o‘zbekcha) - Allohning jasur, dovyurak bandasi, quli.

2 Zayniddin ismining Zaynuddin varianti ham bo‘lib, arabcha ism sanaladi. Lug‘atda dinning ko‘rki, bezagi, diniy nafosat yoki dinning ko‘rki bo‘luvchi bola deb izoh berilgan.

3 Husayn arabcha ism bo‘lib, yaxshi, mehribon, saxiy, chiroyli, go‘zal ma’nolarini anglatadi. Husayn ibn Ali (626-680) ismi bo‘lib, u Ali ibn Abu Tolibning Fotimadan tug‘ilgan o‘g‘li, Muhammad (s.a.v) ning nabirasidir. Husayn uchinchi shia imomidir.

4 Feruzbek - g‘olib, muzaffar, yengilmas.

5 Firdavsiy - jannat farzandi.

6 Yodgor - tug‘ilgandan keyin ota (yoki onasi) vafot etgan, ulardan esdalik, yodgor bo‘lib qolgan farzand.

7 Iskandar - mard, qo‘rqmas, dovyurak, jasurlarning sardori yoki himoya qiluvchi muhofazakor.

8 Haydar - arslon, jasur, dovyurak, qudratli. Bu nom xalif Alining laqabi bo‘lgan. Shuningdek Haydar - erkak bolalarda orqaga o‘rib qo‘yiladigan bir tutam soch, u sog‘lik, osoyishtalik ramzi deb hisoblanadi va bola ulg‘aygach, ma'lum marosimdan keyin qirqiladi.

9 Islim - dinning bezagi, ko‘rki yoki dinga rivoj beruvchi, yuksaltiruvchi.

10 Dildor - dildan sevilgan, chin muhabbat sohibasi, dilni rom qiluvchi yoki rahmdil, jasur, dovyurak. Shakllari : Dildorjon, Dildoroy, Dildorxon.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1 Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. -Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -608 bet.

2 Begmatov E. O‘zbek tili antroponomikasi. -Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2013. -264 bet.

3 Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Samarqand : 2021. -180 bet.

4 Oybek. Navoiy. -Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2004. -494 bet.

# 3 - SHO‘BA. XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARGA USTUVORLIK BERISHNING AHAMIYATI

## TALABALARNING INGLIZ TILIDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNINING TAHLILI (KIMYO YO‘NALISHI MISOLIDA)

**Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi**
Namangan davlat universiteti doktoranti
**Gmail:** madinaiminjonova0207@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlanib borayotgan jahonda kimyo yo‘nalishi talabalariga chet tillarini o‘rganish qay darajada ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan. Oliy ta’limning kimyo yo‘nalishi talabalariga ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni tahlil qilingan va bir nechta metodlardan samarali foydalanish taklif etilgan.
**Kalit so‘zlar:** kimyo, ingliz tili, kasbiy,kommunikativ, kompetensiya
**Abstract:** This article highlights the importance of learning foreign languages for chemistry students in the developing world. The content of developing professional communicative competence in English for chemistry students of higher education was analyzed and several methods were suggested to be used effectively.
**Key words:** chemistry, English language, professional, communicative, competence
**Аннотация:** В данной статье подчеркивается важность изучения иностранных языков для студентов-химиков в развивающихся странах. Проанализировано содержание формирования профессиональной коммуникативной компетентности на английском языке у студентов-химиков вузов и предложено несколько методов для эффективного использования.
**Ключевые слова:** химия, английский язык, профессиональная, коммуникативная, компетентность

**KIRISH** Jahonda hozirgi globallashuv davrida turli xil sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida barcha soha vakillariga xorijiy tillarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda.Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida kimyo yo‘nalishi talabalariga ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida sohaviy leksikani o‘rgatishda til ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularni xorijiy mutaxassislar bilan bo‘ladigan nutq vaziyatlariga, muloqot muhitiga tayyorlash, sohaga oid matnlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1].

Jahon amaliyotida chet tillarini eng soʻnggi texnologiyalar (net-based education, e-learning, moodle va h.k) bilan oʻqitish jadal surʼatlar bilan oʻsmoqda. Oliy taʼlim muassasining kimyo yoʻnalishi sohasida ham chet tillarni mukammal egallash ulkan taraqqiyot davrida muhim ahamiyatga ega. Boʻlajak kimyo mutaxassislariga xorijiy til boʻyicha olgan bilimlarini qoʻllab, tanlangan mutaxassislik boʻyicha chet tilda chop etilgan ilmiy maqola va adabiyotlardan olingan maʼlumotlarni tushunib va tahlil qilib, oʻzida kasbiy mahoratlarini yanada rivojlantirish uchun imkoniyat yaratilmoqda. Ayniqsa, kimyo yoʻnalishi talabalariga kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda nutq koʻnikmalarini (oʻqish,yozish,gapirish,tinglash) rivojlantirishda kimyoga oid terminlarni oʻrgatish pedagogik tizimini ishlab chiqish, integrativ yondashuv asosida talabalarda sohaviy leksikani oʻrganish jarayonida kimyoga oid oʻquv materiallarini tanlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

**METODLAR VA MATERIALLAR.** Kimyo yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivijlantirish mazmunini tahlil qilar ekanmiz, avvalo “kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya” va “kasbiy” tushunchalar haqida biroz maʼlumot berib oʻtilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

“Kompetensiya” lotincha “compete” soʻzidan olingan boʻlib, “erishaman, mos kelaman, toʻgʻri kelaman” degan maʼnolarni anglatib, u yoki bu soha boʻyicha bilimdonlik degan maʼnolarida ishlatiladi. Shuningdek, “kompetensiya” tushunchasi keng maʼnoga ega boʻlib, uning mazmun va mohiyati turli soha olimlari tomonidan turlicha talqin etiladi [2].

Pedagog olim V.I.Baydenkoning fikricha “kompetensiya shaxslarning bilimi, hayotiy koʻnikma va malakasiga, layoqatiga koʻra mutanosiblikni oʻzida namoyon etish imkoniyatiga ega boʻlishidir deb izohlanadi [3]. Kompetensiya insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur boʻladigan bilim, koʻnikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yigʻindisini ifodalaydi [4].

Kommunikativ kompetensiya atamasiga oʻrganilayotgan chet til boʻyicha egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni ogʻzaki muloqot jarayonida qoʻllash qobiliyati, degan mazmunda taʼrif berilgan [5]. Ushbu atama tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi competence soʻzi dastlab N.Chomskiy tomonidan “grammatik kompetensiya”, yaʼni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan maʼnoda qoʻllanilgan [6]. D.Xayms bolaning til haqidagi bilimi - grammatikani oʻzlashtirish jarayonida undan toʻgʻri foydalanishni, qachon, qayerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini oʻrganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi [7].

Ingliz tilini oʻrgatish boʻyicha davlat taʼlim standartida kommunikativ kompetensiyaga - oʻrganilayotgan ingliz tili boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni ogʻzaki muloqot jarayonida qoʻllash qobiliyatidir deb tavsif berilgan. I.L.Bimning fikriga koʻra kommunikativ kompetensiya - bu “muayyan dastur tomonidan belgilangan ingliz tilida soʻzlashuvchilar bilan shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati va unga tayyorligidir” deb

ta’rif berilgan. Bunda ingliz tili kommunikativ kompetensiyasi - bu shaxsning tabiiy yoki maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy muloqot jarayonida shakllangan ingliz tilida so‘zlashuvchilar ushbu tilni chet til sifatida o‘rganayotganlar bilan shaxslararo madaniyatlararo muloqotni ongli ravishda amalga oshirish intellektual ijodiy qobiliyatidir deyilgan [8].

Hozirgi kunga kelib, chet tillarini o‘qitish va o‘rganish nafaqat filologlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmay, balki sohasi tilshunoslik bo‘lmagan talabalarga ham chet tillarini o‘rganish juda katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Buni anglab yetgan yoshlarimiz chet tillarini (ingliz tili, rus tili, nemis tili, fransuz tili) o‘rganib kelishmoqda. Oliy ta’limda nofilologik yo‘nalishdagi talabalar ingliz tilini boshidan oxirigacha o‘rganishlari shart emas, bunga dars soatlarining ham kamligi yo‘l qo‘ymaydi. Talabalar faqat o‘zlarining kelajakdagi kasblarida asqotadigan ingliz tilining belgilangan leksikasi, grammatikasi, fonetikasi kabi til materiallarini o‘rganishadi, nutq faoliyatlaridan esa o‘qish, yozish, gapirish,tinglash kabilardan o‘z sohasiga kerakli bo‘ladiganiga ko‘proq diqqat sarflab ta’lim olishadi. Ya’ni faqat o‘zlarining sohasiga doir bo‘lgan ingliz tilini o‘rganishadi. Demak, ingliz tilini “kasbiy” yo‘naltirib o‘qitish degan tushuncha,talabalarga faqatgina kasb doirasida muhim bo‘lgan bilimni berish degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib, kimyo yo‘nalishi talabalariga ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish talabalarni ongli ravishda o‘zlarining kasbiga doir bilimlarni real hayotda to‘g‘ri qo‘llay olish, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida kerakli og‘zaki nutqni amalga oshira olish, ingliz tilida nashr etilgan maqolalar va original adabiyotlardan qiyinchiliksiz foydalana olish qobilyatini shakllantirishni ifodalaydi.

Barchamizga ma’lumki, kimyo fani ko‘plab kimyoviy elementlarning nomlari va formulalarini o‘z ichiga oladi. Tabiiyki, ularni yod olish va formulalarni eslab qolish biroz qiyin va zerikarli tuyulishi mumkin. Kimyogar talabalarimizni ingliz tilida kimyoviy element nomlarini va formulasi bilan yodlab olishlariga qiziqtirsh uchun “Elements Bingo” metodini tanlash mumkin. Bunda o‘qituvchi bir varaqga 25-30 ta element nomini har bir o‘quvchiga taqdim etadi va 6 ta katakdan iborat 2 ustun chizishlarini so‘raydi (1-rasm). Katakchalar ichiga esa taqdim etilgan varaqdagi istalgan kimyoviy elementlarning formulasini yozishni aytadi va o‘qituvchi har bir aytgan formulaning ustiga talabalar chizib chiqadi, kim birinchi katakchalarni chizib bo‘lsa, ana shu g‘olib bo‘ladi Bu “Elements Bingo” o‘yinini 2-3 marta takrorlash mumkin. Bu juda ham maroqli bo‘ladi, sababi talabalar hech biri o‘yinni o‘tkazib yuborgisi kelmaydi va kimyoviy elementlar formulasi bilan osonroq yodda qoladi.

Kimyo yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qituvchi ustozlarga yana bir metodimizni taqdim etishimiz mumkin. “Chemical reactions” deb ataluvchi o‘yinda talabalar o‘qituvchi tomonidan kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi kimyoviy elementlarning nomlari yozilgan varaqlarni bittadan olishadi (2-rasm). Bunda o‘qituvchi darsga oldindan varaqlarni tayyorlab qo‘ygan bo‘lishi kerak. Har bir talaba sinf xonani aylanib o‘ziga berilgan kimyoviy elementni qaysi element bilan reaksiyaga kirishishi mumkinligini topadi. Masalan: “hydrogen” va “oxgen”, ular bir birlarini topadilar va eng asosiysi to‘g‘ri talaffuz qilishlari kerak. Bitta kimyoviy

reaksiya topilgach, kkinchisini topishda davom etadi, bu orada oʻqituvchi talabalarni topganlarini qayd etib, talaffuzini tekshirib turadi. Soʻnggida, kimning topgan reaksiyalari koʻproq va toʻgʻri boʻlsa, ana shu talaba gʻolib deb topiladi. Bu metod ham dars jarayoniga hamjihatlik ruhini beradi va talabalarda juftlik boʻlib ishlash qobilyatini shakllantiradi.

| | | |
|---|---|---|
| H | Cu | Fe |
| Cl | Pb | Na |

1-rasm

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Carbon | Hydrogen | Oxygen | Sulphur | Calcium |
| Carbon | Flourine | Oxygen | Chlorine | Copper |

2-rasm

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.** Hozirda jadal rivojlanib borayotgan jahonda chet tillarini oʻqitish oʻzining ahamiyatini oshirib bormoqda, bundan boshqa soha vakillari ham til oʻrganishga boʻlgan qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Ayniqsa, kimyo yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish oʻzining ahamiyati va oʻrniga ega. Talabalar kelajakda kasbiy faoliyatini yaxshi ravnaq topishi maqsadida ingliz tilini oʻrganishlari muhim. Ular kasb yuzasidan turli xil tadbirlarda, konferensiyalarda, safarlarda boʻlishi mumkin va bunday vaziyatlarda ingliz tili, albatta, qoʻl keladi. Yuqorida taklif etilgan metodlar kimyo yoʻnalishi talabalariga oʻzining dars jarayonidagi samaradorligini oqlaydi va yaxshi natijalar beradi degan umiddamiz.

## ADABIYOTLAR


1.Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Т.: “Ўзбекистон”, 2016. 56 б.

2.Уразова М.Б. Бўлажак социолингвистик таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. 13.00.05- Социолингвистик таълим назарияси ва методикаси (педагогика фанлари). Док.дисс.автор. Тошкент: 2015йил. 10, 17, 21- бетлар.

3.Байденко В.И. Выявление состава компетенции выпусников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения: Методическое пособие. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. 72 с.

4.Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг Давлат таълим стандартлари. //Халқ таълими. № 4. – 2013. Б. 4–32.

5.Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. Strasbourg: Council of Europe, 1993. 204 p.

6.Клюев Е.В. Речевая коммуникация: учеб. пособие для университетов и институтов / Е. В. Клюев. М. : РИПОЛ КЛАССИК, 2002. 320 с.

7.Хаймс Д. Этнография речи / Э. Хаймс // Новое в лингвистике. Социолингвистика. – Москва, 1975. Вып. 7 С. 42-95

# 4 - SHO‘BA. BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING AHAMIYATI

## OLIY TA’LIMDA TALABALARGA FUTBOL O‘YINI VA HAKAMLIK QILISH QOIDALARINI O‘RGATISH.

**Mirzayev A’zam Xudaynazarovich**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar,madaniyat jismoniy tarbiya va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oily talimda talabalarni futbol o‘yinida xaraklanish va to‘pni qabul qilish texnikasiga o‘rgatishga qaratilgan.

**Аннотация:** Данная статья направлена на обучение студентов технике обращения и приема мяча в футбольном матче.

**Annotation:** This article aims to teach elementary students the movement technique in a football game.

**Kalit so‘zlar:** Futbol, tezkorlik-chaqqonlik sifati, texnik taktik elementlar,

**Ключевые слова:** футбол, качество ловкости, технико-тактические элементы,

**Keywords:** Football, quality of agility, technical tactical elements

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari, futbolga bo‘lgan qiziqishning ortib borishini hisobga olgan holda, ushbu sport turini turli tomonlardan ko‘rib chiqish tavsiya etiladi: Iste’dodli va salohiyatli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talablar va standartlar asosida futbol bo‘yicha murabbiy va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli Farmoni imzolandi:

So‘nggi yillarda olimlar tomonidan xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim muasasalari o‘rtasida doimiy ravishda yiliga kamida ikki marotaba “Talabalar ligasi” musobaqalari o‘tkazib boriladi;

“Talabalar ligasi” musobaqalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga hamda “O‘zbekiston talabalar sporti assotsiyasi ijroiya qo‘mitasi” tamonidan ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtiriladi.

Bunda “Talabalar ligasi” musobaqalarini o‘tkazish natijalari bo‘yicha iqtidorli talabalar oily ta’lim muasasalaridan saralab olinadi, o‘yin texnikasi va taktikasi, vosita mahoratining rivojlanishiga ta’siri, o‘yin uchun mashg‘ulotlar jalb qilinganlarning tanasiga har tomonlama va ko‘p jihatdan ta’sir qiladi, asosiy jismoniy fazilatlarni rivojlantiradi - tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuchlilik, funktsionallikni oshirish, turli xil vosita ko‘nikmalarini shakllantiriladi. Shu bilan birga, muhim odatlar ichki, mehnat, ta’lim va sport rejimlarini doimiy ravishda saqlashga olib keladi. Bu ko‘p jihatdan sog‘lom turmush tarzini shakillantirishga uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Raqobat tabiati, yuqori hissiyot, mustaqillik futbolni ochiq havoda samarali vositaga aylantiradi.

Har bir jamoada maksimal 11 futbolchi bo‘lishi mumkin, ulardan biri darvozabon. Jamoalar o‘yin davomida har birida 3tadan o‘zgarish (rasmiy musobaqalar uchun) va agar qo‘shimcha vaqtga o‘tadigan bo‘lsa, qo‘shimcha o‘zgarishlarga ega. Zaxira o‘yinchilari o‘yin boshlanishidan oldin tayinlanib, ulardan 0 dan 7 gacha belgilashlari mumkin. Boshlang‘ich o‘yinchi (uchrashuvning asosiy tarkibida bo‘lgan o‘yinchi) va uning o‘rnini bosuvchi futbolchi o‘rtasida almashinuvni amalga oshirish uchun o‘yin to‘xtatilishi va sensorli chiziqda o‘tish kerak. Zaxira o‘yinchisi boshlang‘ich o‘yin maydonidan to‘liq chiqib ketmaguncha maydonga kira olmaydi va almashtirilgan o‘yinchi qayta maydonga tushmasligi mumkin. Agar ruxsat etilgan almashtirishlar soni amalga oshirilgan bo‘lsa va darvozabonni almashtirish zarur bo‘lsa, uni hakamga xabar berganidan so‘ng uni maydondagi o‘yinchilarning biri o‘zgartirishi mumkin. Agar o‘yinchi zarbadan oldin chetlatilsa, uning o‘rnini faqat oldin tayinlangan zaxira o‘yinchilaridan biri egallashi mumkin. Agar zaxira o‘yinchilaridan biri zarbadan oldin yoki keyin maydondan chetlatilsa, u zaxira o‘yinchisi sifatida maydonga tusha olmaydi.

Boshqa musobaqalar turlari (ommaviy futbol yoki havaskorlar chempionatlari) uchun futbolchilar soni va o‘zgarishlar soni har xil bo‘lishi mumkin, ammo har doim jamoalar o‘rtasida kelishilgan holda va o‘yin boshlanishidan oldin hakamga oldindan xabar beriladi. Asosiy hakam o‘yin davomida eng yuqori hokimiyat hisoblanadi. U o‘z faoliyatini maydonda olib boradi va o‘yin boshlanishidan oldin ham futbolchilarga pand-nasihat qilish, o‘yinni to‘xtatish va reglamentni bajarish kuchiga ega. O‘yin oxirida, uyin davomida sodir bo‘lgan barcha vaziyatlar haqida batafsil hisobot chiqaradi. Yordamchi hakamlar maydonning har ikki tomonida bittadan, har biri maydonning yarmida turishadi.

Ularning vazifasi asosiy hakamga yordam berish, qachon ofsayd bo‘lganligini yoki qaysi jamoa burchak to‘pini tepishini ko‘rsatishi va umuman olganda, bosh hakamga uning ko‘rish sohasidagi vaziyatlar bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda yordam berishdir.

To‘rtinchi hakam maydon tashqarisidagi harakatlarning monitoringi bilan shug‘ullanadi. Odatda bu o‘yinchi almashtirish va qo‘shimcha vaqtni ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Ba’zi hollarda shubha tug‘ilganda bosh hakam to‘rtinchi hakamga ishonishi mumkin, ammo yakuniy qarorni aynan bosh hakam qabul qiladi.

**Xulosa.** So‘nggi yillarda olimlar tomonidan xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz raxbari tamonidan sportga va futbolga aloxida etibor berilib kelinmoqda, o‘ylaymizki kelajakda futbolmiz ham yaxshi natijalarga erishadi.

## Adabiyotlar.


1. SH.M. Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» 2018 T:
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonun»gi. , -T.:O‘zbekiston. 2015 4-sentyabr
3. SH.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘grisidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-son qarori
4. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qullanma.- T.: 2012. 162b.
5. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to‘g‘risidagi Konsepsiya 2019 13-fevral.
6. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Jismoniy tarbiya nazariyasi” “SamDU” nashri darslik. 2020 y.
7. R.I.Nurimov. Futbol nazariyasi va metodikasi darslik. O‘zDJTSU.2016
8. Актуальные вопросы обучения и воспитания подрастающего поколения [Электронный ресурс] Издательство «Мир науки». — Электрон. текст. данн. (2,37 Мб.).Уфа: Издательство «Мир науки», 2016. 1 оптический компакт-диск (CD-ROM).
9. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. “Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash”. T.: O‘zbekiston, 2004 y. 5 b.
10. Акбаров, А., Алламуратов, ШИ., Эрназаров, ГН. (2020).
11. Султонова Озода Раджабовна, Нарзиева Наргиза Норкузиевна, Суванова Дилнура Курбановна, ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА РАКАМЛИ ИКТИСОДИЕТНИ О'РНИ , ПЕДАГОГИ: Том. 53 № 2 (2024): МЕЖДУНАРОДНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ ПЕДАГОГИ | ПЕДАГОГС.UZ | ПЕДАГОГИ | ПЭД | ТОМ-53 | ВЫПУСК-2

# YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**A.B.Tuvalov**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Xalq milliy harakatli o‘yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag‘ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta’minlaydi. O‘yinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar. Milliy harakatli o‘yinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham o‘yinlarga umumiy jismoniy ta’sir ko‘rsatuvchi sifatida qarash lozim.

**Аннотация:** Народные подвижные игры играют важную роль в развитии физических качеств детей. Потому что игры повышают интерес учащихся, доставляют им удовольствие, способствуют более быстрому восстановлению трудовых навыков. Благодаря играм дети забывают об усталости и стараются аккуратно выполнять упражнения. Все национальные двигательные игры оказывают целостное воздействие на детский организм. Следовательно, необходимо рассматривать игры как общий физический фактор влияния.

**Annotation:** People's national movement games play an important role in the development of children's physical qualities. Because games increase students' interests, give them pleasure, and ensure faster recovery of work skills. Thanks to the games, children forget about fatigue and try to do the exercises carefully. All national movement games have a holistic effect on children's bodies. Therefore, it is necessary to look at games as a general physical influencer.

**Калит сўзлар:** Xalq milliy harakatli o‘yinlari, chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, jasorat, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlik.

**Ключевые слова:** Народные национальные игры-действия, ловкость, ловкость, сила, смелость, решительность, уверенность в своих силах, стойкое преодоление трудностей, выносливость.

**Key words:** People's national action games, agility, dexterity, strength, courage, determination, confidence in one's own strength, steadfastly overcoming difficulties, endurance.

Xalqning sog‘lig‘ini mustahkamlash jismoniy madaniyatning asosiy vazifalaridan biridir. Barkamol avlod tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yangilanish jarayoni kechadigan hozirgi davrda ma’naviy boy, ahloqiy yetuk, intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakillantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Shu nuqtai nazardan jismoniy madaniyat va sportga e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash ular tug‘ilgan vaqtidan boshlanadi. Tarbiya yosh avlodni hayotga tayyorlashdan iborat. Jismoniy tarbiya ma’lum bir maqsadni ko‘zlab, ongli va rejali tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatdir.

Barkamol avlodni jismoniy tarbiyalash davomida bolalarning qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U bolalarning xulq-atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta’sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxs qanchalik jismoniy chiniqqan bo‘lsa, tevarak atrofdan bo‘ladigan hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta’siri shuncha kuchsiz bo‘ladi. Xalqimizning milliy o‘yinlari esa ana shu maqsadda keng qo‘llanib kelinayotgan muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir. Shuning uchun xalq milliy harakatli o‘yinlariga e’tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko‘rinmoqda.

Qadriyatlarga e’tibor qaratish Sharq xalqlari madaniyatining juda ko‘p unsurlarini saqlab qolishga va ulardn amaliy foliyatda foydalanishga imkoniyat yaratiladi. Qadimgi mahalliy xalqlarimiz uchun an’anaviy milliy o‘yinlar va milliy bellashuvlar qachonlardir ular hayotining ajralmas bir qismi bo‘lgan, ular xalq marosimlarida, rasm-rusumlarda va urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan, mustahkam o‘rin olgan jismoniy madaniyatning, rasm-rusumlarida va mustaqil bir soha sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan, mutahkam o‘rin olgan.

Jismoniy madaniyatning bunday o‘ziga xos vositalari yordamida bobolarimiz o‘sib kelayotgan avlodda chaqqonlik, epchillik, kuchlilik va sabr-toqat kabi xususiyatlarni shakllantirganlar. Farzandlarini hayot qiyinchiliklariga va tabiatning qiyinchiliklariga nisbatan bardoshli, baquvvat qilib tarbiyalaganlar.

Bolalarda maktabda o‘qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bunda jismoniy madaniyatning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o‘zbek xalq milliy o‘yinlari juda qo‘l keladi, chunki bu o‘yinlar bolalarni jismoniy, ruhiy, ma’naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o‘z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni sog‘lom, yetuk va komil inson qilib tayyorlash mustaqil O‘zbekistonimiz keljagining mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xalq milliy harakatli o‘yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag‘ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta’minlaydi. O‘yinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar.

Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi, insonni to‘g‘ri yashashga tayyorlashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy madaniyatning umumiy maqsadi ko‘zdan qochirilmaydi.

Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasida sog‘lomlashtirish, ta’lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Xalq milliy o‘yinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari ko‘proq ko‘rinadi. Jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish tanda, bolalarda joriy qilingan tartibga rioya qilish odatini hamda xalq o‘yinlari bilan iloji bo‘lsa xar kuni muntazam ravishda shug‘ullanish ishtiyoqini uyg‘otish, ularda maktab va uyda shu o‘yinni bilan mustaqil shug‘ullana olish layoqatini rivojlantirish, ularni o‘z tengqurlari va o‘zlaridan kichik bo‘lgan bolalar jamoasida o‘yinlarni tashkil qilish, ularni birgalikda bajarishga o‘rgatish lozim.

O‘quvchilarda xalq milliy o‘yinlariga mehr bilan, shu o‘yin natijalariga qiziqish bilan va sportchilar erishadigan g‘alabalariga havas bilan qarash tuyg‘usini tarbiyalash lozim.

Milliy xalq o‘yinlarini o‘rganish jarayonida ahloqiy, aqliy, estetik va mexnat tarbiyalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi.

Xalq o‘yinlarini bajarish chog‘ida bolalar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma’naviy fazilatlar (halollik, odillik, do‘slik tuyg‘usi hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo‘lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajarish) ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlik va hakozolar ) ni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

To‘g‘ri tashkil qilingan milliy halq o‘yinlari bolalar aqlining rivojlanishiga qulay imkoniyatlar yaratadi, zero, bunday vaziyatda asab tizimining ham, boshqa barcha a’zolar tizimlarning ham faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlar paydo bo‘lishi, shubhasiz.

Xalq milliy o‘yinlarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar xalqona an’analariga sodiq holda yaxshi tarbiya ko‘radi, o‘rgangan narsalarini puxta eslab qoladi. Bolalarda ruhiy jarayonlar (tarbiya, tafakkur, xotira, tasavvur va boshqalar) ning, shuningdek, fikirlash faoliyatlari (kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va hakozolar) ning, barchasi rivojlana boshlaydi.

Milliy harakatli o‘yinlar jarayonida erishilgan ilm va malakalardan ijodiy foyjalanish layoqatini bolalarda tarbiyalashga e’tibor qaratish lozim, chunki bunday layoqatga bolalar o‘zlaridagi ishchanlik, mustaqillik, ziyraklik, topqirlik, hozirjavoblik kabi ezgu fazilatlari tufayli erishadilar. Bolalarda ijobiy hissiyotlarni, odamlar bilan samimiy va quvnoq munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini tarbiyalash, shuningdek, yuz bergan salbiy ruhiy holatlarni tez bartaraf qila olish layoqatini rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda milliy xalq o‘yinlariga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalq o‘yinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o‘ziga singdirishni, go‘zallik, nafosat, ma’nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o‘z atrofidagi barcha narsalarni tushunish, to‘g‘ri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va o‘z xulq-atvoriga gard

yuqtirmaslikka boʻlgan moillikni, qilayotgan ishi, aytayotgan gapi va barcha hatti-harakatida qoʻrslik, dagʻallikka aslo yoʻl qoʻyilmaslikni rivojlantirish lozim boʻladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


4. SH.M. Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» 2018 T:
5. Oʻzbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisidagi qonun»gi. -T.:Oʻzbekiston. 2015 4-sentyabr
6. SH.M. Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgrisidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-son qarori
7. Usmonxoʻjayev T., Xujayev A. Harakatli oʻyinlar, "Toshkent". 1992 yil.
8. Qoraboyev U. Oʻzbek halq oʻyinlari "Toshkent" . 2001 yil.
9. Normurodov A. Jismoniy tarbiya. "Toshkent" . 1998 y.
10. Norboev B. Istiqlol va istedod tarbiyasi. "Oʻqituvchi". 1996 y
11. Haydarov B.T., Ibroimova G.X. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Jismoniy tarbiya nazariyasi" "SamDU" nashri darslik. 2020 y.

# SPORT MENEJMENTIDA BOSHQARUV PRINSIPLARI

**Rasulov Anvar Saidmurod o‘g‘li**
O‘zDJTSU “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish”
kafedrasi o‘qituvchisi (+998998325954) anvarrasulov1199@gmail.com
**O‘ktamov Nozimbek Nozir o‘g‘li**
MN-51-20 guruh talabasi
**Robbimov Islombek Abbos o‘g‘li**
MN-52-23 guruh talabasi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Sport menejmenti va sportda boshqaruv tizimining prinsiplari, menejmentda boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Prinsip, yetakchi, go‘ya ilmiylik prinsipi, markazlashgan boshqaruv, tizimlilik prinsipi, yaxlitlik prinsipi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются принципы спортивного менеджмента и системы управления в спорте, направленные на правильную организацию и осуществление управленческой деятельности в управлении.

**Ключевые слова:** принцип, лидер, принцип притворной научности, принцип централизованного управления, принцип системности, принцип целостности.

**Annotation:** this article focuses on the principles of the management system in sports management and sports, the correct organization and implementation of management activities in management.

**Keywords:** principle, leader, Goya principle of science, centralized management, principle of systemality, principle of integrity.

Prinsip tushunchasi lotincha "pricium" so‘zidan olingan bo‘lib "boshlanish", "asos" degan ma’noni bildiradi. Hozirgacha bu so‘z ma’nosi har xil talqin qilib kelinmoqda, jumladan, ba’zi manbalarda asos yoki qandaydir nazariya va fanning boshlanish nuqtasi sifatida ma’no berilayapti, boshqa manbalarda esa, ishchi xodim, xodimlar xulqining boshlang‘ich yoki asosiy qoidasi sifatida va guruh a'zolarining o‘zaro munosabatlariga qo‘yilgan asosiy talab sifatida ifodalangan. Demak,prinsip - bu faoliyat yuritish, boshqaruvning asosiy qoidasi, yetakchi g‘oyadir. Ilmiy adabiyotlarda odatda, boshqaruv prinsiplari deganda iqtisodiyotga rahbarlik qilishda asoslaniladigan asosiy qoida, yo‘l-yo‘riq, xulq me'yorlari tushuniladi.

Boshqaruv prinsiplari iqtisodiyot qonunlari ta’siri natijasida boshqaruv usullariga bog‘liq hodisalar mohiyatini aks ettiradi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentida boshqaruv mexanizmi sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Prinsiplar —► usullar -► uslublar —► hodisalar

Sport menejmentining boshqaruv prinsiplari o‘zaro bog‘liq va birgalikda qo‘llanilishi lozim. O‘zbekistonda menejment prinsiplari yurtimizdagi barcha

sohalarda,jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy tub oʻzgarishlarni aks ettiradi. Ular davlat tizimi, mulkchilik formalari, infratuzilma, huquqiy normalarni aks ettirgan holda ijtimoiy-iqtisodiy yoʻnalishga egadir. Menejmentda, xususan jismoniy tarbiya va sport menejmentida rahbarlar oʻzlarining amaliy faoliyatlarida umumiy prinsiplardan koʻp foydalanadilar. Menejment prinsiplari rahbarlar oʻzlarining boshqaruv faoliyatlari va xoʻjalik masalalarini yechishlarida foydalaniladigan asosiy qoida va yoʻriqnomalar majmuasidan iboratdir.

Menejmentda mavjud har bir prinsipning nazariy asoslarini birma - bir oʻrganib, ulardan alohida foydalanish mumkin, lekin amalda ular butun bir majmua sifatida qoʻllanilib va rivojlanib borayapti. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti prinsiplarining majmuasi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi amaliyoti bilan bevosita aloqadordir. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining menejment prinsiplariga mos boʻlmagan harakatlari amaldagi sistema qonuniyatlariga zid keladi va boshqaruvda uzulishlarga olib keladi, pirovardida uning samaradorligi pasayadi.

Sport menejmenti prinsiplari majmuasi oʻz tabiatiga koʻra, yaxlit boʻlsada, ahamiyat darajasiga koʻra, har xildir. Ular qoʻllanayotgan joyiga, tizim, tashkiliy va funksional koʻrinishiga qarab bir-biridan farq qiladi. Iqtisodiy munosabatlarning har xilligi prinsiplarning turli tumanligini taqozo etadi.

1. Menejment xizmati oʻzining mohiyatiga koʻra, jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi koʻpgina umumiy prinsiplarga amal qilgan holda rivojlanib boradi. Ulardan eng muhimi ilmiylik prinsipidir, u har doim nazariyaning amaliyotdan ilgarilab borishini hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport menejmentini boshqaruvdagi zamon talablariga javob bera oladigan boʻIishiga xizmat qiladi. Ilmiylik prinsipi jamiyatdagi ijtimoiy - siyosiy siljishlarni oldindan fan asosida koʻra bilgan holda, amaldagi aniq sharoitga qarab boshqarish tizimini toʻliq nazoratda ushlab tura oladigan darajada menejmentning asosiy zvenosini topa olishga xizmat qiladi.

2. Sport menejmentida boshqaruvninr barcha ierarxik pogʻonalari yani davlat, tarmoqlararo, tarmoq va korxona doiralarida boshqaruvning birlik (yaxlitlik) prinsipi doimiy ravishda qoʻllanib kelinadi. Ushbu prinsip yurtimizda ma'muriy-boshqaruv sub'yektlari, har xil ijtimoiy hayot va xalq xoʻjaligi tarmoqlari, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari doirasidagi tizimlar mavjudligiga asoslangan. Menejmentning yaxlitlik prinsipi iqtisodni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi tarmoq va hududiy yaxlitlik prinsipi bilan chambarchas bogʻlanib ketgan.

3. Jismoniy tarbiya va sportda markazlashgan boshqaruv bilan demokratik boshqaruvning yaxlitlik prinsipi. Markazlashgan boshqaruv bilan demokrativ boshqaruvning yutuq kamchiliklari menejmentda yorqin namoyon boʻlib turadi. Shuning uchun ulardan rahbarlar oʻz davrida, oʻz foydalarini koʻzlagan holda juda unumli foydalanib kelganlar. Masalan sobiq ittifoq rahbarlari uchun markazlashgan boshqaruv qoʻl kelgan boʻlsa, Oʻzbekistonda mustaqillik, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksincha, demokrativ boshqaruvning oʻrni kengayib borayotganini

ko‘rayapmi. Lekin hayot shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti talablariga sof ravishda, alohida na markazlashgan boshqaruv, na demokrativ boshqaruvi to‘liq javob bera oladi. Sportda markazlashgan boshqaruv bilan demokrativ boshqaruvning yaxlitlik prinsipi, masalan, jamoa, guruhlarning mashg‘uloti yoki musobaqalar vaqtida murabbiyning topshiriqlarini (markazlashgan boshqaruv) sardor orqali o‘yinchilar tomonidan, sharoitga qarab, ijodiy ravishda ijro etilishida (demokrativ boshqaruv) namoyon bo‘ladi. 4. Sport menejmentining muhim elementlaridan biri tizimli boshqarish prinsipidir. Menejmentning tizimli boshqarish prinsipi ko‘rilayotgan har qanday muammoda masalalar yechimini optimizatsiyalashga qodir, har tomonlama, ko‘p qirrali yondashuvni ko‘zda tutadi. Tizimli yondashuv qator-qator ilmiy-texnik, ijtimoiy- siyosiy, ruhiy masalalarni oqilona (kompromiss) yechimini o‘z ichiga oladi. U boshqaruv jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi va tashqi bog‘lanishlarni, barcha omillar majmuasini inobatga olishni talab qiladi.

5. Sportni boshqarishda standartlashtirish prinsipi bosh rolni o‘ynaydi. Uning amalga oshirilishi sport inshootlarini qurish, sport inventarlarini yaratishda samaradorlikka erishish masalalarini hal etishda qulayliklar tug‘diradi. U jismoniy tarbiya va sportda o‘zaro bog‘liq standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etishda yagona davlat siyosatini olib borishni ko‘zda tutadi. Standartlashtirish prinsipining joriy etilishi barcha stanrtlarning nisbatan mo‘tadilligini optimal ta'minlagan holda, texnik shartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o‘z vaqtida, tegishli me'yor darajasida o‘zgartirib borishga xizmat qiladi.

6. O‘zbekistonda ko‘p millatli aholi yashaydigan sharoitda, bozor munosabatlarining hozirgi zamon bosqichida barcha tarmoqlardagi kabi sport menejmentida ham boshqaruvning baynalminal va milliy xususiyatlarini muvofiqlashtirish prinsipi qo‘l keladi. Menejment umuman olganda, millat tanlamaydigan soha hisoblanadi, O‘zbekiston sharoitida an’anaviy ravishda yuzdan ortiq millatlar yashab kelayotgan holatda biron-bir millat vakilining kamsitilmasligi ayni haqiqat, ularning barchasiga hukumatimiz, xalqimiz tomonidan teng sharoit yaratib berilgan. Lekin biz quyida ko‘rmoqchi bo‘lgan boblarimizda menejmentdagi milliy xususiyatlarning zamonaviy boshqaruv tizimida juda katta ahamiyat kasb etishiga e’tibor qilmoqchimiz. Menejment nazariyasi va amaliyotida katta o‘rin egallagan Yevromenejment, AQSH, Yaponiya menejmentining xususiyatlari, qolaversa, sharqoniy menejmentning alohidagilini aynan boshqaruvning baynalminal usullari orqali birlashtirish mumkin.

**7.** Jismoniy tarbiya va sportda eng oqil prinsiplardan biri ishchi xodimning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish prinsipi bo‘lib, u juda katta ahamiyatga egadir. U shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, eng avvalo, manfaatlar ko‘rinishida yuzaga keladi, bu esa bozor iqtisodiyotiga o‘tish buyruq bilan emas, balki xizmatchilarning shaxsiy qiziqishlari orqali amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya va sportda ham menejmentning motivatsiyalash modellari orqali juda ko‘p rag‘batlantirish usullarini topish mumkin. Yuqorida keltirganimizdek, motivatsion modellar kam xarajatsiz, yoki umuman, xarajatsiz insonlarni o‘z ich-ichlaridan misli ko‘rilmagan intilishlarga olib kelishi mumkin.

8. Xalq xo‘jaligida, jumladan, jismoniy tarbiya va sportda ham iqtisodning birlamchilik, siyosatning Ikkilamchillk prinsip katta ahamiyatga ega. Tarixdan siyosatni birinchi o‘rniga qo‘yib, iqtisodni unga bo‘ysundirilganda qanday salbiy oqibatlarga, iqtisodiyot qonunlarini buzilishiga olib borgani barchnmizga ma'lum. Respublikamiz iqtisodiyot, rivojini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov "Iqtisod boshqaruvini isloh qilish"ning beshta prinsipidan eng birinchi o‘ringa iqtisod ustuvorligini qo‘ydi. Yuqoridagi A.Masloning "Inson ehtiyojlari modeli"da keltirilgandek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirishda iqtisodning birinchi o‘rinda turishi ayni haqiqatdir. Aslini olganda, motivatsion modellardagi har qanday omildan foydalanishni tashkil etishning o‘zi birinchi navbattda, katta iqtisodiy masaladir.

9. Sportda amaldagi mashg‘ulotlar, natijalarning so‘nggi yutuqqa qaratiigan bo‘lishi prinsipi. A.Maslouning "Inson ehtiyojlari modeli"ning so‘nggi bosqichlarida keltirilgan, "Hurmat va o‘z imkoniyatlarini namoyish qilish" ehtiyojlariga ko‘ra, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning maqsadlari tor doiradagi masalalar bilan cheklanmagan bo‘lmog‘i lozim. Har bir sportchi o‘zining jismoniy tayyorgarligida ma'lum ko‘rsatkichlarga erishgach, kelajakda ulardan unumli foydalanishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi musobaqalarda yuksak marralarga erishishga undaydi. Ushbu masalalarni hal etishda A.Maslouning "Inson ehtiyojlari modeli"da keltirilgandek, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ham katta imkoniyatlarga ega, jumladan, quyida biz batafsil tahlil qiladigan motivatsiyadagi "Kutish nazariyasi" modeli va boshqalar misol bo‘la oladi. Sportda birgina "Kutish nazariyasi"ni joriy qilish orqali sportchilarni kelajakdagi yutuqlariga ishontirish orqali amalda ularni katta yutuqlarga undash va eng yuqori shohsupaga olib chiqish mumkin.

10. Sport menejmentida mo‘tadillik prinsipi. Sport bilan shug‘ullanuvchilarning uzoq muddat davomida jismoniy va ruhiy holatlarni tegishli darajada ta'minlab borish menejment oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar uchun doimo "Yuksak sport forma"sida bo‘lish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi, ushbu masalani hal etishda menejment ortiqcha xarajatlarsiz, kerak bo‘lsa, katta mablag‘ talab qiladigan texnik-texnologik vositalarisiz o‘zining kategoriyalari, usullari va motivatsion modellari yordamida katta hissa qo‘shishi mumkin.

11. Ishchi jamoalarida, jumladan, jismoniy tarbiya va sport jamoalarida guruh hamkorligini ta’minlash prinsipi. Jismoniy tarbiya va sport guruhlarida, ya’ni guruhlarda tarkibni ishtirokchilarning bir-birlariga mos kelishlarini hisobga olgan holda shakllantirilmasa, kerakli ruhiy muhitga erishib bo‘lmaydi va guruhda hamkorlik yuzaga kelmaydi. Biz yuqorida qayd qilganimizdek, har bir shaxs turli xildagi shijoatga mansub bo‘lgan holda, turlicha ruhiy holatda, kayfiyatda bo‘ladi, Bunday insonlami guruh jamoalarida o‘z o‘rinlarini topishlari, hamjiha bo‘lib ishlay olishlari va boshqa guruhlar bilan hamkorligini ta’minlash uchun menejerlar o‘ta murakkab, katta masalalarni hal etishlariga to‘g‘ri keladi. Menejment nazariyasi va amaliyotida har qanday guruh a'zolarini bir- birlariga mos ravishda oldindan tanlay

bilish masalasi katta o‘rin olgan va ularni hal etishning ma'lum yechimlari ham mavjud.

Rejalilik prinsipi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni, jismoniy tarbiya va sportni rejali boshqarish - biznes va strategik rejasini tuzish - iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishning muhim shartidir. Bu prinsip ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo‘ljallangan yo‘nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

Xodimlar (ishchi xodim)ni tanlash va joylashtirish prinsipi Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat’iy talablar qo‘yadi, ularning ishbilarmonlik sifatlari, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarni belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Agentlar mustaqillik va erkinligi prinsipi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agentlarsiz ish yuritishni tasavvur qilish qiyin, shuning uchun bozorda agentlar faoliyati iqtisodiy javobgarlik bilan bog‘langan holda, birgalikda amalga oshishi kerak. Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham agentlarning o‘rni kengayib borayapti.

Shaxsiy tashabbus prinsipi. Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat qiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak. Jismoniy tarbiya va sportda jamoa va jamiyat manfaatlariga shaxsiy manfaat va shaxsiy tashabbussiz erishib bo‘lmasligini esdan chiqarmaslik lozim.

Javobgarlik va tavakkalchilik prinsipi. Tadbirkor o‘z faoliyati uchun javobgar bo‘lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik ham hisobga, olinishi, ya’ni tadbirkorning o‘z huquq va majburiyatlari bo‘lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ushbu masala har qadamda uchraydigan o‘ta dolzarb mas'uliyat hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2020-yil 3-noyabr. www.lex.uz

2. Методологические вопросы эффективного использования ресурсов развития физической культуры и спорта У.Б. Турдубеков, А.С. Расулов, А.А. Исмоилов - GOLDEN BRAIN, 2023.

**3.** Jismoniy tarbiya va sport menejmenti [Mant]: darslik/ Yarashev K.D., ZiyadullayevK.Sh., BabajanovR.Y.-Toshkent. “O‘zkitobsavdonashriyoti”,2020

4. Nabiullin R.X. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. O‘quv qo‘llanma.-T., 201

# MAKTABLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI VA O‘ZIGA XOS USLUBIY JIHATLARI

**D.A.Ochilova,**
**A.Axmedova**
Samarqand shahar 81-maktab Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari:

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Sport menejmenti va sportda boshqaruv tizimining prinsiplari, menejmentda boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Prinsip, yetakchi, go‘ya ilmiylik prinsipi, markazlashgan boshqaruv, tizimlilik prinsipi, yaxlitlik prinsipi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются принципы спортивного менеджмента и системы управления в спорте, направленные на правильную организацию и осуществление управленческой деятельности в управлении.

**Ключевые слова:** принцип, лидер, принцип притворной научности, принцип централизованного управления, принцип системности, принцип целостности.

**Annotation:** this article focuses on the principles of the management system in sports management and sports, the correct organization and implementation of management activities in management.

**Keywords:** principle, leader, Goya principle of science, centralized management, principle of systemality, principle of integrity.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar qatori sportga, yoshlarni aqlan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yosh avlodning sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida bir qator choratadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tizimli ishlar olib borilmoqda. Yosh avlodni chiniqtirish, ularni jismonan sog‘lom qilib o‘stirishga maktab yoshidanoq e’tibor qaratiladi. Bunda, albatta, maktablarda o‘qitiladigan jismoniy tarbiya fanining o‘rni va ahamiyati nihoyatda katta. Zero, jism va aql sog‘lomligi bu inson taraqqiyotining asosidir.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktab yoshi harakatga o‘rgatish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo‘zg‘olishiga ega bo‘ladilar va shunga ko‘ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo‘lishi bilan ajralib turadilar. Maktabni tugallash davriga kelib o‘quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo‘ladilar. Bu o‘z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda turmushda, o‘zlarining sog‘ligini mustahkam-lashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo‘llay oladilar. Darsni yuqori saviyada o‘tkazish, dars davomida o‘quvchilar faolligini ta’minlash, beriladigan

vazifa, koʻrsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uygʻotish oʻqituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bogʻliqdir. Maxsus jismoniy tayyorgalikka umumiy vaqtning 10% ajaratilib, u asosan umumiy mashqlanaganlikni saqlab turish va maxsus mashqlanganlik va ish qobiliyatini oʻstirishga erishish bilan uzviy bogʻliqdir. Bunda asosiy e’tiborni ish qobiliyatini tez va toʻliq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan e’tibor tezkorlik, tezkor-kuchlilik va maxsus chidamkorlikni (ayniqsa sakrashda va zarbali harakatlarda) sifatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilishi kerak. Oʻrgatish uslublari yordamida, bilim, koʻnikma va malakalarni egallash, harakat qobiliyatlrini, irodaviy va ahloqiy sifatlarni rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Murabbiy mashgʻulotlarda u yoki bu harakat faoliyatini oʻrgatadi, tushuntiradi va koʻrsatadi, shugʻullanuvchilar esa uni egallab oladilar. Mashgʻulotlarda oʻrgatish uslublarini tanlashda, pedagogik vazifa, material mazmuni va oʻquvchilar tayyorgarligini e’tiborga olish lozim. Jismoniy tarbiya darslari va sport mashgʻulotlari jaryonida asosan uchta oʻrgatish uslublari mavjud bular: soʻz uslubi, koʻrgazmali uslub va amaliy uslublar. Soэz va koʻrgazmalilk uslublari bevosita harakatlarni amalda qoʻllash, ya’ni mashqlarni bajarish uchun zamin yaratadi. Barcha uslublar oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq holda kompleks qoʻllaniladi.  Ma’lumki, insonning jismoniy sifatlari uning tug„ilishidan boshlab shakllana boradi. Lekin, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni oʻzlashtirib olishi nafaqat uni oʻsib, yashab kelayotgan muhitga bogʻliq, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar yordamida rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatni turi, yoʻnalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga (kasb, rozgʻor ishi, sport, harbiy faoliyat va h.k.) qarab, har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidagi oʻrni turlicha boʻladi. Shunday boʻlsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati oʻziga xos ulushga ega boʻladi. Ammo qanday boʻlmasin, koʻpgina tadqiqotchilarning fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol koʻzga tashlanadi.

Maktabda jismoniy tarbiya darslarida oʻquvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oʻrganish va tahlil qilish Jismoniy tarbiya darslari jarayonida oʻquvchilargaturli sport turlarini oʻziga xos tizimli va metodikalardan foydalanib oʻquvchilarning kuch va qobiliyatlarini kompleks mashqlar orqali rivojlantirib borish ahamiyatlidir. Xususan, sport turlarini bajarishda eng avvalo, mashgʻulot usullarni oʻrni beqiyosdir. Mashq jarayonining asosiy vazifasibu – yuksak sport natijalariga erishish, shuning uchun uni hal etish maqsadida asosan sportchining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va funktsional imkoniyatlarini oshirishga yoʻnaltirilgan usullardan foydalaniladi.

Usulbu – sportchilarni tayyorlash bilan bogʻliq muayyan vazifalarni hal etish uchun mashgʻulot vositalaridan oqilona foydalanish yoʻlidir. Sport faoliyatida “usul”tushinchasidan tashqari “usuliy yoʻl”degan atama ham qoʻllaniladi. “Usuliy yoʻl”deganda mashgʻulot oʻtkazish jarayonlarini hisobga olgan holda muayyan

pedagogik vazifalarni hal etish uchun yoʻnaltirilgan vosita va usullar yigʻindisi tushuniladi.

Mashgʻulot uslubiyati atamasi mashgʻulotning muayyan vazifalarini hal etish hamda eng yuksak mashgʻulot samarasiga erishishga yoʻnaltirilgan vositalar, usullar va usuliy yoʻllar birligini ifodalaydi. Adabiyotlarda koʻpincha “usuliy yondashuv”va “usuliy yoʻnalish”kabi tushunchalar uchraydi.

Usuliy yondashuv-trenerning sportchiga taʼsir koʻrsatish yoʻllari birligini bildirib, bu yoʻllarning tanlanishi muayyan ilmiy kontseptsiya, tashkil etish mantiqi hamda oʻrgatish, tarbiya va rivojlantirish jarayonining amalga oshirilishi bilan bogʻliq.

Usuliy yoʻnalish-qoʻyilgan vazifani biror ustuvor omilning taʼsiri hisobiga hal etish imkonini beradigan bir turli, bir tipdagi topshiriqlar, usul va usuliy yoʻllardan foydalanishga yoʻnaltiradi.

Harakat faoliyatini aniq maqsadga yoʻnaltirib oʻrgatish trenerdan oʻrgatish usullari tavsiflarini bilishni talab etadi. Barcha usullar shartli ravishda uch asosiy guruhga boʻlinadi: soʻzdan foydalanish usullari (ogʻzaki), koʻrgazmali tarbiya usullari (koʻrgazmali) va amaliy usullar. Oʻz navbatida, uch guruhning har biri tarkibiga yana bir necha usul kiradi

Oʻrgatish usullari tasnifi

1.Bilimlarni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan usullar.

a. Soʻzdan foydalanadigan usullar.

b. hikoya qilish, tasvirlash, suhbat, tushuntirish, tahlil, koʻrsatma, hisoblab chiqish

2. Harakat malaka va koʻnikmalarining oʻzlashtirilishiga yoʻnaltirilgan usullar.

a. Koʻrgazmali oʻzlashtirish usullari,

b. Koʻrsatish, plakat, kinogramma,

s. video yozuvlar namoyish qilish, ovozli va yorugʻlikli namoyish,

d. qatʼiy chegaralangan mashq usuli, qismlarga boʻlib oʻrganish, yaxlit oʻrganish.

3.Harakat koʻnikmalarini takomillashtirish va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan usullar.

a. Amaliy usullar.

b. qisman chegaralangan mashq usullari.

s. oʻyin, musobaqa usullari.

Bilim egallashga yoʻnaltirilgan usullar**.** Bilim egallashga yoʻnaltirilgan usullar guruhini bilimlarni ogʻzaki tarzda hikoya qilish, tasvirlash, suhbat, tushuntirish va nutq orqali taʼsir koʻrsatishning boshqa shakllaridagi usullar tashkil etadi. Trener tomonidan qoʻllanadigan soʻzdan foydalaniladigan usullar butun oʻrgatish jarayonini faollashtiradi, harakat faoliyatlari toʻgʻrisida yana ham toʻla va aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida trener oʻquv-mashq materialini oʻzlash-tirish natijalarini tahlil etadi va baholaydi.

Bu usullar guruhi axborotni sezgi organlari vositasida uzatish va qabul qilish asosiga qurilgan (pertseptiv usullar). Bunda vestibulyar analizator, kinestezik

analizator, ko‘rish, eshitish va boshqa sezib qabul qilish tarmoqlari muhim rol’ o‘ynaydi. O‘rganilayotgan harakatlarning sezgilar asosidagi shakl-shamoyilini yaratishda ko‘rgazmali o‘zlashtirish usullari qo‘llaniladi. Ko‘rgazmali usul materialni juda tez, chuqur va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘rganilayotgan harakatlarga qiziqishni oshirib, diqqatni faollashtiradi.

Oldinda turgan harakat faoliyatlari umumiy tasvirini yaratish uchun sportchilar o‘ziga aytib turish va ideomotor usullaridan keng foydalanadilar. Ularning mohiyati shundaki, murakkab harakat faoliyatini, masalan, voleyboldagi hujum zarbasi yoki gimnastikadagi tayanib sakrashni bajarishdan avval sportchi ushbu mashqlarning texnikasini xayolan tasavvur qiladi (ideomotor usul), harakatlarni xayolan bajarish davomida harakatning bajarilayotgan elementlarini yo ovoz chiqarib, yo «ichida» o‘ziga aytib turadi. Bu usullar harakat faoliyatini tez o‘zlashtirish hamda takomillashtirishga imkon beradi, natijada o‘rgatish sifati oshadi. Harakat faoliyatlarini bajarish vaqtida ichki nutqni qo‘llashga asoslangan usullarni so‘z bilan o‘zini boshqarish usullari deyiladi. Ular anchayin turli-tuman bo‘lib, o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘zini ishontirish, o‘ziga singdirish va h.k tarzida amalga oshiriladi. Masalan, o‘z-o‘ziga buyruq berish o‘zicha shunday buyruqlarni talaffuz qilishni nazarda tutadi: «men masofani tezroq yugurib o‘tishim kerak», «men bellashuvda kuchliroq bo‘lishim kerak», «men o‘yin maydonchasida jonliroq bo‘lishim zarur» va b. Ichki nutqni o‘z harakatlarini boshqarish sirasiga kiritish o‘qitish-o‘rgatish jarayonini intellektuallashtiradi.

Harakat ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan usullar.Amaliy usullar sportchilarning o‘z faol harakatlariga asosangan. Ular shartli ravishda 2 guruhga bo‘linadi: qat’iy va qisman chegaralangan mashqlar  usuli. Ular harakat faoliyatini harakatlar shakli, yuklama hajmi, uning oshib borishi va dam olish bilan navbatlash va b. ni qat’iy chegaralagan holda ko‘p marotaba takrorlashga asoslanadi, buning natijasida alohida harakatlarni tanlab o‘zlashtirish, zarur harakat faoliyatlarini izchil ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mashg‘ulotning asosiy umumiy zahirasini qat’iy chegaralangan mashq usullari tizimi tashkil etadi. Harakat faoliyatlarini o‘rgatishda bular yaxlit va taqsimlangan usullardir.

Qismlarga bo‘lib yoki taqsimlab o‘rgatish usuli harakat faoliyatining alohida qismlarini dastlab o‘rgatib, keyin zarur yaxlit harakatni tiklashni ko‘zda tutadi. Mazkur usul ko‘p sonli elementlardan tashkil topgan murakkab muvofiqlashli harakat faoliyatiga o‘rgatishda qo‘llaniladi. Harakat faoliyatlarini taqsimlab o‘rgatish usuli asosida o‘rgatishda ayrim qoidalarga rioya qilish lozim:

- taqsimlash mazkur faoliyatning tuzilishini tubdan o‘zgartirib yubormasligi kerak;
- taqsimlashda o‘rganilayotgan faoliyat tuzilishining xususiyatlarini, shuningdek, shug‘ullanuvchilarning harakat tajribasini e’tiborga olish zarur;
- taqsimlashda o‘rganilayotgan mashqning barcha bosqichlari qamrab olinishi lozim.

To‘la o‘rgatish yoki yaxlit o‘rgatish usuli harakat faoliyatini o‘rgatishning yakuniy vazifasi qanday ko‘rinishda bo‘lsa, shunday o‘rganishni nazarda tutadi. Bu

usuldan koʻpincha oddiyroq, usuliy jihatdan qismlarga boʻlib oʻrgatish maqsadga muvofiq boʻlmagan mashqlarni va ayrim sodda harakatlarni oʻzlashtirishda foydalaniladi. Yaxlit oʻrgatish usuli maqsad qilib qoʻyilgan mashqqa tuzilish jihatdan qardosh boʻlgan, ammo oʻzlashtirilishi osonroq maxsus, tayyorlovchi va etishtiruvchi mashqlarni qoʻllashni koʻzda tutadi.

Qisman chegaralangan mashq usullari shugʻullanuvchilarning oʻz oldiga qoʻygan vazifalarni echish uchun faoliyatni nisbatan erkin tanlashi imkoniyatini beradi.

Harakat koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan usullar.Oʻrganilayotgan harakat faoliyatlarini takomillashtirishda jismoniy sifatlarni harakat tuzilishini oʻzgartirmay, oʻzaro bogʻliq ta’sir deb atalmish yoʻl bilan, ya’ni oʻzaro bogʻliq mashq usuli bilan ragʻbatlantirishga imkon beradigan qoʻshimcha yuklamali sharoitda faoliyatning yaxlit boshqarilishi bilan tavsiflanadigan usullar etakchi hisoblanadi. Masalan, kurashda asosiy turish holatidagi oshirib tashlashlarni takomillashtirishda ancha ogʻir vazn toifalaridagi sherik tanlanadi, bunda oshirib tashlashni bajarish texnikasi benuqson boʻlishi shart. Bu tezlik-kuch qobiliyatlarini oshirib tashlash texnikasini yaxshilash bilan birgalikda rivojlantirishga yordam beradi.

Harakat koʻnikmalarini takomillashtirish hamda jismoniy qobiliyatlarni yoʻnaltirib rivojlantirish bilan bogʻliq u yoki bu usulning mohiyati yuklamaning har bir oʻlchami: shiddati, davomiyligi, mashqlarni takrorlashlar soni, dam olishlar orasidagi muddat va dam olish xususiyatini boshqarish hamda oʻlchab berishning tanlangan yoʻli bilan muayyan darajada bogʻliq boʻladi.

Sportchilarning mas’uliyatli musobaqalarga tayyorlanishi jarayonida ularning kutilayotgan musobaqa faoliyatiga moslashuvi katta ahamiyatga ega. Buning uchun musobaqa mashqlarining xususiyatlarini mashgʻulot jarayonida hech boʻlmasa qisman modellashtirish zarur. Bunga musobaqa usulidan foydalanish orqali erishiladi. Musobaqa usuli jismoniy qobiliyatlar, irodaviy hamda ma’naviy sifatlarni rivojlantirish, texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish uchun qoʻllaniladi. Musobaqa usuli maxsus tashkil etilgan musobaqa faoliyatini nazarda tutadi, bu holda u oʻquv darslarining samaradorligini oshirish yoʻli hisoblanadi. Musobaqa usuli sportchilar faoliyatini gʻalabaga yoʻnaltiradi, u kuchaytirish hamda ragʻbatlantirish yoki musobaqa qoida-lariga rioya etgan holda yuksak natijalarga erishish variantlaridan biridir. Raqobat omili, shuningdek, musobaqalarni tashkil etish va oʻtkazish sharoitlari bor kuchning safarbar etilishiga koʻmaklashib, jismoniy imkoniyatlarning mumkin qadar namoyish etilishi uchun qulay vaziyatni yuzaga keltiradi.

# БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ УЧУН ҚИЗЛАР СПОРТИДА ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**Нормуродова Музаффара Адхамовна**
**Жумаев Асатулло Рузимуратович**
СамДЧТИ “Гуманитар фанлар ва ахборот технологияси”кафедраси

**Аннотатция:** Хотин қизлар спортида спортнинг ўз ўрнига эга эканлиги. Бу борада айнан уни истиқболли йўлга етакловчи жисмоний тайёргарлик бўлиб у техник тайёргарлик ҳолати ҳамда психологик тайёргарлик ҳолатлари орқали барча юқори натижаларга эришилади.

**Abstract:** The place of sports in women's sports. In this regard, it is physical training that leads him to a promising path, and all high results are achieved through the state of technical preparation and the state of psychological preparation.

**Аннотация:** Место спорта в женском спорте. В этом плане именно физическая подготовка выводит его на перспективный путь, а все высокие результаты достигаются за счет состояния технической подготовки и состояния психологической подготовки.

**Таянч иборалар:** жисмоний, техник тайёргарлик, психологик тайёргарлик, жисмоний ривожланиш, жисмоний машқлар

**Key words:** physical, technical preparation, psychological preparation, physical development, physical exercises

**Ключевые слова:** физическая, техническая подготовка, психологическая подготовка, физическое развитие, физические упражнения.

Хотин қизлар спортида организмни жисмоний имкониятларини ҳар томонлама ривожлантириш, соғлигини мустаҳкамлаш, жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик камчиликларини йўқотиш, ҳаракат потенциалини (шу жумладан, келгуси мутахассислигига мос келадиган) амалга ошириш.асосан, диққатни ёш спортчиларни мақсадга мувофиқ равишда кўп йиллик спорт тайёргарлигига қизиқиш уйғотишга қаратилади.Аввало ҳар бир спорт билан шуғулланувчи хотин-қизлар кундалик соғлом турмуш тарзига этибор берган ҳолда бу юкламалари бажаришлари лозимдир.

Соғлом турмуш тарзи бу инсоннинг ҳар кунлик кун тартиби, тўғри овқатланиш, ўз вақтида дам олиш барчаси соғлом турмуш тарзини йўналишларидан ҳисобланади. Бундан ташқари биз биламизки ҳар бир инсоннинг кундалик ҳаётида эътибор берадиган соғлом турмуш тарзида жисмоний машқларни ўз ўрни бор албатта. Жисмоний машқларни ўз вақтида бажариш қайсидир маънода ҳар бир инсонни яъни хотин қизлар спортида ҳам машқларни ўрнида бажарилиб борилиши  жисмонан соғломликга олиб боради.

Соғлом турмуш заминида хотин-қизлар спортининг истиқболли томонларидан бири жисмоний тайёргарликдир Жисмоний тайёргарликни йўналишига махсус машқларни кенг ҳажмда ҳар томонлама ишлатиши келгусида спортчини такомиллаштиришни яхши шарти бўлиб ҳисобланади.

Хотин – қизлар ҳам ҳар хил спорт турини материалига асосланиб техник тайёргарликка катта аҳамият беришлари лозим. Биз биламизки хотин-қизларнинг жисмоний тайёргарлиги ҳам тезкорликни, координация қобилиятларини ҳамда эгилувчанликни тарбиялашга қаратилади.Ҳар томонлама тайёргарликни давом эттириш (босқичнинг биринчи ярмида) кўпроқ мутахассислигига қаратилади.Спорт турларида максимал натижаларга эришиш ва максимал равишда фойдаланиш машғулотларни ҳажми ва шиддати қўшилган суммасимаксимал ҳаётга етади ва катта юкламали машғулотлар соникўпаяди.

Хотин – қизлар спортида машғулотлар сони 15-20 тагача етиши, психологик,тактик ва интеграл тайёргарликни салмоғи ошиши шарт. Шуниалоҳида эьтиборга олиш керакки, индивидуал имкониятларнимаксимал равишда амалга оширишда  хотин – қизларнинг оптимал ёш чегарасигатўғри келиши шарт. Бу ёш яъни ҳар бир инсон шу борада хотин қизларимизнинг ёш чегараси органларнинг ўсиш ва ривожланишига боғлиқдир. Бу ёш чегараси 25 ёш атрофида бўлиб ҳар бир органинг ривожланишига боғлиқ.   Босқичнинг давом этиш вақти спорт маҳоратининг ташкил топишига ёки алоҳида номерлар дастурининги тайёргарлигига боғлиқ. Масалан, 100-200м сузишда хотин-қизлар 1-3 йил йилликшиддатли қайта-қайта машқлардан кейингина халқаро мастерлик унвонига эга бўлиши мумкин. Олимпия уйинларига 2 йил қолганда бўлғуси  чемпиён хотин-қизларлар тайёргарлик босқичини 3соатга  оширади, бу тенденциябошқа ҳар бир спорт турларига ҳам боғлиқ.

Эришилган натижаларни сақлаш босқичида спортчига индивидуал ёндашиш билан характерланади. Индивидуал ёндашув ҳар бир хотин - қиз спортчиларимизни шахсий ёндашув, ўзи ҳар бир машқни мукаммал даражага эришишига ўз меҳнати билан эришишидир.

Ҳар бир хотин қизнинг  индивидуал ёндашуви қуйидагилар билан аниқланади.

Биринчидан, спортчининг катта тажрибаси (машққилиш ва мусобақа) ҳар хил шароитда чуқур билимни керакли воситаларни мусобақа фаолиятига керак бўлган услубларни тез аниқлаб олади. Қайсидир маънода тўғриким бу машқ қилиш хотин қизлар жисмоний тайёргарлигини негизидир. Албатта бу ҳар хил шароит тақозоси ўлароқ ишлатиладиган воситалар кўламига ҳам боғлиқлиги кўзда тутилмоқда.

Иккинчидан,ёшнинг ўзгариши органлар ва системалар олдинги даврдагиюқори юклама, бу босқичдаги юкламани кўпайтиришга айни шударажада ушлаб туришга йўл қуймайди.  Бу эса ҳар бир инсоннинг ваҳоланки хотин қизларнинг ҳам ёш ўтиши ёки ёш ўзгариши билан органлари ривожланиши юқори даражада энергияни алмашинувига ҳам  боғлиқдир.

Шунинг учун ҳам хотин – қизларимизда функционалпотенциал ва мослашиш имкониятлари пасаяди. Биз биламизки бу шахсий маҳоратни ошириш учун индивидуал заҳираларниизлашни талаб қилади.

Шуни билишимиз лозимки функционал имкониятларни эришилган даражада олдингиёки кичикрок машғулот ҳажмида ушлаб туришни қуйидаги йўналишлари мавжуб бўлиб улар қуйидагилар:

- техник маҳоратни такомиллаштиришни;
- психологик тайёргарликни оширишни;

Техник маҳорат спорчи қизларнинг ҳар бири бажарадиган машқлари қайсидир маънода осон бажариладиган ҳолатга келиши. Спортчи учун қулай бўлгунча машқни бажара олиш бу қайсидир маънода ўз маҳоратини такомиллаштиришдир.

Психологик маҳорат бу ҳар бир спортчи айнан спорт машқларини мукаммал билиши билан бир қаторда психик томонидан тайёр бўлиши ҳам ўз ўрнига эга. Айнан ўзининг тайёргарлик даражаси юқори бўлиши учун ўз ҳолатини бошқара оладиган бўлиши лозим.

Юқоридаги ҳолатларни эътиборга олган ҳолда жисмоний ва функционал тайёргарликдаги айрим хатоларни йўқотишда шуни ҳисобга олиш керакки, кўп йиллик тайёргарликни бу босқичдаги спортчи ҳар хил машғулот воситаларига кўникишдир.

Шунинг учун олдинги даврдаги режалаштириш, восита ва услублар билан спорт натижаларини ушлаб туриб бўлмагани учун машғулотларнинг янги шакллари ва услубини топишга тўғри келади. Бу босқич шу билан характерланадики, 17-20 ёшли ёш спортчи хотин - қизларимиз ва 30-35 ёшга кирган хотин - қизлар спортчилар мусобақага қатнашадилар. Бу эса ёшлик (юқори даражадаги жисмоний тайёргарликни) даврида эришган натижаларини ҳамда ҳаёти давомида еришган катта мусобақа фаолиятига эга бўлган тажрибаларни бирлаштиради. Хотин – қизларнинг кўп йиллик тайёргарлиги жараёнида юкламалар динамикаси ва ҳар хил геракли ишларнинг нисбати кўп йиллик тайёргарлик жараёнини рационал тузиш учун уни ҳар хил турларини мақсадга мувофиқ равишда нисбатини аниқлаш зарур.

Хотин – қизлар спортининг бошланғич тайёргарлик босқичида асосий жойни умумий ва ёрдамчи тайёргарликлари эгаллайди. Дастлабки жисмоний тайёргарликда базали тайёргарлик ҳажми ошади ва бу хотин қизлар жисмоний тайёргарлигининг умумий машғулот ҳажмини 80-90% ташкил қилади. Махсус тайёргарлик эса 15% атрофида бўлади. Хотин қизлар жисмоний тайёргарлигининг махсус базали тайёргарлик босқичида махсус тайёргарликни салмоғи ошади ва умумий тайёргарлик камаяди.

Индивидуал имкониятларни максимал равишда амалга ошириш босқичида махсус тайёргарлик 60% га ва ундан ортиқ фоизни ташкил қилади. Эришилган натижаларни сақлаш босқичида умумий тайёргарлик минимумгача туширилади. Бу эса хотин қизлар спортида ўз фаолиятининг ошириш имкониятини берибгина қолмай айни пайтда мусобақа жараёнида ижобий натижалар имконияти ҳамдир.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки ҳозирги даврда хотин-қизлар спортида жисмоний тайёргарликнинг ўрни беқиёсдир. Жисмоний тайёргарлик

ҳар бир босқичи бу спортининг қадамма-қадам кўриниши ларидан ҳисобланади. Бу борада жисмоний тайёргарликни ҳар бир босқичи спортчи хотин-қизларимизнинг юқори натижаларга эришиш пойдевори ҳамдир.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Матвеев Л. П. Основы общей теории спорта и системы подготовка спортеменов. К. Олимпийская литература. 1999 г. 320 с.

2. Холодов Ш. К. Кузнцов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта . М. Академия,2000 г. 480 с.

3. Ш.Т.Искандарова, Н.М.Махмудова, Г.А.Джалилова Жамоат саломатлиги, соғлиқни сақлашни ташкиллаштириш ва бошқариш. Тошкент 2011 й

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **1 - SHO‘BA. YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O‘RNI** | | |
| 1 | Veterinariya fanlarini o‘qitishda o‘qitish metodlarini mutaxassislik fanlaridan dars o‘tishga moslashtirish<br>Narziyeva N.N.<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD) | 3-7 |
| 2 | «Нулевой» перевод реалий (по романам с. Шелдона)<br>Вековищева С.Н.<br>Московский государственный областной университет, Москва, Россия | 8-12 |
| 3 | Talaba yoshlarning ta’lim va tarbiyasida hadislarning ahamiyati<br>Ro‘ziqulov R.F.<br>Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti - o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, professor v.b. | 13-16 |
| 4 | Yangi avlod kadrlarini tayyorlashda  oila, badiiy madaniyatning falsafiy jihatlari<br>Aliqulov Quvvat Haqnazarovich SamISI dots.f.f.d.(PhD) | 17-21 |
| 5 | Философский анализ «гедонистического императива» дэвида пирса<br>Насруллаева Мохигуль Сухробовна<br>Самаркандский государственный институт иностранных языков, докторант кафедры Гуманитарных наук и информационных технологий | 22-24 |
| 6 | Экологическое обрзования в формирование педогогических и психологических конпетенции.<br>Абдуазимова З.А.<br>Правоохранительная академия Узбекистана кафедра “Социально-гуманитарных наук” старшый преподаватель | 25-29 |
| 7 | Жадидларнинг сиёсий қарашлари ҳақида мулоҳазалар<br>Усанов Равшан Тураявич,<br>Академик Бобожон Ғафуров номидаги Хужанд давлат университети маданиятшунослик кафедраси доценти | 30-38 |
| 8 | Yangi o‘zbekiston yoshlarining tabiatga munosabatini yaxshilash zarurati obod turmushimizning muhim kafolati<br>Aymatov A.Q.<br>Sharof  Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Pedogogika va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani F.f.b. fan doktori (DSc) dotsent<br>Sattorov M.D.<br>Samarqand davlat veternariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi f.f.b.f.d. (Phd) | 39-47 |
| 9 | Экологик туризм ўзбекистон халқаро имиджини юксалтиришнинг муҳим омили<br>Хашимов Ш.Ж.<br>Ф.ф.б.ф.д. (PhD), доцент, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти | 48-51 |
| 10 | Mehnatda yoshlarning ekologik madaniyati bilan axloqiy-estetik ong imkoniyatlari dialektikasi<br>Xushvaqtov Alisher Ashirboy o‘g‘li<br>Respublika ma’naviyat va marifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchi tadqiqotchisi | 52-60 |
| 11 | Enhancing esp course delivery through the kaizen method: a continuous improvement approach | 61-63 |

| | | |
|---|---|---|
| | Khabirova Zulfiya Anvarbekovna<br>Ajou University in Tashkent ESP Teacher | |
| 12 | Mavlono muhammad qozining olam va odamni bilish haqidagi qarashlari.<br>Xurshid Ulmasjonovich Samatov<br>Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali gumantar va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)<br>Alimov Mansur Narboyevich<br>SamDVMCHBU akademik litsey o‘qituvchisi SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi | 64-67 |
| 13 | XX asr 50-yillarda xalq ta’lim tizimida xotin-qizlarning ulushi (samarqand hududi misolida)<br>Mardiyeva Go‘zal Karimovna<br>Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti, SamDU tadqiqotchisi. | 68-70 |
| 14 | Компьютерли виртуал реалликнинг таълимдаги аҳамияти<br>Муҳамадиев Ҳусан Ҳамроқулович<br>Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Самарқанд филиали Гуманитар ва ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси | 71-75 |
| 15 | Xorijiy tillarni o‘qitishda integratsion aloqalardan foydalanish mexanizmi<br>Norova Nargiza Xalmamat qizi<br>Nukus davlat pedagogika instituti 13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ichta’lim) mutaxasisligi II bosqich tayanch doktoranti | 76-78 |
| 16 | “Farzand” konseptining lisoniy voqelanishi<br>Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi<br>Namangan davlat universiteti O‘zbek tili ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti | 79-82 |
| 17 | Boshlang‘ich ta’limda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati<br>Rozmamatova Mexriniso Xudoynazar qizi.<br>Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal’a pedogogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi | 83-84 |
| 18 | Ахборотлашган жамият ва глобаллашув шароитида ёшлар тафаккурини шакллантиришнинг маънавий ахлоқий масалалари<br>С.Т.Абдуллаев<br>Самарқанд давлат университети. Социология ва ижтимоий иш кафедраси доценти. | 85-89 |
| 19 | Sovet davlatining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligida o‘zbekiston fanlar akademiyasining o‘rni<br>Sarvar Tulkinovich Axmedov<br>Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti, Qarshi axborot texnologiyalari va menejment universiteti katta o‘qituvchisi. | 90-93 |
| 20 | Тарихий манбаларда ўрта осиё халқларининг ветеринария хизмати тарихи<br>Джамила Бадридиновна Сайфудинова<br>Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси катта ўқитувчиси | 94-98 |
| 21 | Migrantlar madaniy adaptatsiyasining falsafiy-axloqiy tahlili<br>Halimov Sherzod Igamberdiyevich<br>Samarqand davlat chet tillar instituti Tadqiqotchisi | 99-101 |
| 22 | Yangi o‘zbekistonda veterinariya va chorvachilik sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar<br>Shaxzod Farxod o‘g‘li Axmedov<br>O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti | 102-106 |
| 23 | Ma’naviy tahdid va qarshi targ‘ibot<br>Vahabov M.T. | 107-109 |

| | | |
|---|---|---|
| | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi | |
| 24 | Yoshlarda estetik madaniyat shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar<br>Suvanova Dilnura Kurbanovna<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi assistenti | 110-114 |
| 25 | Ҳусайн воиз кошифийнинг кураш санъати ҳақида<br>Азизкулов Акрам Абдурахмонович<br>Фалсафа фанлари номзоди,  доцент. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти Ижтимоий фанлар кафедраси мудири<br>Алимов Акбар Нарбоевич<br>Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ижтимоий фанлар кафедраси доценти | 115-117 |
| 26 | Iqtisodiy madaniyat barqarorlikni ta’minlashda iqtisodiy xulq-atvorni o‘rni.<br>Djuraev Lukmon Narzullaevich<br>Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi DSc dotsenti | 118-121 |
| 27 | Yangi o‘zbekistonda yoshlar salomatligini mustahkamlashda ta’lim tizimi va oilaviy tarbiyaning roli.<br>Ro‘zimurodov Siroj Madatovich<br>SamISI, ijtimoiy fanlar kafedrasi kafedrasi (PhD) dotsenti. | 122-124 |
| 28 | O‘zbekiston - Qozog‘iston: ma’naviy - madaniy hamkorlikning yangi bosqichi<br>Sa’dullayev S.S<br>Samarkand state university of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnology | 125-128 |
| 29 | Tabiat sirlarini kashf etishda tabiiy va ijtimoiy fanlar dialektikasi<br>Qulboyev Zohid Xo‘jamuradovich<br>O‘rinov Shuhrat Suyunovich<br>Jizzax politexnika instituti, Jizzax shahri | 129-132 |
| 30 | Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида мактаб таълими соҳаси ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш борасида амалга оширилган тадбирлар<br>Абдуллоев Шерқўзи Ахматбобоевич<br>Самарқанд Давлат Университети таянч докторанти. | 133-137 |
| 31 | Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда ўзбекистонда ветеринария соҳасида амалга оширилган тарғибот ишлари<br>Самиев Абдулло Яшинович<br>Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети «Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси» тарих фани ўқитувчиси<br>Сулайманова Дурдона Зохид қизи.<br>Ветеринария профилактикаси ва даволаш факультети "Ветеринария медицинаси" таълим йўналиши 209-гуруҳ талабаси | 138-142 |
| 32 | From the history of samarkand universitet of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnologies: history of the first half of the xx century<br>Namazova Umida Normurodovna<br>Samarkand State University | 143-147 |
| 33 | Синтоизм-табиатга ва аждодлар руҳига сиғинишнинг фалсафий асослари.<br>Абдумалик Абдураззоков<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti dotsent, f.f.n | 148-150 |
| 34 | Samarqand eroniylarining marosimlari tarixidan | 151-154 |

| | | |
|---|---|---|
| | Nurboev Q.A.<br>SamDU tayanch doktoranti | |
| 35 | Методология развития духовно-просветительской деятельности молодежи<br>Исмаилов Дилшод Бахриддинович<br>Независимый исследователь Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения | 155-158 |
| 36 | Семейные проблемы в научном и культурном наследии мыслителей востока<br>Бурханова Мавжуда Бекбутаевна<br>Преподаватель кафедры психологии Чирчикского государственного педагогического университета | 159-161 |
| 37 | Yangi oʻzbekistonda yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish masalalari<br>Xoʻjamqulov Adham Qoʻchqor oʻgʻli<br>SamDU tayanch doktoranti | 162-164 |
| 38 | Yoshlarning ijtimoiy faollik darajasini oshirishning oʻziga xos xususiyatlari<br>Shamsiyev Shohruz Yoʻldosh oʻgʻli<br>Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti, Ma’naviy-ma'rifiy va yoshlar masalalari boʻyicha dekan oʻrinbosari. | 165-174 |
| 39 | Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash<br>Sultanova Ozoda Rajabovna<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, madaniyat jismoniy tarbiya va sport kafedrasi oʻqituvchisi | 175-178 |
| 40 | Samarqandning rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga oid ayrim mulohazalar<br>Sherzod Tangirov Abduraxmonovich<br>Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti | 179-184 |
| 41 | Глобаллашувнинг тиллар ривожига таъсири<br>Бозоров Мустафо Жабборович<br>Фалсафа фанлари номзоди, доцент. Самарқанд давлат чет тиллар интитути, Гуманитар фанлар ва ахборот технологиялар кафедраси | 185-188 |
| 42 | Жамиятни маънавий юксалтиришга ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрнига оид баъзи масалалар<br>Л.Ў.Жамолов<br>О.Т.Турғунбоев<br>Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети «Ижтимоий-гуманитар фанлар, жисмоний маданият ва спорт кафедраси» | 189-192 |
| 43 | Boʻlgʻusi veterinar mutaxassislarini axloqiy tarbiyalashda milliy-ma’naviy meros va tarixiy qadriyatlarning oʻrni<br>Sa’dullayev Sanjar<br>Fayzullayev Umidjon Rahmatullayevich<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti | 193-195 |
| 44 | Yangi davrda samarqand shahri muqaddas qadamjolari qiyofasining oʻzgarishi va ularning tasnifi<br>Tursunov Javlon Akrom oʻgʻli<br>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti | 196-197 |
| 45 | Turkiston oʻlkasida vaqf mulklarining holati (F.K.Girsning taftish xulosalari asosida)<br>B.Gʻ. Rasulov<br>Oʻzbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Boshlangʻich ta’lim va gumanitar fanlar fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi assistenti | 198-202 |

| | | |
|---|---|---|
| **2 - SHOʻBA. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TARAQQIYOTI HAMDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** | | |
| 46 | Leksikologiyaga doir oʻquv materiallar mazmuni va oʻquvchilarda leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy modeli<br>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi<br>Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi | 203-205 |
| 47 | Turkiston general-gubernatorligi bojxona tizimi tarixi va uning ichki qoidalari.<br>Ernazarov Tuygʻun Rajabovich<br>Samarqand davlat universiteti doktoranti | 206-210 |
| 48 | Lingvistik muloqot madaniyati mazmuni va tushunchasi<br>M.E.Tursunova<br>Samarqand davlat universiteti doktoranti | 211-213 |
| 49 | Перфект ва имперфектоп позициясининг матндаги вазифалари<br>Кудратов Лазиз<br>Самарқанд давлат чет тиллар институти Инглиз тили лексикологияси ва стилистикаси кафедраси ўқитувчиси | 214-216 |
| 50 | New period and social historical aspects of language development in the republic of uzbekistan<br>Kholikulova Khulkar Yuldashevna.<br>Senior teacher of social gumanitarian sciences of law enforcement academy of Uzbekistan. | 217-220 |
| 51 | USMON AZIM DRAMATURGIYASIDA DRAMATIK JANRLAR RANG-BARANGLIGI<br>Islomov Jurabek Soxibnazarovich<br>SamDU tayanch doktaranti. | 221-225 |
| 52 | Antroponimlarning onomastikada tutgan oʻrni<br>Uktamova Nigina Nozir qizi<br>Sharof Rashidov nomidagi SamDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi | 226-228 |
| **3 - SHOʻBA. XORIJIY TILLARNI OʻQITISHDA INTERFAOL METODLARGA USTUVORLIK BERISHNING AHAMIYATI** | | |
| 53 | Talabalarning ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mazmunining tahlili (kimyo yoʻnalishi misolida)<br>Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi<br>Namangan davlat universiteti doktoranti | 229-232 |
| **4 - SHOʻBA. BOʻLAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING AHAMIYATI** | | |
| 54 | Oliy ta'limda talabalarga futbol oʻyini va hakamlik qilish qoidalarini oʻrgatish.<br>Mirzayev A'zam Xudaynazarovich<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti<br>Ijtimoiy-gumanitar fanlar,madaniyat jismoniy tarbiya va sport kafedrasi katta oʻqituvchisi | 233-235 |
| 55 | Yosh avlodni tarbiyalashda milliy harakatli oʻyinlardan foydalanishni oʻziga xos xususiyatlari<br>A.B.Tuvalov<br>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti<br>Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta oʻqituvchisi | 236-239 |
| 56 | Sport menejmentida boshqaruv prinsiplari<br>Rasulov Anvar Saidmurod oʻgʻli<br>OʻzDJTSU "Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrasi oʻqituvchisi<br>Oʻktamov Nozimbek Nozir oʻgʻli<br>MN-51-20 guruh talabasi | 240-244 |

| | | |
|---|---|---|
| | Robbimov Islombek Abbos o‘g‘li<br>MN-52-23 guruh talabasi<br>O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,<br>Chirchiq shahri, O‘zbekiston | |
| 57 | Maktablarda jismoniy tarbiya darslarini o‘qitishning ahamiyati va o‘ziga xos uslubiy jihatlari<br>D.A.Ochilova,<br>A.Axmedova<br>Samarqand shahar 81-maktab Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari: | 245-249 |
| 58 | Бўлажак мутахассисларни тайёрлаш учун қизлар спортида жисмоний тайёргарликнинг истиқболлари<br>Нормуродова Музаффара Адхамовна<br>Жумаев Асатулло Рузимуратович<br>СамДЧТИ “Гуманитар фанлар ва ахборот технологияси”кафедраси | 250-253 |

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI”**

**MAVZUSIDAGI**
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**
**TO‘PLAMI**

Bosishga ruxsat etildi 15.04.2024
Bichimi 210x297, «Times New Roman»
garniturasi. Raqamli bosma usulida bosildi.
Adadi 100 dona. Buyurtma: № 11/24

Nashriyot guvohnomasi № 035928

“SHUHRAT MENGLIYEV” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh., M.Ulug‘bek ko‘chasi, 101-uy
(94) 572-04-07